

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**A.T.Mardonova**

**PUL VA BANKLAR**

**SAMARQAND - 2021**

UDK 336.7 (575.1)  
BBK 65.9  
M 26

**Mardonova A.T. Pul va banklar.** O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021 yil, 216 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning mohiyati va funktsiyalari, uning iqtisodiyotdagi roli, pul tizimi va uning tarkibiy qismlari, pul aylanishi, O'zbekiston Respublikasining pul tizimi, inflyasiya, uning turlari va kelib chiqish sabablari, kredit, uning funktsiyalari va kredining rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari, banklar va bank operatsiyalarining olib borilishi kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Banklarning investision faoliyati va banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlash eng so'nggi o'zgarishlarni hisobga olgan holda bayon etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma 5230100 – iqtisodiyot (tarmoqlar bo'yicha), 5111000 – kasb ta'limi, 5231700 – kadrlar menejmenti ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayyorlanadigan talabalariga mo'ljallangan bo'lib, "Pul va banklar" fanining o'quv dasturi asosida yaratilgan.

**Taqrizchilar:** SamDU Inson resurslarini boshqarish fakulteti  
Raqamli iqtisodiyot kafedrasini professori: i.f.d.  
**B.Sh.Safarov**

SamISI "Iqtisodiyot" fakulteti dekani dots.  
**Sh.Islomov**

*SamDU Kengashining 2021 yil 30 noyabrdagi 5-sonli qarori bilan nashrga ruxsat berilgan.*

## Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish jarayonlari iqtisodiyotda bozor munosabatlarini qaror toptirish, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti darajasi qatoriga chiqarish dolzarb omillardan bo'lgan pul, kredit va banklar tizimida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Shuningdek, bank-moliya tizimining ahamiyati ham tubdan o'zgarmoqda. Chunki, bozor munosabatlarini boshqarish sohasida davlat tomonidan olib boriladigan barcha ishlarning og'irlik markazi ana shu tizimlarga ko'chdi. Shu sababli, bank tizimini takomillashtirish, banklarning mustaqilligini va pul muomalasidagi ahvol uchun javobgarligini oshirish, pul-kredit munosabatlarini tartibga solish, so'mning barqarorligi va yuksak nufuzini ta'minlash sohasidagi muammolarni o'rganish o'ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ning "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlanuvchi III yo'nalishida ham:

- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish masalalari alohida ko'rsatib o'tilgan.

Har bir jamiyatda bank tizimi iqtisodiyotning muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarixan tovar ishlab chiqarish va muomala jarayonining rivojlanishi banklarning rivojlanishi bilan o'zaro bogliq xolda taraqqiy qilib borgan. Banklar xo'jaliklarga kredit berish, korxonalar, tashkilotlar o'rtasida xisob-kitoblarni o'tkazish jarayoni, kapital harakatida vositachi sifatida maydonga chiqadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimida katta tarkibiy o'zgarishlar yuzaga keldi va banklarning tarkibi va ular bajaradigan funktsiyalar hamda ularga yuklangan vazifalarning mohiyati va sifati o'zgarib bormoqda. Bozor munosabatlari sharoitida ishlash banklardan yangi xizmat turlarini tatbiq qilishni, mijozlarning qizi-qishlarini hisobga olishni, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy qilishni, yangi kredit vositalarini bank faoliyatida qo'llashni, turli xil kredit institutlarining barpo qilinishni taqozo qilmoqda. Bozor iqtisodiyoti banklarning o'rni hamda faoliyatining muhimligi, pul, pul muomalasi va bank tizimining takomillashib borishini, shu sohada malakali kadrlar tayyorlashni va mavjud muammolar yechimini topishni taqozo qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Pul va banklar" kursining o'quv dasturi asosida yaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalish sohalariga taalluqli bo'lgan mavzularni o'z ichiga oladi. Bu qo'llanmada bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan iqtisodiy

kategoriyalar va ularga taalluqli bo'lgan masalalar ko'rib chiqildi. Bu kurs iqtisodiy fanlarni aniq mustaqil yo'nalishlaridan bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlarining maxsus bo'limi – pul, kredit, banklar bilan bog'liq sohalardagi iqtisodiy munosabatlarning ifodasini o'zida aks ettiradi.

Ushbu o'quv qo'llanma Davlat Oliy ta'lim standarti talablariga muvofiq Toshkent Moliya institutida “Pul va banklar” fani bo'yicha ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2018 yil 14 iyunda tasdiqlangan va 2018 yil 26 mayda № BD 5230700-3.08 bilan ro'yxatga olingan O'quv fan dasturiga muvofiq tayyorlangan.”Iqtisod” ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasiga muvofiq “Pul va banklar” fani shu yo'nalaishdagi 3-kurs talabalari uchun Y semestrda 34 soat ma'ruza va 34 soat amaliy mashg'ulotlar shaklida o'tiladi.

Qo'llanmada bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasi va kreditning rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari, banklar va bank operatsiyalarining olib borilishi kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

O'quv qo'llanmadan iqtisodiyot yo'nalishi talabalari, o'qituvchilari, aspirantlar, magistrantlar, bank, moliya tizimi xodimlari hamda pul – kredit tizimi va banklar faoliyatini o'rganishni hohlovchilar ham foydalanishi mumkin.

## **I.Bob.pulning paydo bo‘lishi, zarurligi va funktsiyalari**

### **1.1. "Pul va banklar" fanining predmeti va vazifalari**

Pul va banklar uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanishning natijasi bo‘lib, zamonaviy sivilizatsiyaning muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning amal qilishi ijtimoiy maxsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol qilish jarayonlarining uzluksizligini ta‘minlash imkonini beradi. Shu sababli, pul va banklarni alohida fan sifatida o‘rganish zaruriyati yuzaga keldi. Zero dunyoning barcha mamlakatlarida iqtisodiyotning samarali o‘sishi banklarning moliyaviy barqarorligini oshishi hamda tijorat banklari tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga ko‘pdan bog‘liq bolgani uchun fanning oliy malakali kadrlarni tayyorlashda o‘rni beqiyosdir.

Fanda pul va banklar kategoriyalarining paydo bo‘lishi va ularning evolyutsiyasi, pul nazariyalarining mohiyati, asoschilari va namoyondalari, pul aylanmasi tushunchasining mohiyati, pul muomalasi va uni tashkil qilish asoslari, pul tizimining mazmuni va uni tashkil qilish asoslari, inflyatsiya va uning yuzaga kelish sabablari, kredit tushunchasi va uning zarurligi, kredit munosabatlari yuzaga kelishining sabablari va shart-sharoitlari, banklarning dastlabki operatsiyalari, Markaziy banklarning yuzaga kelish sabablari, maqsadi va tashkiliy tuzilishi, tijorat banklari faoliyatining tashkiliy asoslari, tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalari, nobank moliya-kredit tashkilotlari va ular faoliyatining zarurligi, kredit tizimi va uning tarkibi, valyuta munosabatlari asoslari va xalqaro moliya institutlari faoliyatiga doir g‘oyalar, atama va tushunchalar, nazariy qarashlar, kontseptsiya va modellar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub, yo‘sinlar va shu kabi boshqa atributlarni tizimli va kompleks ravishda mujassamlashtiruvchi ilmiy-nazariy va metodologik asoslar uzviylik va uzluksizlik tamoyillari nuqtai nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o‘z aksini topgan.

Pul va banklar kursi iqtisod va moliya yo‘nalishlar uchun eng asosiy tayanch fanlardan biri sanaladi. Kursni o‘rganish jarayonida pul munosabatlarini iqtisodiy asoslash, kredit va to‘lov tizimining tashkiliy va iqtisodiy asosi, bank faoliyati bo‘yicha qarorlarni iqtisodiy va tashkiliy o‘rganishning ilg‘or shakllari va usullarini ishlab chiqish, bank faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy me‘yorlar hisob-kitobi, ularni baholash, tashkil qilish va takliflar ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

“Pul va banklar” fanining predmeti bo‘lib mikro va makro darajadagi pul, kredit va banklar bo‘yicha munosabatlar, ularga tegishli qonuniyatlar hisoblanadi.

Pul va banklar fanining maqsadi talabalarga pulning zarurligi, mohiyati, pul nazariyalari va pul aylanmasi, kredit va kredit munosabatlari, banklar va bank tizimi, valyutalarning xalqaro miqyosdagi harakatini tashkil qilish bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.

Pul va banklar fanining vazifasi pulning kelib chiqishi va zarurligi, pulning mohiyati va pul muomalasi qonunlari, pul aylanmasi va pul tizimi, kreditning mohiyati va prinsiplari, kreditning shakllari va turlari, bank tizimining mohiyati,

xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish asoslari xususidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganishdan iborat.

“Pul va banklar” fani fundamental, nazariy fanlarning biri bo'lib, boshqa iqtisodiy va mutaxassislik fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu fan orqali talabalar zamonaviy pul, kredit nazariyasi va banklar faoliyatini, shuningdek, banklar tomonidan pul muomalasini boshqarishning nazariy asoslarini va amaliy uslublarini o'rganadilar.

## **I.2. Pulning mohiyati va zaruriyligi**

Har bir iqtisodiy kategoriyada amal qiluvchi hamda mamlakat rivojlanishining asosiy dastaklaridan biri pul bo'lib, xozirgi bozor munosabatlari toboro chuqurlashib borayotgan sharoitida pulning mavqei va ahamiyati yanada oshib boradi. Darhaqiqat, pul - "bozor tili" deb bekorga aytishmagan. Har bir iqtisodiy axborot, tovarlar va xizmatlar bahosi, to'lovlar, daromadlar va xarajatlar, moliyaviy talablar va majburiyatlar, iqtisodiy aloqalar makro va mikro darajalarda faqat pulda ifoda qilinadi.

Pulning iqtisodiy mohiyati va uning zaruriyatiga xorij iqtisodchilari alohida e'tibor qaratgan bo'lmasalarada<sup>1</sup>, iqtisodiy nazariyachilarning asarlarida unga nisbatan berilgan fikrlarini uchratish mumkin. Masalan, A.Smit pulni iqtisodiy kategoriya darajasiga ko'tarib, unga “pul – bu muomalaning buyuk g'ildiragi“, “savdo sotiqning yuksak quroli” sifatida ta'rif beradi<sup>2</sup>. D.Yum A.Smitning pul xususidagi qarashlariga e'tiroz bildirib, “Pul bu – savdo – sotiqning g'ildiragi emas, balki u yog'i, shu savdo – sotiq g'ildiragini erkin va yumshoq yurishiga imkoniyat yaratadigan vositadir” degan fikrni bildiradi<sup>3</sup>.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham pulning iqtisodiy mohiyatiga alohida e'tibor qaratishgan. Jumladan, iqtisod fanlari doktori, professor B.I.Sokolov pulning mohiyatiga “pul mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayirboshlash va to'lovlarni amalga oshirish ishlarini yengillashtiradi” deya ta'kidlaydi<sup>4</sup>. O'zbekistonlik iqtisodchi olim Sh.Z.Abdullayeva o'zining pul, kredit va banklar masalasiga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlarida pulning mohiyatini ochishda uchta jihatga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. “Birinchi, pulning iste'mol qiymatida boshqa tovarlarning qiymati o'z aksini topadi. Ikkinchi, pulda ifodalanadigan aniq mehnat asosini abstrakt mehnat tashkil etadi. Uchinchi, pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo'ladi. Shunga asoslangan xolda, pul ham tovar, lekin boshqa tovarlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo'lgan maxsus tovar degan xulosaga kelish mumkin”<sup>5</sup>.

---

<sup>1</sup> Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. –T.: “Iqtisod – moliya”, 2007, 8 – b.

<sup>2</sup> Смит А. Исследования природы и причинах богатства народов. Том 1. –С.418, 421.

<sup>3</sup> Юм Д. Опыт. –М.: Издание К.Т.Солдатенкова, 1986. –С.20.

<sup>4</sup> Соколов Б.И. Деньги, кредит и банки. Учебник. –М.: ТК Вебли, Изд – во. Проспект, 2008

<sup>5</sup> Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. –T.: “Iqtisod – moliya”, 2007, 8 – b.

Iqtisod fanlari doktori, professor O'.Yu.Rashidov va boshqalar ishtirokida nashrdan chiqarilgan darslikda "Pul – bu umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi. Pul – bu boshqa ne'matlarning qimmatini o'lchash vositasi (umumiy ekvivalent) yoki ayirboshlashda hisob – kitoblarni amalga oshirish vositasi funktsiyalarini bajaruvchi ne'matdir. Pul – bu mutloq likvidlikka ega bo'lgan ne'matdir. Pul – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, odamlar o'rtasidagi munosabatlar unda namoyon bo'ladi va uning yordamida quriladi. Pulning maqsadi bozorga oid o'zaro harakatlarning transaksion harajatlarini tejashdan iborat"<sup>6</sup>.

Pulning iqtisodiy mohiyati xususida fikrlarni eramizdan oldingi davrda yashagan Aristotel' (er.oldingi 384 – 322 yy.), keyinchalik sarkarda Aleksandr Makedonskiy kabi buyuk shaxslar tomonidan qoldirgan manbalarda ham ko'rish mumkin<sup>7</sup>. Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki, pulning mohiyatiga xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, mutaxassislar va nazariyachilar o'zlarining yondashuvlarini bildirgan. Biz ularning ushbu fikr va yondashuvlarini tadqiq qilish maqsadidan yiroqmiz<sup>8</sup>.

Mamlakat rivojlanishining asosiy vositalaridan biri pul bo'lib, bozor iqtisodiyotini muhim omilini tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti pul bilan tirik, chunki takror ishlab chiqarish jarayonining barchasida pul vositachilik qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar va xizmatlarning ishlab chiqarishdan boshlab iste'molchigacha bo'lgan jarayon pul vositasida amalga oshadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomilasini uyushtirish, tovarlarni ayirboshlash, pullarni saqlash va taqsimlash, bo'sh pulni qarzga berish, korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yanada kuchayib, murakkablashib boradi. Pul shaklidagi mablag'lar bozor orqali resursga aylanadi va ular ishtirokida tovarlar yaratiladi, tovarlar sotilib yana pulga aylanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat pul, balki uning ekvivalentlaridan – aktsiya, obligatsiya kabi qimmatli qog'ozlar va boshqalardan ham keng foydalaniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ilgari pulga aylantirilmagan ayrim vositalar ham endi pulda o'z aksini topadi (yer va boshqalar). Umuman bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyasini tashkil etish, pulni aylanishi, umuman xo'jaliklar faoliyatini tashkil etilishi yangi pul munosabatlari asosida tashkil etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib bozor iqtisodiyoti sharoitida pul iqtisodiy quvvat, iqtisodiyotning o'ziga xos tashrif qog'ozi bo'lib xizmat qiladi, u bozor iqtisodiyotining tani-yu joni hisoblanadi.

Xozirgi bozor munosabatlari sharoitida pulning ahamiyatining oshishi shundaki, jamiyatimizda mavjud yuridik va jismoniy shaxslar faoliyati hamda

---

<sup>6</sup> Рашидов О.Ю. ва бош. Пул, кредит ва банклар. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2008. 11 – б. (4326).

<sup>7</sup> Аристотель. Сочинения: 4 т. –М.: 1983. Т. С.325.

<sup>8</sup> А.А.Омонов,Т.М.Қоралиев.Пул,кредит ва банклар.дарслик. 2012,14-б.

ularning natijasi daromadi pul bilan bog'liq. Shuning uchun ham, pul barcha iqtisodiy rivojlanish pog'onalarida odamlarni o'ziga jalb qilib kelgan.

Ma'lumki, pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning uzoq vaqt rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Birinchi yirik mehnat taqsimoti, ya'ni chorvachilikdan dehqonchilikni ajralib chiqishi va shu munosabat bilan tovar xo'jaligining rivojlanishi tufayli maxsulot qiymatining ifodasi bo'lmish pulni keltirib chiqardi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi, tovar turlarining ko'payishi almashuv jarayonining yanada rivojlanishini taqozo qildi. Almashuv jarayonida tovar egalari o'zaro muloqotda bo'lib, tovarning egasi o'z maxsulotini (mulkini) baholagan. Shu baholash jarayoni biror o'lchov birligi bo'lishini taqozo qilgan. Tovar muomilasining ekvivalent rivojlanish jarayonida umumiy ekvivalent shaklini har xil tovarlar o'ynagan. Har bir jamoa o'z tovarini ekvivalent sifatida o'rtaga qo'ygan. Lekin jamiyat taraqqiyoti shu tovarlar ichidan pulni tovarlarning tovari deb e'tirof etgan.

Pul – bu umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi. Pul ayirboshlash, to'lov, qiymatni o'lchash, boylikni to'plash vositasi funktsiyalarini bajaradigan noyob tovardir. Hozirgi iqtisodiyotda pul muomalasi amalda tovarlarning hamma turlari muomalasining o'zgarmas sharti hisoblanadi. Pul tufayli tovarlarni qiyoslash, ayirboshlashda zarur bo'ladigan qiymatning yagona mezoniga ega bo'lish mumkin. R.Kruzo ta'kidlaganidek, pul faqat tovar ishlab chiqarish, tovar-pul munosabatlari mavjud bo'lgan sharoitdagina ahamiyatga egadir. Pulni tovar ayirboshlashni o'zi yaratdi.

Pul– bu boshqa ne'matlarning qimmatini o'lchash vositasi (umumiy ekvivalent), yoki ayirboshlashda hisob-kitoblarni amalga oshirish vositasi (ayirboshlash vositasi) funktsiyalarini bajaruvchi tovar bo'lib, u – mutloq likvidlikka egadir. Pul – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, odamlar o'rtasidagi munosabatlar unda namoyon bo'ladi va uning yordamida quriladi.

**Pul** – bu maxsus tovar, umumiy ekvivalent bo'lib, abstrakt mehnat xarajatlarini o'zida aks ettiradi va tovar xo'jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.

Bu ta'rif pulni quyidagi xususiyatlarini o'zida ifodalaydi:

1. Pulning boshqa tovarlardan ajralib turuvchi maxsus tovarligi.
2. Pul – bu umumiy ekvivalent – yagona tovar bo'lib qolgan tovarlar qiymatini o'zida ifoda qilishi.
3. Pulning ekvivalent sifatida tovarni yaratishga ketgan mehnat va boshqa xarajatlarni o'zida ifoda qilishi.
4. Pulning har bir iqtisodiy tizimda, tovar ishlab chiqarishda kishilar o'rtasidagi yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifoda qilishi va boshqalar (pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo'lishi).

Pulning muhim xususiyati shundaki, u ham boshqa tovarlar singari qiymatga va iste'mol qiymatga ega bo'lishi bilan birga boshqa barcha tovarlarga

qarama-qarshi turadi. Bu bir tomonda pul, ikkinchi tomonda boshqa tovarlar.

Pulning iste'mol qiymati shuki u o'z funksiyasini bajarib iqtisodiyot mushkulini oson qiladi (vositachi sifatida).

Pulning qiymati (qadr qiymati) deganda pul birligining xarid qilish qobiliyati, ya'ni unga qancha tovar va xizmatlar xarid etish mumkinligi tushuniladi.

Pulni qiymati metal pulni zabt etish yoki qog'oz pulni bosib chiqarish xarajatlarini bildirmaydi. Bu xarajatlar pul qiymati emas, balki pulni muomilaga kiritish sarflaridir. Pulni qiymati narxga bog'liq, narxlar ko'tarilib, ketsa, uni qiymati (qadri) pasayadi va aksincha.

Umuman pul insoniyat kashfiyotlari ichida eng oddiy, eng murakkabi shu bilan birgalikda eng jozibadori hisoblanadi. Insoniyatning butun yutuqlari ham, fojialari ham pul bilan bog'liqdir. Inson faoliyatini eng muhim harakatga keltiruvchi kuchlardan biri pul bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Taniqli davlat arboblardan biri ta'kidlaganidek, «Davlatni o'rni uni qancha soldati yoki pushkalarini qudrati bilan emas, balki milliy valyutaning mustahkamligi bilan belgilanadi. Bunga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, korxonaning mavqei unda necha kishini ishlashi, ishlab chiqariladigan maxsulot miqdori bilan emas, balki uning moliyaviy barqarorligi bilan belgilanadi».


Yaxshi ishlayotgan pul tizimi jamiyatning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkoniyatini beradi, aksincha yomon ishlayotgan pul tizimi pul muomilasini izdan chiqarib ishlab chiqarish darajasidagi keskin pasayishlar, iqtisoddagi bandlikka va bahoga, pulni sotib olish qobiliyatini pasayishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra birinchi qog'oz pullar XII – asrda Xitoyda chiqarilgan. Shuning bilan birga 700 yillarda kumush tangalar chiqarilgunga qadar Buxoro davlatida qog'ozdan pul sifatida foydalangan. Umuman tarixda birinchi tangalar VII – asrda kichik Osiyodagi Lidiya mamlakatida zabt etilgan.

K.Marks, A.Smit va D.Rekrdolarning tadqiqotlariga tayangan hoda pulni vujudga kelish jaryonini qiymatning quyidagi shakllari bilan bog'laydi:

**Qiymatning oddiy yoki tasodifiy shakli.** Bu tovar ishlab chiqarishning dastlabki davriga to'g'ri kelib tovarlar pulsiz bir-biriga bevosita ayirboshlangan. Bunda maxsulot ayriboshlash uchun ishlab chiqarilmagan, lekin uni ortiqchasi tasodifiy shaklda ayirboshlangan. Tasodifiy ayirboshlash mehnat maxsulotining tovarga aylanganligini ifodalaydi. Ayriboshlash natijasida tovar maxsuloti o'ziga teng qiymatli ekvivalent maxsulotga ayirboshlanadi. Ayriboshlash jarayonida iste'molni qondirish birinchi darajali masala, tovarlar qiymatini taqqoslash esa ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan. Masalan, 1 bolta = 20 kg don.

**Qiymatning to'la yoki kengaygan shakli.** Tovar ayriboshlash rivojlanishi bilan tasodifiy qiymat shaklidan to'la yoki kengaytirilgan shakliga o'tilgan. Bunday ayriboshlashda bir tovarga qarama-qarshi faqat bitta tovar emas, balki bir nechta tovarlar ishtirok etadi. Masalan, Sudanliklarda




Bunda o'z qiymatini boshqa tovarga ayirboshlanayotgan tuz nisbiy qiymat shaklida, qolganlari, ya'ni qo'y, echki va buqa esa qiymatni o'zida ifoda etuvchi material bo'lib xizmat qiladi va ularning qiymati ekvivalent qiymat shaklida turadi.

**Qiymatning umumiy shakli.** Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan ayirboshlanadigan maxsulotlar soni ham ortib boradi va ayirboshlashda murakkab holat vujudga keladi. Biror bir tovar sohibi ushbu tovarni o'zining iste'moliga zarur bo'lgan boshqa bir tovarga ayirboshlanishi uchun avvalom bor o'zining tovariga ehtiyoji bo'lgan boshqa bir iste'molchini topmog'i kerak bo'ladi, ayirboshlash murakkablashib uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Asta-sekin tovarlar orasida hamma tovarlarga ayirboshlanadigan va hamma tovarlar qiymatini o'zida ifoda eta oladigan maxsus tovar ajralib chiqadi. Tovarlardan chiqqan maxsus tovar qolgan barcha maxsulotlar uchun umumiy ekvivalentga aylanadi.

Masalan:



Bunda umumiy ekvivalent vazifasini 10 bosh qo'y bajargan.

**Qiymatning pul shakli.** Maxsulot ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonining tobora rivojlanib borishi hududlar, mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiqni, tovar ayirboshlashning zaruriyatini yuzaga keltiradi. Turli mamlakatlarda turli tovarlar umumiy ekvivalent hisoblanganligi bu jaryonning taraqqiy etishiga to'sqinlik qiladi.

Natijada butun tovarlar dunyosidan shunday tovarlar ajralib chiqadiki, u barcha hudud va mamlakatlarda umumiy ekvivalent sifatida qo'llanila boshladi. Bu vazifani dastlab qimmatbaho metallar mis va kumush, keyinchalik oltin bajaradigan bo'ldi.

Oxir oqibatda oddiy tovar ko'rinishidagi umumiy ekvivalent o'rniga pul shaklidagi umumiy ekvivalent, ya'ni pul maydonga chiqdi.

Masalan:


1 qop bug'doy

10ta qo'y

10 kg choy

40 kg qaxva

0.5 tonna ko'mir



Bunda oltin oddiy tovar emas, balki pul ko'rinishini oladi.

Umuman pul o'z taraqqiyotida 4 bosqich va 4 shaklga ega bo'lgan:

1. Tovar shaklida - "quyma" asrimizdan oldingi VII – asrgacha.
2. Tanga pullar – "tanga" asrimizdan oldingi VII-XIX - asrlar.
3. Qog'oz pullar – "banknot" XIX-XX asrlar.
4. Elektron pullar – "kartochka" XX – asr o'rtalaridan.

Shuni ta'kidlash lozimki uzoq yillar davomida qimmatli metallar pul vazifasini bajargan va uning asosiy sabablari bo'lib:

1. Ularning qiymati yuqori, hajmi kichik.
2. Ular bo'linuvchan, ular bo'linganda sifatini yo'qotmaydi.
3. Ularning yaxshi saqlanishi (masalan, ko'mganda ham).
4. Ularni olib yurish qulay
5. Bir og'irlikdagi oltin bir-biridan deyarli farq qilmaydi (bir turdagi mo'yna bir-biridan nimasi bilandir farq qilinadi) va boshqalar.

Ayrim manbalarga ko'ra ("ekonomicheskaya teoriya" pod.red.V.I.Vilyapina, Dobryanina A.I. Moskva. 2001 y str.141-166) dastlabki qog'oz pullar XII-asrda Xitoyda, 1571 yilda Frantsiyada, 1690 yilda AQSh da, XVIII- asrda Yekaterini II-davrida Rossiyada paydo bo'lgan. Qog'oz pullar muomilasini tashkil etishda Djon Lo (Fransiya 1710-1720 yillar), Dubasov I.I (1897-1987 yillar Rossiya) kabi ayrim shaxslar faoliyatini qayd etish lozim.

Djon Lo duelda qatnashgani uchun London turmasidan qochib Gollandiyada, keyin Italiyada yashab ancha boyluk ortirgan va 1710 yilda Fransiya davlat byudjeti daromadini oshirish bo'yicha hukumatga qog'oz pullar chiqarish bo'yicha taklif bilan chiqqan. O'sha paytda Fransiya Moliya Vaziri bo'lgan Djon Lo 1720 yilda pulni qadrsizlangani tufayli Fransiyani tark etadi. 1716-1720 yillardagi qog'oz pullar bo'yicha Djon Loni "Mashinnik i proroka" deyilsada, u Yevropa xalqiga qog'oz pullarni ajoyib imkoniyatlaridan voqif etdi.

**Pulning rivojlanish tarixi.** Pul xozirgi kundagi ko'rinishi, holati va darajasiga yetgunga qadar juda uzoq tarixiy davrni boshidan kechirdi. Yer yuzida puldan ayirboshlash sifatida foydalanib kelinayotganiga yetti ming yildan ortiq vaqt bo'ldi. Bu davr ichida dastlabki pullar tovar, buyum, oddiy metall va qimmatbaho metallar ko'rinishidan xozirgi kunda keng foydalanib kelinayotgan qog'oz va electron pullar ko'rinishigacha yetib keldi. Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar takomillashib va rivojlanib borgani sari pulning shakli, pul ishlari va pul

ishtirokidagi hisob-kitoblar ham doimiy ravishda takomillasib va rivojlanib kelmoqda. Pulning rivojlanishiga turtki bo'lgan asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- tovar ishlab chiqarishning kengayishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;

- barcha turdagi mulk qiymatlarining o'sishi;

- tovarlar oldi-sotdisi bo'yicha aylanmalar hajmining ortishi.

**Tanga pullarning rivojlanish tarixi.** Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki tanga pullar Xitoy mamlakatida va qadimgi Lidiya xonligi davrida miloddan oldingi VII asrda paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Manbalarga ko'ra, birinchi oltin pullar bizning eramizgacha bo'lgan VII asrda Lidiya shohi Gigesning buyrug'li bilan zarb etilgan. Oltin o'zining tasvirini tushurib zarb ettirgan birinchi shox Aleksandr Makedonskiy hisoblanadi. O'sha davrda oltinning qiymati uning probasi va og'irligi bilan o'lchanar edi. AQShda monetalar 1793 yilda zarb etilgan, shu davrga qadar va undan keyin uzoq muddat davomida mamlakatda xorijiy mamlakatlarning tangalari to'lov vositasi sifatida amal qilgan. Mamlakatda ayrim xorijiy tangalar 1857 yilgacha to'lov vositasi sifatida muomalada ishtirok etgan. Muomalada oltin tangalar to'lov vositasini bajarganda ular haqiqiy pul sifatida o'zining sohibiga iqtisodiy zarar keltirmaydi va avtomatik ravishda boshqarilib turish xususiyatiga ega bo'lgan. Ya'ni, ularni hozirgi paytdagi kabi qog'oz pullarni emissiya orqali tartibga solib turishga ehtiyoj bo'lmagan. Agar oltin tangalarning hajmi ehtiyojdan ortib ketadigan bo'lsa, ular boylik sifatida avtomatik tarzda jamg'armaga o'tadi, aksincha bo'lganda esa to'lov vositasi sifatida muomalaga chiqadi. Shu bois ham oltin tangalar to'lov vositasini bajargan paytda pul tizimini tartibga solish apparati va pul kredit siyosatini amalga oshirishga ehtiyoj bo'lmagan.

Xulosa qilib aytganda, pulning vujudga kelishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini rivojlanishi va takomillashib borishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bularning ichida kishilar o'rtasida mehnat taqsimotining paydo bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

### **I.3. Pulning funktsiyalari**

Pulning mohiyati uning funktsiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon bo'ladi. Pul iqtisodiy kategoriya sifatida nechta funktsiyani bajarishi iqtisodchi olimlar, nazariyachilar va iqtisodchilar o'rtasida juda uzoq davrdan buyon tortishuvlarga sabab bo'lib kelmoqda.

Uzoq tarixiy davrlardan boshlab pul o'zining boshlang'ich besh funktsiyasining xususiyatlarini bajarib kelgan: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arma to'plash va jaxon puli. Ular doimiy rivojlanishda bo'lgan. Ularning mohiyatlari tarixiy davrlarda goh ko'tarilib gohida tushib turgan (ayrim hollarda to "0" darajagacha).


Pulning boshlang'ich vazifalaridan (funktsiyalaridan) eng asosiylari qiymat o'lchovi va muomala vositasi bo'lgan.

Hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda pulning vazifalari to‘g‘risida turli qarashlar mavjud. Ayrim iqtisodchi olimlar pulning 5 ta vazifasini tan olsalar, ayrimlari 4 tasini, boshqalari esa faqat 3 tasini e‘tirof etadilar. Biz esa pulning barcha vazifalari qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, to‘lov vositasi, jamg‘arma to‘plash va jahon puli to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz.

**Pul qiymat o‘lchovi.** Avval ta’kidlaganimizdek, har qanday tovar mehnat natijasida yaratiladi. Tovarga sarflangan mehnat miqdori uning qiymatini belgilaydi. Pul esa barcha tovarlarning qiymatini belgilash va ularning bahosini aniqlashda vositachi bo‘lib xizmat qiladi.


Masofani metr va kilometrlarda yoki vazni grammlar va kilogrammlarda o‘lchaganiga o‘xshatib ne‘matlar va xizmatlarning qiymati ham pul ifodasida solishtiriladi. Bu shubhasiz afzalliklarga ega. Pul tizimi tufayli har bir mahsulotning narxini uni almashtirish mumkin bo‘ladigan boshqa hamma mahsulotlar orqali ifodalashga zarurat qolmaydi. Pullarning umumiy ekvivalent sifatida foydalanilishi shuni anglatadiki, har qanday tovarning narxini faqat pul birligi orqali ifodalash yetarli bo‘ladi. Pullarning shu tarzda ishlatilishi bitim qatnashchilariga har xil tovarlar va resurslarning nisbiy qiymatini osonlik bilan solishtirish imkonini beradi.

Tovar qiymatining pulda ifodalanishi baho yoki narx deyiladi. Ana shu sababli turmushda u yoki bu tovarning qiymati deyilmaydi, balki bahosi yoki narxi deb aytiladi. Tovar qiymati qancha yuqori bo‘lsa, uning bahosi shuncha qimmat va aksincha, qancha past bo‘lsa, bahosi shuncha arzon bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar bahosi uning qiymati asosida shakllanadi, ya’ni tovar bahosi uning qiymatiga teng bo‘lishi kerak. Ammo tovar bahosiga uning qiymatidan tashqari juda ko‘p omillar, shu jumladan bozordagi talab va taklif, raqobat, tovarning foydaliligi kabilar ta  ya’ni:



Bu omillarning biri tovar bahosini ko‘tarsa, boshqasi pasaytiradi. Masalan, qiymatning pasayishi narxni arzonlashtiradi, talabning ortishi esa uni qimmatlashtiradi. Foydalilikning yuqori bo‘lishi baland narxni taqozo etsa, raqobat kurashi hamda taklifning ko‘payishi uni pasaytiradi.

**Pul - muomala vositasi.** Iqtisodiyotda tovarlar harakati pul harakatini keltirib chiqaradi va aksincha, pul harakati tovarlar harakatini ta’minlaydi. Pul yordamida tovarlar oldi-sotdi qilinadi. Pulning muomala vositasi ekanligi tovarlarni naqd pulga sotilishi jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu vazifani banklar tomonidan muomalaga chiqariladigan banknotalar va tangalar bajaradi. Bunda tovar harakati pul harakatiga mos keladi, ya’ni bir vaqtning o‘zida pul to‘lanadi va tovar sotib olinadi.




Masalan, talaba do‘konga kirib pul to‘lab kitob yoki daftar sotib oldi. Pul muomala vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- bu vazifani faqat naqd pullar bajaradi;
- tovar va pul o‘zaro qarama-qarshi yo‘nalishda harakat qiladi;
- tovar va pul harakati bir vaqtda yuzaga keladi;
- tovar sotuvchi va sotib oluvchi o‘rtasidagi munosabat tugallanadi, tomonlar tovarga yoki pulga ega bo‘ladilar.


Pullarning muomalada real ishtirok etishi va ularning ayirboshlashdagi ishtirokining o‘tkinchiligi muomala vositasi sifatidagi pullarning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi, Shu sababli to‘laqonli bo‘lmagan pullar - qog‘oz va kredit pullar ham muomala vositasi funksiyasini bajarishi mumkin. Hozirgi vaqtda kredit pullar deb ataladigan pullar: veksellar, banknotalar, cheklar, banklarning kredit kartochkalari pul muomalasida hukmron vaziyatni egallab turibdi.

**Pul- to‘lov vositasi.** Pulning to‘lov vositasi ekanligi nasiyaga sotilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarga ularning haqi to‘langanda, kredit qarzga olingan mablag‘lar qaytarilganda namoyon bo‘ladi. Tovarlar har doim ham naqd pulga sotilavermaydi. Tovar sotuvchi tovarni sotish uchun olib chiqqan vaqtda, iste‘molchining shu tovarni sotib olish uchun yetarli miqdorda naqd puli bo‘lmasligi mumkin. Natijada tovarni nasiyaga sotishga zarurat tug‘iladi, ya‘ni tovarning pulini to‘lash muddati kechiktiriladi. Iste‘molchi sotib olgan tovari uchun uning pulini to‘lov muddati kelgandan keyingina to‘laydi. Bu holda tovarlar harakati bilan pul harakati bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lmaydi. Tovar harakati sodir bo‘lgandan so‘ng ma‘lum muddat o‘tgach pul harakati amalga oshadi.

Masalan, 10 avgustda tovarlar yetkazib berildi, puli esa 20 avgustda to‘landi.



Aksariyat hollarda tovar uchun avvaldan avans (bo‘nak) to‘lanadi, so‘ng tovarlar yetkazib beriladi. Ma‘lum muddat o‘tgach esa, oxirgi hisob - kitoblar amalga oshiriladi. Masalan, 1 iyunda tovarlar uchun bo‘nak to‘landi, 10 iyunda tovarlar yetkazib berildi, 20 iyunda esa oxirgi hisob - kitoblar qilindi.



Pulning to'lov vositasi ekanligi iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarni keltirib chiqaradi. Pulning to'lov vositasi ekanligi quyidagi hollarda ko'rinadi:

- korxonalar va tashkilotlar o'rtasida yetkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaq to'langanda;
- davlat byudjetiga soliqlar to'langanda;
- banklardan olingan qarzlarni qaytarilganda, foizlari to'langanda;
- ish haqi, nafaqa, stipendiya va boshqalar to'langanda;
- boshqa har xil qarzlarni va majburiyatlar to'langanda.

To'lov aylanishida **elektron pullarning** joriy qilinishi to'lovlarning tezlashishi, muomala xarajatlarining kamayishi va korxonalar rentabelligining oshishiga yordam beradi. Bunday tizim AQSHda 70-yillardan boshlab to'lov munosabatlari mexanizmiga ayniqsa tez sur'atlar bilan joriy qilindi. Avtomatlashtirilgan hisob-kitob palatalari, avtomatlashtirilgan kassir tizimi va xarid qilish punktida o'rnatilgan terminallar tizimi ularning asosiy elementlari hisoblanadi. Elektron pullar negizida *kredit kartochkalari* paydo bo'ldi. Ular to'lovlarning naqd pullar bilan bajarilishini qisqartirishga yordam berib, naqd pullar va cheklarning o'rnini bosadigan hisob-kitoblar vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kredit kartochkalarining ahamiyati shundaki, ulardan foydalanish naqd pullar ishlatiladigan sohani toraytiradi, tovarlar va xizmatlarni sotishda va iqtisodiyotdagi tanazzul holatlarini bartaraf etishda kuchli stimull bo'lib hisoblanadi.

**Pul - jamg'arish vositasi.** Kishilarning olgan daromadlari qilgan sarf-xarajatlaridan ko'p bo'lsa, daromadning qolgan qismini jamg'arib borishlariga imkoniyat tug'iladi. Ular o'z jamg'armalari hisobidan turli moddiy boyliklar (kvartira, dala hovli, avtomashina yoki uy jihozlari) sotib olishlari, to'y-ma'raka qilishlari, sayohatga borishlari, davolanishlari mumkin. Agar tovar ishlab chiqaruvchi tovarni sotgandan so'ng, ma'lum muddat davomida boshqa tovar sotib olmasa, pul jamg'armaga aylanadi, ya'ni harakatdan ma'lum muddatga chetga chiqadi va bo'sh turib qoladi. Pulning jamg'arma va boylik to'plash vositasi bo'lishiga asosiy sabab, unga hohlagan vaqtda, juda tez fursatda hohlagan tovarni sotib olish, uni har qanday to'lovni to'lashga ishlatish mumkin. Pul boylik jamg'arishning eng qulay vositasi hisoblanadi, chunki u yuqori likvidlik darajasiga ega.

Kishilar o'z boyliklarini pulda emas, balki boshqa shakllarda, masalan, oltin, qimmatbaho metallar va toshlar, san'at asarlari, noyob buyumlar, uy-joy, yer, mashina, asbob-uskuna, davlat yoki korxonalarining qimmatli qog'ozlari va boshqalarda mujassamlashtirishlari mumkin. Ammo ularni pulga aylantirmasdan turib, boshqa maqsadlarda sarflab bo'lmaydi. Kimdir o'z pulini uyida, kimdir esa bankda saqlaydi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to'g'risida"-gi Qonuni qabul qilinganligini alohida qayd etish zarur. Yaratilgan kafolatlar aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirmoqda va ularning banklardagi depozitlar hajmini yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatilmoqda.

Pul mablag'larini banklarda omonatlar shaklida saqlashning qulayliklari quyidagilardan iborat:

- ishonchli va behavotir saqlanadi;
- ishlab chiqarishga sarflash va iqtisodiyotni rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi;
- foiz ko‘rinishida daromad keltiradi, ya’ni o‘z-o‘zidan ko‘payib boradi.

Pulning funktsiyalari bir – biriga bevosita bog‘liq bo‘lib, ular doimo bir – birini to‘ldirgan holda iqtisodiyotda harakatda bo‘ladi.

**Pulning jahon pullari vazifasi.** Agar tarixga nazar tashlasak, mamlakatlar o‘rtasida savdo-sotiq, xalqaro iqtisodiy aloqalar va kredit munosabatlari asta-sekin rivojlanib borgan. Bu jarayon barcha mamlakatlar tomonidan tan olinadigan va qabul qilinadigan yagona jahon pulini keltirib chiqargan. Bu vazifani asrlar davomida oltin bajarib kelgan. Ya’ni mamlakatlar o‘rtasidagi hisob-kitoblar, tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlar bir mamlakatdan boshqa mamlakatga quyma shaklidagi sof oltin to‘lash vositasida amalga oshirilgan. 1867 yildan boshlab oltin davlatlar o‘rtasidagi yagona jahon puli sifatida rasman qabul qilingan. Oltin standarti o‘zining uch rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi (uch shaklda ko‘rindi): oltin tanga, oltin quyma, oltin deviz.

Birinchi bo‘lib oltin tanga standartiga Angliyada (1774 y.) ,keyinroq esa, ya’ni

1871 y. – Germaniya, 1872-1876 yy. – Skandinaviya davlatlarida, 1875 y. – Niderlandiyada, 1878 y. – Frantsiyada, 1879 y. – Avstriya-Vengriya davlatlarida, 1897 y. – Yaponiya va Rossiyada, 1900 y. – AQSH davlatlarida o‘tilgan. Oltin tanga standarti davrida oltin tangalar pul birligi bo‘lib hisobdangan. Bundan tashqari, muomalada nominaliga qarab oltinga almashtiriladigan qog‘oz banknotalar, hamda mayda chaqalar bo‘lgan. Oltin tanga standarti to birinchi jaxon urushi davrigacha faoliyat yuritgan (1914-1918 yy.). Uning o‘rniga oltin quyma standarti kirib keldi va unda oltin faqat hisoblash vazifasigina o‘tagan. Oltin quyma shaklida Markaziy bankda saqlanib kelingan, muomalada esa kursga qarab almashtirib beriladigan banknotalar va tangalar ishlatilgan.

Oltin quyma standartining ustunliklari shundan iborat bo‘lganki, oltin tangalar zarb qilinishi iqtisod qilinadi. Oltin tangalarning muomala jarayonidagi ishqalanishdan yemirilmaydi ( mutaxasislarning hisoblariga oltin tanganing muomala jarayonidagi yo‘qotilishi yilda 1 tonna oltinga teng bo‘lgan, ya’ni yemirilgan). Davlatlarning oltin zaxiralari bir joyda markazlashtirilgan, bu pul muomalasini mo‘tadillashtirgan.

1922 yildan e’tiboran AQSH dollari va Angliya funt sterlingi oltinning o‘rinbosari sifatida e’lon qilindi, hamda xalqaro to‘lovlarda qo‘llanila boshladi. 1944 yildan keyin jahon puli vazifasi oltinda qoldirilgan holda, xalqaro to‘lovlarda AQSH dollaridan ko‘proq foydalanishga imkoniyat yaratildi. 1970 yildan boshlab xalqaro to‘lovlarda Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan kiritilgan maxsus hisob va to‘lov birligi SDR «Maxsus qarz olish xuquqi» (SDR) qo‘llanila boshlandi. 1976 yilda Xalqaro Valyuta Fondiga a’zo mamlakatlar oltindan jahon puli sifatida foydalanishni bekor qildilar. Hozirda oltindan xalqaro zahira sifatida foydalanilmoqda. 1979 yildan Yevropaning bir qator mamlakatlarida xalqaro hisob-kitoblarni olib borish uchun xalqaro hisob birligi EKYU (EKU) qo‘llanila

boshlandi. 1999 yildan e'tiboran Yevropa ittifoqiga kiruvchi 12 mamlakatda, yagona pul birligi sifatida YEVIRO (EVIRO) naqd pulsiz hisob – kitoblarda, 2002 yil 1 yanvardan esa naqd pul sifatida ham qo'llanila boshladi.

Xalqaro to'lovlarda SDR va EVRO bilan bir qatorda iqtisodiy qudratli va rivojlangan mamlakatlarning milliy pul birliklaridan ham foydalanilmoqda. Ular jumlasiga AQSH dollari, Kanada dollari, Angliya funt sterlingi, Yaponiya iyenasi Rossiya rubli va boshqalar kiradi.

Pullarning barcha beshta funktsiyasi pullarning tovarlar va xizmatlarning umumiy ekvivalenti sifatidagi yagona mohiyatini namoyon qiladi. Ular chambarchas bog'liqlikda va birlikda bo'ladi. Mantiqan va tarixiy jihatdan har bir navbatdagi funktsiya bundan oldingi funktsiyalarning muayyan rivojlantirilishini nazarda tutadi. Pullarning sanab o'tilgan funktsiyalarni bajarishi tufayli ular, ayniqsa, bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarishning rivojlanishida asosiy rol ni o'ynaydi, tovarlarga narxlarni belgilashda qatnashadi.

Xulosa qilib aytganda, pullarning iqtisodiy tizimdagi ijtimoiy roli shundan iboratki, ular mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi bog'lab turuvchi bo'g'in, shuningdek, tovar xo'jaligidagi ijtimoiy mehnatni hisobga olish vositasi hisoblanadi. Pulning funktsiyalari bir-biriga bevosita bog'liq bo'lib, ular doimo bir-birini to'ldirgan holda iqtisodiyotda harakatda bo'ladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Pul nima?
2. Pulni kelib chiqishining asoslari nimalardan iborat?
3. Pulning mohiyati va xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Qiymatning oddiy yoki tasodifiy shaklini tushuntiring.
5. Qiymatning umumiy shaklini tushuntiring.
6. Qiymatning to'la yoki kengaygan shaklini tushuntiring.
7. Pulning funktsiyalari va ularning o'zaro bog'liqligi nimalardan iborat?
8. Pulning qiymat o'lchovi funktsiyasini tushuntiring.
9. Pulning muomala vositasi funktsiyasini tushuntiring.
10. Pulning to'lov vositasi funktsiyasini tushuntiring.
11. Pulning jamg'arish funktsiyasini tushuntiring.
12. Pulning jaxon puli funktsiyasini tushuntiring.

## **II bob. Pul aylanishi va uning tarkibi**

### **II.1. Pul aylanishi, uning mohiyati va tarkibiy qismlari**

**Pul aylanishi** - naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat jarayonidir. Qiymatning o'zidan ajralganlik hozirgi pul aylanishining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hozirgi pul aylanishi metall pullar muomalasi sharoitidagi kabi qiymatli emas, chunki pul belgisining qiymati nominaldan ancha kam va uning ahamiyati bo'lmasligi mumkin.

Pul aylanishi pul mablag'lari harakatining quyidagi muayyan yo'llaridan tarkib topadi:

1. Mablag'larning markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasidagi harakati. Bunday harakat pul mablag'lari emissiyasi jarayonlari va tijorat banklari mablag'larining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralash fondiga ko'chirilishi bilan bog'liq. Tijorat banklarining kreditlash jarayonlari munosabati bilan pul mablag'larining ko'chirilishini ham shunga kiritish mumkin.

2. Pul mablag'larining tijorat banklari o'rtasidagi harakati. Bu holda ushbu banklarning mijozlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq pul ko'chirishlar yoki tijorat banklarining o'zaro kreditlashlari nazarda tutiladi.

3. Firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi harakati tovarlar aylanishi va bunday tovarlar aylanishidagi, shuningdek, o'zaro talablarni hisobga olishdagi haq to'lash jarayonlari bilan bog'liq.

4. Banklar, firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu sub'ektlar o'rtasidagi harakati asosan kreditlash va qarz majburiyatlarini hisobga olish operatsiyalari, shuningdek, pul mablag'larini saqlash va ko'chirishga doir operatsiyalar bilan bog'liq.

5. Banklar va aholi o'rtasidagi harakat. Pul mablag'lari iste'molchilik kreditini berish va pul mablag'larining aholining daromadlarini saqlash va ko'paytirish maqsadlaridagi harakatiga doir faol jarayon sababli ko'chiriladi.

6. Firmalar, tashkilotlar va aholi o'rtasidagi harakat. Pullar harakatining bu yo'li mablag'larning tovar aylanishi operatsiyalariga haq to'lash va uy xo'jaliklarining xodimlar mehnatiga haq to'lashi munosabati bilan ko'chib yurishidan iborat bo'ladi.

7. Banklar va moliya institutlari o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu iqtisodiy munosabatlar sub'ektlari o'rtasidagi harakati o'zaro kreditlash operatsiyalari va iqtisodiy foyda olishga Yoki uchinchi sub'ektlarning muayyan operatsiyalarini rasmiylashtirishga yordam beruvchi boshqa moliyaviy harakatlar doirasida amalga oshiriladi.

8. Moliya institutlari va aholi o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining bu holdagi harakati aholining, odatda, o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida muayyan moliya operatsiyalarini bajarishi bilan bog'liq.

9. Jismoniy shaxslar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'lari harakatining bu Yo'li eng sezilmaydigan, lekin pul mablag'larining qayta taqsimlanishi tizimidagi eng muhim yo'llardan biri hisoblanadi, chunki u mablag'larning aholi o'rtasida ko'chib yurishidan iborat. Odatda, bunday ko'chib yurishning maqsadi maishiy masalalarni hal etish va o'z oilasi a'zolari farovonligining muayyan darajasini tutib turishdir.

Pul mablag'lari harakatining har biri bo'yicha muqobil harakat ham amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, pullarning aylanishi ko'p yo'nalishli bo'ladi va xo'jalik faoliyati sub'ektlarini qamrab oladi.


To'lov aylanishi ushbu mamlakatda amal qiladigan to'lov vositalarining uzluksiz harakat qilish jarayonidir. Boshqacha aytganda, pul aylanishi deganda to'lov vositalarining shaklidan qat'i nazar bunday barcha vositalarning majmui tushuniladi. Bevosita pul mablag'larining harakati va cheklar, depozit sertifikatlari va veksellarning ko'chib yurishi shunga kiradi. Pul aylanishi to'lov aylanishining bir qismidir.

Pul aylanishi naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat qilish jarayonidir. O'z navbatida pul aylanishi to'lov vositalari muomalasining ikki shakliga: pul muomalasi (yoki naqd pullar aylanishi) va pul-to'lov aylanishiga bo'linadi.

Pul muomalasi pul aylanishining naqd pul mablag'lari muomalasi, pul belgilarining bir yuridik yoki jismoniy shaxslardan boshqa shaxslarga doimiy tarzda o'tib yurishi bilan bog'liq qismidir. Boshqacha aytganda, bu iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi muomalada qatnashadigan bevosita naqd pul massasidir. SHu tufayli pul muomalasini ba'zan naqd pullarning aylanishi deb ham atashadi.

Pul - to'lov aylanishi pul aylanishining bir qismi bo'lib, unda pullar qanday shaklda taqdim etilganidan qat'i nazar to'lov vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Boshqacha aytganda, bunday holda iqtisodiy sub'ektlar o'rtasida naqd pullik va naqd pulsiz shaklda ayirboshlash vositasi sifatida amal qiladigan pul mablag'lari ko'rib chiqiladi.

1-chizma



Shuni hisobga olish kerakki, iqtisodiyotda pul muomalasi umumiy pul aylanishida kam qismni egallashi kerak, lekin u katta ahamiyat kasb etadi, chunki aholi daromadlarining katta qismining olinishi va sarflanishiga xizmat ko'rsatadi. Bu shu bilan bog'liqki, rivojlangan iqtisodiyotlarda elektron pullar tobora ko'proq ommalashgan bo'ladi. Bunday pul vositalari mijozlarning bank muassasalaridagi hisobvaraqlari bo'yicha faqat texnik uskunar yordamida ishlatish mumkin bo'lgan elektron uzatmalardagi yozuvlardir. Bunda ushbu yozuvlar tabiiy ravishda mijozlarning hisobvaraqlaridagi naqd pulsiz mablag'lar hisoblanadi. Plastik karta va axborotni o'qish hamda bank bo'limi bilan aloqa tizimi texnik vositalar hisoblanadi. Amalda tovarlar va xizmatlar uchun haq to'lash vositasi sifatida plastik kartochkalarni qabul qilish va hisobga olish vositalarining hamma joyda ommalashuvi iqtisodiyotdagi naqd pul mablag'lari hajmining kamayishiga va naqd pulsiz aylanish rolining yalpi oshishiga olib kelmoqda. Shunday qilib, bank xizmatlari bozori ravnaq topgan sharoitda bunday holat buziladi va naqd pullarning aylanishi asosiy omil bo'lmay qoladi.

Pul aylanishi asosan ikki belgiga:

1. Jami ijtimoiy maxsulot ishlab chiqarish
2. Pulni funktsiyalariga ko'ra tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin

Jami ijtimoiy maxsulotni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq holda pul aylanishi: tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, kapital qurilish bilan bog'liq aylanishga, hamda tovar va ularning xarakati bilan bog'liq bo'lmagan aylanishga bo'linadi.

Tovar ishlab chiqarish va sotish jarayonidagi pul aylanishiga ishlab chiqarishga tegishli ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, maxsulotni sotish, tegishli tashkilotlar bilan hisob – kitoblar olib borish kiradi, ikkinchisiga kapital qurilish va ta'minlash sohasidagi hisob – kitoblar kiradi. Tovar va ularni xarakati bilan

bog'liq bo'lmagan aylanishga milliy daromadni taqsimlash va kayta taqsimlash bilan bog'liq to'lovlar va boshqa tovar xarakati bilan bog'liq bo'lmagan to'lovlar kiradi.

Pul funksiyalariga va to'lov turiga ko'ra pul aylanishi naqd pullik va naqd pulsiz aylanishga bo'linadi.

Umuman pul aylanishi quyidagi belgilari bo'yicha guruhlanadi:

1. Pullik munosabatlarning turiga ko'ra:

- a) tovar – moddiy qiymatlarni ayriboshlash jarayonidagi pul aylanishi;
- b) tovar xarakteriga ega bo'lmagan hisob – kitoblardagi pul aylanishi;

2. To'lov usuliga ko'ra:

- a) naqd pullik;
- b) naqd pulsiz.

3. Pul munosabatlari ishtirokchilarining hududiy joylashishiga ko'ra:

- a) bir xudud miqyosidagi pul aylanishi;
- b) hududlararo pul aylanishi.

4. Pulni to'lov jarayonidagi ishtirokiga ko'ra:

a) aktiv pul aylanishi – to'lov jarayonida bevosita ishtirok etayotgan pul massasi;

b) passiv pul aylanishi – ma'lum davr ichida, vaqtincha muomilada ishtirok etmayotgan pul massasi (jamg'armadagi, hisob – varaqlardagi bo'sh pul mablag'lari).

Pul aylanishi holatini tartibga solish bo'yicha hukumat organlari tegishli tartibda monetar va fiskal siyosatini olib boradi.

Monetar siyosat – mamlakatda pul massasi va pul bozorini tartibga solishdir. Monetar siyosatning bosh g'oyasi – iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi ta'minlaydi. Bu mexanizmning asosiy vositasi pul. Davlat yalpi talabga muomiladagi pul miqdorini tartibga solish bilan ta'sir etishi kerak.

Bunga ko'ra:

$$\textit{muomiladagi pul miqdori} = \frac{\textit{Yalpi milliy maxsulot}}{\textit{Pul aylanishi soni}}$$

xolida aniqlanadi.

Pulning aylanish tezligi - pul muomala va to'lov vositasi sifatida amal qilgandagi uning harakat ko'rsatkichidir. Uning miqdorini hisoblash qiyin, shuning uchun uni hisob-kitob qilishda bilvosita ma'lumotlardan foydalaniladi.

**Monetar siyosat:** xarakatdagi pul miqdorini belgilash, uni qat'iy nazorat qilish; tijorat banklari faoliyatini ko'zatic borish: kredit emissiyasini bajarib borish; davlat oltin – valyuta zaxirasini yaratish va foydalanishni ko'zda tutadi.

Davlat xarajatlari va soliqqa tortish bo'yicha chora – tadbirlar ko'rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan siyosat fiskal siyosat deyiladi.

**Fiskal siyosatning** asosiy vazifasi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun davlat pul fondlarini markazlashgan tarzda tashkil etish va ishlatish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir.

Fiskal siyosat avtomatik va diskresion siyosatga bo'linadi. Avtomatik deganda hukumat tomonidan qo'shimcha chora – tadbirlar belgilamay mavjud iqtisodiy mexanizm orqali iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchan siyosat tushuniladi. Soliq tuzilmalarini iqtisodiy kon'yuktura o'zgarishiga bog'liqligi va boshqalar.

**Diskretsion** (lotincha *dissrecio* – o'z qaroriga qarab amal qiluvchi) siyosat davlat tomonidan yalpi milliy maxsulotning real hajmiga, bandlik, iflyatsiya va iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatish maqsadida davlat tomonidan aniq chora – tadbirlarni belgilash tushuniladi. Doimiy amal qiluvchi qonunlar, qoidalar, me'yorlarga qo'shimcha ravishda yoki ularni o'zgartirish bo'yicha tezkor tarzda majburiy chora – tadbirlar ko'riladi (soliq reformasi va boshqalar).

Umuman olganda fiskal siyosat ijtimoiy himoya usullarini, byudjet daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish, iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini oshirish siyosati, narx – navoni pasaytirishga ta'sir ko'rsatish kabi chora – tadbirlarni o'z ichiga oladi.

## **II.2. Naqd pul aylanishi va uning xususiyatlari**

Ma'lumki, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bosqichlari pullik munosabatlar orqali amalga oshadi. Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslarni sotib olish, ularni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish va yetishtirilgan maxsulotlarni sotish jarayoni odatda korxonalar va tashkilotlar o'rtasida olib boriladigan pullik munosabatlarga bog'liq.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar o'rtasidagi va xo'jaliklarni o'z xodimlari bilan bo'ladigan hisob – kitob munosabatlari naqd pullik va naqd pulsiz shaklda olib boriladi.

Naqd pullik hisob – kitoblarga kelganda naqd pulning harakati bankdan boshlanadi. Naqd pul bankdan chikkach korxonalar va tashkilotlar kassasi orqali aholi qo'liga o'tadi. Oldi – sotdi va to'lov harakatlari bajarilgach u yana bankga qaytadi.

Mamlakatimizda naqd pul qo'llaniladigan pul aylanishi asosan quyidagi sub'yektlar o'rtasida bo'ladi.

1. Davlat va korxonalar, tashkilotlar, muassasalar o'rtasida (ish haqi, tovar sotib olish, xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar va boshqalar).

2. Davlat va aholi o'rtasida (pensiya, nafaqa, byudjetga soliq to'lovlari va boshqalar)

3. Kredit tizimi va aholi o'rtasida (qarz olish, uni qaytarish, pulni jamg'armaga qo'yish va olish, yutuqlarni olish va boshqalar)

4. Korxonalar, tashkilot va muassasalar o'rtasida cheklangan holdagi naqd pul bo'yicha hisob – kitoblar, chunki ular o'rtasidagi hisob – kitoblar asosan naqd pulsiz amalga oshiriladi.

Pulning naqd aylanishi – bu naqd pul yordamida amalga oshiriladigan to‘lovlar yig‘indisidir. Bu aylanish pul o‘zining to‘lov va muomila vositasi funktsiyalarini bajarishi bilan bog‘liq.

Naqd pullar muomila vositasi sifatida aholi bilan korxonalar, tashkilotlar o‘rtasida hamda aholi o‘rtasidagi tovarlar sotib olinganda va sotishda qo‘llaniladi.

Pul to‘lov vositasi sifatida ish xaqi, nafaqalar, mukofotlar, yakka tartibdagi qurilish va boshqa maqsadlarga beriladigan kreditlar, sug‘urta to‘lov va qoplamalarini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.

Undan tashqari naqd pulning aylanishi:

- kommunal va maishiy xizmatlar uchun to‘lovlarda;
- soliq va boshqa yig‘imlar to‘lovida;
- «O‘zbekiston pochta» xizmatlari bo‘yicha to‘lovlarda;
- temir yo‘l, havo yo‘li va mahalliy transportga to‘lovlarda;
- savdoda tovarlarni sotishda;
- qo‘yilmalarni qo‘yish va olishda;
- mehnat haqi, pensiya va nafaqalar to‘lovini amalga oshirishda va boshqa xolatlarda amalga oshiriladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, pulni naqd va naqd pulsiz aylanishi bir – biri bilan uzviy bog‘liq, chunki pul naqd pul aylanishidan naqd pulsiz aylanishga va aksincha aylanib doimiy harakatda bo‘lib, umumiy pul aylanishini ta’minlaydi.

Korxonalar, tashkilot va muassasalarning banklardagi hisob raqamlaridagi pul mablag‘lari quyidagi xollarda naqd pulga aylanadi:

- Ishchi, xizmatchilarga ish haqi berishda ;
  - ko‘rsatilgan xizmat va ishlar uchun naqd pul to‘lovida;
  - pensiya, nafaqa, har xil mukofotlar, sug‘urta qoplamasi to‘lovida;
  - aholidan qishloq xo‘jalik maxsulotlari sotib olinganda;
  - davlat zayomlari va lotoreya biletlari bo‘yicha to‘lovlarda;
- aholi banklardan o‘z jamg‘armalarini talab qilganda va boshqa hollarda.

O‘z navbatida naqd pullar quyidagi hollarda naqd pulsiz aylanishga tushadi:

- uy– joy va kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarda;
- har xil soliq va yigimlar, boj va jarimalar to‘lovlarida;
- aloqa tashkilotlariga to‘lovlarda ;
- davlat zayomlari, lotoreya va boshqa uyinlardan tushumlar orqali;
- aholini yakka tartibdagi banklar bilan qurilish va boshqa kredit munosabatlari bo‘yicha to‘lovlarda;
- bolalar muassasalaridan foydalanish bo‘yicha to‘lovlarda;
- dam olish uylari va boshqa sog‘lomlashtirish muassasalaridan foydalanish bo‘yicha to‘lovlarda va boshqa hollarda.

Pulning naqd pullik aylanishga o‘tish jarayoni pul muomilasi uchun xatarliroq ekanligi tufayli Markaziy bank tomonidan u qattiq nazorat qilinadi.

Naqd pullik munosabatlarning xususiyatlari yana shundaki, bir pul belgisi bir necha marta to‘lovlarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Muomilada bo‘lgan naqd pul massasi ma’lum bir davrda (oy, chorak, yillarda o‘zgarmas bo‘lib turgan holda

naqd pul aylanishi pulni aylanish tezligiga ko'ra muomiladagi naqd pul miqdoridan bir necha marta ko'p bo'lishi mumkin va aksincha.

Pul aylanishida to'lov aylanishi bilan naqd pulsiz aylanishlar o'rtasidagi farqni bilish lozim. To'lov aylanishi deb pulning to'lov vositasi sifatida harakati tufayli vujudga kelgan pul aylanishiga aytiladi. Naqd pulsiz aylanish to'lov aylanishining tarkibiy qismi bo'lib naqd pulsiz aylanish va naqd pul aylanishining pulning to'lov vositasi funktsiyasi tufayli yuzaga keluvchi qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda pul aylanishining asosiy qismi naqd pulsiz hisob – kitoblarga to'g'ri keladi.

Naqd pulsiz hisob – kitoblar deganda korxonalar va tashkilotlar tomonidan tovar ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir – biriga bo'lgan talab va majburiyatlarini naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini schyotdan – schyotga o'tkazish orqali amalga oshirilishi tushuniladi.

Mamlakat iqtisodi rivojlanib borgan sari pul oborotida naqd pulsiz hisob – kitoblarning ulushi ortib boradi.

Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1998 yil 27 – iyunda №60 son bilan tasdiklangan «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob – kitoblar to'g'risida» Nizom qabul qilingan va unga 2002 yilni 12 yanvarida ayrim o'zgartirishlar kiritilgan.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi korxonalarini to'g'risidagi Qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining O'zbekiston hududida naqd pulsiz hisob – kitoblarni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va Respublika makonida hisob – kitoblarni uzluksiz bajarilishini ta'minlashga mo'ljallangan.

Naqd pulsiz hisob – kitoblarning zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Yalpi ichki maxsulot va milliy daromad xajmining ortib borishi.
2. Tovar aylanishi hajmini o'sishi.
3. Xo'jalik subyektlari o'rtasida hisob – kitob munosabatlarining oshishi.
4. Bank kreditining ayirboshlash jarayonidagi rolini o'sishi.
5. Iqtisodiy alokalarni rivojlantirishda va hisob – kitoblarda elektron hisoblash texnikasidan, kompyuterlardan keng ko'lamda samarali foydalanishni oshishi.
6. Naqd pulning kuprok miqdorda oldi – sotdi bilan shug'ullanuvchi ishbiarmonlar qo'liga o'tib ketganligi.
7. Pulning davlat gaznasidan chiqib yana qaytib kelishi jarayonlarida uzilishlarning paydo bo'lishi.
8. Davlatning naqd pul yetishmasligi muammosiga duch kelishi va boshqalar.

Naqd bo'lmagan pul harakati hajmining doimiy o'sib borishi xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega va u quyidagilar bilan belgilanadi:

- xo'jalik subyektlarining naqd pulga bo'lgan ehtiyoji keskin qisqaradi;
- o'zaro hisob – kitoblarni amalga oshirish jarayonidagi muomila xarajatlari tejaladi;

- muomiladagi pul mablag'larining xavfsizligi kamayadi;
- hisob – kitoblarni banklar orqali amalga oshirilishi ularning xuquqiy jihatdan qonuniyligini ta'minlaydi.
- xo'jalik hisob varag'iga pul mablag'larining kelib tushishi, ular yaratgan maxsulot yoki ko'rsatgan xizmatlarnig ijtimoiy tan olinishi ta'minlanadi;
- xo'jaliklar o'rtasidagi aloqalarni mustaxkamlaydi, tovar – pul mablag'lari xarakatini tezlashtiradi;
- naqd pulga bo'lgan talabni va shu bilan birga qog'oz pullar emissiyasi va ularni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni kamaytiradi;
- hisob – kitoblarni banklar orqali o'tishi lozim bo'lgan soliqlar miqdorini to'g'ri aniqlash bo'yicha nazoratni ta'minlaydi;
- muomilada naqd pul miqdorini kamayishi uning inflyasiya darajasini pasaytiradi va boshqalar.

Naqd pulsiz hisob – kitoblarni tashkil etish va amalga oshirishni banklar olib boradi. Maxsus banklar xalq xo'jaligi tarmoqlari korxonalariga hisob – kitob xizmatini ko'rsatadi. Markaziy bank bu hisob – kitoblarni yuritish bo'yicha tartib qoidalarni ishlab chiqadi.

Naqd pulsiz hisob – kitoblar quyidagi unsurlarni o'z ichiga oladi:

- naqd pulsiz hisob – kitoblarni olib borish va amalga oshirishning asosiy tamoyillari;
- hisob – kitob shakllari;
- hisob – kitob hujjatlari;
- to'lov turi;
- to'lov navbati va manbalari;
- hisob – kitob qatnashchilari;
- hisob – kitob qatnashchilarining xuquq va majburiyatlari va boshqalar

Naqd pulsiz hisob – kitoblar quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Korxonalar va tashkilotlar o'z pul mablag'larini (qarzga olganlarini ham) banklarda saqlashi zarur.
2. Barcha naqd pulsiz hisob – kitoblarni bank orqali o'tishi.
3. Xo'jalik sub'yektlari hisob – kitoblar shakllarini erkin tanlashlari va uni shartnoma orqali mustahkamlab qo'yishlari.
4. Xo'jalik sub'yektlarining hisob – kitoblar bo'yicha shartnomaviy munosabatlariga bankni aralashmasligi.
5. Tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar to'lovchining roziligi bilan amalga oshirilishi.
6. To'lovlar xo'jalik sub'yektlarining hisob varaqasidagi mablag'lari hisobidan, ba'zida (agar korxonalar kredit olishi mumkin bo'lsa) bank krediti hisobidan amalga oshirilishi.
7. Mol yetkazib beruvchining hisob varag'iga pul mablag'larini o'tkazish mazkur mablag'larning mol sotib oluvchining hisob varagidan chiqarilgandan keyin amalga oshiriladi.
8. To'lovchi tegishli huquqqa ega bo'lsa to'lovni qisman va to'liq rad etishi.

Xo'jalik sub'yektlari pul mablag'larini saqlash va hisob – kitoblar olib borish, kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun tegishli bank bo'linmalarida o'zlarining hisob varaqlarini ochadi.

Byudjet hisob varaqlari byudjet kassasini ijro etish operatsiyalarini bajarish, to'lovlarning tushumi va xarajatlarni aks etirish uchun ochiladi.

Ssuda hisob varaqlari ma'lum tartibda rasmiylashtiriladigan ssudalar (kreditlar) bo'yicha ochiladi.

### **II.3. Naqd pulsiz hisob – kitoblarning asosiy shakllari, xususiyatlari**

Hisob – kitoblar shakli deganda huquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan hisoblashuv hujjatlarining turi va hujjat aylanishi tartibi bilan farq qiladigan mablag'larni naqd pulsiz o'tkazish shartlari tushuniladi.

Hisob - kitob operatsiyalari banklar tomonidan korxonalar uchun ochilgan hisob varaqlaridan mijoz bilan hisob – kitob xizmati ko'rsatish yuzasidan tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2013 yil 26 apreldagi 9/1 – sonli «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob – kitoblar to'g'risida Nizom»ga asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob – kitoblar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- akkreditivga ariza;
- inkasso topshiriqnomasi;
- hisob – kitob cheki;
- plastik kartochkalar bilan hisoblashish .

Korxonalar o'ziga qulay bo'lgan hisob – kitob shaklini erkin tanlashi mumkin. Hisob – kitoblarning qaysi shaklini qo'llash mumkinligini, to'lovning to'lash tartibi, to'lovchi bilan mablag' oluvchi o'rtasida tuziladigan shartnomada ko'rsatiladi.

Yuqoridagi shakllar bo'yicha qo'llaniladigan hujjatlar Markaziy bankning quyidagi talablari va andozalariga mos kelishi lozim:

- hisob-kitob hujjatining raqami;
- hujjat to'ldirilgan sana, oy, yil;
- to'lovchining nomi;
- to'lovchining hisob varaq raqami;
- soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (chek va akkreditivlarda ko'rsatilmaydi);
- to'lovchi bank nomi;
- to'lovchi bank kodi;
- oluvchining nomi;
- oluvchining hisob raqami;
- oluvchi bank nomi;
- oluvchi bank kodi;

- to'lov summasi miqdori (yozuvda ham ko'rsatiladi);

- to'lovning maqsadi (cheklarda ko'rsatilmaydi);

Bulardan tashqari hisob-kitob cheklarida qo'shimcha ravishda quyidagilar ko'rsatiladi;

- chekning seriyasi va raqami;

- jismoniy shaxs pasportining seriyasi va raqami;

- chekning oxirgi amal qilish sanasi

Shu kabi akkreditiv bo'yicha arizada quyidagilar qo'shimcha ravishda ko'rsatiladi;

-amal qilish mudatti;

- akkreditiv ochilayotgan shartnoma raqami va sanasi;

- buyurtma raqami;

- buyurtma sanasi;

- tovar yoki xizmatning nomi;

- akkreditiv bo'yicha to'lovni amalga oshirishda asos bo'lgan hujjatning turi;

-qo'shimcha shartlar.

Hujjatlar imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarning o'z qo'li bilan qo'ygan imzosi va korxonona muhri mavjud bo'lganda qabul qilinadi.

Hujjatlarni bo'yash, chizish va tozalashga yo'l qo'yilmaydi.

Naqd pulsiz hisob – kitob shakllarining muhim turlaridan biri to'lov topshiriqnoma hisoblanadi.

To'lov topshiriqnoma mijoz o'z hisobvarag'idan unga xizmat ko'rsatuvchi bankka ma'lum bir summani boshqa mijozning hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'idir.

Topshiriqnomalar bilan tovarlar, ish, xizmatlar va boshqa to'lovlar bo'yicha hisob – kitoblar amalga oshiriladi.

Topshiriqnomalar bank tomonidan to'lovchi hisob varag'ida mablag'lar bo'lgandagina (agar shartnoma va boshqa me'yoriy hujjatlarda boshqalar ko'zda tutilgan bo'lmasa) qabul qilinadi.

To'lov topshiriqnomalari bankga to'lovchi va oluvchiga bitta bank xizmat qilsa 3 nusxada (bank uchun, to'lovni oluvchi va to'lovchiga) taqdim etiladi, agar har xil banklar xizmat qilsa 4 nusxada tuziladi.

Elektron to'lovlar tizimi orqali olingan elektron to'lov topshiriqnoma mablag'larni oluvchi bankda 2 nusxada qabul qilinadi:

- bir nusxasi bankning kunlik hujjatlariga tikiladi.

- ikkinchi nusxasi mablag'lar oluvchining shaxsiy hisob varag'idan olingan ko'chirmaga ilova qilinadi.

To'lov topshiriqnomaning sanasi uni bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo'lishi kerak, ular mos kelmagan xolda to'lov topshiriqnoma ijro uchun qabul qilinmaydi (byudjetga va byudjetdan tashqari fondlar bo'yicha fondlar bo'yicha to'lovlar bundan mustasno).

**To'lov talabnoma** – bu mablag' oluvchining begilangan summani to'lovchi tomonidan bank orqali to'lashi to'g'risidagi talabini o'z ichiga olgan hisob – kitob hujjatidir.

Talabnomalar yuklab jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek tomonlar shartnomasida ko'zda tutilgan boshqa to'lovlar uchun qo'yilishi mumkin.

Talabnomalar tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan akseptli va akseptsiz bo'lishi mumkin.

Bank tomonidan to'lovchilarga talabnomalarni quyidagi akseptlash tartibi va muddati belgilangan:

- bir hudud ichida joylashgan mijozlar uchun – talabnomalarni bankka kelib tushgan kundan tashqari 3 ish kunida;

- boshqa hududlarda joylashgan mijozlar uchun talabnomalar bankka kelib tushgan kundan tashqari 5 ish kunida;

- to'lovchining asosli iltimosiga ko'ra 10 ish kunigacha.

Belgilangan muddatda korxonada yozma ravishda akseptlashni rad etmasa talabnoma akseptlangan hisoblanadi.

To'lovchining hisobvarag'ida mablag'lar yetarli bo'lmaganda talabnoma to'lovini bank qisman amalga oshiradi. Qolgan summadagi talabnoma 2 – kartotekaga joylashtiriladi, bunda talabnomaning orqa tomonida to'langan summa yozib ko'rsatiladi.

Talabnoma akseptlashdan qisman bosh tortganda to'lovchi tomonidan akseptlangan summa bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi, mablag'lar bo'lmaganda esa 2–kartotekaga joylashtiriladi. Talabnomaning dastlabki summasi aylanaga olinadi va yoniga to'lovchi akseptlagan talabnoma summasi qo'yiladi. Bunda bank to'lovchi tomonidan akseptlashni qisman rad qilganligi to'g'risida mablag'lar oluvchining bankiga yozma ravishda xabar berishi shart.

Akseptsiz to'lanadigan to'lov talabnomalari to'lovchilarning hisob varaqlaridan mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarishda quyidagi xollarda amalga oshiriladi.

a) elektr va issiqlik energiyasi uchun hisob – kitoblarda. Bu xolda talabnoma ajratilgan elektr va issiqlik energiyasi uchun maxsulot yetkazib beruvchi tomonidan bevosita iste'molchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka qo'yiladi.

b) qarzdor tomonidan talabnoma da'vo summasi tan olinganligi haqida javob xatining asl nusxasi ilova qilinganda;

v) qonunchilikda to'g'ridan – to'g'ri ko'zda tutilgan boshqa xollarda.

O'lchov asboblari ko'rsatkichlari va amaldagi tariflar asosida yozilgan elektr va issiqlik energiyasi uchun hisob – kitoblarda «To'lov maqsadi» grafasida «O'lchov asboblari ko'rsatkichlari» yoki «tarif asosida» degan yozuv ko'rsatiladi.

Talabnomaning yuqori burchagiga «Akseptsiz» degan so'z yoziladi yoki yozuv yozilgan muhr qo'yiladi. Bank ilova qilingan hujjatlarning talabnomada ko'rsatilgan rekvizitlariga mosligini tekshiradi.

To'lovchining bankida amaliyot (operasiyaon) kuni davomida kelib tushgan akseptsiz to'lanadigan talabnomalar shu kunning o'zidayoq to'lanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, agar to'lovchining hisob varag'ida mablag'lar mavjud yoki yetarli bo'lmasa talabnomaning to'lanmagan summasi ikkinchi kartotekadagi hisobvaraqlarga joylashtiriladi.

**Akkreditiv** – mijozning topshirigiga ko‘ra shartnoma bo‘yicha uning kontragenti foydasiga berilayotgan bankning shartli pul majburiyatidir.

Unga ko‘ra akkreditiv ochgan bank (bank imitent) uning kontragenti – mablag‘larni oluvchi foydasiga to‘lovni amalga oshirish yoki boshqa bankka bu turdagi to‘lovni bajarish uchun vakolat berish majburiyatini mablag‘lar oluvchi tomonidan hujjatlarni taqdim etgan va akkreditivda nazarda tutilgan boshqa shartlarni bajargan taqdirda oladi.

Akkreditivlarning quyidagi turlari ochilishi mumkin:

- qoplangan (deponentlangan);
- qoplanmagan (kafolatlangan).

Akkreditivlar bank tomonidan ko‘zda tutilmagan xolatlarning alohida hisob varaqlarida va 22602 – «Mijozlarning akkreditivlar bo‘yicha depozitlar» hisob varag‘ida hisobga olinadi. Har bir mablag‘larni oluvchi uchun unga xizmat ko‘rsatuvchi bankda akkreditivlar bo‘yicha alohida depozit hisob varaqlari ochiladi.

Qoplangan (deponentlangan) akkreditiv ochilgan taqdirda, bank emitent uni ochish vaqtida mijozning o‘z mablag‘larini yoki unga berilgan kreditni bank – emitentning majburiyatlari amal qilib turadigan butun muddatga ijrochi bank ixtiyoriga utkazishi shart.

Qoplanmagan akkreditiv ochilgan taqdirda bank – emitent ijrochi bankka akkreditivning butun summasini bank – emitentning ijrochi bankida yuritilayotgan hisob varagidan ko‘chirish huquqini beradi.

Qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan bo‘lishi mumkin.

Chaqirib olinuvchi akkreditiv bank – emitent tomonidan mablag‘larni oluvchi bilan oldindan xabardor qilmagan holda o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Akkreditivlarni chaqirib olish bank emitent zimmasiga mablag‘larni oluvchi oldida biron – bir majburiyat yuklamaydi. To‘lovchi chaqirib olinadigan akkreditivning shartlarini o‘zgartirishi va bekor qilinishi to‘g‘risidagi barcha ko‘rsatmalarni mablag‘lar oluvchiga faqat bank – emitent orqali berishi mumkin, ushbu bank mablag‘larni oluvchini banki (ijrochi bank) ni, u esa mablag‘ oluvchini xabardor qiladi.

Agar ijrochi bank operasialarni bajarish paytigacha akkreditivning o‘zgartirilganligi yoki u bekor qilinganligi haqida bildirishnoma olmagan bo‘lsa u chaqirib olinadigan akkreditiv bo‘yicha to‘lovni yoki boshqa operasialarni amalga oshirishi shart.

Mablag‘lar oluvchining roziligisiz, uni foydasiga ochilgan chaqirib olinmaydigan akkreditiv o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Ijrochi bank – emitent bilan shartnoma asosida chaqirib olinmaydigan akkreditivni tasdiqlashi mumkin. Bunday holda chaqirib olinmaydigan akkreditiv tasdiqlangan akkreditiv bo‘ladi.

Tasdiqlangan akkreditiv bo‘lganda ijrochi bank bank – emitentni akkreditiv shartlariga muvofiq to‘lovni amalga oshirish majburiyatlari bo‘yicha o‘z zimmasiga qo‘shimcha ravishda majburiyatlar oladi.

Tasdiqlangan akkreditiv ijrochi bankning roziligisiz o'zgartirilish yoki bekor qilinishi mumkin emas.

To'lovchi akkreditiv shakldagi hisob – kitoblarda bankka akkreditivga ariza taqdim etadi.

Akkreditivga arizada akkreditlar bo'yicha mablag'larni olish uchun mablag'larni oluvchi taqdim etishi lozim bo'lgan akkreditiv shartlari ro'yxati to'liq bo'lmasa tasdiqlovchi hujjatlarning aniq tasnifi va ularni rasmiylashtirishga doir talablar mavjud bo'lmasa, banklar akkreditiv uchun arizani to'lovchiga qaytarib berish va akkreditiv hisob varaqlarini ochmasligi kerak.

Akkreditivga ariza bank – emitentga ikki nusxada taqdim etiladi:

- birinchi nusxasi to'lovlar amalga oshirilgandan keyin bankning kunlik hujjatlariga tikiladi.

- ikkinchi nusxasi mablag'lar to'lovchining shaxsiy hisob varag'idan olingan ko'chirmaga ilova qilinadi.

Mablag'lar oluvchining bankida akkreditiv quyidagi xollarda yopiladi:

a) Akkreditiv muddati tamom bo'lgach

b) Mablag'lar oluvchining akkreditivning amal qilish muddati tamom bo'lgunicha undan foydalanishdan voz kechishi haqidagi yozma arizasiga ko'ra, agarda bu akkreditiv shartlarida ko'rsatilgan bo'lsa

v) To'lovchining akkreditivni to'liq yoki qisman chaqirib olish haqidagi yozma talabiga ko'ra, agar bu akkreditiv shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, akkreditiv bank – emitentdan xabar yetib kelgan kuni yopiladi yoki kamayadi, lekin 22602 – «Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari» balans hisob varag'idagi qoldiq summadan ko'p bo'lmagan xolda.

Ijrochi bank akkreditiv yopilganligi to'g'risida bank emitentga xabar beradi. Foydalanilmagan summa to'lovchining bankiga mablag'lar qaysi hisob varaqdan deponent qilingan bo'lsa shu hisob varaqqa utkaziladi.

Hisoblashuvlarning akkreditiv shaklini ustunligi mablag oluvchi uchun ishonchli, uning shartlari oddiy;

Kamchiligi – to'lovchining puli shu davrga muomiladan chiqadi, maxsulot junatuvchi bankida kutadi.

**Inkasso topshiriqnomasi** – mablag'lar oluvchining hisob varag'iga to'lovchining hisob varag'idan so'zsiz tartibda mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risidagi bankka topshirigini anglatadi.

Inkasso topshiriqnomalarini quyidagilar taqdim qilishi mumkin:

- soliq idoralari – soliqlar va davlat byudjetiga boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi byudjetidan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlarga oid to'lovlar va boqimandalarni undirib olishda;

- O'zavtodor konserni organlari – Respublika yo'l fondiga muddati o'tib ketgan to'lovlar bo'yicha mablag'lar undirishda;

- Bojxona organlari – o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovlari va jarimalarni undirishda;

- sud ijrochilari va undiruvchilar - ijro hujjatlari bo'yicha pul mablag'larini undirishda;

- qonunchilikka muvofiq boshqa organlar.

Ijro hujjatlari deb quyidagilar tan olinadi:

a) sudlar tomonidan berilgan ijro varaqalari;

b) sud buyruqlari;

v) alimentlar to'lash to'g'risidagi notarial tarzda tasdiqlangan kelishuvlar;

g) notariuslarning ijro ustxatlari;

d) mehnat nizolari bo'yicha komissiya qarorlari asosida beriladigan guvohnomalar;

ye) ma'muriy buyruqbozlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega organlar. (mansabdor shaxslar) chiqargan qarorlar;

j) sud ijrochilarining qarorlari;

z) qonunchilikda ko'zda tutilgan xollarda boshqa organlarning hujjatlari.

Bank tomonidan ijro hujjatlari asosan qo'yilgan hisob varaqlaridan pul mablag'larini undirish uchun inkasso topshiriqnomalarini faqat ijro hujjatining asl nusxasi yoki uni dublikati ilova qilingan holda qabul qilinadi. Hujjatlarning nusxalari bo'yicha to'lovchilarning hisob varaqlaridan mablag'larni hisobdan chiqarish taqiqlanadi.

**Hisob – kitob cheki** – bu mijozning xizmat ko'rsatuvchi bankka chek beruvchining hisob varag'idan chek qabul qiluvchining hisob varag'iga ma'lum miqdordagi mablag'larni utkazib berish uchun bankning maxsus blankasida bankka bergan topshirig'idir.

Chek blankalari tijorat banklari buyurtmasiga ko'ra ularning faoliyati uchun yetarli bo'lgan miqdorda Markaziy bank qoshidagi «Davlat belgisi» (Gosznak) korxonasida belgilangan shaklda tayyorlanadi. Bunda chek raqami va seriyasi, bank – emitentning nomi va firma belgisi tipografiya usulida yoziladi.

Hisob – kitob cheklari fakat tovarlar, ish va xizmatlar uchun xo'jalik subyektlari va jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob – kitoblarda qo'llaniladi.

Chek shaklidan foydalanishni ustunliklari quyidagilar:

- hisoblashuvni tez bo'lishi;
- hisob - kitobni kafolatlanganligi;
- debitorlik qarzlarni kamayishi;
- mablag'lar aylanishi tezlashuvi.

Chek shaklning kamchiliklari quyidagilar:

- cheklarni yirik hisob – kitoblarga rasmiylashtirilmasligi;
- ularni rasmiylashtirishdagi murakkabliklar;
  - chek orqali tovarlarni nominal qiymatida sotib olib bo'lmasligi.

**Plastik kartochkalar** tegishli bankda kartochka egasining hisob varagi mavjudligini tasdiqlovchi va naqd pulsiz tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish huquqini beruvchi, shaxsi belgilangan, bank tomonidan chiqarilgan to'lov vositasini o'zida ifoda etadi.

Plastik kartochkalar jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bir tomondan, maxsulotni sotuvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat

ko'rsatuvchi yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar ikkinchi tomondan, o'rtasida bo'ladigan naqd pulsiz hisob – kitoblarda, shuningdek naqd pul berish punktlari (terminal) va bankomatlardan naqd pul olishda qo'llaniladi.

Plastik kartochkalar bo'yicha xizmat ko'rsatish shartnoma asosida amalga oshirilib, shartnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tomonlarning nomlari;
- shartnoma mavzusi;
- tomonlarning xuquq va majburiyatlari;
- tomonlarning javobgarligi;
- hisob – kitoblarni o'tkazish shartlari;
- shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish shartlari;
- nizolarni hal qilish tartibi;
- tomonlarning yuridik manzili.

Plastik kartochkalar quyidagi belgilari bo'yicha guruhlanadi:

1. Aloqadorligi bo'yicha

- a) shaxsiy – bu jismoniy shaxsga beriladigan plastik kartochkalar;
- b) oilaviy – bu shaxsiy kartochka egasining ishonchnomasi asosida oilada foydalanuvchiga beriladigan plastik kartochka;
- v) korporativ – bu yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan plastik kartochka bo'lib ulardan ish xaqi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa to'lovlarni, shuningdek naqd pullarni to'lashda foydalanish taqiqlanadi.

2. Bajaradigan vazifalariga ko'ra:

a).debet – kartochkasidan foydalanish uning egasiga emitent bilan mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq o'zining kartochkasidagi pul mablag'laridan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini to'lash yoki naqd pul mablag'larini olishda (korporativ kartochkalardan tashqari) foydalanish imkonini beradi.

b). Kredit – kartochkasidan foydalanish uning egasiga, emitent bilan to'zilgan shartnoma shartlariga muvofiq emitent tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlar haqini to'lash yoki pul mablag'larini olish uchun (korporativ kartochkalardan tashqari) berilgan kredit liniyasi miqdorida operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

v). elektron xamyon – jismoniy shaxslarning kartochkasi bo'lib undan foydalanish uning egasiga plastik kartochkadagi qoldiq mablag'lar doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlarga xaq to'lash yoki pul mablag'larini olishga imkon beradi.

Plastik kartochkalarni tegishli shaxslarga biriktirishda quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart:

- identifikasiya belgilari (kartani raqami, seriyasi va boshqalar);
- bank – emitentning kodi;
- hisobvaraqa raqami va kartochka egasining familiyasi, ismi, otasining ismi (tashkilotning nomi);
- kartochkaning amal qilish muddati.

Plastik kartochkalardan foydalanib operatsiyalarni amalga oshirishda tuzilgan hujjatlar rekvizitlari plastik kartochkalar rekvizitlari bilan kartochka egalarining

bank hisob varaqlari, shuningdek korxonalar identifikatorlari, naqd pul berish punktlari, bankomatlar va tashkilotlarning bank hisob varaqlari kartasidagi muvofiqlikni belgilashga imkon beruvchi tomonlar o'rtasida kelishib olingan belgilarni o'z ichiga olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, pul aylanishi - naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat jarayonidir. Qiymatning o'zidan ajralganlik hozirgi pul aylanishining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Pul aylanishining mohiyati va belgilari nimada?
2. Monetar va fiskal siyosat nima?
3. Naqd pul aylanishining mohiyati va xususiyatlari nimada?
4. Naqd pul aylanishi sub'yektlarini tushuntiring.
5. Naqd pullarni bank kassalariga qaytib tushishidagi o'zgarishlar nimalar bilan bog'liq?
6. Naqd pulsiz hisob – kitoblar nima?
7. Naqd pulsiz hisob – kitoblarning zaruriyati va ahamiyati nimalar bilan bog'liq?
8. Naqd pulsiz hisob – kitoblar to'g'risidagi Nizom va undagi keyingi o'zgarishlar nimalar bilan bog'liq?
9. Naqd pulsiz hisob – kitoblar tashkil etilishining asoslari va tamoyillari nimalarni o'z ichiga oladi?
10. Naqd pulsiz hisob – kitoblar shaklining mohiyati va uning kandy turlari mavjud?
11. To'lov topshiriqnoma shaklidan foydalanishning asosiy xususiyatlari nimada?
12. To'lov talabnoma shaklidan foydalanishning asosiy xususiyatlari nimada?
13. Akkreditiv shaklidan foydalanishning asosiy xususiyatlari nimada?
14. Hisob – kitob chekidan foydalanishning asosiy xususiyatlari nimada?
15. Inkasso topshiriqnomasidan foydalanishning asosiy xususiyatlari nimada?
16. Naqd pulsiz hisob – kitoblarda plastik kartochkalardan foydalanishning zaruriyati nimada?
17. Plastik kartochkalardan foydalanishning asosiy xususiyatlari nimada?
18. Hisob – kitob va to'lov intizomi yuzasidan nazoratni qaysi raxbar organlar olib boradi?
19. Hisob – kitob va to'lov intizomi bo'zishi yuzasidan raxbar organlar tomonidan qandy choralar qullaniladi?

### III bob. Pul muomilasini tashkil qilish va pul massasi

#### III.1. Pul muomalasi qonuni va uning mohiyati

**Pul muomalasi** – bu pullarning mamlakatning ichki iqtisodiy aylanishi, tashqi iqtisodiy aloqalar tizimidagi, tovarlar va xizmatlarning sotilishiga, shuningdek, uy xo‘jaligidagi tovarsiz to‘lovlarga xizmat ko‘rsatadigan naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi harakatidir. Tovar ishlab chiqarish pul muomalasining ob‘ektiv negizi bo‘lib, undagi tovar olami tovarlarning ikki turiga: tovarlarning o‘ziga va tovar-pullarga bo‘linadi. Naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pullar yordamida tovarlar, shuningdek, ssuda va fiktiv kapitalarning muomalasi jarayoni amalga oshiriladi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlariga asoslangan. Tovar muomilasini taminlash pul miqdoriga ko‘p jihatdan bog‘liq.

**Pul muomilasi qonuni** - muomila uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini belgilaydigan, tovar-pul munosabatlarini o‘zida aks ettiradigan qonundir. Bu qonunga ko‘ra muomila davrida muomilaga zarur bo‘lgan pul miqdori barcha tovarlar summasiga to‘g‘ri proporsional pul aylanishi tezligiga teskari proporsional o‘zgaradi.

Xozirgi sharoitda muomila uchun zarur bo‘lgan pul miqdoriga quyidagi omillar ta’sir etadi.

1. Sotiladigan tovarlar miqdori (ko‘p bo‘lsa ko‘p va aksincha).
2. Tovarlar baho darajasi (yuqori bo‘lsa ko‘p va aksincha).
3. Kreditni rivojlanish darjasi (rivojlangan bo‘lsa naqd pul kam talab etiladi).
4. Naqd pulsiz xisob kitoblarni rivojlanish darajasi.
5. Pulni aylanish tezligi.

Muomila uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda quyidagi formulada ifodalash mumkin.

$$\text{MUZBPM} = \frac{\text{STVXM} - \text{ShKVNPXKB} + \text{MBTM} - \text{ShBBKTM}}{\text{PMVTVSO‘AT}}$$

Bunda: MUZBPM – muomila uchun zarur bo‘lgan pul miqdori  
STVXM – sotiladigan tovar va xizmatlar miqdori  
ShKVNPXKB – shundan kreditga va naqd pulsiz hisob – kitoblar bo‘yicha  
MBTM – majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlar miqdori  
ShBBKTM – shundan bir – birini qoplaydigan to‘lovlar miqdori  
PMVTVSO‘AT – pulning muomila va to‘lov vositasi sifatida o‘rtacha aylanish tezligi.

Shunday qilib, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga ishlab chiqarish rivoji va shart-sharoitlariga bog'liq bo'lgan turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil - bu tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. Pul miqdori tovarlar va xizmatlar bahosiga to'g'ri proporsional, ya'ni tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi muomalaga ko'p pul chiqarishni talab qiladi. Pul miqdoriga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil - bu pulning aylanish tezligi hisoblanadi. Bu omil pul miqdoriga teskari ta'sir ko'rsatadi. Odatda, pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori shuncha kam talab qilinadi va aksincha.

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlashda kassa aylanmasi xomcho'ti hamda aholi daromadlari va xarajatlari balansidan ham keng foydalaniladi.

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini kamaytirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muhimdir. Bular:

- iste'mol kreditni rivojlantirish; kreditga qanchalik ko'p tovar sotilsa, shuncha kam miqdorda pul muomalada kerak bo'ladi;
- naqd pulsiz hisob - kitoblarning rivojlanishi;
- pullarning muomala tezligini oshirishga erishish va boshqalar.

Har bir jamiyat pul muomalasi qonuni talablarini hisobga olgan holda ish yuritishi zarur. Chunki pul muomalasi qonunining buzilishi pul barqarorligiga putur etkazadi. Bu holda muomalaga chiqarilgan pul miqdori muomaladagi tovarlar bahosidan oshib ketishi, ya'ni inflyatsiya bo'lishiga yoki pul tanqisligiga (yetishmovchiligiga) olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pul muomalasini ushlab turish shart-sharoitlari va qonuniyatlari ikki omilning o'zaro ta'siri bilan, ya'ni xo'jalikning pulga bo'lgan ehtiyoji va amalda pullarning muomalaga borib tushishi bilan belgilanadi. Amaliyotda ko'proq uchraydigan xol bu aylanmada xo'jalikka kerak bo'lganidan ko'proq pulning bo'lishidir. Bu, albatta, pulning qadrsizlanishiga - pul birligi xarid qobiliyatining tushishiga olib keladi.

### **III.2. Pul massasi va pul agregatlari**

Pul muomalasining muhim ko'rsatkichi pul massasi hisoblanadi. Pul massasi xo'jalik aylanmasidagi naqd pullik hisob-kitoblarni aholi, korxonalar, davlat muassasalariga tegishli xarid va to'lov vositalarining yalpi hajmini o'zida ifodalaydi.

Pul massasi naqd pullardan tashqari muddatli hisob raqamdagi mablag' va jamg'armalarni, depozit sertifikatlari, investitsion fondlarning aktsiyalarini o'z ichiga oladi. Pul massasining yuqoridagi elementlari "kvazi" - "qariyb pullar" deb ham yuritiladi. Kvazi - pullar likvid aktivlar bo'lib, ular tez orada pulga aylanishi mumkin.

Pul muomalasining belgilangan muddat va belgilangan davri uchun miqdoriy o'zgarishlarini bilish uchun, shuningdek, pul massasi hajmi va o'sish suratlarini

tartibga solish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqarish uchun turli xil ko'rsatkichlar (pul agregatlari) dan foydalaniladi.

Pul agregatlarini qurish uchun moddiy ne'matlarning likvidiligi darajasiga qarab ularning bosqichma-bosqich joylashtirilishi asos qilib olingan. Moddiy ne'matlarning likvidiligi deganda ushbu ne'matlarning tez va unchalik ko'p zararlarsiz pulga aylanishi qobiliyati tushuniladi. Moddiy ne'matlarning likvidiligi vaqt bilan o'lchanadi. Moddiy ne'matni pulga aylantirish uchun qanchalik kam vaqt talab qilinsa, uning likvidiligi shunchalik yuqori bo'ladi. Naqd pullar mutloq likvidlikka ega, chunki ularni pulga aylantirish uchun zarur bo'ladigan vaqt nulgga tengdir.

Muomaladagi naqd pullar  $M^0$  agregatini tashkil etadi. Naqd pullar banknotalar, g'azna pattalari (biletlari) (agar mamlakatda ikkita emissiya markazi mavjud bo'lsa) va metall tangalardan iborat bo'ladi. Metall tangalar naqd pullarning juda kam qismini (rivojlangan mamlakatlarda 2%-3% ni) tashkil qiladi. Ularni keyinchalik yombiga aylantirib sotishga yo'l qo'ymaslik uchun odatda arzon metallardan zarb qilinadi. Shuning uchun tanganing real qiymati nominal qiymatidan birmuncha pastroq bo'ladi.

$M^0$  agregatini pul bazasidan farqlash zarur. Pul bazasi tarkibiga tijorat banklarining markaziy bankdagi majburiy zaxiralari kiradi.  $M^0$  agregatining tarkibiga tijorat banklarining markaziy bankdagi majburiy zaxiralari rasman kirmaydi.

$M^0$  agregatiga kamroq likvidli mablag'larni izchillik bilan qo'sha borish bilan  $M^1$ ,  $M^2$ ,  $M^3$ ... MN gacha bo'lgan agregatlar olinadi.

Pul agregatlarining soni va tarkibi mamlakat kredit tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tuzilishiga hamda uning moliya bozorlarining rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

Pul massasi alohida elementlardan iborat bo'lib, bunday elementlar pul massasining holatini baholash jarayonida qo'llaniladi va uni tartibga solish uslublari va hajmlarini birmuncha aniqroq tanlashga imkon beradi.

Ushbu pul agregatlari asosan to'lovning turli shakllarda ifodalangan u yoki boshqa vositalarini hisobga olish asosida ajratiladi. Odatda, har bir agregat nominal raqamga ega bo'ladi. Raqamning o'sib borishi bilan ushbu agregat yordamida hisobga olinadigan vositalar soni ham oshadi.

Shunday qilib, katta sonli koeffitsientli agregat kichik indeksli (raqamli) agregatlarda hisobga olingan barcha pul mablag'larini o'z ichiga oladi. Faqat muomalada bo'lgan naqd pul mablag'larini hisobga oladigan  $M^0$  pul agregati o'z ma'nosi va mohiyatiga ko'ra birinchi bo'lib hisoblanadi.

**M1** – muomaladagi naqd pul mablag'lari (ya'ni,  $M^0$  agregati), korxonalarining hisob-kitob, joriy va maxsus hisobvaraqlaridagi mablag'lari, sug'urta kompaniyalari mablag'lari, aholining tijorat banklaridagi «talab qilib olingungacha» hisobvaraqlaridagi depozitlari.

**M2** – M1 agregati + aholining banklardagi muddatli omonatlari.

**M3** – M2 agregati + davlat zayomlarining sertifikatlari va obligatsiyalari.

**M4** – M3 agregati + xorijiy valyutadagi depozitlar.

Shuni hisobga olish kerakki, bunday agregatlarning belgilanishi turli mamlakatlarda turlicha amalga oshiriladi. Ushbu agregatlar o'z holicha mamlakat to'lov oboroti sohasida yuz beradigan jarayonlar, jamg'armalar hajmlari, shuningdek, ushbu jamg'armani amalga oshirishda qo'llanilgan vositalarning sonli ifodasi vositalari hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning joriy holatini belgilashga imkon beradi va keyingi vaziyatni prognoz qilishda ko'maklashadi.

Pul massasi agregatlari, iqtisodiyot monetizatsiyasi koeffitsientini hisobga olish yordamidagi hisob-kitob eng namunali hisob-kitobdir. **Monetizatsiya** koeffitsienti iqtisodiyotning pullar bilan ta'minlanishi darajasi yoki tovar aylanishining to'lov vositalari bilan ta'minlanishi darajasini aks ettiradi. Bunday koeffitsient M2 pul agregati summasi va ushbu iqtisodiyotda mavjud bo'lgan xorijiy valyutadagi depozitlarning YAMI hajmiga o'zaro nisbati sifatida hisoblab chiqiladi. Ushbu koeffitsientni hisob-kitob qilishda suratga birdaniga M2 agregatini va xorijiy valyutadagi depozitlarni o'z ichiga oladigan M4 pul agregatini qo'yish qulayroq bo'ladi. Ushbu koeffitsient mohiyati idealda birga teng bo'ladi. Shunga qaramasdan, 0,7 yoki 0,8 darajasidagi natijalar yo'l qo'yilishi mumkin mohiyatlar deb hisoblanadi.

Naqd pullar tijorat banklaridan chiqib yana tijorat banklariga qaytadi va doimiy aylanishda bo'ladi. Naqd pullarning tijorat bankidan chiqib yana tijorat bankiga

qaytib kelish harakati ularning doiraviy aylanmasi deyiladi. Tijorat banklari faqat muomaladan vaqtincha ortiqcha bo'lgan va muomalaga yaroqsiz naqd pullarni Markaziy bank muassasalariga topshirishadi. Naqd pullarning Markaziy bankdan tijorat banklariga chiqishi muomalaga pul chiqarish, ya'ni Markaziy bankning emissiya operatsiyasi, tijorat banklaridan Markaziy bankka qaytib kelish harakati **muomaladan pul olish operatsiyasi** deyiladi. Naqd pullar aylanishini mamlakatimiz misolida quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Markaziy bank buyurtmasiga ko'ra, pul fabrikasida ishlab chiqarilgan naqd pullarni Markaziy bank va uning muassasalariga mahsus inkassatorlar apparati orqali yetkazib berish.

2. Markaziy bank tijorat banklari buyurtmalariga va pul – kredit siyosati ko'rsatgichlariga asosan tijorat banklariga inkassatorlar orqali naqd pullar yetkazib berish. Markaziy bank Hisob – kitob markazlari kassasidan faqat o'z mijozlariga qonunchilikda belgilangan to'lovlar uchun naqd pullar berish.

3. Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan o'zlari xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarga qonunchilikda belgilangan to'lovlarni amalga oshirish uchun naqd pullar berish.

4. Korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishchi va xizmatchilarga mehnat haqi, stipendiya, pensiya va boshqa ijtimoiy nafaqalar berish, shuningdek qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa to'lovlarni amalga oshirish.

5. Aholi tomonidan korxonalar va tashkilotlardan naqd pullarga tovarlar va qimmatli qog'ozlar, lotyereya biletleri harid qilish, ko'rsatilgan turli madaniy va maishiy xizmatlar, transport, sug'urta, kommunal to'lovlari, jarima va ustamalar hamda boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish.


6. Korxonalar va tashkilotlar tomonidan naqd pul tushumlarini tijorat bank kassalariga topshirish (inkassatsiya qilish).

7. Jismoniy shahslar tomonidan tijorat banklaridan naqd pulda kreditlar, omonatlardagi pul qo'yilmalari, dividend va naqd puldagi boshqa daromadlarini olish.

8. Jismoniy shahslar tomonidan tijorat banklariga naqd pulda kreditlarni qaytarish, omonatlar qo'yish va boshqa to'lovlarni amalga oshirish.

9. Tijorat banklari tomonidan muomalaga yaroqsiz va ortiqcha naqd pullarni Markaziy bankka topshirish.

2-chizma



Yuqoridagi chizmaning 4 va 5–bosqichlar naqd pullarning bankdan tashqari aylanmasini o'z ichiga oladi, ya'ni naqd pullarning bu harakati banklarni chetlab o'tadi. Naqd pullarning bu aylanmasining ma'lum qismi, aholi va xo'jalik sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan noqonuniy faoliyat turi hisoblanadi. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlarida naqd pullarning bankdan tashqari aylanmasiga barham berish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

**Naqd pullar emissiyasi.** Pullar markaziy emissiya banki faoliyati natijasida yaratiladi. Pullarni yaratish jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'ladi.

Pullarni yaratish jarayonining **birinchi bosqichida** markaziy emissiya banki asosiy yoʻnalishlar boʻyicha, shu jumladan, hukumatga, tijorat banklari, chet mamlakatlar, alohida korxonalariga bevosita kreditlarni berish yoʻli bilan (agar amaldagi qonunlarda shunday tartib nazarda tutilgan boʻlsa), shuningdek, rasmiy oltin va valyuta zaxiralarini koʻpaytirish orqali oʻz aktivlarini koʻpaytiradi.

Markaziy emissiya banki aktivlarining koʻpaytirilishi ayni bir vaqtda uning passivlarining ham tegishlicha oʻsishini anglatadi, yaʼni pul bazasining tashkil etilishiga olib keladi.

Pul bazasi muomaladagi naqd pullardan, shuningdek, tijorat banklarining mamlakat Markaziy bankidagi majburiy va majburiy boʻlmagan (ixtiyoriy va ortiqcha) zaxiralaridan iborat boʻladi.

Umuman olganda, tijorat banklarining zaxiralari deganda, mabodo bank omonatchilari toʻsatdan katta miqdordagi toʻlov talablarini qoʻygani holda, uning tezkorlik bilan muomalaga kiritadigan aktivlari tushuniladi. Tijorat banklarining Markaziy bankdagi zaxiralari majburiy va majburiy boʻlmagan (ixtiyoriy va ortiqcha) zaxiralardan tarkib topadi.

Majburiy zaxiralar deganda tijorat banklarining Markaziy bankdagi omonatlari (depozitlari)ning qonuniy tartibda belgilab qoʻyiladigan eng kam normasi tushuniladi.

Majburiy boʻlmagan (ixtiyoriy, ortiqcha) zaxiralar deganda tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlarida majburiy zaxiralarning belgilangan normasidan ortiq miqdorda saqlanayotgan mablagʻlari tushuniladi. Tijorat banklari majburiy boʻlmagan zaxiralar miqdorlarini oʻz xohishiga koʻra oʻzgartirishi mumkin. Shu munosabat bilan eʼlon qilinadigan statistikada pul bazasini belgilashda bunday zaxiralarni muomaladagi naqd pullar tarkibida yuribdi deb hisoblab, ular ajratib koʻrsatilmaydi. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki pul bazasining quyidagicha taʼrifini beradi:

**Pul bazasi** Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga chiqargan naqd pullar va tijorat banklarining majburiy zaxiralarini oʻz ichiga oladi.

Pullarni yaratish jarayonining **ikkinchi bosqichida** tijorat banklari oʻz mijozlari – korxonalar, tashkilotlar, aholini kreditlash uchun markaziy emissiya bankidan olgan kreditlardan foydalanadiki, bu pul massasining yaratilishiga olib keladi.

**Pul massasi tijorat banklari tizimidagi pul bazasining oshishi natijasida vujudga keladi va muomaladagi naqd pullardan va mijozlar hisobvaraqlaridagi pullar qoldiqlaridan iborat boʻladi.** Bank mulʼtiplikatori pullarning bir tijorat bankidan boshqa tijorat bankiga harakati davrida tijorat banklarining depozit hisobvaraqlaridagi pullarning koʻpayishi jarayonidan iborat. Pul massasini koʻpaytirishning ushbu mexanizmi faqat ikki darajali bank tizimi (markaziy va tijorat banklari) amal qiladigan va toʻliq faoliyat yuritadigan sharoitda ishlashi mumkin. Bank mulʼtiplikatori mexanizmining amal qilishi jarayonida banklar mijozlarining hisobvaraqlarida pul mablagʻlarining toʻplanishi yuz beradi. Ushbu mexanizmning amal qilishi intensivligini hisob-kitob qilish uchun bank mulʼtiplikatori koeffitsientini hisob-kitob qilish formulasi qoʻllaniladi:

**1-R x 100%** yoki pul massasi - R, bunda: R – markaziy bank belgilab qo‘ygan majburiy zaxiralash normasi.

**Bank mul’tiplikatori mexanizmi** quyidagi usulda faoliyat yuritadi: Markaziy bank qandaydir tijorat bankiga kredit beradi va o‘z navbatida ushbu tijorat banki o‘zining mijoziga kredit beradi. Mijoz ushbu taxminan 10 ta birlikdan iborat kreditdan o‘z majburiyatlarini to‘lash uchun foydalanadi. Pul mablag‘lari boshqa iqtisodiy sub`ektga borib tushadi va u bu mablag‘larni o‘zining tijorat bankidagi depozitli hisobvarag‘ida joylashtiradi. Bankning ikkinchi mijozining hisobvarag‘ida 10 ta birlik mavjud. Bank ushbu summadan majburiy zaxiralash fondiga muayyan foizni ajratadi. Bankda, masalan, erkin mablag‘larning 8 ta birligi qoladi va u ushbu mablag‘larni yana kreditga beradi. Bu operatsiya faqat shunday farq bilan takrorlanadiki, to‘rtinchi mijozning hisobvarag‘ida endi 8 ta birlik mavjud bo‘ladi. Bunday operatsiya muayyan muddat davomida takrorlanadi va natijada mijozlarning banklardagi hisobvaraqlarida Markaziy bank birinchi marta bergan bergan 10 ta birlikdan oshadigan summa (10+8+ va hokazo) paydo bo‘ladi. Shunday qilib, mazkur mexanizm iqtisodiyotga taqdim etilgan pul massasini muayyan summagacha naqd pulsiz shaklda ko‘paytirishga imkon beradi, ushbu holatda belgilab qo‘yilgan majburiy zaxiralash normasi qanchalik yuqori bo‘lsa, kreditning aylanishi shunchalik tez tugaydi va bu mexanizmning amal qilishi natijasida qo‘shimcha ravishda iqtisodiyotda shunchalik kam miqdordagi pullar paydo bo‘ladi.

Pul massasi bilan pul bazasi o‘rtasidagi nisbat pul mul’tiplikatori deb ataladi.

$$\text{Pul multiplikatori} = \frac{\text{Pul massasi}}{\text{Pul bazasi}}$$

Tijorat banklarining o‘z mijozlariga (iqtisodiyotga) kreditlari bilan Markaziy bankning tijorat banklariga kreditlari o‘rtasidagi nisbat kredit mul’tiplikatori deb ataladi.

$$\text{Kredit multiplikatori} = \frac{\text{Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar}}{\text{Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga berilgan kreditlar}}$$

Muomaladagi pullar miqdorining o‘sishi to‘laligicha Markaziy bankning kredit emissiyasi bilan oldindan belgilanadi va har qanday yo‘nalish bo‘yicha muqarrar tarzda pul bazasining o‘sishiga va mul’tiplikatorning ta‘sirida pul massasining

ko'payishiga olib keladi. Pul massasining ko'payishi inflyatsiya sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi.

Naqd pul mablag'larining emissiyasi emissiyaning naqd pulsiz shakldagi pullar emissiyasidan kelib chiqadigan ikkilamchi turidir. Emissiyaning bu turi Markaziy bank tomonidan o'tkaziladi. Emissiyaning ushbu shakli markazlashtirilmagan shaklda bo'ladi va mintaqaviy MTMLari orqali amalga oshiriladi. Ushbu kassalar qabul qilgan mablag'larning ortiqcha hajmi, ya'ni MTM bergan pullar miqdori tashkilotlar va banklarning MTMga qaytargan mablag'lar summasidan ortiq bo'lishi kerak. Naqd pullar depozit hisobvaraqlarida turgan naqd pulsiz shakldagi pul mablag'laridan hosil bo'ladi va tijorat banking bank mul'tiplikatori mexanizmining amal qilishi natijasida yaratgan pul massasining tarkibiy qismidan iborat bo'ladi.

### **III.3. Pul muomalasi barqarorligini ta'minlash usullari**

Bugungi eng muhim vazifa valyutamiz baquvvat, dunyoda obro'li valyutaga aylantirishdir, u yuksak qiymatga va katta kuchga ega bo'lishi lozim. So'mni barqarorligini ta'minlash va qadrini oshirish umummilliy vazifa. Respublikamizdagi barcha fuqarolarning farovonligi ana shu vazifani hal etilishiga bog'liq. Aslini olganda bu iqtisodiy vazifagina emas, hozirgi paytda ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik vazifaga aylanmoqda, chunki iqtisodiyotning yuksalishi ham, aholi turmush darajasi ham, davlatning obro'-e'tibori ham shu vazifaning bajarilishiga bog'liq.

**Birinchi navbatda** so'mning xarid quvvatini oshirish uchun iste'mol bozorini kerakli mollar bilan to'ldirish, aholini ehtiyojlarini qondiradigan va xorijdan keltiriladigan mollar bilan raqobat qila oladigan o'z maxsulotimizni ishlab chiqarishga zo'r berish zarur bo'ladi.

**Ikkinchidan**, respublikamizning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, korxonalarining eksport qilinadigan maxsulot ishlab chiqarish, jahon bozorida mustahkam joy olish jarayonlarini chuqurlashtirish lozim.

**Uchinchidan**, yoqilg'i-energiya manbalarini, ko'pgina uskuna va oziq-ovqat maxsulotlarini chetdan sotib olishni kamaytirish, ularni o'zimizda ishlab chiqarilgan maxsulot bilan almashtirish, tashqi savdo balansini mustahkamlashning muhim jihatidir.

**To'rtinchidan**, kapital bozorining barcha vositalaridan foydalangan holda O'zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirgan holda, aholi mablag'larining, shuningdek korxonalarining vaqtincha erkin mablag'larini jalb etish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur...

Belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, almashuv kursini barqarorlashtirish, milliy valyutani mustahkamlashda o'z samarasini ko'rsatishi lozim.

**Pulning barqarorligi** deganda pulning sotib olish qiymatining o'zgarmasligi va valyuta doimiyligi tushuniladi.

Shunga asosan uni sotib olish qobiliyati unga to'g'ri keladigan tovar va xizmatlarning **miqdori** bilan, pulga bo'lgan talab va taklifni muvozanati bilan,

davlat byudjeti taqchilligining holati bilan, inflyasiyaga qarshi ko‘riladigan choralarga ko‘p jihatdan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasida pul muomilasini boshqarishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi.

1. Majburiy rezerv stavkasi normasini belgilash.
2. Tijorat banklarini ochiq bozorda qatnashishi
3. Markazlashgan kreditlar uchun qayta moliyalashtirish stavkasini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risidagi qonunning 28 moddasiga binoan **majburiy rezerev** miqdori tijorat bankining yig‘ilgan resurslariga nisbatan foizda belgilanadi. Tijorat banklari resurslarining Markaziy bankda saklanishi lozim bo‘lgan ushbu qismi jamg‘arma turiga, uning hajmiga, bankning joylashgan o‘rniga bog‘liq bo‘lgan holda turli mamlakatlarda turlicha.

Masalan, Yaponiyada minimal rezerv stavkasi 2,5 %, AQSh da 12% Germaniyada 12,1%, Portugaliyada 17 %, O‘zbekistonda 20 % ni tashkil etadi. O‘zbekistonda bu rezerv 1.05.94 ga 30%, 1.07.96 ga 25 % ga 2006 yildan 15 % ga teng.

Markaziy bank tijorat banklarga kreditlar buyicha qayta moliyalashtirish stavkasini belgilab beradi. Bu stavka tijorat banklari beradigan kreditlarning bahosini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xozirgi ko‘pgina davlatlarda pul muomilasini tartibga solishda **ochiq bozorda operatsiyalar** o‘tkazish usulidan foydalanilmoqda. Bu hozirgi ko‘p qullaniladigan monitor siyosatni bir usuli bo‘lib, u tijorat banklarining likvidlik darajasiga tez ta’sir o‘tkazadigan egiluvchan (moslanuvchan) amaliy va operativ usul hisoblanadi. Bu usulni boshqalardan farqi shundaki, uni zaruriyatga qarab va hohlagan miqdorda o‘tkazish mumkin. Bu mexanizm bozorni rivojlanish tendeniyasiga qarab pul muomilasini barqarorlashtira olishi mumkin. Bunda oldi-sotdi obykti davlat qimmatli qog‘ozlari va markaziy bank chiqargan qarz majburiyatlari bo‘lishi mumkin.

Rivojlangan davlatlarda asosan ochiq bozorda operatsiyalar o‘tkazish usulidan foydalaniladi.

Shunday qilib Markaziy bank pul muomilasini barqarorlashtirish, uni tartibga solish borasida barcha vakolat va xuqiqiy norma vakolatlarga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risidagi qonunning 3-moddasida ta’kidlanganidek O‘zbekiston Respublikasi markaziy bankining bosh maqsadi – milliy valyuta barqarorligini ta’minlashdir. Valyuta barqarorligi pul massasi, narx – navo va milliy valyuta kursining barqaror bo‘lish tushunchasini o‘z ichiga oladi.

Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi.

1. Monetar siyosatni va valyutani boshqarish siyosatini shakllantirish, qabul qilish hamda amalga oshirish.
2. O‘zbekiston Respublikasida xisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil qilish va ta’minlash.

3. Banklar faoliyatini tartibga solish va ular faoliyati ustidan nazorat qilish.
4. O‘zbekiston Respublikasining rasmiy oltin valyuta zahirasini saqlash va ularni boshqarish.
5. Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish.

Markaziy bank pul muomilasini barqarorlashtirish uchun ba’zi hollarda quyidagi usullarda ham tayyorlanadi.

1. **Nullifikatsiya** – bunda qadrsizlangan pul batamom bekor qilinib muomilaga yangi pullar chiqariladi. Bu usul inflyasiya darajasi o‘ta yuqorilab ketgan hollarda qullaniladi. Bu usul SSSR da 1922 - 1924, 1947, 1997, 1961 yillardagi pul islohati, O‘zbekistonda 1994 yilda bo‘lib o‘tgan pul islohatida qullanilgan.

2. **Revolvatsiya** – lotincha qadrini oshishi ma’nosini anglatib bu milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan qadrini oshishini bildiradi. Masalan 1\$= 1110 so‘mga teng bo‘ldi. Ushbu tadbirdan keyin 1005 so‘mga teng bo‘ladi. Bu usul 1922-1928 yillarda Angliyada, 1961, 1969, 1971 yillarda Germaniyada qullanilgan.

3. **Devolvatsiya** – lotincha qadrini tushishi ma’nosini anglatadi. Bu usul davlat tomonidan milliy valyuta kursini boshqa valyutalarga nisbatan pasaytirilishi bo‘lib u bozor uchun kurash kuchaygan sharoitda eksportni rag‘batlantirish, to‘lov muvozanatini yaxshilash uchun qullaniladi. Buning asosiy sabablari bo‘lib inflyasiyani kuchayishi va mamlakat tulov balansning salbiy qoldiqga ega bo‘lishidir.

Bu usul AQSh da 1971 yilda 7,89 % ga, 1973 yilda 10 % ga dollar kursini pasaytirish bilan qullanilgan.

4. **Denominatsiya** – pul miqdorini bir necha marotaba qisqartirish hisoblanadi va u pulni qadri yuqori darajada tushganda, muomiladagi pul hajmi oshganda qullaniladi. Bu usul Rossiya federasiyasida 1921-1922 yillardagi pul islohatida 1000:1, 1923 yilda 100:1, 1999 yilda 1000:1 hoida, Buxoro shuro xalq respublikasida bu usul 1922 yilda 100:1, O‘zbekiston Respublikasida 1994 yilda 1000:1 hoida qullanilgan. hda asosiy vazifani bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, pul muomalasi – bu pullarning mamlakatning ichki iqtisodiy aylanishi, tashqi iqtisodiy aloqalar tizimidagi, tovarlar va xizmatlarning sotilishiga, shuningdek, uy xo‘jaligidagi tovarsiz to‘lovlarga xizmat ko‘rsatadigan naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi harakatidir. Pul rmassasini o‘lchov ko‘rsatkichlari bo‘lib, pul agregatlari hisoblanadi. Har bir mamlakatdagi pul agregatlari soni hamda ulaming tarkibi mamlakatdagi kredit tizimiga va uning moliya bozorini rivojlanishi bilan belgilanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Pul muomalasi nima?
2. Pul muomalasi qonunining mazmun mohiyatini tushuntiring.
3. Pulning aylanish tezligi nima?
4. Pul massasi nima?

5. Pul agregatlari nimani bildiradi?
6. Pul bazasi nimani ifodalaydi?
7. Pulning barqarorligini ta'minlash usullari.
8. Monetizatsiya nimani ifodalaydi?
9. Pulni yaratish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
10. Pul multiplikatori nima?
11. Kredit multiplikatori nima?
12. Nulifikatsiya nima?
13. Devalvatsiya nima
14. Revalvatsiya nima?
15. Pulning barqarorligiga qanday omillar ta'sir etadi?
16. Denominasiya nimani bildiradi?

## IY bob. Pul tizimi va uning elementlari

### IY.1. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari

**Pul tizimi deganda** mazkur mamlakatda pul muomilasini qonuniy va mutonosib ravishda tashkil qilishda qullaniladigan uslublar mujmuasi tushuniladi. Davlat tomonidan pul muomalasini amalga oshirish tartibini belgilashda mamlakat tarihi, siyosiy holati, milliy an'analari hamda uning iqtisodiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Pul tizimi – bu mamlakatda pul muomalasini amalga oshirishning shakli bo'lib, uning asosini milliy valyuta tashkil etadi va milliy valyuta orqali tartibga solinadi.

Pul tizimini tashkil etish **tamoyillari** – pul tizimini tashkil etishning asosiy elementlaridan hisoblanib, ushbu tamoyillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

**Pul tizimini markazdan boshqarishi tamoyili.** Pul tizimini boshqarishning ushbu tamoyili mamlakatni ma'muriy – taqsimlash modeliga xos bo'lib, bu jarayonda barcha pul munosabatlari tegishli ko'rsatma va reja asosida amalga oshiriladi. Mamlakatda faoliyat yuritadigan barcha banklar a ularning filiallari davlat ixtiyorida va nazorati ostida faoliyat yuritadi. Muomalada pul massasini tartibga solish tegishli reja va derektiv ko'rsatmalar orqali bajariladi.

**Pul tizimini talab va taklif asosida tartibga solish tamoyili.** Pul tizimini tashkil etishning ushbu tamoyilida asosiy e'tibor milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamligi va inflyatsiya darajasining normal me'yoriga qaratiladi. Mamlakat Markaziy banki mustaqil ravishda pul – kredit siyosatini amalga oshiradi, kredit

muassasalari Markaziy bank tomonidan belgilangan tegishli iqtisodiy normativlarga rioya etgan holda o'zining faoliyatini tashkil etadi.

Pul tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. pul tizimini tashkil etish tamoyillari;
2. pul birligi;
3. baho masshtabi;
4. pulning turlari;
5. pul birliklari va belgilarini emissiya qilish tartibi va ularning ta'minlanganlik asoslari;
6. pul muomalasini tartibga solishning usullari;
7. mamlakatda pul oborotining tarkibi va uni tashkil etish.

**Pul birligi.** Pul birligi va uning nomi hukumatning tegishli qonun va me'yoriy hujjatlari asosida belgilanadi. Qonun va tegishli me'yoriy hujjatlar asosida belgilab qo'yilgan pul belgilari mamlakatda yagona to'lov vositasi vazifasini bajaradi. Mamlakat

pul massasi o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni tartibga soladi. Bundan asosiy maqsad mamlakat milliy valyutasining barqarorligini ta'minlashdan iborat. Iqtisodiyotda muomalada bo'lgan pul birligi o'zining nomiga ega bo'ladi. Milliy

valyutaning nomi barcha mamlakatlarda turlicha nomda yuritiladi. Masalan, AQShda dollar, Buyuk Britaniyada funt styerling, Xitoyda yuan va boshqalar .

**Baho masshtabi** – bu qiymatning pul birligida aks ettirish vositasidir, pulning o‘ziga xos bo‘lgan texnik funktsiyasi ham hisoblanadi. Muomalada oltin va kumush tangalar pul vazifasini bajargan paytda baho masshtabi, ya'ni milliy valyutaning bahosi bevosita oltin va kumush tangalar orqali aniqlangan. Ya'ni, qog'oz pullar ma'lum miqdorda oltin va kumush tangalar bilan ta'minlangan. 1971 – 1973 yillarda rasmiy ravishda oltinning pul vositasi vazifasini bajarishi va qog'oz pullarning oltin bilan ta'minlanganligi bekor qilindi. Natijada, milliy valyutaning baho masshtabi tovarlar va xizmatlar hamda horijiy valyutalarga nisbatan talab va taklif asosida aniqlanadigan bo‘ldi, ko‘pchilik mamlakatlar

milliy valyutaning qiymatini aniqlashda dunyoning etakchi valyutalarini hisoblangan AQSh dollari, yevro, yuan kabi valyutalarni asos qilib oladi.

**Pulning turlari** – mamlakatdagi qonuniy to‘lov vositasi hisoblanadi. Hozirgi paytda hech qanday mamlakatda metall pul tizimi amal qilmaydi. Pulning asosiy turlari sifatida kredit biletlari (banknota), shuningdek, davlatning xazina biletlari va tangalar to‘lov vositasini bajaradi.

**Pul birliklari va belgilarini emissiya qilish tartibi va ularning ta'minlanganlik asoslari.** Har bir mamlakat o‘zining milliy valyutasini emissiya qilish tartibi va qoidalarini mustaqil ravishda amalga oshiradi. Mamlakatda milliy valyutani emissiya qilish, muomalaga pullarni chiqarish va muomaladan qaytarib olish tartibini Markaziy bank amalga oshiradi. Muomaladagi pul birliklari Markaziy bankning barcha aktivlari va mamlakatdagi moddiy tovar qimmatliklar bilan ta'minlanadi.

**Pul muomalasini tartibga solishning usullari.** Mamlakatda pul muomalasini tartibga solishning asosiy maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat bo‘lib, ushbu vazifani Markaziy bank amalga oshiradi. Markaziy bank pul muomalasini tartibga solishning asosiy instrumentlari sifatida majburiy zahiralar siyosati, qayta moliyalash siyosati, ochiq bozordagi operatsiyalari, depozit siyosati va valyuta siyosatini amalga oshiradi.

**Mamlakatda pul oborotining tarkibi va uni tashkil etish.** Pul oboroti o‘z tarkibiga naqd pulli va naqd pulsiz hisob – kitoblarni oladi. Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan pul oborotining asosiy qismi naqd pulsiz hisob – kitoblar ulushiga to‘g‘ri keladi. Pul oborotining tarkibi, tartibi va nazorati Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Har bir mamlakatda pul tizimining tarkibi, amal qilish usullari va

tartibi davlatning tegishli qonunlari asosida o‘rnatiladi. Pul tizimining mustahkamligi va uning barqarorligiga quyidagi turli omillar ta'sir qiladi:

a). Mamlakat Markaziy bankining pul – kredit siyosatini amalga oshirishdagi mustaqilligi. Ko‘pchilik hollarda Markaziy bank pul – kredit siyosatini amalga oshirishga hukumatning aralashuvi va tazyiqi natijasida milliy valyutaning sotib olish qobiliyati zaiflashadi, mamlakat bank tizimiga aholining ishonchi pasayib kyetadi. Buning natijasida pul tizimi nobaraqaror bo‘lib,

Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul –kredit siyosati o‘zining tegishli samarasini bermaydi.

b). Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi. Mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustahkamligi va ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligi pul tizimining barqarorligini ta'minlashga bevosita xizmat qiladi. Chunki bozor munosabatlarining chuqurlashuvi mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy integratsiyani rivojlanishiga va iqtisodiyotning globallashtirishiga olib keladi. Ushbu sharoitda olib borilayotgan makro va mikroiqtisodiy siyosat tegishli samarani bermasa, mamlakatda importning hajmi eksportga nisbatan ortib ketishi kuzatiladi. Bu esa o‘z navbatida pul tizimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

## IY.2. Pul tizimining turlari

Kishilik jamiyatining vujudga kelishi, rivojlanishi va takomillashuvi barobarida tovar – pul munosabatlari ham shunga monand holda rivojlanib va takomillashib kelmoqda. Shuningdek, pul tizimi ham mavjud ijtimoiy–iqtisodiy jarayonlar davomida ikki turdan iborat bo‘ldi. Xususan:

– metall pullar tizimi, bunda tovar pul (qimmatbaho metall) muomala vositasini bajaradi, metall pullar to‘lov vositasini bajarganda ularda pulning barcha funksiyalari namoyon bo‘ladi;

– qog‘oz – kredit pullar tizimi, oltin va kumush tanga pullar evolyucion tarzda qog‘oz – kredit pullari tomonidan muomaladan siqib chiqarildi.

Metall pullar tizimi sharoitida metall qanday shaklda bo‘lishidan qa'tiy nazar, to‘lov vositasi sifatida qabul qilindi. Metall pullar tizimi ikkiga bo‘linib, **birinchisi, bimetallizm, ikkinchisi, monometallizm** sifatida guruhlanadi.

**Bimetallizm** – bu pul tizimida davlat qonuniy jihatdan to‘lov vositasi ikkita metallni (odatda oltin va kumush) chegaralanmagan miqdorda erkin zarb qilishga ruhsat beradi.

O‘z navbatida bimetllizm tizimi uchta shaklda amal qildi:

– birinchidan, parallel valyuta tizimi, ushbu metall pullar o‘rtasidagi munosabat ularning bozor bahosidan kelib chiqqan holda stihiyali ravishda o‘rnatildi;

– ikkinchidan, ikkiyoqlamali valyuta tizimi, metall pullar o‘rtasidagi munosabat davlat tomonidan belgilandi va shuning asosida oltin va kumush tangalar zarb qilindi;

– uchinchidan, «oqsoq» valyuta tizimi – ushbu tizimda oltin va kumush tangalar qonuniy to‘lov vositasi sifatida xizmat qildi, lekin kumush tangalar yopiq holda, oltin tangalar esa erkin zarb etildi. «Oqsoq» valyuta tizimi deyilishiga sabab kumush tangalar ushbu davrda to‘laqonli valyuta sifatida umum ekvivalent rolini amalga oshirmaydi.

Muomalada ikkita metall pulning vazifasini bajargan paytda ular o‘rtasida bahoni aniqlashda muammolar va ziddiyatli holatlar vujudga keldi. Shu bilan birga, pul tizimining bimetllizm shakli beqaror va bir –biriga o‘zaro qarama –

qarshi edi. Shuningdek, rivojlangan tovar – pul munosabatlari sharoiti talablariga yetarli darajada javob bermas edi. Pul tizimining bimetallizm shakli hukm surgan davri asosan XVI –XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Yevropa mamlakatlarida 1866 yillarda bimetallizm pul tizimini saqlab qolish maqsadida kumushning qiymatini oltin nisbati rasmiy belgilab qo‘yildi. Unga ko‘ra, o‘sha paytda kumush va oltin o‘rtasida munosabat 15,5:1 nisbatda o‘rnatildi. XIX asrning o‘rtalarida ushbu tenglik o‘rtasida farq kengayib 22:1 tartibda belgilandi. Buning natijasida oltin va kumush tangalar muomaladan chiqib, boylik jamg'armasini bajara boshladi. Jamiyatda tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi va ijtimoiy – iqtisodiy yagona umumekvivalent vazifasini bitta metall pul bajarish zarurligini ko‘rsatdi. Buning natijasida monometallizm pul tizimi shakllandi.

**Monometallizm** pul tizimi sharoitida – bitta qimmatbaho metal (oltin va kumush, asosan oltin) umum ekvivalent vazifasini bajardi. Shu bilan birga, pul tizimining monometallizm davrida muomalaga oltin tangalarga maydalanadigan boshqa pul belgilari (hazina biletlari, banknotlar va mayda monetalar) ham kirib kela boshladi.

Xalqaro valyuta – kredit munosabatlarini amalga oshirishda XIX asrda to‘liq va XX asrning boshlarigacha muomalada oltin asosiy rol o‘ynadi. Oltin standartining rivojlangan davri 1880 – 1914 yillarga to‘g‘ri keladi. Monometallizm o‘z navbatida oltin tanga, oltin quyma va oltin deviz standartini o‘z ichiga olar edi.

**Oltin tanga standarti** tovarlarning bahosi oltinda ifodalanadi, mamlakat bozorlarida oltin to‘lov vositasini bajaradi va erkin ravishda zarb etiladi. Oltin pulning barcha funksiyalarini bajaradi. Oltin tanga standarti sharoitida pul tizimi talab va taklif asosida tartibga solinib, muomaladan ortiqcha bo‘lgan oltin tanglar “avtomatik ravishda” jamg'armaga yo‘naltirildi, muomalada qo‘shimcha to‘lov vositasiga ehtiyoj tug‘ilganda ular jamg'armadan muomalaga qaytariladi. Oltin tanga standarti sharoitida mamlakatda pul tizimini tashkil etish silliq va samarali tarzda amalga oshirildi, biroq kishilarning tovar moddiy qiymatlarga bo‘lgan talabining hajmi iqtisodiyotdagi mavjud oltin zahiralarini hajmidan sezilarli darajada ortib bordi, shuningdek, oltin tanga standarti sharoitida Markaziy banklarda ma'lum darajadagi oltin zahiralarini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Oltin tanga standartining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

- oltin tangalarni qat'iy o‘rnatilgan qiymatlarda erkin ravishda zarb etish;
- o‘zining qiymatini oltinda ifoda etadigan pullarni maydalash;
- oltinning mamlakatlar o‘rtasida erkin ayirboshlanuvi;
- oltin pulning barcha funksiyalarini bajarishi.

Birinchi jahon urushi juda katta miqdordagi moliyaviy harajatlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi, buning natijasida hukumat byudjet taqchilligini qoplash maqsadida muomalaga qog'oz pullarni emissiya qildi. Bu o‘z navbatida birinchi jahon urushida ishtirok etgan barcha mamlakatlarda (AQShdan tashqari) oltinni qog'oz pullarga almashtirish va horijga olib chiqib ketish qonunan ta'qiqilab qo‘yildi. Birinchi jahon urushidan keyin, birorta mamlakat oltin tanga standartiga qaytish imkoniyatini qila olmadi. 1920 yillarda qator mamlakatlarda oltin quyma standarti joriy etildi.

**Oltin quyma standarti** sharoitida banknotalar davlat tomonidan oʻrnatilgan summada oltin quymalarga ayirboshlanadi, oltin quyma standarti sharoitida muomalada oltin tangalarning toʻlov vositasi sifatida harakati va erkin zarb qilinishi amal qilmaydi. Oltin quyma standartlari asosan oltin zahiralariiga boy boʻlgan AQSh, Angliya, Fransiya va Yaponiyada hukm surdi. Unga koʻra muomalaga oltin tangalarning erkin zarb qilinishi barham topib, pullarni oltinga almashtirish quyilmalarning qiymati asosida chegaralanib qoʻyildi. Masalan, Buyuk Britaniyada bir oltin quyilmasi 12,4 kg.ga toʻgʻri kelar edi. Ushbu quyilmani olish uchun 1700 funt styerling zarur edi. Franiyada bir quyilma 12,7 kg boʻlib, ushbu quyilma 215 ming franka baholanar edi. Katta miqdorda oltin zahiralariiga ega boʻlmagan mamlakatlarda (Avstraliya, Gyermaniya, Daniya, Norvegiya va boshqalar) oltin deviz standarti amal qilar edi. Oltin deviz standarti joriy etilgan

mamlakatlarda milliy valyutalar devizlarga, yaʼni oltinga erkin almashadigan chet el valyutalariiga ayirboshlanishi joriy etildi. Buning natijasida bir mamlakatning ikkinchi mamlakatga valyutaviy bogʻliqligi vujudga keldi.

1929 – 1933 yillarda yuz bergan butun jahon iqtisodiy inqirozi natijasida oltin monometallizmining barcha shakllari amal qilish faoliyatini toʻxtatdi, AQSh dollarining oltinga nisbatan pariteti saqqalanib qoldi. 1930 yillardan boshlab xalqaro va mahalliy hisob – kitoblarda qogʻoz – kredit pul tizimi faoliyat yurita boshladi. Ushbu tizimning oʻziga hos xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

- oltinning umumekvivalent sifatida muomaladagi harakati toʻhtatildi, bankotlarning oltinga ayirboshlanishi va maydalanishi barham topdi, oltin ichki va tashqi oborotdan chiqib zahira sifatida saqlanadigan boʻldi;

- banklarning kredit operatsiyalari asosida muomalaga naqd va naqdsiz pul belgilari chiqarildi;

- pul oborotining asosiy ulushini naqd pulsiz hisob – kitoblar egallay boshladi;

- davlat tomonidan pul muomalasini tartibga solish kuchaytirildi, iqtisodiyotda pul muomalasini tartibga solishning instrumentlari ishlab chiqildi.

**Qogʻoz – kredit pullar tizimi.** Qogʻoz – kredit pullar tizimining evolyutsion rivojlanishi, iqtisodiyotning globallashuvi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi sharoitida pul oborotini vaqtdan va moliyaviy jihatdan yanada tejamliroq boʻlishini, shuningdek, uni samaraliroq ishlashini taʼminlamoqda. Agar dastlabki qogʻoz pullar tahminan X asrning ohiri XI asrning boshlarida muomalaga chiqarila boshlangan boʻlsa, 1930 yillarning ohiriga kelib ular qatorida kredit pullari toʻlov hisob – kitob va pul aylanmalarini amalga oshirishda ishtirok eta boshladi. Bu oʻz navbatida iqtisodiyotda pul – kredit siyosatini amalga oshirish va pul muomalasini tashkil etishga ijobiy taʼsir koʻrsata boshladi. Iqtisodiyotning rivojlangan hozirgi davrida pulning asosiy turlari banklarning kredit biletleri (banknotlar), tangalar, pul cheklari, elektron–plastik kartochkalar, hisob raqamlarda yozuvda aks ettirilgan pullar hisoblanadi.

### **IY.3. Pulning turlariga umumiy tavsif**

Kishilik jamiyatida ayirboshlash munosabatlarining chuqurlashuvi, mehnat taqsimotining rivojlanishi pulning oddiy tovar shaklidan, hozirgi kunda hisob – kitoblarda qo‘llanilayotgan elektron pullar ko‘rinishi darajasigacha etib kelishiga sabab bo‘ldi. Albatta bu juda uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Kishilar stixiyali tarzda hayot kechirgan va natural xo‘jalik tuzumi sharoitida turli buyumlar, hayvonlar, maxsulotlar pulning vazifasini bajargan bo‘lsa, miloddan oldingi VII – VI asrlarda metallar pul sifatida amal qilgan, XI va XII asrlarda qog‘oz pullar, HH asrdan esa elektron pullar iqtisodiyotga to‘lov vositasi sifatida kirib keldi. Demak, pul bugungi kundagi ko‘rinishiga yetib kelguncha juda uzoq davr va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni bosib o‘tgan. Pulning turlarini o‘rganishda uni asl qiymatga ega bo‘lgan (haqiqiy) pul va asl qiymatga ega bo‘lmagan (o‘rinbosar) pul sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq. Odatda haqiqiy pullar to‘lov vositasini bajarganda ular o‘z qiymati bo‘yicha ayirboshlash jarayonida ishtirok etgan, iqtisodiyotda pul massasini tartibga solish bo‘yicha muammolar mavjud bo‘lmagan. Asl qiymatga ega bo‘lmagan pullarning haqiqiy qiymati nominal qiymatiga nisbatan bir necha marta past bo‘lib, ular muomalaga chiqarilgandan keyin doimiy ravishda tartibga solinib turish lozim. Aks holda iqtisodiyotda pul massasi tovar massasiga nisbatan ortib kyetadi va qog‘oz pullar o‘zining to‘lov vositasi sifatidagi qobiliyatini yo‘qotadi.

Haqiqiy pullar quyidagi xossalarga ega bo‘lgan:

- nominal qiymatning real qiymat bilan mutanosibligi;
- qiymatning qardsizlanmasligi, ya'ni haqiqiy pullar har qanday sharoitda ham o‘zining dastlabki qiymatini yo‘qotmagan;
- ularni boshqa tovarlar kabi iste'mol qilish mumkinligi.

Biroq, natural pullarning hammasi ham yuqoridagi hossalarni uzoq muddatga saqlab turish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Masalan, bug‘doy, tamaki, choy, baliq, jun kabilar vaqt o‘tishi bilan o‘zining dastlabki hususiyatlarini yo‘qotgan.

**Buyum shaklidagi «natural pullar».** Jamiyatning dastlabki davrlarida to‘lov vositasi sifatida foydalanilgan pullar buyum yoki natural ko‘rinishida bo‘lgan. Natural pullar – bu real ko‘rinishga ega bo‘lgan tovarlardir, ushbu pullarning qiymati tovarning o‘zida aks ettirilgan bo‘lib, ularning sotib olish qobiliyati tovarlar qiymati bilan ifodalangan. Ma'lum bir tovarning pul o‘rnida foydalanishda uning iste'mol qiymati muhim ahamiyat kasb etgan. Natural shakldagi pullarni uchta guruhga ajratgan xolda tasniflash mumkin.

1. Hayvonlar shaklida. Ushbu pul tarkibiga tirik hayvonlar va ulardan tayyorlangan buyumlar kiradi. Masalan, qo‘y, buqa, jun, suyak va boshqalar.


2. Buyum shaklida. Bu shakldagi pullar tarkibiga foydali qazilmalar va metallar hamda ulardan yasalgan mehnat qurollarini keltirish mumkin. Masalan, qimmatbaho toshlar va metallar, tuz va boshqalar.

3. O‘simlik shaklida. Bularning tarkibiga turli o‘simliklar va ularning myevalari kiradi. Masalan, bug‘doy, myevalar, tamaki va boshqalar.

**Natural pullarning paydo bo‘lishi va ulardan foydalanish tarihi.** Odamlar dastlab yovvoyi holda yashagan davrda barcha kishilar topgani o‘rtada bo‘lgan,

birgalikda iste'mol qilgan, keyinchalik bir urug'ga mansub kishilar qabila – qabila bo‘lib yashay boshlagan. Qabila ichida odamlar bir – biriga yordam berishi, oziq – ovqatlarni baham ko‘rishi kerak bo‘lgan. Bu beg'araz tartibda amalga oshirilib, buning o‘rniga ular bir – biridan hech narsa umid qilmagan, hamma narsa o‘rtada bo‘lgan. Keyinchalik ibtidoiy urug'chlikning rivojlanishi natijasida turli qabila qatlamlari vujudga kelgan. Vaqti – vaqti bilan ular o‘rtasida dahshatli qonli to‘qnashuvlar bo‘lib turgan. Ushbu to‘qnashuvlar natijasida bir qabila ikkinchisi ustidan g'alaba qozongandan keyin, ularning barcha narsalarini talon taroj qilgan. Shu bois, ayrim qabilalar tinchlikni saqlash maqsadida kuchli qabilalarga narsalar, asosan iste'mol qilinadigan narsalarni bergan. Aynan shu jarayon ham kishilar o‘rtasida bir tomonlama ayirboshlash munosabatlarini vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Tosh asri davrida kishilar yerlarni o‘zlashtirib ekin eka boshlagan, keyinchalik dehqonchilikdan chorvachilik ajralib chiqqan. Dastlab yaratilgan narsalar barchasi bir yo‘la iste'mol qilingan bo‘lsa, endi ma'lum miqdorda zahiralari qilina boshlagan. Zahira qilindimi, u yerda ortiqchilik vujudga kelgan. Ortiqcha narsalar esa unga egalik qiluvchi tomonidan erkin ravishda tasarruf qilingan. Buning natijasida ayirboshlash jarayoni jonlana boshlagan. Shuningdek, keyinchalik hunarmandchilik vujudga kelgan, bularning barchasi kishilar o‘rtasidagi bir tomonlama ayirboshlashdan ikki tomonlama ayirboshlash zaruriyatini keltirib chiqargan.

Asrlar davomida pul turlari rivojlanib borgan va bugungi ko‘rinishgacha yetib kelgan. Pul turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:



1-rasm

Dastlab kishilar pul o‘rnida turli buyum va narsalardan umumiy ekvivalent sifatida foydalanishgan. Bunday buyum va narsalar «natural pullar» deb yuritiladi. Qadimda natural pullar turli ko‘rinishda bo‘lib, ulardan to‘lov vositasi sifatida foydalanishga qator omillar ta'sir qilgan. Xususan :

- odamlarning kunlik ehtiyoji uchun juda zarur bo‘lgan buyumlar;
- mamlakatning tabiiy iqlimi va geografik joylashuvi;
- kamyob buyumlar va ularni etishtirishning murakkablik darajasi;
- uzoqroq muddat davomida saqlash imkoniyatining mavjudligi.

Manbalarga ko'ra, Xitoyning Huanhe provinciya-sida odamlar chorvachilik bilan shug'ullangani bois, bundan 4 ming yil oldin Xitoyda natural pullar sifatida buqalar, mayda to'lov vositasi sifatida qo'ylar xizmat qilgan. Dehqonchilikning rivojlanishi natijasida bug'doy o'lchov biriligi vositasida foydalanilgan. Bug'doyni uzoq saqlash imkoniyati bo'lmaganligi, u ma'lum muddat o'tgandan so'ng buzilishi mumkinligi uchun kauralarning chig'onoqlari, tosh bolta va shu kabi boshqa narsalardan pul vositasida foydalanilgan.<sup>9</sup> Qadimda natural pullar turli ko'rinishda bo'lib, ulardan to'lov vositasi sifatida foydalanishga qator omillar ta'sir qilgan. Xususan:

- odamlarning kunlik ehtiyoji uchun juda zarur bo'lgan buyumlar;
- mamlakatning tabiiy iqlimi va geografik joylashuvi;
- kamyob buyumlar va ularni etishtirishning murakkablik darajasi;
- uzoqroq muddat davomida saqlash imkoniyatining mavjudligi.

Qadimgi Yunoniston va Rimda, shuningdek, arab va hind qabilalarida ham pul vazifasini hayvon bajargan. Tinch Okeani va Afrika qit'asi xalqlarida qimmatli chig'anoqlar, Markaziy Afrikada fil suyagi, Qadimgi Misrda-bug'doy, Xitoyda-tuz, Mo'g'ilistonda-toshchoy, Qadimgi Shumer davlatida-asal, Qadimgi shimol xalqlarida-mo'yna va movutdan pul sifatida foydalanilgan. Qadimgi Sparta, Karfagen va Skandinaviya xalqlarida pul vazifasini hayvon terisi o'tagan.

Shuningdek, pul o'rnida ichimliklar, qullar, taqinchoqlar va ipakdan, hatto temir omoich va mixdan ham foydalanishgan. Karolina orollarida tegirmon toshidek tosh pullar ham bo'lgan. Kishilar o'rtasida ayirboshlash jarayonlarining tezlashuvi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ayirboshlash hajmining ortishiga olib keldi. Iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi natijasida kishilar metalni kashf etdilar, undan turli hil mehnat qurollarini yasab kundalik hayotida foydalandilar. Metaldan yasalgan mehnat qurollarining to'lov vositasi sifatida foydalanganligining hususiyati shunda ediki, kishilar metallardan tayyorlangan bolta va shunga o'hshash narsalardan to'lov vositasi sifatida foydalangan bo'lsada, ular boshqa maqsadda, ya'ni kundalik hayotda foydalanish uchun yaratilgan edi. Masalan, kishilar metaldan yasalgan boltadan ayirboshlash vositasi sifatida keng foydalangan, lekin u to'lov vositasini bajaradigan tanga ko'rinishiga ega bo'lmagan. Odamlar stixiyali ravishda metallardan yasalgan boltani to'lov vositasi o'rnida foydalanishgan. Pulning natural ko'rinishidan metall tanga shakliga o'tishi, yuqorida ta'kidlanganlardan tashqari quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etgan.

1. Kishilar metallarga turli shaklda ishlov berishni kashf etilishi. Ta'kidlaganimizdek, bolta va shunga o'hshash temir qurollardan pul vositasi sifatida foydalanilgan, lekin ularni puldan foydalanishning metall davri deb yurita olmaymiz. Chunki, ushbu mehnat qurollarining funktsiyalari boshqa bo'lgan. Kishilar metalni kashf qilganlaridan keyin oradan juda ko'p davrlar o'tishi bilan unga ishlov berish yo'llarini o'rgandilar. Bu o'z – o'zidan metall tangalarni zarb etishga turtki bo'ldi.

---

<sup>9</sup> Самуэльсон П. Экономика вводной курс. –М.: 1964. –С. 69. Самуэльсон П. Экономика вводной курс. –М.: 1964. –С. 69.

2. Davlatchilikning paydo bo'lishi. Metall kashf etilib, odamlarga unga ishlov berish yo'llari ma'lum bo'lgandan so'ng, ma'lum hudud va qabilalar alohida kishilarning hukmronligi, honligi va qirolligi ostida boshqarila boshlandi. Bu o'z o'zidan o'sha davrning hukmroni, honi yoki qirolining maqieni oshirish, o'zining chegaralarini mustahkamlash va qonunlarini yuritish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bularning barchasi turli tasvirlar va yozuvlar tushirilgan tangalarni zarb etishga asos bo'ldi.

3. Kishilar o'rtasida tovar ayirboshlash hajmining ortib borishi natijasida ushbu jarayonning murakkablashuvi. Masalan, dehqon bir qop bug'doyni bitta boltaga ayirboshlashi uchun temirchi kosibning hohishi dehqonning hohishiga mos kelishi lozim. Ya'ni mazkur holatda, temirchining bir qop bug'doyga ehtiyoji bo'lishi kyerak. Biroq, temirchiga bir qop bug'doy emas, balki bitta qo'y kyerak bo'lsa, u holda dehqon bug'doyni qo'yga almashtirishi, so'ngra qo'yni temirchiga olib kelib bitta boltaga almashishi zarur bo'lar edi. Ko'rinib turibdiki, kishilar o'rtasida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va ayirboshlash hajmining ortishi natural

pullarni to'lov vositasi sifatidagi vazifasini amalga oshirish imkoniyatlarini chegaralab qo'ydi.

4. Natural shakldagi pullarni saqlash va olib yurishning qiyinligi. Alabatta, o'sha paytlarda pulning vazifasini bajargan bolta yoki boshqa mehnat quollarini saqlash qiyin bo'lmagan bo'lsada, lekin ularni olib yurish va havfsizligini ta'minlash odamlarga turli noqulayliklarni keltirib chiqargan. Pulning vazifasini bajargan bug'doy, jun, qo'y yoki boshqa shunga o'hshash narsalar esa vaqt o'tishi bilan buzilgan, o'zining dastlabki hususiyatini yo'qotgan. Shu bilan birga, ularni olib yurish, ayniqsa saqlash ham odamlarga qo'shimcha tashvish keltira boshlagan.

Bularning barchasi natural pullar o'rniga metall pullarni muomalaga to'lov vositasi sifatida kirib kelishiga zamin yaratdi. Dastlab metall tangalar qora rangli temirlardan slitka ko'rinishida tayyorlangan bo'lsa, keyinchalik to'rtburchak, uchburchak, yumaloq ko'rinishdagi

*tanga shaklini olgan.*



*Aleksandr Makedonskiy surati tushirilgan kumush tetradraxma, avers, revers, Misr, Miloddan oldingi 310-305 yy.*

*Oltin 10 rubl, avers, revers. Rossiya, Yelezaveta Petrovna*

**2-rasm**

Vaqt o'tishi bilan temir tangalar o'rnini bronza, kumush va oltin egalladi. Temir metallardan yasalgan tanga to'lov vositasini bajarganda ularning baho masshtabini tanganing og'irligi bilan anqilangan. Keyinchalik bronza, mis va oltin tangalar to'lov vositasini bajarganda esa baho masshtabi qimmatbaho metallarning nafaqat og'irligi, balki ularning hossalari orqali ham aniqlanadigan bo'ldi. Muomalada metall tangalar, ayniqsa oltin tangalar pulning vazifasini bajarganda iqtisodiyotda pul muomalasini tartibga solishga ehtiyoj bo'lmaydi. Chunki, qimmatbaho metallar haqiqiy qiymatga ega bo'lgan asl pul hisoblanib, uning hajmi tovar massasiga nisbatan avtomatik tarzda tartibga solinib boriladi. Ya'ni, agar iqtisodiyotda tovar massasi oltin massasi (qiymati)ga nisbatan kam bo'lsa muomaladagi ortiqcha oltin tangalar boylik sifatida hazinaga joylashtiriladi. Agar, aksincha, muomalada oltin tangalar massasi tovar massasiga nisbatan kam bo'lsa boylik sifatida hazinaga joylashtirilgan mablag'lar muomalaga chiqarish orqali o'zaro muvozanat ta'minlanadi.

**Tanga pullar.** Dunyoda eng qadimiy birinchi tanga pullar Yunoniston, Lidiya (Kichik Osiyo) va Xitoyda miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda muomalaga kiritilgan. O'zbekiston qadimdan tovar-pul munosabatlari rivojlangan davlatlardan biri bo'lganligi uchun bu hududa siyosiy, iqtisodiy mustaqillik ramzi bo'lgan tanga pullar bundan taxminan 2500 yillar muqaddam zarb qilingan.

Tanga pullar eramizdan avvalgi VII asrdan to XIX asr o'rtalarigacha tovar ayirboshlashda muomalada bo'lgan. Tangalar oltin, kumush va mis kabi metallardan turli shakllar va vaznlarda tayyorlangan.

Xozirgi o'zbek tilidagi "tanga" so'zi qadimgi turk tilidagi "tamg'a" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, qadimda har bir hukumron hokimlar turli metall, oltin, kumush, mislarga o'z tamg'asini bosib muomalaga chiqarganlar va bu pullar "tamg'a" pul deb yuritilgan, keyinroq borib bu "tanga" so'ziga aylanib qolgan. Rus tilidagi "Dengi" so'zi ham "tanga" so'zidan olingan.

Ba'zi tadqiqotchilar rus tilidagi "kopeyka" (tiyin) so'zi Markaziy Osiyoda hukumronlik qilgan Chig'atoy xonlaridan Kepakxon (1318-1326 y.) nomi bilan bog'liq deb tushuncha beradilar. (Irpon To'xtiev) (13 b.)

Dastlab tangalar uchburchak, to'rtburchak, romb, xalqa va tuxum (oval) shaklida yasalgan. Tangalarni turli shakllarda yasash uzoq vaqt davom etgan va nihoyat muomala uchun eng qulay bo'lgan, ya'ni gardish shaklida yasay boshlaganlar.

Tanga lotincha moneta bo'lib, uning old tomoni - avers, orqasi-Revers va qirrasigurt deyiladi.



avers



Revers



gurt

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra birinchi tangalar bundan 26 asr avval Lidiya va Xitoyda, VII asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarida, IX-X asrlarda Kiev Rusida zarb qilina boshlagan. Ma'lumki, har bir hukmdor tahtga o'tirgach, o'z nomidan tanga zarb qildirgan. Tanganing old tomonida hukmdorning rasmi yoki nomi, ayrim hollarda shiori, orqa tomonida esa tanganing qiymati tasvirlangan. Masalan, Amir Temur tomonidan zarb qilingan tangalarning old tomonida uning uch halqali belgisidan iborat tang'asi bilan birga «Allohdan boshqa tangri yo'q», «Muhammad Allohning Rasuli», to'rt halifa: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali nomlari bitilgan. Tangalarning orqa tomoniga esa «Amir Temur Ko'rogon» degan so'zlar, tanga zarb etilgan yil va shahar nomi bitilgan.

Tangalar asosan oltin va kumushdan zarb qilingan bo'lib, qonunda belgilangan shakl va vaznga ega bo'lgan. Tangalar muomalada uzoq vaqt pul vazifasini bajargan. Tanga pullarning afzalliklari bilan birga bir kator kamchiliklari ham bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- tangalar uzoq vaqt muomalada bo'lishi, qo'ldan - qo'lga o'tishi natijasida emirilgan va vazni kamaya borgan;
- ayrim hukmdorlar tangalar vaznini sun'iy ravishda kamaytira boshlaganlar yoki uning tarkibini buzib, boshqa qotishmalarni ham qo'shganlar;
- kapitalistik sanoatning rivojlanishi bilan tovar ishlab chiqarish shiddatli ravishda ko'payib borgan. Ammo tovar ayirboshlash uchun etarli miqdorda tangalar zarb qilish uchun zarur bo'lgan nodir metallarni qazib olish tovar ishlab chiqarishdan nisbatan orqada qolgan.

Ana shu sabablarga ko'ra muomalaga tanga pullar o'rniga qog'oz pullar kiritila boshlagan.

**Qog'oz pullar.** Tarixiy manba'larda qog'oz pullar dastlab Xitoyda XII asrda chiqarilgan deb ko'rsatiladi. Lekin, tarixiy ma'lumotlarga asosan Buxoro davlatida 700 – yillarda muomalaga kumush tangalar chiqarilgunga qadar, qog'ozdan pul sifatida foydalanilgan ekan. Qog'oz pullar Evropa va Amerikada XVII-XVIII asrlarda chiqarilgan.

**Qog'oz pullar deb,** hukumat tomonidan byudjet taqchilligini qoplash uchun chiqarilgan, muayyan kursi belgilab qo'yilgan pul belgilariga aytiladi. Dastlab qog'oz pullar ma'lum miqdordagi oltinni o'zida ifodalagan, ya'ni oltin bilan ta'minlangan. Asta – sekinlik bilan qog'oz pullarni oltin bilan ta'minlash darajasi pasayib borgan va nihoyat bekor qilingan. Qog'oz pullar mamlakat Moliya vazirligi yoki Markaziy banki tomonidan chiqariladi. Ular o'z tabiatiga ko'ra qadrsizlanishga, ya'ni inflyasiyaga moyil bo'ladi. Pul muomalaga tovar aylanishi ehtiyojiga qarab chiqarilishi lozim. Amalda esa, qog'oz pullar bundan tashqari byudjet taqchilligi va davlatning boshqa xarajatlarini qoplash uchun ham chiqariladi. Natijada, muomalada tovarlar bilan ta'minlanmagan pul paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida narx-navoning o'sishi, ya'ni pulning qadrsizlanishiga olib keladi.

Sobiq SSSR davrida muomalaga hukumat tomonidan chiqarilgan 1, 3, 5 rubllik xazina biletlari amalda bo'lgan.

Xozirgi davrda xazina biletleri ko‘rinishidagi qog‘oz pullar jahondagi 10 mamlakatda – AQSH, Hindiston, Indoneziya va boshqalarda saqlanib qolgan, xolos.

**Kredit pullar.** Ishlab chiqarish va tovar ayirboshlashning rivojlanishi, metall pullarning yetishmasligi kredit munosabatlarining rivojlanishiga olib keldi. Tovar va to‘lov aylanishi ehtiyojini qoplash maqsadida muomalaga oltin, kumush tangalar bilan bir qatorda kredit vositalari, -Chek, Veksel va banknotlar chiqarilgan.

**Kredit pullar deb,** kredit munosabatlari asosida yuzaga keluvchi, to‘lov vositasini bajaruvchi qiymat belgilariga aytiladi. Kredit pullar qog‘oz pullardan farq qilib, ular bir vaqtning o‘zida qiymatni ifodalaydi va kredit hujjati bo‘lib, qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Kredit pullari quyidagicha rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan: Veksel, banknot, Chek, Kredit kartochkalari, elektron pullar.

**Veksel-** nemischa Vechsel so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab XII-XIII asrlarda Italiyada paydo bo‘lgan. Veksel-bu qarzdorning ko‘rsatilgan summani, kelishilgan muddatda, belgilangan joyda to‘lashi to‘g‘risidagi yozma majburiyatidir. Veksel, sodda qilib aytganda, qarzdorlik to‘g‘risidagi tilxatdir.

Vekselning quyidagi turlari mavjud: tijorat veksellari- oddiy va o‘tkazma Vekselar, moliyaviy veksel, xazina vekseli, bank vekseli, muddatli veksel va boshqalar.

**Banknot** – kredit pullarining yetakchi turlaridan bo‘lib, Markaziy banklar tomonidan veksellarni hisobga olish yo‘li bilan chiqarilgan. Banknotlar dastlab, XVII asr oxirlarida chiqarilgan bo‘lib, u paytda banknotni hohlagan vaqtda bankga topshirib, o‘rniga unda ko‘rsatilgan summaga muvofiq oltin yoki kumush olish mumkin bo‘lgan. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Germaniya, Rossiya va AQSH da banknotlarni oltin bilan ta‘minlanganligi 30-50% ni tashkil etgan. Bugunga kelib hech qaysi mamlakatda banknotlar oltin yoki kumush bilan ta‘minlanmagan.

Xozirda mamlakatlarning Markaziy emissiya banklari qat’iy belgilangan nominalga ega bo‘lgan banknotlarni muomalaga chiqarmoqdalar. Bu banknotlar mamlakatda milliy pul birligi bo‘lib hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Markaziy banki ham muomalaga turli nominalga ega bo‘lgan banknotlarni chiqargan, masalan:





Iqtisodiy adabiyotlarda **Cheklar**—dastlab 1683 yilda Angliyada qo‘llanila boshlagan, deb yozilgan. Holbuki, Ovropa siyosiy iqtisodchilaridan 4 asr muqaddam savdo-sotiq ishlarining davlat uchun juda katta daromad manbai ekanligini yaxshi bilgan Amir Temur davlat ichkarisida va tashqarisidagi savdo ishiga keng yo‘l ochib bergan va savdogarlarni moliyaviy qo‘llab-quvatlagan. Samarqand to‘qimachilik va boshqa hunarmandchilik turlari rivojlangan xalqaro savdo-sotiq markazi hisoblanar edi. Klavixoning yozishiga ko‘ra, hatto Iskandariya bozorlarida ham bu yerdagi narsalarni topib bo‘lmasdi. Dashti Qipchoq va mo‘g‘ul yurtlaridan teri, Chindan ipak, Xo‘tandan olmos, yoqut kabi qimmatli toshlar keltirilardi.

“Xozirda hammaning og‘zida bo‘lgan chek tizimi dastlab o‘sha uzoq zamonlardayoq joriy qilingan edi. Chek (chak) tushunchasi aslida evropaliklarga biz orqali kirib borgan bo‘lib, savdogarlar yirik savdo tadbirlarini amalga oshirayotganlarida yonlarida katta mablag‘ni olib yurmasdan, har bir shaxarda mavjud ishonchli sarroflar (pul maydalab beruvchilar, almashtiruvchi)ga naqd pul topshirib, shu haqda hujjat, ya‘ni chek olganlar. Mo‘ljaldagi shaharga borib xuddi shunday sarroflarga yoki yirik savdogarlarga chekni ko‘rsatib, o‘z rejalarini amalga oshirganlar. Shunisi diqqatni tortadiki, Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida chek aslida ip-gazlama turlaridan biridir, deb yozilgan. Mahmud Qoshg‘ariy keltirgan chek gazlama turi bilan savdo muomalasida ishlatilgan chek o‘rtasida bog‘liqlikka shubha qilmasa ham bo‘ladi. Zero, bundan ming yil burun yozuv obekti o‘rnida qog‘oz bilan bir qatorda gazlama parchalaridan foydalanilgan” – deb yozadi Azamat Ziyo o‘zining “O‘zbek davlatchilik tarixi” asarida. Demak, savdogar va tadbirkorlar bir shahardan ikkinchi shaharga og‘irdan-og‘ir tilla, kumush tanga pullarni ko‘tarib yurmay o‘zaro “Chek” bilan hisob-kitob qilishgan bo‘lib, bu ham ularning ishini yengillatish uchun qilingan qulay chora-tadbirlardan biri edi. (I.T.) (37-38 b.) Chek mijozning o‘z bankiga unda ko‘rsatilgan mablag‘ni naqd pulda berilishi yoki boshqa hisob raqamiga (schyotiga) o‘tkazilishi to‘g‘risidagi buyrug‘idir.

Chekning quyidagi turlari mavjud:

- muayyan bir shaxs nomiga yozilgan chek;
- orderli chek;

- ko'rsatuvchiga beriladigan chek;
- hisob-kitob cheki;
- akseptlangan chek va boshqalar.

**Kredit kartochkasi** – bu bank yoki maxsus kredit (savdo) muassasi tomonidan bir kishi nomiga berilgan pul hujjati bo'lib, unda pul egasi hisobidagi summa ko'rsatiladi. Bu kredit kartochkasi o'z egasiga chakana savdo tarmoqlarida naqd pulsiz tovarlar va xizmatlar xarid qilish huquqini beradi. Kredit kartochkasiga binoan xaridor hisobidagi pul summasi uning ixtiyoridan olinib, tovar sotgan korxonaga hisobiga o'tkaziladi.

Dastlabki kredit kartochkalari XX asr boshlarida AQSH da qo'llanila boshlangan. Hozirda jahondagi aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham joriy etilmoqda.

Banklar faoliyatida elektron hisoblash mashinalarining qo'llanilishi elektron pullardan foylanish imkoniyatini berdi.

**Elektron pul** - elektron kartochka bo'lib, uning xotirasiga egasining hisobidagi pul summasi yozilgan bo'ladi. Pul to'lash uchun elektron kartochka EHM ga kiritiladi, kartochkadan avtomatik ravishda to'lanishi zarur bo'lgan pul summasi o'chiriladi va bu summa pul oluvchi elektron hisobiga yozib qo'yiladi.



Xozir O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan qator tijorat banklari o'z amaliyotlarida elektron kartochkalardan foydalanishmoqda: Shuningdek, aholiga to'lovlarni amalga oshirishda qulayliklar yaratish va pul muomalasi barqarorligini yanada mustahkamlash maqsadida debet plastik kartochkalari muomalasi yo'lga qo'yildi. Ushbu jarayon 2002 yil avgustidan boshlangan edi.

**Elektron pullar** - bu sizning bank kartangizdagi yoki hamyoningizdagi pullar. Elektron pullar - Siz elektron hamyonlardan bank kartasiga osongina pul o'tkazishingiz mumkin va, albatta, naqd pul berishingiz mumkin va aksincha, uni elektron hamyoningizdan elektron hamyoningizga joylashtirishingiz mumkin. Elektron pullar - bu bir xil pul, faqat uni boshqarish juda oson. Va nihoyat, elektron pul - bu shunchaki vaqtni tejaydigan va o'z biznesingizni nafaqat Internetda, balki Internetda ham rivojlantirish uchun ko'proq imkoniyat beradigan vositadir. Albatta, yaqin kelajakda hech kim odatdagi pulni bekor qilmaydi. Ammo elektron pullar biz uchun kunlik haqiqatga aylanib bormoqda. So'nggi paytgacha plastik karta ko'p odamlar uchun g'ayrioddiy narsa bo'lgan va hozirda Internetdagi ko'plab tijorat resurslari elektron pul bilan xaridlarni to'lash imkoniyatini yaratmoqda.

#### **IY.4.O'zbekiston Respublikasining pul tizimi va uning rivojlanish tarixi**

O'zbekiston zamini va xalqi oldindan mukammal tarixga, sohalar bo'yicha o'z mustaqil tizimiga ega bo'lgan. Shuning uchun biz qisqacha pul tizimimizning tarixi to'g'risida to'xtalmoqchimiz.

Ba'zi manbalarda keltirilishiga qaraganda, O'rta Osiyoda birinchi pullar Iskandar Zulqarnayn davrida miloddan avval 261 - 250 yillarda chiqarila boshlangan. O'zbekiston Respublikasi zaminida, ya'ni Buxoro davlatida birinchi metall pullar zarb qilingan. Metall pullar zarb qilingunga qadar Buxoro davlatida savdo-sotiqda pul birligi sifatida bug'doy va qog'oz material ishlatilgan.

Birinchi metall pullar Buxoro davlatida 700 yillarda zarb qilingan. Bu pullar kumush tangalar bo'lib, Buxoro davlati shohi Kana Buxoro xudot tomonidan chiqarilgan. Tanga yuqori sifatga ega bo'lgan toza kumushdan zarb qilingan. Tanga o'rtasida shohning tasviri va uning atrofiga Qur'on oyatlaridan yozilgan. Bu kumush pullar "dirham" deb atalgan. Buxor xudot 40 yil davlatni boshqargandan keyin, taxtga xalifa Abu Bakr Siddiq o'tirgan. Abu Bakr, keyinchalik shoh Horun ar-Rashid davrida Buxoro davlatida pul tizimi barqaror bo'lib, savdo ko'proq dirhamlarda olib borilgan. Bu orada Xorazm davlati ham o'zining kumush tangalarini muomalaga kiritgan. Lekin aholi ko'proq dirhamlar bilan savdo olib borishni afzal ko'rgan. Dirhamlarga bo'lgan talabning oshishi, Buxoro davlatining ko'pgina boshqa mamlakatlar bilan savdo olib borishi hamda dirhamlarning juda yuqori proba va sifatga ega bo'lishi asta - sekinlik bilan ularning muomaladan yo'qolishiga olib kelgan.

801 yilning kuzida taxtga Gidrif kelgan va u pul tizimini barqarorlashtirish maqsadida muomalaga 6 turdagi oltin, kumush, teri, temir va mis, har xil metall qorishmasidan zarb qilingan pul birliklarini chiqargan. Bu pullar xalq orasida "gidrifi"lar degan nom olgan. Kumush gidrifilar dirhamlarga qaraganda sifati past va kumush temir qorishmasi natijasida qoramtir rangda bo'lgan. Bu pullar aholi orasida muomalada yaxshi qabul qilinmagan, shuning uchun davlat oldingi pulga nisbatan yangi kumush gidrifining majburiy kursini belgilab qo'ygan, ya'ni 6 gidrifi 1 dirhamga tenglashtirilgan va asta-sekinlik bilan soliq va to'lovlarni faqat gidrifida olishni joriy qilish orqali 1 gidrifini 1 dirhamga tenglashtirishga erishilgan. Davlat tomonidan har xil soliq va to'lovlarni faqat gidrifida to'lashni joriy qilish natijasida 822 yillarga kelib 100 kumush dirham 70 gidrifiga, 1 gidrifi tillo 7,5 gidrifi kumushga tenglashtirilgan. Gidrifilar Buxoroda Mahak Qasrida zarb qilingan.

Shuni ta'kidlamoqchimizki, birinchi rus davlatida muomalada paydo bo'lgan metall pullar dirhamlar hisoblanadi. Rus davlatida dirhamlar bir necha bo'laklarga bo'linib muomalada ishlatilgan. Topilmalar shuni ko'rsatganki, rus davlatida IX-X asrda savdoda qo'llanilgan dirhamlar 40 bo'lakka bo'linib, har bir kumush bo'lakchasi pul birligi sifatida ishlatilgan. Keyinchalik rus davlatiga, Yevropa davlatlariga metall pullari kirib kelgan va faqat X asrning oxiridagina Kiyev knyazi Vladimir tomonidan birinchi rus tangalari "grivni" zarb qilingan.

X asrning o'rtalari (943-954 yillar)da Ismoil Somoniy davrida Buxoro davlati maydoni kengayib hozirgi O'rta Osiyo davlatlarini qariyb barcha maydonini o'z ichiga olgan va u uch hamda undan ortiq Yevropa mamlakati maydoniga teng kelgan.

Somoniylar davrida pul tizimi juda yuqori darajada rivojlangan. Muomalaga yana sifatli kumush tangalar - dirhamlar, oltin pullar kiritilgan. Bu pullar muomalada donalab va og'irligi o'lchab, qabul qilingan. Buxoro davlati Evropa davlatlari bilan keng savdo-sotiq olib borishi natijasida yuqori sifatli kumush tangalar Yevropa va Rus davlatiga oqib o'tgan va biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, Rus davlati bu dirhamlarni bo'laklarga bo'lib, pul birligi sifatida muomalada ishlatgan.

XI asrda somoniylar davlatidan turklarning o'rin olishi pul muomalasini ham o'zgartirsada, oltin va kumush tangalar pul tizimining asosiy elementi sifatida saqlanib qoldi.

XII-XIII asrlarda Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, keyinchalik Temuriylar davrida muomalada asosan oltin, kumush, mis tangalar ko'plab zarb qilingan. Shayboniyxon davrida (1507 yilda) pul islohoti o'tkazilib, cheklangan miqdorda muomalaga oltin, kumush, mis, mis va kumush qorishmasidan tanga pullar chiqarilgan. Oltin tangalar "tillo", kumush tanga "tanga", mis tanga "dinor" deb nomlangan va eng mayda tanga dinorning 1/6 qismiga teng bo'lib "pul" deb nomlangan.

Temuriylar davrida "amiri" dirhamlari muomalaga chiqarilgan. Ularning vazni 5,7-6,0 gr. atrofida bo'lgan va keyinchalik dirhamlarda kumush miqdorini kamaytirilgani uchun tangalar vazni ham kamayib borgan.

O'zbekiston pul tizimining yana bir muhim sanasi bu 1708-1709 yillarda Buxoroda o'tkazilgan pul islohotidir. Bu islohot shoh Ubaydullaxon tomonidan o'tkazilgan bo'lib, muomalaga past sifatli tangalar chiqarilgan. Bu tangalarda kumush miqdori oldingi tangalarga nisbatan kam bo'lgan va ular davlatning urush bilan bog'liq harbiy xarajatlarini qoplash uchun zarb qilingan. Oldingi 1 kumush tangananing og'irligi 1 misqolga teng bo'lgan. Pul islohotiga asosan 1 kumush tanga 4 ga bo'linib, endi to'rt kumush tanga zarb qilingan va ularni har birining vazni 1 misqolga teng bo'lgan. Natijada kumush tangananing sifati tushgan. Muomaladagi pullar "yaxshi" va "yomon" pullarga bo'lingan. 1 misqol 24 nuxudga tenglashtirilgan, ya'ni  $24 \text{ nuxud} = 1 \text{ misqol}$ ,  $1 \text{ misqol} = 4,8 \text{ gr. kumushga}$  teng bo'lgan.

Ubaydullaxon o'tkazgan pul islohotining xususiyati shundaki, u tangadagi kumush miqdorini eng minimal darajagacha kamaytirgan, bunday hol ungacha va undan keyin amaliyotda qo'llanilgan emas. Bu to'g'rida quyidagi jadval ma'lumotlariga murojaat qilishimiz mumkin.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tangananing kumush miqdori 90 foizdan Ubaydulla - Bahodirxon davrida 22,5 foizgacha tushgan, ya'ni tangalarning sifati tushib borgan.

## Tanganing kumush miqdorining o'zgarib borishi

	Yillar	Tangadagi kumush miqdori - %
1	1608-1610	90
2	1615-1623	80
3	1617-1678	70
4	1699-1700	35
5	Ubaydullaxon davrida	22,5

Qariyb yuz yillardan keyin, XVIII asr o'rtalarida Muhammad Rahimxon davrida tangadagi kumush miqdori 30%gacha oshirilgan. XVIII asrning oxiri XIX asrni boshlariga kelib, Buxoro davlati yana yuqori sifatli pul tizimiga ega bo'lgan. Rossiyaning O'rta Osiyoga yurishi natijasida, 1865 yilda Toshkent ruslar qo'liga o'tgan. Keyinchalik Buxoro davlatining O'ra tepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Urgut kabi shaharlari Rossiya tasarrufiga o'tgan. Buxoro amiri Rossiya bilan do'stlik shartnomasini tuzgan va yarim mustaqil davlat bo'lib o'zining mustaqil pul tizimini saqlab qolgan hamda mustaqil pul siyosatini olib borgan. O'sha davrda muomalaga oltin, kumush, mis tangalar chiqarilgan. 1 tillo Rossiyaning 6 rubl' 80 kopeek, 1 tanga (kumush) 15 kopeekka, 1 mis tanga - (mira) 4 kopeekka, pul 1/4 kopeekka tenglashtirilgan. Muomalada ko'proq kumush tanga ishlatilib, uning kursi 1 tangaga 12 kopeekdan 20 kopeekkacha o'zgarib turgan. O'tgan asrning 90-yillarida Rossiya Toshkent va Qo'qonda, keyinchalik, Buxoroda o'z banklarini ochgan. Muomalaga rus oltin, kumush tangalari va kredit biletlari kirib kelgan. Buxoroda rus oltin, kumush tangasidan ko'ra kredit biletlari juda mashhur bo'lgan. Buxoro beklariga amirga to'laydigan soliq va boshqa to'lov, in'omlarini kumush tangada karvonlarda olib kelgandan ko'ra, kredit biletlarda olib kelish arzon va oson bo'lgan. Shuning uchun kumushlar rus kredit biletlariga almashtirilgan. Rus banklarida kumush tangalar qaytib muomalaga chiqmagan. Ular Rossiyaga jo'natilgan va Peterburgdagi zarbxonada qayta ishlatilib rus kumush tangasi sifatida muomalaga chiqarilgan. Buxoro tangasi 84 foizli probadagi kumushdan tayyorlangani uchun rus kumush tangasidan ancha sifatli bo'lgan va u qayta ishlanganda bir Buxoro tangasidan bir necha rus tangasi zarb qilingan. Bu esa Rossiya xazinasiga juda katta foyda keltirgan. Hisob-kitoblarni olib borishda, tilloni rublga aylantirishda qiyinchiliklar bo'lgani uchun Rossiya davlati Buxoro davlati pul tizimini Rossiyaga birlashtirish to'g'risidagi masalani qo'ygan. Rossiya Moliya vazirligi tomonidan Buxoro davlati pulining loyihasi ishlab chiqilgan. Unga asosan chiqariladigan pul 15 kopeekka teng bo'lib, uning bir tomonida Rossiya hukumat belgisi tasviri ikkinchi tomonida Buxoro davlati

belgisi, tasviri, bo'lishi kerak edi. Lekin Buxoro amirining xizmati tufayli bu ish amalga oshmasdan qolib ketgan. 1923-24 yillargacha Buxoro o'zining pul birligini saqlab qolgan. Turkistonning Rossiya tomonidan istilo etilishi natijasida XX asrning boshlarida Turkistonda rus kredit biletleri, mahalliy veksellar, keyinchalik sovznaklar, "Turkbon"lar, chervonetslar muomalada bo'lgan. 20-yillarining o'rtalaridan boshlab yagona pul tizimi barpo qilinib, Sobiq SSSR hududida rubl' pul birligi sifatida qabul qilingan va mustaqillikacha pul muomalasi shu pul birligida olib borilgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir davlatning pul tizimi ma'lum elementlardan tashkil topadi va qonun asosida yuqori davlat organlari orqali boshqarib boriladi. Alohida olingan davlatning pul tizimi o'z xususiyatlariga ega bo'lib, uning elementlari u yoki bu tomonga o'zgarishi mumkin. Pul tizimi ijtimoiy hayotning ko'zgusi hisoblanadi, desak xato bo'lmasa kerak. Shuning uchun ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni pul tizimini ob'ektiv talablar, ya'ni pul tizimining yagona bo'lishi, pul birligi qiymatining doimiyligi va pul muomalasining talabga qarab o'zgarib turishi kerakligini qo'yadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Pul tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Pul tizimining tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
3. Bimetalizm pul tizimining o'ziga xos xususiyatlari?
4. Metall pul tizimidan qog'oz va kredit pullar tizimiga o'tishning asosiy sabablari?
5. Kredit pullarning turlari va ularni izohlang.
6. Pul tizimining asosiy elementlariga nimalar kiradi?
7. Oltinni demonetizatsiya qilish deganda nimani tushunasiz?
8. Monometalizm pul tizimining o'ziga xos xususiyatlari?
  9. Tovar xo'jaligi sharoitida pulning roli qanday namoyon bo'ladi?
  10. Pulning roliga inflyatsiya qanday ta'sir qiladi?

## Y.Bob.Pul nazariyalari

### Y.1. Pul nazariyasi va uning asosiy yo'nalishlari

**Pulning nazariyasi** – pul tabiati va pulning ishlab chiqarishni shakllantirishga ta'siri haqidagi nazariyalardir. Iqtisodchilarning pulning mohiyati, uning funktsiyalari va pul muomilasiga bo'lgan qarashlari pul nazariyalarini keltirib chiqardi. Metallik, nominallik, va miqdoriylik pul nazariyalari ilk tarixiy pul nazariyalari sifatida e'tirof etiladi. Xozirgi kunda monetarizm va iqtisodni pul-kredit munosabatlari orqali tartiblashtirish nazariyalari mavjud.

Metallik nazariyasi – dastlab XVI – asrning oxiri XVII – asrning boshlarida kapitalizmning rivojlangan mamlakati Angliyada yuzaga keldi. Bu nazariyaning asoschilaridan biri U.Steffard (1554-1612 y.) edi. U o'z qarashlarini 1581 yilda Londonda chop etilgan “Vatandoshlarimizning ba'zi odatiy arizalarining qisqartmasi” nomli pulning metallik nazariyasiga oid asarida bayon etdi. Uning davomchilari bo'lib Angliyada T.Men (1571-1641 y.), D.Nors (1641-1691 y.), Fransiyada A.Monkreyen (1575-1621 y.), Italiyada F.Tamani (1528-1787 y.) va boshqalar hisoblanadi.

Ushbu nazariya namoyondalari:

- Qimmatbaho metallar (oltin va kumush) pul vazifasini o'tayoladi.
- Jamiyatning boyligi qimmatli metallarning mavjud zaxirasi bilan o'lchanadi.
- Bu boylikning manbai savdodadir deyдилar.

Yevropa davlatlari tomonidan qimmatli metallarga boy bo'lgan yerlarni bosib olinishi kabi shart-sharoitlar ushbu nazariyani kelib chiqishiga asos bo'lgan. Ushbu nazariya asoschilari vaqti kelib muomiladagi metal pullar o'rnini qog'oz pullar egallashi va bu jarayonning qonuniyligini tushunib yetmaganlar. Ular savdo burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilgan.

Nominallik nazariyasi XVII-XVIII-asrlarda Angliyada paydo bo'lgan. Bu nazariyaning namoyondalari bo'lib ingliz ruhoniysi Dj.Berkli (1683-1775 y.) va iqtisodchi Dj.Styuart (1712-1780 y.) lar hisoblanadi. Keyinchalik bu nazariyani Germaniyalik G.Knapi (1842-1926 y.), ingliz iqtisodchilari J.Styuart va N.Barbonnilar davom ettirishgan.

Nominalistlar: Pulni davlat bunyodga keltiradi, pulni qiymati davlat tomonidan aniqlanadi. (shuning uchun uni davlat pul nazariyasi ham deb yuritiladi – G.Knapi). Pulni qiymati unda ko'rsatilgan nominali bilan aniqlanadi. Ular to'la vaznga ega bo'lgan muomiladagi metal pullar borgan sari ma'lum qismi eskirib yo'qolib borishini unutadilar. Ular pulning barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiy ekvivalent sifatidagi tabiatini tushunmadilar. Pulni tarkibi undagi oltin gramm bilan belgilanishini unutmadi. Ular pulning o'ziga xos qonuniyatlar asosida harakat qilishi va bu qonuniyatlar inson tomonidan bevosita boshqarilmasligini anglab yetmadilar.

Miqdoriylik nazariyasining boshlovchisi bo'lib fransuz J.Boden (1530-1596 y.) hisoblanadi va u XVI-XVIII –asrlarni o'z ichiga oladi. XVIII – asrga

kelib bu nazariyani inglizlar D.Yum (1711-1786 y.), Dj.Mill (1773-1836) hamda fransuz Sharl Monaskyo (1689-1755 y.) rivojlantiradi.<sup>10</sup>

Bu nazariyaning asosini yangi qit'alarni kashf etilishi va ulardan Yevropaga qimmatli metallarni oqib kelishi va shu bilan bog'liq ravishda narx-navoning keskin oshib ketishi tashkil etadi.

Ushbu nazariya namoyondalarining fikricha:

- Pulning xarid qobiliyati bozorda o'rnatiladi.
- Muomilada emissiya qilingan barcha pullar yuradi.
- Pulning xarid quvvati muomiladagi pul miqdoriga teskari proporsionaldir.
- Baholar darajasi pul miqdoriga to'g'ri proporsionaldir.

Bu nazariyani miqdoriylik deyilishiga sabab J.Boden baholarni o'zgarishi muomiladagi pul miqdori bilan aniqlanadi deb tushuntirdi. Bu nazariya pulni faqat muomila vositasi ekanligini ko'ra oladi. Ularning ta'kidlashicha pul va tovar massalarining to'qnashishi natijasida baholar belgilanadi va pulning qiymati aniqlanadi. Ularni yana bir xatosi shundaki, ular hamma pul massasi faqat muomilada bo'ladi deb qarashgan. Aslida muomilaga zarur bo'lgan pul miqdori pul muomilasi qonuniga binoan aniqlanadi.

## **Y.2. Monetarizm nazariyasi**

Monetarizm nazariyasi hozirgi zamon nazariyalaridan biri bo'lib 1950 yillar o'rtasida paydo bo'lgan. Bu nazariyaning yirik namoyondasi bo'lib Chikago Universitetining professori, iqtisod sohasida Nobel mukofoti lauriati M.Fredman hisoblanadi. Bu oqim tarafdorlariga K.Brunner, A.Molser, D.Leydler, F.Keygen va boshqalar kiradi.

Bu nazariya ham aslida miqdoriylik nazariyasini targ'ib etgani holda, miqdoriylik nazariyasi bo'yicha yuqorida qayd etilgan g'oyalarga quyidagilarni qo'shimcha ravishda tavsiya etadi:

- bank foizi darajasi;
- inflyasiya sur'atlari muomiladagi pul miqdoriga ta'sir etadi deb ta'kidlashadi.

Ularga binoan: foiz darajasi pasaysa qarzga oluvchi ko'payadi, ishlab chiqarish kengayib daromadlar oshadi va u pul miqdorini oshishiga olib keladi va aksincha. Inflyasiya pul miqdorini to'g'ridan-to'g'ri oshiradi.

Ularning fikricha iqtisodiyotni tartiblash uchun pul miqdorini o'zgartirib uni normal holga keltirish zarur, bu ishni Markaziy bank amalga oshirishi kerak deydi. Ular iqtisodiyotga amaliy jihatdan yondashib pul massasini yiliga o'rtacha 3 % oshirishni tavsiya etishadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib nemis iqtisodchisi K.Keyns (1821-1898 y.) metallik nazariyasini himoya qilib chiqib (Germaniya) uni yangi sharoitga mosladi. U pul sifatida faqatgina metallni emas, balki markaziy bank banknotalarni ham e'tirof etdi. Keynsni fikricha pul muomilasi metall bilan

---

<sup>10</sup> Долан Э., Кэмпбелл., Кэмпбелл Р. Деньги банковское дело и денежно – кредитная политика. – М.: Профико, 1991. –С. Шунингдек, Харриса Л. Денежная теория. –М.: Прогресс, 1990. –С.82.

ta'minlangan banknot (Markaziy bank tomonidan veksellarni hisobga olish yo'li bilan chiqarilgan – vekselni bir turi) va metall monetarlariga asoslanishi shart.

Bu nazariyalardan tashqari pulni metall nazariyasining mohiyati pulni qiymati boshqa tovarlar kabi sarflangan mehnat xarajati bilan o'lchanadi – umumiy ekvivalent sifatida. Bulardan tashqari pulni oltin tanga, quyma oltin va oltin deviz standartlari kabi oqimlari mavjud.

Oltin tanga standarti (oltin monometalizmi) XVII – asrda Angliyada, XIX – asrda boshqa mamlakatlarda joriy etilgan. Bu metallik nazariyasining bir yo'nalishi bo'lib inflyatsiyani inkor etadi. Bu tizim birinchi jahon urushigacha hukm surdi.

Quyma oltin standarti – 1920 yillarga to'g'ri kelib u oltin tangadan farq qilib, muomiladagi banknotalar 12-12,5 gramm oltin quymalariga almashtirilgan. Unga aylantirish uchun Angliyada 1700 F.Sterling, Fransiyada 215 ming frank talab qilingan. Bu bilan oltin muomiladan xalqaro aylanuvga chiqarildi. Ichki aylanishda esa bunday imkoniyatga faqatgina yirik firmalar va puldorlar ega bo'ldilar.

Oltin deviz standarti. Quyma oltin standartiga kirmagan mamlakatlar o'z kredit pullarini oltin standartga kiruvchi mamlakatlarning valyutalariga almashtirilgan. Bu bir mamlakat valyutasini ikkinchi mamlakat valyutasiga bog'liqlikni keltirib chiqarib oltin deviz nomini oldi.

Buning shartlaridan biri AQSh dollarigagina oltin bilan almashtirilishi bu standartdan foydalanish huquqini faqatgina chet el emission banklari uchungina saqlab qolingani edi. 1971 yil dekabridan AQSh dollarini oltin pariteti bekor qilinishi bilan u o'z kuchini yo'qotdi.

### **Y.3. Pul nazariyasining yangicha talqin qilinishi**

Zamonaviy miqdoriy nazariya qog'oz pullar muomalasiga asoslanadi. Bu nazariya A. Marshall, amerikalik I. Fisher, shvedlar G. Nassel' va B. Xansen, iqtisodchi A. Pigu, monetarist M. Fridmen tadqiqotlarida o'z aksini topdi.

Amerikalik iqtisodchi, statistik va matematik I.Fisher (1867-1942yy) pulning miqdoriy nazariyasiga yangi sifat kiritdi. U pulning mehnat qiymatini rad etdi va pulning "sotib olish quvvati"ga asoslandi. Miqdoriy nazariyani matematik yo'l bilan isbotlamoqchi bo'lgan I. Fisher pulning "sotib olish quvvatiga" ta'sir etuvchi olti omilni ko'rsatdi:

- M-muomaladagi naqd pul massasi;
- V-pulning aylanish tezligi;
- R-o'rta (tortilgan) baho;
- Q-tovarlar miqdori;
- MI-bank depozitlari yig'indisi;
- VI-depozit-chek muomalasi tezligi.

Tovarlar uchun to'langan pul yig'indisi, tovarlar yig'indisining tovarlar bahosiga ko'paytmasiga teng:

$$MV = RQ$$

Bu tenglamani Fisher "almashinuv tenglamasi" deb atadi. Yuqoridagi formula asosida muomaladagi pul massasini topish mumkin.

$$M = \frac{RQ}{V}$$

Endi, Fisher nazariyasining ba'zi kamchiliklarini ko'rib chiqsak. Birinchidan, u tovarlar baholari yig'indisi o'rniga, barcha tovarlar miqdorining o'rtacha tortilgan baholarini oladi. (RQ). Uning fikricha, tovarlar bozorga bahoga ega bo'lmagan holda kirib keladi. Qiymat nazariyasiga ko'ra esa, tovar bozorga baho bilan kiradi. Demak, bahoni tovardan ajratish mumkin emas. Ikkinchidan, Fisher uzoq vaqt oralig'idagi V va Q o'zgaruvchilarni o'zgarimas (bir maromli) deb oldi. Buning natijasida esa ikkita erksiz o'zgaruvchi - pul miqdori va baho qoladi.

Uchinchidan, bu ikki o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib, Fisher baholar ko'lami natija bo'lib, u boshqa omillar o'zgarishiga sabab bo'la olmaydi, degan bir tomonlama xulosa chiqaradi. Pulning miqdoriy nazariyalaridan biri Kembrij yoki kassa qoldiqlari nazariyasidir. Bu nazariyani A. Marshall, A. Pigu keyinchalik J. Keyns targ'ib qilgan. Bu g'oya bo'yicha pul harakatining boshi bo'lib jismoniy va huquqiy shaxslarning xo'jalik aylanmada bo'lgan pullar (kassa qoldiq pullari) hisoblanadi. Kassa qoldiqlaridan A. Pigu fikri bo'yicha iste'mol fondlaridan tashqari sug'urta fondi, investitsiya bo'yicha jamg'arma fondi tashkil qilinishi kerak. Pigu tenglamasi "almashuv tenglamasi"dan farq qiladi. Ya'ni unda yangi ko'rsatkich "jamg'arma koeffitsienti" qo'llanilgan bo'lib quyidagi ko'rinishda ifodalanadi.

$$M = K \times R \times P \text{ bir qismi (pul shaklida)}$$

**Bu yerda,** K - koeffitsient yoki RP ning bir qismi (pul shakli-da), kassa qoldig'i.

R - ma'lum davr ichida ishlab chiqarilgan real maxsulot hajmi. Masalan, RP - 800 mlrd. dollar bo'lsa, K uning 1/8 qismini tashkil qiladi. U vaqtda M q 800 mlrd. : 8 q 100 mlrd. dollar. Demak, yaratilgan yalpi maxsulotni ko'rsatilgan bahoda joylashtirish uchun RP dan 8 marta kam bo'lgan pul massasi zarur.

Xozirgi zamon monetarizmi. Monetarizm pul nazariyasi 50 yillar o'rtasida paydo bo'lgan. Bu oqimning ko'zga ko'ringan namoyondasi M. Fridman hisoblanadi, u Chikago universitetining professori, iqtisod sohasi bo'yicha Nobel' mukofoti sohibi. Bu oqimga M. Fridmandan tashqari, K. Brunner, A. Mol'tser, D. Leydler, F. Keygen va boshqa iqtisodchilar kiradi.

Pul nazariyasida katta muvaffaqiyat qozongan g'oya - Fridmanning pulning miqdoriy nazariyasi bo'lib, u muomaladagi pul miqdori o'zgarishi bilan tovar baholari o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni, monetar siyosat nazariyasi, ya'ni jamiyatda bo'lgan iqtisodiy tebranishlar pul massasining o'zgarishi tufayli bo'lishi, pulning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri kabilarni yoqlab chiqadi. Hozirgi zamon monetarizmiga bir guruh iqtisodchilar qalamiga mansub "Pulning miqdoriy

nazariyasiga oid tadqiqotlar" (1956 yil) deb nomlangan asar bilan asos solindi. Uning bosh g'oyasi iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi ta'minlaydi, bu mexanizming asosiy vositasi pul hisoblanadi degan xulosadan iborat. Monetarizm pulni olqishlovchi nazariyadir. Monetaristlar iqtisodiy o'sishning eng muhim sharti inflyatsiyani daf etish va pulni sog'lomlashtirish, pulni xo'jalik muomalasi vositasiga aylantirish, deb qaraydilar. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiyotga aralashishi pul muomalasini tartibga solish bilan cheklanishi kerak.

Monetaristlar ilgaridan ma'lum bo'lgan pulning miqdoriy nazariyasiga borib tutashadigan "barqaror pul" nazariyasini olg'a suradilar. Ular pul va iqtisodiy faollik o'rtasida uzviy bog'lanish borligini qayd qilib, iqtisodiy krizislarning sababini pul muomalasidagi buzilishlardan axtardilar. Pulning etishmay qolishi iqtisodiy o'sishni susaytira borib, turg'unlik holatini keltirib chiqaradi, bu esa avval yuzaroq tanglikka, so'ngra esa chuqur iqtisodiy tanglikka olib keladi. Binobarin, iqtisodiy tsikl pul miqdoriga bog'liq, bu, o'z navbatida, pul emitenti bo'lgan Markaziy bank faoliyatiga bog'liq. Pul-kredit siyosatini o'zgartirib tanglikdan chiqish va iqtisodni rivojlantirish mumkin. Monetaristlar iqtisodiyotda bosh masala ishlab chiqarish va pul massasining tengligi bo'lib, shu orqali makroiqtisodiy muvozanat hosil etish mumkin deb hisoblaydilar.

M. Fridmen kassa qoldig'i talabi milliy daromad, depozit baho qog'ozlar, tovarlar bahosining o'sishi va boshqa omillarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi va uni quyidagi formula bo'yicha ifodalaydi.

$$M_s = f(Y \times X)$$

**Bu yerda:**

- Mc - rejalashtirilayotgan kassa qoldig'i,
- f - Y, X larning o'zgaruvchan funktsiyasi,
- Y - milliy daromad,
- X - yuqorida keltirilgan jami omillar
- h, p, y, u - boshqa ta'sir etuvchi omillar.

Faqat monetarizm emas, balki boshqa nazariyalar ham pul massasi bilan ishlab chiqarish o'rtasida bog'lanish mavjudligini tan oladi. Farqi shundaki, monetarizm bu bog'lanishni bosh masala deb qaraydi. Uning namoyandalari pul massasiga ta'sir etuvchi chora-tadbirlar davlat investitsiyasidan farqliroq darhol iqtisodiy vaziyatiga ta'sir etadi, deb qaraydilar.

Monetaristlar iqtisodiyotga amaliy jihatdan yondashib, pul massasini yiliga o'rtacha 3% oshirishni tavsiya etishadi.

Ammo monetaristlar keyingi paytlarda iqtisodiyotda yuz bergan o'zgarishlarni inobatga olib, pul massasini doimiy ravishda va bir me'yorda olib borishni ma'qul deb bildilar. Bu me'yor shundayki, pul miqdorining o'sishi mehnat unumdorligining o'sishi sur'atiga nisbatan 1-2% yuqori bo'lishi kerak. Buning bir me'yorda o'sib borishi iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va davriy tebranishlarni cheklashga imkon beradi. Monetaristlar tavsiyalariga binoan bir

qator mamlakatlarda qonun yoʻli bilan pul massasi aniq belgilanadi yoki yuqori, quyi chegarasi koʻrsatiladi. Monetarizm uchun bosh masala antiinflyatsion siyosatni asoslashdir. Monetarizm tavsiyasiga asoslangan baʼzi mamlakatlarda pul miqdori ustidan qattiq nazorat oʻrnatish, inflyatsiyaning oldini olish iqtisodiy oʻsishga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida koʻrib oʻtilgan barcha nazariy oqimlar iqtisodiyotni tartiblash zaruratidan kelib chiqadi. Faqat Keynschilar asosiy eʼtiborni davlatning iqtisodiyotni tartiblash kuchiga qaratgan boʻlsalar, monetaristlar esa iqtisodiyotning oʻz-oʻzini tartiblovchi kuchi boʻlmish bozor vositalari bor, davlat esa ularga yoʻl berib, iqtisodiyotga gʻoyat kam aralashishi maʼqul deydi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Pul nazariyasining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
2. Metallik nazariyaning vujudga kelishi va ularning namoyandalari qanday gʻoyani ilgari surishgan?
3. Metallik pul tizimi qanday koʻrinishlarda yuzaga kelgan?
4. Pulning nominallik nazariyasi va uning oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Pulning nominallik nazariyasi asoschilari kimlar?
6. Pulning miqdoriylik nazariyasi va uning namoyandalari.
7. Xozirgi zamon pul nazariyalaridan qaysilarni bilasiz?
8. M. Fridman va Keyns gʻoyalari toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
9. Xozirgi zamon monetarizmi haqida nimalarni bilasiz?
10. Oltin tanga standarti nimani bildiradi?
11. Quyma oltin standarti nimani bildiradi?
12. Oltin deviz standarti nimani bildiradi?

## YI.Bob. Inflyatsiya va uning turlari.Pulning barqarorligini ta'minlash yo'llari

### YI.1. Inflyasiya va uning kelib chiqish sabablari

Inflyatsiya - lotincha “inflatio” soʻzidan olingan boʻlib, “shishish”, “boʻrtish”, “koʻtarilish” degan maʼnolarni anglatib, mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishi (oʻsishi) tushuniladi. Narxlarning umumiy darajasi koʻtarilishi natijasida pul birligi (milliy valyuta) xarid qobiliyatining pasayishi roʻy beradi. Bu esa oʻz navbatida, davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi.

Pulning qadrsizlanishi deganda, bir xil miqdordagi pulga vaqti kelib kamroq boʻlgan tovar va xizmatlarni sotib olish, yaʼni sotib olinishi mumkin boʻlgan tovar va xizmatlar miqdorining vaqti kelib kamayishi tushuniladi.

Misol uchun, yilning boshida 100 ming soʻmga sotib olish mumkin boʻlgan kundalik isteʼmoldagi tovar va xizmatlarning miqdori yilning oxiriga kelib kamayadi. Bu esa 100 ming soʻmga yilning oxirida yilning boshidagiga nisbatan xuddi oʻsha tovar va xizmatlarni kamroq miqdorda sotib olish demakdir.

Inflyatsiyaning asosiy koʻrsatkichi boʻlib isteʼmol narxlari indeksining maʼlum bir davrdagi oʻzgarishi hisoblanadi.

**Isteʼmol narxlari indeksi** – uy-xoʻjaliklari talabidan kelib chiqib, maʼlum bir tovar va xizmatlar umumiy narxlarining oʻrtacha oʻzgarish darajasini aks ettiradi. Ushbu umumiy koʻrsatkich isteʼmol savatidagi har bir tovar va xizmat uchun narxlarning oʻzgarishini inobatga olgan holda hisoblanadi. Inflyatsiya soʻzi XIX asr oʻrtasidan boshlab iqtisodiy termin sifatida qoʻllana boshlagan, ungacha tibbiyotda xafli oʻsma kasalini ifodalashda qoʻllanilgan. Inflyatsiya soʻzining iqtisodiy maʼnosi-muomilada mavjud boʻlgan tovarlar va ularning bahosiga va miqdoriga nisbatan koʻp pul chiqarish demakdir. Inflyatsiya soʻzi pul muomilasi sohasida AQShning Shimoliy va Janubiy shtatlari oʻrtasida grajdanlar urushi boʻlganda muomilaga juda koʻp miqdorda (450 mln grin bek) qogʻoz dollar chiqarilgan vaqtidan boshlab qullanila boshlagan. Ularni sotib olish qobiliyati ikki yildan keyin 50 foizga tushib ketgan.

Tarixga koʻra urush va boshqa ofatlar sababli davlat xarajatlarining oshib ketishi, inflyatsiya bilan oʻzviy bogʻliq. Masalan, Angliyada kuchli inflyatsiya XIX asrning boshida Napolion bilan urush davrida, Fransiyada fransoʻz revolyusiyasi davrida, Rossiyada XIX asrning oʻrtalarida nomoyon boʻlgan. Germaniyada juda yuqori surʼatlardagi inflyatsiya 1923 yillarda boʻlib, muomiladagi pul massasi 496



kvintillion markaga yetgan va pul birligi trillion markaga qadrsizlangan. Oldingi inflyasiyalarning xususiyati shundagi, ular ma'lum davrda nomoyon bo'ladi. Kozirgi davr inflyasiyasi odatda doimiy (xronik) xarakterga ega bo'lib, xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini qamrab olish bilan, pul, omillaridan tashqari boshqa iqtisodiy omillarga ta'sir qilishi bilan farqlanadi.

**Inflyasiyaning asosiy sabablari:**

- a) jamg'arma va iste'mol o'rtasidagi;
- b) talab va taklif o'rtasidagi;
- v) muomiladagi pul muassasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lgan talabi o'rtasidagi nomutonosibliklardir.

Bulardan tashqari pul talabining tovar taklifidan oshishi natijasida pul muomilasi qonunning buzilishi, ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi natijasida tovarlar bahosining oshishi va shu sababli pul massasining ortib borishi, ishlab chiqarishni qisqarishi, ba'zan byudjet difisetini qoplash uchun qo'shimcha pul chiqarish va boshqalar ham sabab bo'ladi.

Inflyasiyani yuzaga keltiruvchi omillarni ichki va tashqi sabablarga bo'lish mumkin.

**Ichki omillar** mamlakatni monetar – pul siyosati hamda xo'jalik faoliyati bilan bog'liq (nomutonosiblik, baholardagi davlatni yakka hokimligi, noto'g'ri kredit siyosati, pul muomilasi qonunining buzilishi va boshqalar).

**Tashqi omillarga** jahon iqtisodida bo'lgan inqirozlar (xomashyo, yoqilg'i, valyuta bo'yicha), davlatning valyuta siyosati, davlatning boshqa davlatlar bilan bo'ladigan noqonuniy operasialari va boshqalar kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib inflyasiya deb ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keluvchi disproporsiyalar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy va to'xtovsiz o'sishi va natijada pul muomilasi qonunining buzilishi oqibatida pul birligining qadrsizlanishiga aytiladi.

Inflyatsiya quyidagi shaklda nomoyon bo'ladi:

1. Tovar va xizmatlar bahosining uzluksiz va tartibsiz o'sib borishi natijasida pulning qadrislanishi va uni sotib olish qobiliyatining tushib ketishi.
2. Chet el valyutasiga nisbatan milliy valyuta kursining tushib ketishi.
3. Milliy pul birligida oltin narxining oshib borishi va boshqalar.

## **YI.2. Inflyatsiyaning turlari va toifalari**

Xalqaro amaliyotda inflyasiyaning quyidagi turlari mavjud.

**Sudraluvchi inflyasiya.** Uzoq vaqt davomida barqaror va past darajada bo'lgan inflyatsiya (zamonaviy iqtisodiyot uchun yiliga 1-4% normal hisoblanadi). Baholarning o'rtacha yillik usishi 5-10 foizdan oshmaydi. Inflyatsiyaning bu turi ko'proq rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib, malakaviy iqtisodiy rivojlanish darajasiga qadar baholar oshishi 3-4 % atrofida ham bo'lishi mumkin. Bu inflyasiya aksincha ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishni takomillashtiruvchi omil sifatida nomoyon bo'ladi.

**Suzib yuruvchi inflyasiya.** Bunda narx navo tezroq o'sa boshlaydi. Iqtisodiy o'sish suratlari pasayadi., ishsizlik ko'paya boradi. Inflyasiya yiliga 8-12 % atrofida bo'ladi.

**Shiddatli.** Bunda baholarni o'rtacha yillik o'sishi 10-100 % (ba'zida 200 % gacha) bo'lishi mumkin. Inflyasiyaning bu turi rivojlanayotgan mamlakatlarga xos.

**Giperinflyasiya.** Mamlakatda o'rtacha narx-navoning haddan tashqari oshgandagi holati bo'lib, oyiga 50%, yiliga esa 50 baravardan ham ko'proq oshishi mumkin. Bu inflyatsiya mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining inqirozli davriga mos keladi va u iqtisodiyot tarkibiy qismlarini o'zgarishi bilan bog'liq.

Adabiyotlarda shu kabi stagflyatsiya (inflyasiyani iqtisodiy tanglik bilan birgalikda yuz berishi), lokal (bir mamlakat yoki jahon miqyosida), ichki (bir mamlakat ichida), ochiq (qachonki baholar o'sishi sezilgan holda), yopiq (sekretiy – tovar va xizmatlar sifatini baho o'zgarmagan holda yomonlashuvchi, tovar defiseti sodir bo'lganda) inflyasiya tushunchalari mavjud.

Inflyasiyadan farqliroq deflyasiya narx-navo pasayishini, pul qadrini ortishini bildiradi. U sababli inflyasiyadan yutqazishlar deflyasiya yordamida qoplanishlar sodir bo'ladi.

Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablariga ko'ra uning ikki toifasini ko'rsatish mumkin: talab inflyatsiyasi va ishlab chiqarish bilan bog'liq inflyatsiya (taklif inflyatsiyasi).

**Talab inflyatsiyasi.** Inflyatsiyaning bu an'anaviy turi talab oshib ketganda yuzaga keladi. Ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovarlar bahosi o'sadi. Kam miqdordagi tovarlarga ko'p pul massasi to'g'ri keladi.

Talab inflyatsiyaning yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

a) harbiy xarajatlarning o'sishi va iqtisodiyotning militarlashuvi.

Harbiy texnika sotib olish va boshqa harbiy xarajatlarni qoplash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar muomala uchun keragidan ortiqcha pul chiqarishning omili hisoblanadi.

b) davlat qarzlarning o'sishi va byudjet taqchilligining mavjudligi.

Byudjet taqchilligi, odatda, zayomlar chiqarish yoki banknotalarni emissiya qilish yo'li bilan qoplanadi. Bu, o'z navbatida, qo'shimcha muomala vositalari bo'lishiga, qo'shimcha talab yuzaga kelishiga olib keladi.

g) chet el valyutasining mamlakatga kirib kelishi va uning milliy valyutaga chet el valyutasining qadri oshadi;

d) xalq xo'jaligining yetakchi tarmoqlarini keragidan ortiqcha investitsiyalash ham aylanmaga qo'shimcha pul ekvivalentlarini chiqarishga olib keladi.

Shunday qilib, talab inflyatsiyasi umumiy talabning o'sishi natijasida baholar o'sishi bilan namoyon bo'ladi.

**Ishlab chiqarish bilan bog'liq (taklif) inflyatsiya.** Bu inflyatsiyaning sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

a) har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida maxsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar

oshadi. Umuman, xalq xo`jaligi bo`yicha ishlab chiqarish hajmi, binobarin, tovarlar bo`yicha taklif qisqaradi va tovarlar bahosi oshadi. Korxonalarining foyda hajmi qisqaradi.

b) har xil yangi xizmat turlari paydo bo`ladi, kam mehnat unumdorligida yuqori ish haqi olishga imkoniyat tug`iladi. Natijada tovar va xizmatlarga bo`lgan baho oshib boradi.

v) aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash maqsadida ish haqining oshishi, tovarlar bahosining oshishiga olib keladi va yana ish haqi oshadi va h.k. Bu zanjir uzluksiz davom qilish mumkin.

Uzoq vaqt mobaynida tovar va xizmatlar narxlari barqaror bo`lgan, rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyaning o`rta muddatli ko`rsatkichi 2 foiz atrofida, ushbu ko`rsatkich rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlar uchun esa nisbatan yuqoriroq, taxminan 2-6 foiz atrofida bo`lishi maqbul deb topilgan.

Bugungi kunda har qanday darajadagi inflyatsiya salbiy jihatga ega degan fikr ommada mavjud bo`lib, aslini olganda inflyatsiyaning har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o`shish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon.

Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo`shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o`shishga turtki beradi. Inflyatsiyaning umuman yo`q bo`lishi esa iqtisodiyotning o`shish sur`atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi.

Inflyatsiyada nafaqat chakana baho, balki ulgurji baho ham oshib boradi. G`arb mamlakatlarida inflyatsiyaning asosiy ko`rsatkichi qilib chakana baholarning o`zgarishi (oshishi) qabul qilingan. Agar ma`lum davrda baholar ikki marta oshsa, pul ham ikki marta qadrsizlangan deb hisoblanadi.

Chakana baholar o`shishini hisoblash maxsus davlat organlari tomonidan aniqlanadigan baholar indeksiga asoslanadi. Baholar indeksini hisoblashning boshlang`ich nuqtasi sifatida (yuz foiz deb) bazis yili olinadi va joriy yilda baholar o`zgarishi, o`rtacha yillik o`shish sur`ati hisoblanishi mumkin.

Baholar indeksi bu joriy yildagi tovarlar va xizmatlar bahosi yig`indisi, ya`ni tovarlar bozor savati bahosining shu tovar va xizmatlarning bazis yildagi umumiy bahosi, ya`ni bozor savati bahosiga nisbati sifatida aniqlanishi mumkin. Yuqoridagi fikrni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin.

<b>Joriy (2017) yilda baholar indeksi</b>	=	<b>joriy (2017) yilda bozor savati bahosi</b>	<b>x1 00</b>
		<b>bazis yildagi bozor savati bahosi (masalan 2016 yil)</b>	

Baholar indeksini hisoblashda iste`mol tovarlar bahosining indeksi katta ahamiyatga ega. Baholar indeksi turli usullarda baholar darajasini solishtirishga

imkon beradi. Joriy yildagi baholar indeksi bazis yildagi baholar indeksiga nisbatan oshishi - inflyatsiya - "Baholar darajasining oshishi"dan, baholar indeksining kamayishi-deflyatsiya-"Baholar darajasining kamayishi"dan dalolat beradi.

Iste`mol tovarlar bahosi indeksidan tashqari ba`zi guruh tovarlar va xizmatlar, masalan: kiyim, oyoq kiyimlar, transport, uy-joy xizmatlari va boshqalar bo`yicha baholar indekslarini hisoblash mumkin.

Baholar indeksiga asoslanib, inflyatsiya sur`atlarini aniqlash mumkin. Buning uchun joriy yil baholar indeksidan bazis davr baholar indeksini chegirib, bazis davr baholar indeksiga bo`lamiz. Masalan, 2016 yilda iste`mol tovarlarning baho indeksi 110, 2017 yilda 140 bo`lsa, 2017 yilda inflyatsiya sur`ati quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Inflyatsiya surati} = \frac{140 - 110}{110} \times 100 = 27,27 \%$$

Demak, 2017 yilda inflyatsiyaning o`shish sur`atlari taxminan 27,3% teng bo`ladi.

Inflyatsiyaning o`shish sur`atlari to`g`risida gapirganda, uning rivojlanishini son jihatdan aniqlanishning boshqa yo`li ham mavjud. Bu usul "70 lar qoidasi" deb ataladi. Agar har yillik inflyatsiya darajasi ma`lum bo`lsa, baholar ikki karra oshishi uchun necha yil kerak ekanligini aniqlash mumkin. Buning uchun "70" ni har yilgi inflyatsiya darajasiga bo`lish kerak. Masalan, inflyatsiyaning har yillik darajasi 5% bo`lsa, baholar darajasi 14 yildan keyin ikki marta oshishi kerak. Agar har yillik inflyatsiya darajasi 20% bo`lsa, baholar darajasi 3 yildan keyin ikki marta oshishi kerak.

Shuni ta`kidlash kerakki, bu usul hamma vaqt ham, masalan, inflyatsiyaning o`shish sur`atlari yuqori, (har kuni, oyda o`zgarib boradigan) bo`lsa, qulay hisoblanmaydi. "70 lar qoidasi" aholi jamg'armalarining, real yoki milliy maxsulot hajmining ikki marta oshishi uchun necha yil kerak ekanligini to`g`ri aniqlab berishga imkon beradi.

Pulning qadrsizlanish darajasi turli mamlakatlarda har xil bo`lishi mumkin. Inflyatsiya darajasi rivojlangan mamlakatlarda pastroq va tez o`tishi kuzatilsa, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda uning darajasi yuqori, surunkali va "davolash" ham ko`proq vaqt talab qilishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyaning sharoit va omillari har xilligini hisobga olib uni quyidagi guruhlarga bo`lish mumkin.

Birinchi guruhga rivojlanayotgan Lotin Amerika mamlakatlari - Argentina, Braziliya, Peru kabilar kiradi. Bu davlatlarda surunkali davlat byudjeti taqchilligi, iqtisodiy muvozanatning yo`qligi asosiy va aylanma mablag'lar qiymatining doimo indeksatsiya qilinishi, milliy valyuta kursining chet el valyutasiga nisbatan tushib borishi pul qadrsizlanishining omillari hisoblanadi.

Bu mamlakatlarda surunkali byudjet taqchilligini emissiya yo`li bilan moliyalashtirish natijasida yillik pul qadrsizlanishi bir necha ming foizga yetishi kuzatilgan.

Argentina, Chili kabi mamlakatlarda inflyatsiya pul qadrini yemirib tashlashi natijasida biror tovarni sotib olish uchun bir necha million pul birligi zarur bo`lgan.

Bu xol hisob-kitoblarni olib borishda, pul muomalasida juda katta qiyinchilik tug'dirgan. Bir necha marta o`tkazilgan denominatsiyalar pul qadrsizlanishini to`xtatishga asos bo`la olmagan. Lotin Amerikasi mamlakatlarida bo`lgan inflyatsiya darajasini baholar indeksidan ham ko`rish mumkin. Bu mamlakatlarda baholar indeksleri bir necha sonlardan iborat bo`lgan.

Ikkinchi guruh mamlakatlar - Kolumbiya, Ekvador, Venesuela, Eron, Suriya kabi mamlakatlarda ham iqtisodiy muvozanatning yo`qligi, moliyaviy siyosatdagi kamchiliklar - taqchilikni moliyalashtirish, xalq xo`jaligiga ko`p kreditlar ajratish inflyatsiyaning mavjud bo`lishini ta`minlamoqda. Bu mamlakatlarda inflyatsiya shiddatli xarakterga ega bo`lib, baholarning yillik o`sishi 30-40% atro-fida, ba`zida undan yuqori bo`ladi. Inflyatsiya sur`atiga qarab jamg'armalar, to`lovlar bo`yicha indeksatsiya o`tkazib boriladi, ishsizlik oshib bormoqda.

Uchinchi guruhga Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Tailand, Filippin kabi mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarda cheklangan iqtisodiy muvozanat mavjud bo`lib, eksportdan valyuta tushumi ancha yuqori. Yillik inflyatsiya sur`ati 5-20% atrofida va qisman indeksatsiya o`tkazilib turiladi.

To`rtinchi guruh davlatlar - Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya, Bahrayn, Arabistonda - iqtisodiy muvozanatning mavjudligi inflyatsiya sur`atlarining sustligini ko`rsatadi. Bu mamlakatlardagi inflyatsiya 2-6% ni tashkil qiladi va buni sudraluvchi inflyatsiya deb atash mumkin.

Bu mamlakatlarda tovarlar va xizmatlar bahosi oshishi ustidan qattiq nazorat olib boriladi. Ishsizlik boshqa mamlakatlarga nisbatan kam, iqtisodiyoti rivojlangan bozor sharoitida boshqariladi. Eksport hajmi va chet el valyutasi tushumining yuqoriligi, inflyatsiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega omil hisoblanadi.

O`zbekistondagi inflyatsiya bu mustaqillik tufayli vujudga kelgan inflyatsiya emas. Tarixan bu inflyatsiya sobiq SSSR da yuzaga kelgan. Bu inflyatsiyaning umumiy iqtisodiy sababi davlat boshqaruvida iqtisodiyotga nisbatan siyosatga ko`p e`tibor berilganidadir. Natijada ishlab chiqarish sur`atlari tushib ketdi. Tovar kamyobligi yashirin jarayon bo`lib, tovarlarni ishlab chiqarish uchun ko`p xarajat qilinsada (xom ashyolarning narxi yuqoriligi tufayli), tovarlar past bahoda sotilgan. Farq davlat byudjetidan qoplangan. 1992 yilning boshidan erkin baholarga o`tish natijasida (ozuq-ovqat va yoqilg'i resurslardan tashqari) inflyatsiya yuzaga chiqdi va tez sur`atlar bilan rivojlanib ketdi.

Shu tufayli O`zbekistondagi inflyatsiya sobiq SSSR davrida yuzaga kelgan inflyatsiyaning qoldig'idir va uni davolash uzoq vaqt talab qiladi.

Sobiq SSSRda, jumladan, O`zbekistonda 90 - yillardagi inflyatsiyaning asosiy sabablari: - iqtisodiy muvozanatning yo`qligi, ishlab chiqarish sur`atlarining tushib ketishi;

- maxsulotlar sifatining, mehnat unumdorligining pastligi;
- ishlab chiqarishda xarajatlar salmog'ining oshib ketishi, be-huda sarflar, iqtisodiy tamoyillarga rioya qilmaslik va boshqalar hisoblanadi.

Bundan tashqari, rivojlangan bozor sharoitiga o'tmasdan turib, baholarning erkinlashuvi, tovar massasi ustidan ba'zi bo'limlarning yakka hukmronlik o'rnatishi, baholarni xohlagacha boshqarish, kredit, moliya siyosatlarini noto'g'ri olib borish, iqtisodiyotning "dollarlashuvi", "milliy valyuta hududi"ning yemirilishi, valyuta tushumlari va milliy boylikning chetga oqib ketishi va boshqalar inflyatsiya jarayonining yana rivojlanishiga olib kelgan.

Inflyatsiya jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Mamlakat iqtisodiy ahvolini tang holga olib keladi:

- ishlab chiqarish hajmi tushib ketadi va baholarning oshib borishi ishlab chiqarish istiqbollari to'g'anoq bo'ladi;

- kapitalning asosiy qismi ishlab chiqarishdan savdo (muomala) sohasiga, vositachilik sohasiga oqib o'tadi. Chunki ishlab chiqarishdan ko'ra, savdo sohasidagi kapital tezroq va ko'proq foyda keltiradi;

- baholarning o'zgarib turishi olib-sotarlikni rivojlantiradi, arzon vaqtida olib, qimmat bo'lganda sotish jarayoni, tovar zaxiralarini yashirish jarayonlari avj oladi;

- kredit berish jarayonlari cheklangan bo'ladi. Qarz oluvchilar ko'payadi-yu, qarz beruvchilar soni qisqaradi, chunki qarz bergan yutqazishi mumkin;

- davlatning moliya resurslari qadrsizlanadi va h.k.

2. Aholining kam daromad oluvchi qismining ijtimoiy ahvoli yomonlashadi. Ularning real daromadlari kamayadi. Nominal daromadning baholar o'sishidan tushishi natijasida aholining turmush darajasi pasayadi. Ayniqsa, nafaqa, davlat tashkilotlaridan maosh oluvchilarning ahvoli qiyinlashishi mumkin. Inflyatsiya aholi jamg'armalarining qadrsizlanishiga olib keladi. Inflyatsiya aholi ba'zi qatlamlarining (savdo-sotiq sohasida) boyishiga olib keladi.

Davlat aholining daromadlar darajasini tenglashtirish maqsadida daromad va soliqlarni indeksatsiya qilib boradi.

### **YI.3. Bazaviy inflyatsiya va uning mazmun mohiyati**


**Bazaviy inflyatsiya** – bu inflyatsiyaning bir qismi bo'lgan va o'zida ma'muriy hamda mavsumiy omillarning narxlardagi ta'sirini hisobga olmagan holda tovar va xizmatlar narxlarining erkin o'zgarishini (dinamikasini) aks ettiruvchi ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich mamlakatdagi inflyatsiya darajasini ma'lum bir davr uchun yaqqolroq ifoda etadi. Chunki bazaviy inflyatsiya iste'mol savatidagi:

- mavsumiy;
- qisqa muddatlarda narx-navosi tez-tez o'zgarib turuvchi;
- narx-navosi davlat tomonidan tartibga solinadigan ayrim tovar va xizmatlarning narxlarini inobatga olmaydi.

Masalan, meva-sabzavot tovarlari, suv, gaz, elektr-energiya kabi tovar va xizmat turlari.

Ko'p hollarda, **bazaviy inflyatsiya deganda davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar va iqtisodiyotdagi ma'muriy choralarning ta'siridan holi, to'g'rilangan iste'mol narxlari indeksi (INI) tushuniladi.**

Quyidagi diagramma orqali inflyatsiya va uning tarkibini soddaroq ko'rishda tushuntirib o'tamiz:



Bozor iqtisodiyotida tovar va xizmatlar narxi talab va taklifdan kelib chiqib shakllanadi. Ammo shunday tovar va xizmat turlari mavjudki, ularning narxlari davlat tomonidan o'rnatiladi va tartibga solinadi. Iste'mol savatidagi ayrim tovar va xizmatlar narxlari tartibga solinishi to'g'ridan-to'g'ri umumiy inflyatsiya darajasiga ta'sir etgani uchun bunday tovar va xizmatlar narxlaridagi o'zgarishlar bazaviy inflyatsiyani hisoblashda qo'llanilmaydi. Shu bilan, bazaviy inflyatsiyani hisoblash maqsadida

iste'mol narxlari indeksiga tuzatishlar kiritiladi.

Iste'mol narxlari indeksi – bu, biz muntazam sotib oladigan iste'mol savatidagi ma'lum bir tovar va xizmatlar narxining ma'lum davrga nisbatan o'zgarishini ko'rsatadi. U foizda o'lchanadi. Markaziy bank ushbu yondashuv orqali narxlar o'zgarishini (dinamikasini) inflyatsiyaga ta'sirini kuzatib boradi.<sup>11</sup>

Nega ba'zi tovar va xizmatlar bazaviy inflyatsiyaga kiritilmaydi? Yuqorida ta'kidlanganidek, narx-navosi tartibga solinadigan, qisqa muddatlarda o'zgaruvchan hamda mavsumiy tovar va xizmat narxlaridagi o'zgarishlar bazaviy inflyatsiyani hisoblashda inobatga olinmaydi. Bunday tovar va xizmatlarning bazaviy inflyatsiyaga kiritilishi, yaqqol (sof) inflyatsiya darajasiga mutanosib ravishda aks etmasligi, shuningdek, pul-kredit siyosati borasida olib borilgan choralarning ta'sirchanligini baholashga imkon yaratmasligi mumkin.

Aynan bu tovar va xizmatlarni bazaviy inflyatsiyadan chiqarib tashlash, narxlari shok ta'sirida o'zgaruvchi tovar va xizmatlarning dinamikasiga chalg'imasdan pul-kredit siyosati choralari umumiy narxlarga ta'sirini ajratib olishda qo'l keladi.

Bazaviy inflyatsiyani hisoblashda bu kabi tovar va xizmatlar narxlaridagi o'zgarishlarning kiritilmasligiga asosiy sabablar quyidagilar hisoblanadi:

- tovar va xizmatlarning (uzum, shakar va shu kabilar) mavsum davomida narxi keskin o'zgarishi;

<sup>11</sup> www.cbu.uz

-tovar va xizmatlarning (masalan, import tovarlari) narx-navosi qisqa muddatlarda tez-tez o'zgarib turishi iqtisodiyotda shok ta'sirga egaligi;

-davlat tomonidan narx-navosi o'rnatiladigan va tartibga solinadigan ayrim tovar va xizmatlar (masalan, bug'doy, paxta yog'i)ning inflyatsiya darajasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi.

#### **VI.4. Inflyatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi siyosat**

Iqtisodiyotda inflyatsiyaning vujudga kelishi mamlakatning barcha jabhalarida ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodchi olimlar va mutahassislarning fikricha, mamlakatda sudraluvchan inflyatsiya iqtisodiyot rivojiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Odatda iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi yillik 12 – 14 foizdan ortgandan so'ng uning salbiy ta'siri seziladi. Inflyatsiyaning salbiy ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiq.

1. Aholi va korxonalarining nominal daromadlari hajmi ortib borsada real daromadlari pasayadi. Natijada aholining turmush darajasi pasayadi, ularning yillik olayotgan daromadlarining real qiymati pasayib boradi. Korxonalarda xomashyo va ishlab chiqarish xarajatlari ortib boradi, buning natijasida ularning moliyaviy holati yomonlashadi.

2. Mamlakatning boylik va daromadlari bir guruh kishilar o'rtasida qayta taqsimlanadi. Kreditorlar bu borada yutadilar, debitorlar esa yutqazadilar. Dj. Millning fikriga ko'ra «Barcha tovarlarning bahosi surunkali o'sib borishi, boshqacha so'z bilan aytganda pulning sotib olish qiymatining tushib ketishi, kimgadir iqtisodiy jihatdan keltiradigan foydasi qo'shimcha ishlab chiqarish hisobidan emas, balki kimningdir hisobidan amalga oshadi».

3. Pulning moddiy boylikka almashtirish jarayoni tezlashadi. Aholi o'z ihtiyoridagi pullarga tovar, ko'chmas mulk, qimmatbaho buyumlarni, shuningdek, barqaror horijiy valyutalarni sotib olishga bo'lgan iqtisodiy qiziqish ortib boradi.

4. Uzoq muddatli investitsiyalarga yo'naltiriladigan mablag'lar kamayib boradi va ohir oqibat to'htaydi. Chunki, investitsiyalar hisobidan kelgusida olinadigan daromadlar o'z qadrini yo'qotgan pullarda olinadi.

5. Aholining barcha shakldagi pul jamg'armalarining (omonat, naqd pul, obligatsiya, qimmatli qog'ozlar va boshqalar) qiymati tushib ketadi. Shuningdek, korxonalarining jamg'armalari, asosan amortizatsion fondlarining qiymati inflyatsiya ta'sirida tushib ketadi va asosiy vositalarni yangilash hamda rekonstruktsiya qilishga imkoniyat qolmaydi.

6. Omonatlar bo'yicha foizlar miqdorining tushib ketishi. Foizlar nominal ko'rinishda o'sishi mumkin, lekin real qiymati pasayib boradi. Natijada aholining banklardagi omonatlarining hajmi pasayib, mablag'larning bankdan tashqari oborotining hajmi ortib boradi.

7. Mikroiqtisodiy darajada ishlab chiqarishga bo'lgan manfaatdorlik yo'qoladi, buning natijasida korxonada yangi ilmiy texnikani joriy etish darajasi tushib ketadi. Ishchilarning mehnatini rag'batlantirish pasayadi.

8. Milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari markazlashadi. Milliy valyutaning qadrini pasayishi natijasida muomalada horijiy valyutalarning ishtiroki ortib boradi. Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda qiyinchiliklar vujudga keladi.

9. Iqtisodiy ma'lumotlarning haqqoniyligi, ishonchliligi, barqarorligiga shubha tug'iladi. Natijada aholining davlat tomonidan olib borayotgan makroiqtisodiy siyosati va pul – kredit tizimiga ishonchi pasayadi.

Milliy iqtisodiyotda inflyatsiyaga qarshi siyosatni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, inflyatsiya mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy siyosatini izdan chiqaradi. Ishlab chiqarishga va aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda, iqtisodchilarning fikricha, uning ikkita yo'li mavjudligi e'tirof etiladi:

- umumiy talabni tartibga solish;
- umumiy taklifni tartibga solish.

Umumiy talabni tartibga solish orqali inflyatsiyaga qarshi kurash keynschilik yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Ular inflyatsiyaga qarshi kurashda umumiy talabni tartibga solish taklifning oshishiga samarali ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Taklifning oshishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar davlat xarajatlarini oshirish va imtiyozli kreditlarning miqdorini ko'paytirishdir. Ular o'z navbatida mamlakatda investitsion talabni keltirib chiqaradi, investitsion talab taklifning o'sishiga olib keladi, taklifning o'sishi esa baholarning pasayishiga, baholarning pasayishi inflyatsiyani oldini olish va gipyerinflyatsiyani bartaraf etish imkoniyatini beradi.

Inflyatsiyaga qarshi kurashning monetaristik yo'nalishi vakillarining diqqat markazida asosiy masala yalpi taklifni tartibga solishga qaratiladi. Monetaristlarning fikricha, inflyatsiyaga qarshi kurashning keynschilar tomonidan ilgari surilgan usuli mamlakatni inflyatsiyadan qisqa muddat ichida chiqishga imkoniyat beradi, lekin mamlakatda yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik holati saqlanib qoladi. Buning natijasida, ma'lum vaqtdan keyin, mamlakatda inflyatsiya jarayoni vujudga keladi. Monetaristik siyosatning asoschilaridan hisoblangan Milton Fridmanning fikricha – inflyatsiya – bu bevosita pul bilan bog'liq bo'lgan holat bo'lib, uning kelib chiqishini asosiy sababi davlatning iqtisodiyotni boshqarishga nooqilona aralashuvi natijasida vujudga keladi. Shuning uchun davlat byudjeti taqchilligini qo'shimcha emissiya evaziga emas, balki mamlakatda yalpi taklif hajmini oshirish yo'li bilan bartaraf etish lozimligini ta'kidlaydi.

Monetaristlar kreditning foiz stavkasini oshirish, byudjet taqchilligini qisqartirish va soliq stavkalarini pasaytirishni ilgari suradilar. Ularning fikricha, buning natijasida, iste'molga bo'lgan ehtiyoj qisqaradi, investitsiya hajmi ortadi, samarasiz xo'jalik sub'ektlari bankrot bo'ladi, mamlakatda kuchli raqobat muhiti

shakllanadi. Bular o'z navbatida mamlakatda inflyatsiya darajasining tushishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, inflyatsiya mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishini bildirib, uning asosiy sababi iqtisodiyotning turli sohalari o'rtasida vujudga kelgan nomutanosibliklardir. Bu avvalom bor jamg'arma va iste'mol o'rtasidagi, talab va taklif, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi, muomaladagi pul massasi va xo'jaliklarning naqd pulga bo'lgan talabi o'rtasidagi nomutanosibliklardan iboratdir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Inflyatsiya qanday hollarda yuzaga keladi?
2. Pulning qadrsizlanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Inflyatsiyaning qanday turlarini bilasiz?
4. Pul massasini boshqarish usullari?
5. Inflyatsiyaning ichki va tashqi omillari deganda nimani tushunasiz?
6. Inflyatsiyaning namoyon bo'lish shakllarini keltiring?
7. Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni sanang?
8. Inflyatsiyaga qarshi kurashishning qanday yo'llari mavjud?
9. Pul muomalasini barqarorlashtirish deganda nimani tushunasiz?
10. Pul islohotining qanday turlarini bilasiz?
11. Inflyatsiya qarshi kurash va undan chiqish choralariga nimalar kiradi?
12. Inflyatsiya iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi?
13. Milliy valyutani barqarorlashtirish bo'yicha O'zbekiston Markaziy bankining vazifalari nimalardan iborat?
14. Pul muomilasini barqarorlashtirishda qanday usullardan foydalaniladi?

## **YII bob. Kreditning zarurligi, mohiyati va funktsiyalari**

### **YII.1. Kreditning zururiyati, mohiyati va funktsiyalari**

Kreditning mohiyatiga qator iqtisodchi olimlar tegishli ta'riflarni shakllantirgan. Xususan, Shegorsova V.A. tahriri ostida tayyorlangan darslikda, “Kredit – qaytarish va to‘lov sharti bilan qarzdorga vaqtinchalik foydalanish maqsadida pul mablag‘i yoki moddiy buyum ko‘rinishida berish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir” tarzidagi ta'rifi shakllantirilgan. Professor O.I.Lavrushin tahriri ostida nashr etilgan darslikda kreditning mohiyatiga aniq ta'rif berilmagan. Biroq, ularning fikricha, kredit ijtimoiy munosabatlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, iqtisodiy kategoriyadir. Shu bilan birga, kredit turlicha ijtimoiy munosabatlarda emas, balki iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi qiymatning harakati jarayonida namoyon bo‘ladi. Darslikda, kreditning mohiyatini aniq aks ettirish uchun uning tarkibi, harakat qilish jarayoni va vujudga kelish asosiga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi. Boshqa rossiyalik iqtisodchi olimlar “Pulli (tovarli) kredit to‘lov asosida amalga oshiriladigan bir toifadagi ekvivalentning turli vaqtdagi o‘zaro harakatining yig‘indisidir.”, degan ta'rifni berishgan. O‘zbekistonlik iqtisodchilardan professor Sh.Abdullayeva tomonidan nashr ettirilgan darslikda: “Kredit – bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma'lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir” tarzidagi ta'rif berilgan.

Kreditning mohiyatini yanada aniqroq va to‘liqroq ochib berishda uning sub'ektiv va ob'ektiv mohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Kredit munosabatlarining vujudga kelishida, shuningdek, uning mohiyatini ochib berishda kreditning sub'ektiv mohiyati ham alohida o‘rin tutadi.

Kreditning sub'ektiv mohiyati bir – biriga bog‘liq bo‘lgan “kreditor” va “kredit oluvchi”ning munosabatlarida namoyon bo‘ladi. “Kreditor” va “kredit oluvchi” o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarning asosida tovar – pul aylanmasi yotadi. Jamiyatda vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larning mavjudligi va tovar aylanmasining mavjudligi kredit va qarz oluvchining manfaatlarini bir – biriga to‘qnashishiga xizmat qiladi. Agar, ushbu manfaatlar bir – biriga mos kelsa ular o‘rtasida kredit munosabatlari vujudga keladi.

Kreditor – kredit munosabatlarini tashkil etishda kredit beruvchi sifatida maydonga chiqadi. Kreditor pul mablag‘larini vaqtinchalik foydalanishga beruvchi sub'ektlar hisoblanadi. Bunday sub'ektlar banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlar, lombardlar, davlat va boshqa moliyaviy tashkilotlar bo‘lishi mumkin. Kreditor ssuda sifatida beradigan pul mablag‘lari ularning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi. Kreditor sub'ektlar ichida, banklar va kredit uyushmalari nafaqat o‘z mablag‘lari hisobidan, balki chetdan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan kreditlar beradi. Mablag‘larni jalb qilishning turli yo‘llari mavjud bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida akciyalar va obligatsiyalarni muomalaga chiqarish asosiy va samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Kredit oluvchi – kredit munosabatlarida kredit oluvchi sifatida ishtirok etadi. Kredit oluvchi sub'ektlar sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, aholi, davlat, banklar va boshqa shahslar maydonga chiqadi. Kredit munosabatlarida ishtirok etuvchi har ikkala tomonning iqtisodiy manfaatlari mavjud bo'lib, ushbu manfaatlar o'zaro mujassamlashganda kredit munosabatlari ro'y beradi.

Ma'lumki, jamiyat faoliyatining asosini ishlab chiqarish tashkil etadi. Ishlab chiqarishni uzluksizligini ta'minlashda esa kreditning o'rni muhim hisoblanadi.

Boshqacha aytganda korxonalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida ish yuritishida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, korxonaning asosiy va aylanma fondlarining aylanishini to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaslik, korxonalarini moliyaviy resurslari bilan ta'minlash, korxonalar tomonidan tovar maxsulotini sotganda, sotilgan tovar uchun to'lov summasini olish va boshqa obyektiv va subyektiv sabablar kreditning zarurligiga olib keladi.

**Kredit** (lotincha – ishonish – verit, doveryatsya) deganda o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan ayrim qiymat yoki pul mablag'larining boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar tushuniladi.

Kredit qadimdan ma'lum bo'lgan. U dastlab savdoda almashuv jarayonida paydo bo'lgan bo'lib, u avval tovarlarni kreditga sotilishi bilan bog'liq. Bunga sabab xaridorni tovar sotib olishga hamisha ham naqd puli bo'lmaydi, u tovar sotilsa tushadi, tovar sotuvchi esa uni tushishini kutib turolmaydi (shu davrda tovarning qiymati tushib ketishi, sifati pasayishi mumkin.). Shu va boshqa xolatlar tovarlarni kreditga sotishga olib kelgan. Kredit tovar ishlab chiqarishning va tovar muomilasining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi va uning rivojlanishi bilan bog'liq. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan pul shaklidagi kredit paydo bo'ldi. Keyinchalik kredit berish mustaqil faoliyatga aylanib, uning asosiy funksiyasi bo'lib pul egalari va unga vaqtincha muxtoj bo'lganlar o'rtasidagi vositachilikdir. Xozir bu faoliyat maxsus malaka va texnikaga ega bo'lgan maxsus ixtisoslashgan muassasalar-banklar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Kreditning imkoniyati va zarurligi shu bilan bog'liqki korxonalar maxsulot sotishda, xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda, korxonalar va jismoniy shaxslar o'z pullarini banklarda saqlashi va boshqa xollarda vaqtinchalik bo'sh bo'lgan pul mablag'lari bo'lgani xolda boshqa korxonalar va tashkilotlarda o'z faoliyatlarini uzluksizligini ta'minlash uchun tegishli pul mablag'iga ehtiyoj sezadi. Bu xolat qishloq xo'jalik korxonalariga ham tegishli bo'lib, bu ishlab chiqarishni mavsumiyliги, maxsulot ishlab chiqarish vaqti bilan uni sotish hajmini ko'pchilik maxsulotlar bo'yicha mos kelmasligi, sotilgan maxsulotlarga pulni o'z vaqtida kelib tushmasligi va boshqa xolatlar ularni kreditdan foydalanishni taqozo etadi.

**Kreditning imkoniyati** – shu bilan bog'liqki, korxonalar maxsulot sotishda, xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblarda, jismoniy va yuridik shaxslar o'z pullarini banklarda saqlashi va boshqa holatlar vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larining mavjudligiga olib keladi va uni kreditga ehtiyoji bo'lgan sub'yektlarga vaqtinchalik muddatga berish imkoniyati mavjud. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning ahamiyatini oshishi quyidagilar bilan bog'liq:

-Naqd puldan foydalanishni kamaytirib, muomila xarajatlarini, pul emissiyasini kamayishini ta'minlaydi.

-Korxonalar va aholining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari kredit muassasalarida saqlanishi tufayli ulardan unumli foydalanish ta'minlanadi.

Bank muassasalariga to'plangan pullar xalq xo'jaligi tarmoqlari, korxonalarining asosiy va aylanma mablag'larining to'ldirishning qarzga olingan manbai sifatida muhim ahamiyatga ega. Kredit tufayli xo'jaliklar o'rtasidagi shartnoma majburiyatlarining bajarilishi ta'minlanadi, maxsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi va boshqalar. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda kreditning o'rni va roli u bajarayotgan funktsiyalar bilan aniqlanadi.

**Kreditning funktsiyasi** – bu kreditning iqtisodiyotdagi faoliyatining muayyan ravishda namoyon bo'lishidir. Kreditning mohiyati uning funktsiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon bo'ladi. Kreditning funktsiyalari turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha va miqdorda keltiriladi. Ayrim adabiyotlarda iqtisodchi–olimlar kreditning funktsiyalarini beshta ekanligini ta'kidlashsa, ayrimlarida uning funktsiyalari ikkitadan iboratligiga da'vogarlik qiladi. Iqtisodchi – olimlarning kredit funktsiyalari haqidagi fikrlariga, shuningdek, kreditning tovar–pul munosabatlari va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokiga tayangan holda, uning qayta taqsimlash (1), muomala jarayonini tezlashtirish (2), pullarni muomalaga chiqarish va naqdlashtirish (3) hamda pul kapitalini jamg'arish va markazlashuvini jadallashtirish (4) funktsiyalarini bajarishini ta'kidlash mumkin.

Kreditning funktsiyalari:

1. **Qayta taqsimlash.** Kredit takror ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlariga – ta'minot, ishlab chiqarish, taqsimlash, muomila va iste'molga xizmat qiladi. Ushbu funktsiya yordamida korxonalar, tashkilotlar, davlat va shaxsiy sektorning bo'sh pul mablag'lari va daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga, muayyan to'lov asosida beriladi. Bu funktsiya yordamida ishlab chiqarishdagi proportsiyalar va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi. Kreditning funktsiyalari ichida qayta taqsimlash funktsiyasi asosiy funktsiyalardan biri hisoblanadi. Kredit ushbu funktsiyasi orqali jismoniy va yuridik shahslarining taqsimlangan daromadlarining vaqtinchalik foydalanilmagan qismini tegishli fondlarga jalb qiladi. Jalb qilingan mablag'lar iqtisodiyotning qo'shimcha resurslarga ehtiyoji mavjud tarmoqlariga qayta taqsimlanadi. Kredit ushbu funktsiyasi orqali vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larining sohiblariga qo'shimcha daromad olish imkoniyatini yaratsa, kreditorga qo'shimcha mablag'larga ehtiyoji mavjud shahslarga tegishli foizlar berish asosida daromad olishga, kredit oluvchilarga esa ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta'minlash natijasida qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini yaratadi.

Demak, kreditning qayta taqsimlash funktsiyasi orqali ssuda kapitali iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida, qaytarishlik asosida joylashtiriladi, bu kredit munosabatlarida bevosita ishtirok etayotgan tomonlarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash bilan birga, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini kreditor ihtiyoriga yo'naltirgan shahslarga tegishli daromad olishiga xizmat qiladi.

**Kreditning muomala jarayonini tezlashtirish funksiyasi** mamlakat pul muomalasi, pul massasi, pulning aylanish tezligiga bevosita ta'sir qiladi. Bu jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli fondlarga jalb etish orqali ularni pul aylanmasiga kiritadi.

Ma'lumki, mamlakat pul massasining tovar massasiga nisbatning ta'minlanishi milliy valyutaning barqarorligi va sotib olish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda kredit mamlakat pul massasining umumiy hajmini oshirmagan holda iqtisodiyot tarmoqlarining qo'shimcha mablag'larga bo'lgan ehtiyojni ta'minlaydi.

Odatda berilayotgan kreditlar asosan moliya muassasalari orqali bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqlarga o'tkaziladi. Bu o'z navbatida muomaladagi pullarning aylanish tezligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit paydo bo'lishi bilan birga, kredit pullarining oddiy shakli bo'lgan veksellarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Albatta, veksellar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning vaqtinchalik pul mablag'lari bilan bog'liq muammolarni hal etishda, kredit munosabatlari yordamida muhim moliyaviy qurol sifatida maydonga chiqadi.

**Kreditning pullarni muomalaga chiqarish va ularni naqdlashtirish funksiyasi** asosan Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, Markaziy bank muomaladagi pul massasini solish maqsadida qayta moliyalash stavkalari asosida tijorat banklariga kreditlar beradi, berilgan kreditlar iqtisodiyotdagi pul massasini oshirish bilan birga, Markaziy bank tomonidan kreditlar ko'rinishida muomalaga chiqarilgan naqdsiz pullarni u yoki bu yo'l bilan naqdlashtiradi.

**Kredit pul kapitalini jamg'arish va markazlashuvini jadallashtirish funksiyasi** yordamida yirik ssuda kapitalini tegishli fondlarda jamg'aradi. Jamg'armalar yordamida mamlakatlar, hududlar, mintaqalar, qit'alar yoki ayrim kompaniyalarda mablag'larning markazlashuvi ro'y beradi. Kredit mablag'larining markazlashuvi hududning iqtisodiyoti va moliya – kredit tizimi rivojlangan joylarda yuz beradi.

**Kreditning ob'yekti** - bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan vaqtincha bo'sh bo'lgan qiymatdir. Boshqacha aytganda kredit aynan qaysi maqsad uchun berilsa, shu kredit obyekti hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida banklar dehqonchilik va chorvachilik harajatlari - mineral o'g'it, yoqilg'i va moylash materiallari va boshqa xarajatlar kreditlanadi. Kredit munosabatlarining sub'yektlari bo'lib qarz beruvchi banklar, moliyaviy muassasalar va qarzdor (qarz oluvchi)lar hisoblanadi.

Boshqacha aytganda **kreditlash sub'yektlari** bo'lib davlat korxonalar va tashkilotlari, qurilish tashkilotlari, savdo tashkilotlari, fermer xo'jaliklari, yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, qo'shma korxonalar, mikro firmalar, birlashmalar, tijorat banklar va boshqalar hisoblanadi.

Yuqoridagi subyektlar kredit oluvchi sifatida faoliyat ko'rsatsa, tijorat banklari yoki boshqa kredit muassasalari kredit beruvchi sub'yekt sifatida namoyon bo'ladi.

## **YIII.2. Kredit munosabatlari rivojlanishining asosiy bosqichlari**

O'zining tarixiy rivojlanishida kredit quyidagi bosqichlarni bosib o'tgan:

**Boshlang'ich shakllanish.** Bu bosqichning asosiy belgisi ssuda kapitali bozorida maxsus vositachilarning yo'qligi. Kredit munosabatlari, bo'sh pul mablag'larining egasi va qarz oluvchi o'rtasida bevosita amalga oshirilgan. Bu yerda kredit sudxo'rlik kapitali sifatida namoyon bo'ladi. Uning xarakterli xususiyati bo'lib:

- Qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri kelishuvga asoslangan qarz munosabatlarining to'liq markazlashmaganligi.

- Mablag'larni taqsimlashning cheklanganligi.

- Qarz mablag'laridan foydalanganligi uchun juda yuqori foiz normalarining belgilanganligi va boshqalar.

Bu bosqichning tugallanishiga ishlab chiqarishning tobora rivojlanib borishi tufayli qarz resurslariga bo'lgan ehtiyojni keskin oshganligi va alohida olingan sudxo'rlar kapitalini bu talablarni qondirishga yetarli bo'lmaganligi.

**Tarkibiy jihatdan rivojlanish.** Bu bosqich ssuda kapitali bozorida kredit-moliya tashkilotlari kabi maxsus vositachilarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Kapital sudxo'rlik va sarroflik idoralari zaminida vujudga kelgan dastlabki banklar keyinchalik kredit institutlariga an'anaviy bo'lib qolgan quyidagi funksiyalarni o'z zimmasiga oldi:

- bo'sh moliyaviy mablag'larni o'z vaqtida foiz bilan to'lash majburiyati asosida qarz oluvchiga berish.

- yuridik va jismoniy shaxslar uchun har xil to'lov va hisob-kitoblar bo'yicha xizmat ko'rsatish (keyinchalik davlat uchun ham).

- qator maxsus moliyaviy operatsiyalarni o'tkazish (veksel va boshqalar).


Bu bosqichning asosiy belgisi – iqtisodiyotda kredit munosabatlarini davlat tomonidan **markazlashgan** xolda boshqarilishidir.

Davlat miqiyosida kredit munosabatlarining markazlashuvi har bir davlatning Markaziy banki yordamida amalga oshiriladi. Dastlabki milliy davlat kredit institutlarining paydo bo'lishi naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borish uchun qo'l keldi, hamda tijorat banklarining operatsiyalari va xizmat ko'rsatish ko'lamining kengayishiga olib keldi.

**Kredit munosabatlarining takomillashuvi.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit munosabatlari yangi sifat darajaga ko'tarilib bu iqtisodiyotda informasion texnologiyaning rivojlanishi, global bank tarmoqlarining kompyuter texnologiyalari va ma'lumotlar bazalarining shakllanishining, mijozga xizmat ko'rsatishining yaxshilanishi va kredit munosabatlarini xalqaro bozorga ham tarqalishi va boshqa sifat o'zgarishlar bilan bog'liq.

## Tijorat banklarining kredit resurslari

3-chizma



Kreditlashning asosiy manbalari (resurslari) bo‘lib, quyidagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘lari hisoblanadi:

- Tovarlarni sotish va kerakli moddiy qiymatlarni sotib olish vaqtlarining bir-biriga mos kelmasligi tufayli yuzaga keladigan bo‘sh pul mablag‘lari.
- Hisoblangan ish xaki bilan uni to‘lash vaqtlari orasidagi vaqtincha bo‘sh pul mablag‘lari.
- Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig‘iladigan va kapitallashtirish uchun mo‘ljallangan mablag‘lar.
- Shaxsiy sektor daromadlari, jamg‘armalari.
- Korxonalar faoliyati natijasida yuzaga keluvchi taksimlanmagan foyda yoki undan foydalanish jarayonida paydo bo‘luvchi bo‘sh pul mablag‘lari (to‘lanmagan dividend va boshqalar) va boshqa bo‘sh pul mablag‘lari.

Kreditlashning ko‘lami va rivojlanishi kredit resurslarining xajmiga bog‘liq.

### YII.3. Kreditning asosiy tamoyillari

Kredit munosabatlari ma‘lum tamoyillarga asoslanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit quyidagi tamoyillarga ega:

**Kreditning qaytarilishi.** Bu tamoyil kreditning umumiy belgisi hisoblanadi, lekin u o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. U moddiy jarayonlarga, qiymat aylanishining tugashiga asoslanadi. Ammo doiraviy aylanishning tugashi – bu qaytarib berish emas, qaytarib berish uchun zamin tayyorlash hisoblanadi. qaytarib berishlik obyektiv belgi hisoblanadi va bu tamoyil boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, shu jumladan moliyadan farq qiladi.

Kreditning bu tamoyili amaliyotda kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergan muassasa hisobiga ko‘chirish yo‘li bilan to‘lanadi. Shu yo‘l bilan banklar kredit resurslarini qayta tiklanishini ta‘minlaydi. Sobiq ittifoq davrida «qaytarilmaydigan ssuda» tushunchasi mavjud bo‘lib, u qishloq xo‘jaligida ham keng tarqalgan edi. Bu banklarni korxonalar moliyaviy axvolini hisobga

olmagan xolda berilib, aslida u byudjet subsidiyasining qo‘shimcha shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

**Kreditning muddatliligi.** Bu kreditning ma‘lum muddatga berilishini anglatib, u qisqa va uzoq mudatli kreditga bo‘linadi. Bu muddat qarzdor uchun xoxlagan muddatda emas, balki u shartnomada belgilangan muddat hisoblanadi. Kreditni o‘z vaqtida qaytarilishi ikkala tomon uchun ham muhim hisoblanadi. Qarz bergan tomon uchun kreditni o‘z vaqtida foiz bilan qaytarilishi uni yana kreditga berish imkoniyatini yaratadi, qarzdorni esa shartnomada ko‘zda tutilgan jazo choralari bilan qutultiradi. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi bo‘yliklarni tejamli va qayta ishlatish muddatiga, ishlab chiqarilgan maxsulotni jo‘natish muddatiga, tovarlarni sotish muddatiga va pirovard natijada aylanma mablag‘larni doiraviy aylanishini tezligiga bog‘liqdir.

**Kreditni tovar-moddiy boyliklar bilan ta‘minlanganligi.** Bu tamoyilning mohiyati shuki, bunda xo‘jalik aylanmasida ishtirok etuvchi bank mablag‘larining bir so‘miga muayyan bo‘yliklarning har bir so‘mi qarama-qarshi turishi kerak. Berilgan kreditlar tovar-moddiy boyliklari va ma‘lum harajatlar bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Ta‘minlanmagan kreditlarning berilishi kreditlarni bankga qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi.

Buning uchun hozirgi sharoitda qarz oluvchilar bankga tovar yoki tovar hujjatlarini, mulkni garovga qo‘yadi. Kredit warrant (garov uchun xizmat qiluvchi hujjat) yoki uchinchi shaxs kafolati asosida ham berilishi mumkin.

Kreditning bu tamoyili qarz oluvchi o‘ziga olgan majburiyatlarini buzish sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlaydi va o‘zining amaliy aksini kreditning biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi. Bu umumiy iqtisodiy barkamolikka erishish davrida muhimdir.

**To‘lovlilik.** Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag‘larini hisoblangan foizi bilan to‘liq o‘tkazadilar. Kredit uchun haq to‘lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasidagi qo‘shimcha olingan foydaning taqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo‘ladi. Hozirgi sharoitda ssuda foizi miqdori shartnomada o‘z aksini topadi va u kreditlashning o‘rtacha normasi va bank marjasidan tashkil topadi.

**Kreditning maqsadliligi.** Bu shu bilan bog‘liqki, qarz oluvchi olingan kreditni ma‘lum maqsadga (tovar moddiy boyliklar sotib olish, ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va boshqalar) yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Bu maqsadlar kredit beruvchi va kredit oluvchi o‘rtasida tuzilgan shartnomada o‘z aksini topadi. Korxonalar olgan kreditni faqatgina kredit shartnomasida ko‘rsatilgan ishni bajarishga (sotib olishga va boshqalar) sarflashi kerak.


**Kreditning samaradorligi.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning yuqorida keltirilgan tamoyillaridan tashqari, kreditdan oqilona foydalanishni ifodalovchi tamoyil - kreditning samaradorligi tamoyili ham muhim ahamiyatga egadir. Bu tamoyil nafaqat kredit va foiz summasini bankga qaytarib to‘lashni, bundan tashqari, shu kredit yordamida kreditlanadigan yoki moliyalashtiriladigan soha, tarmoq, korxonalar qancha samaradorlikka erishishini ifodalashi zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida beriladigan kreditlar ma‘lum bir loyihalarning bajarilishiga

yo`naltirilgan bo`ladi. Banklar loyihalarni kreditlash yoki moliyalashtirishdan oldin loyihani bajarish uchun yo`naltiriladigan mablag`larning samaradorligini hisoblab chiqishlari zarur. Agar biz bozor iqtisodi yuqori rivojlangan mamlakatlarda kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish amaliyotiga e`tibor beradigan bo`lsak, bu mamlakatlarda korxonalar, tashkilotlarga kredit berishdan oldin qo`yiladigan mablag`larning samaradorligi hisob-kitob qilib chiqadi. Agarda loyihaga qo`yiladigan mablag`lar samara beradigan bo`lsagina, shu loyiha uchun mablag` ajratiladi. Har bir korxonalar va tashkilot uchun kreditdan foydalanishda uning samaradorligiga alohida e`tibor berish foydadan xoli emas, chunki samaradorlik kreditning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Kreditning samaradorligi ishlab chiqarish va savdo hajmiga to`h`ridan-to`g`ri bog`liq. Samaradorlik tamoyilining mavjudligi va unga rioya qilish kreditning boshqa tamoyillarining bajarilishi uchun asos hisoblanadi. Samaradorlik kreditdan aniq, maqsadli foydalanishni taqozo qiladi. Shunga asoslangan holda kreditning samaradorligini sodda qilib quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\text{Samaradorlik} = \frac{\text{sotilgan tovar maxsulot hajmi}}{\text{kredit qo`yilmalarining o`rtacha qoldig`i}}$$

Bu ko`rsatkich kredit qo`yilmalar o`rtacha qoldiqining 1 so`miga to`g`ri keladigan sotilgan tovar-maxsulotning hajmini ko`rsatadi. Kreditni jalb qilish yordamida ishlab chiqarish sur`atlarining o`sishi, tovarlarni sotish hajmining oshishi kreditning samaradorligini belgilab beradi. Korxonalar kam kredit resurslar hisobiga ko`p maxsulot sotuviga erishadigan bo`lsa, kreditning samaradorligi shuncha yuqori bo`ladi.

Binobarin samaradorlik kreditning zaruriy tamoyillaridan biri bo`lib unga rioya qilish kreditning boshqa tamoyillarining bajarilishi uchun asos hisoblanadi. Har bir korxonalar va tashkilot uchun kreditdan foydalanishda uning samaradorligiga alohida e`tibor berish foydadan xoli emas, chunki samaradorlik kreditning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Kreditning samaradorligi ishlab chiqarish va savdo hajmiga to`g`ridan-to`g`ri bog`liq. Samaradorlik tamoyilining mavjudligi va unga rioya qilish kreditning boshqa tamoyillarining bajarilishi uchun asos hisoblanadi. Samaradorlik kreditdan aniq, maqsadli foydalanishni taqozo qiladi. Shunga asoslangan holda kreditning samaradorligini sodda qilib quyidagicha ifodalash mumkin:



1-rasm Kreditlash tamoyillari

Kreditning samaradorligini ta'minlash maqsadida g'arb mamlakatlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi qoidasi qo'llaniladi. Bu qoida kreditlashda «5 «S»lar qoidasi» deb yuritiladi.

«5 «S» lar qoidasi»ga asosan har bir «S» bo'yicha korxonaning faoliyati tahlil qilib chiqiladi va korxonaga faoliyati talabga javob bersagina korxonaga kredit beriladi. Qoidaga asosan «S» harflari korxonalarining xo'jalik faoliyatining quyidagi jihatlari ifodalaydi.

**Character** – qarz oluvchining harakterini baholash, uning avvalgi qarzlari; qarzni to'lay olish qobiliyati hamda bozordagi obro'si;

**Sapacity** – qarz oluvchining boshlagan ishni ohiriga yetkaza olish, tegishli daromad olish hamda bank kreditlarini qaytara birlash qobiliyati;

**Capital** – qarz oluvchi sarmoyasining etarliligi;

**Conditions** – shartlar. Bunda iqtisodiy muhim va mazkur biznesning rivojlanishi nazarda tutiladi;

**Colateral** – garov (kafolat, kafillik, sug'urta polisi, tovar-moddiy boyliklar) va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, kreditning funksiyalari va tamoyillarini to'laqonli amal qilishiga qator omillar ta'sir etadi. Mazkur omillar mamlakat bank tizimining holati, milliy iqtisodiyotdagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlari, davlatning ichki va tashqi siyosati natijalari sifatida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aynan shu munosabat va siyosatlarni samarali jarayonlarini ta'minlanganligi kredit funksiyalari va tamoyillarida o'z aksini topadi.

### Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kreditning mohiyati va zaruriyligi nimalardan iborat?
2. Kreditning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmun va mohiyati nimalardan iborat?
3. Kredit rivojlanishining asosiy bosqichlarini tushuntiring.

4. Kreditning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
5. Kredit resurslari nimalardan iborat?
6. Kredit qanday asosiy tamoyillarga asoslangan holda amal qiladi?
7. Samaradorlik tamoyilining mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?
8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning ahamiyatining tobora oshib borishi qanday faktorlar bilan bog'liq?
9. Muddatlilik tamoyili tushuntiring.
10. Qaytarishlilik tamoyili tushuntiring.
11. Ta'minlanganlik tamoyili tushuntiring.
12. To'lovlilik tamoyili tushuntiring.
13. Maqsadlilik tamoyili tushuntiring.
14. Kreditning samaradorligi qanday aniqlanadi?

## **YIII.bob. Kredit mexanizmi**

### **YIII.1. Kredit mexanizmi va uning elementlari**

Kredit mexanizmi iqtisodiyotda kredit vositalaridan oqilona foydalangan xolda davlat va tadbirkorlarning ishlab chiqarish sohasidagi faoliyatini kengaytirish chora tadbirlarini amalga oshiradigan mexanizmdir. Kredit mexanizmi kredit tizimining tarkibiy qismi hisoblanib, o'z ichiga kreditlash shartlarini, usullarini va kreditni boshqarishni oladi. Kredit mexanizmi yordamida bank tizimining kredit siyosati amalga oshiriladi. Kredit siyosati deganda, bankning kredit resurslarini joylashtirish sohasidagi qarorlarini qabul qilishga imkon beruvchi qoidalar va cheklashlarning majmui tushuniladi. Kredit siyosatining ob'ektlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish;
2. Ssudaning sifatini aniqlash;
3. Kreditni joylashtirishda yuzaga keladigan xavf-xatarning miqdorini aniqlash;
4. Kredit tarkibini va ta'minlanganligini doimiy ravishda baholab borish;
5. Kredit portfelining holatini baholab borish;
6. Kredit bahosini belgilash va boshqalar.

Kredit mexanizmining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Akkumulyatsiya mexanizmi.
  - a) bankning o'z mablag'lari;
  - b) jalb qilingan mablag'lar;
  - v) sotib olingan mablag'lar.
2. Kredit berish mexanizmi.
  - a) kreditga layoqatlilik;
  - b) garov yoki kafolat asosida kafolatlash;
  - v) kredit klassifikatsiyasi;
  - g) yomon kreditlardan keladigan zararlarni zaxira fondidan qoplash.
3. Iqtisodiy ta'sir mexanizmi.
  - a) kredit uchun foiz to'lovlari.

Kredit mexanizmining muhim elementlaridan biri kredit shartnomasi bo'lib, u kredit munosabatlarini amalga oshirishning huquqiy asosi hisoblanadi. Kredit shartnomasining asosiy talablariga quyidagilar kiradi:

- a] kredit maqsadli bo'lishi shart;
- b] kreditning yig'indisi aniq belgilangan bo'lishi kerak;
- s] kreditni qoplash tartibi aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak;
- d] kredit muddati ko'rsatilishi shart;
- e] kreditning ta'minlanganligi asoslangan bo'lishi lozim;
- f] kredit berganligi uchun bank oladigan haq ko'rsatilishi shart.

Bu shartlarning har birini tijorat banki kredit bo'limining xodimlari chuqur bilishlari zarur. Chunki bu shartlardan birortasining asossiz belgilanishi kreditni o'z vaqtida va toliq qaytarilmasligiga olib kelishi mumkin.

Kredit mexanizmining yana bir muhim elementlaridan biri - kreditga layoqatlilikdir. Korxonalarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, kreditni o'z vaqtida qaytarishning muhim shartidir. Kreditga layoqatlilik deganda korxonaning bankdan so'ragan ssudani o'z vaqtida va to'liq qaytara olish imkoniyati tushuniladi. Korxonaning kreditga layoqatliligini o'rganish tijorat bankiga kredit berish mumkinligini aniqlashga, uning miqdorini, foiz stavkasining darajasini belgilashga imkon beradi. Bundan tashqari, kreditga layoqatliligini aniqlash ssudani qz vaqtida qaytarish extimolini chamalashga imkon beradi. Kreditga layoqatlilikni baholash korxonaning o'zigi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlarning tahliliga asoslanib, ular mol etkazib beruvchilar, xaridorlar va banklar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishlari mumkin.

Korxonaning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda ma'lumotlar manbai bo'lib, buxgalteriya balansi, moliyaviy va statistik xisobotlar, boshqa banklardan va korxonalardan kredit so'rayotgan korxonaga to'g'risidagi ma'lumotlar xisoblanadi.

Korxonalarining kreditga layoqatliligini aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni ikki yirik guruxga bo'lish mumkin:

1. Asosiy ko'rsatkichlar. Bunga qoplash koeffitsenti va korxonaga balansining likvidlilik koeffitsenti kiradi.

2. Qo'shimcha ko'rsatkichlar. Bunga korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi, o'z aylanma mablag'larining mavjudligi va ularni moddiy zaxiralar va xarajatlarni tashkil qilishda ishtirok etish ko'rsatkichi, aylanma mablag'larning aylanish tezligi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

**Qoplash koeffitsenti** quyidagi formula asosida xisoblanadi:

$$Q_k = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{oson sotiladigan talablar} + \text{oson sotiladigan zaxira va xarajatlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$$

**Qisqa muddatli majburiyatlar**

**Qoplash koeffitsenti** - barcha likvidli mablag'larning qanchalik darajada qisqa muddatli majburiyatlarning jami yig'indisini qoplay olishini ko'rsatadi.

**Likvidlilik koeffitsenti** quyidagi formula asosida xisoblanadi:

$$L_k = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{oson sotiladigan talablar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$$

**Likvidlilik koeffitsenti** - joriy majburiyatlarning qancha qismi mavjud va debitorlardan kelib tushishi lozim bo'lgan pul mablag'laridan, qimmatbaxo qog'ozlarni sotish va yaqin uch oy ichida boshqa debitorlardan undirilgan mablag'lar xisobidan qoplanishini ko'rsatadi.

Pul mablag'lariga: kassa, xisob-kitob varag'i, valyuta xisobi va boshqa pul mablag'lari kiradi.

Oson sotiladigan talablarga: debitorlik, byudjet, xodimlar, avans bo'yicha va boshqa xisob-kitoblar kiradi.

Oson sotiladigan zaxira va xarajatlarga: tugallanmagan ishlab chiqarish, uskuna, tovar-moddiy qiymatlar, tayyor maxsulot zaxiralari va boshqalar kiradi.

### **Kreditlash Nizomiga ko'ra xo'jalikni kreditlanish qobiliyati bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar klasslari bo'yicha talablar**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>I klass</b>	<b>II klass</b>	<b>III klass</b>	<b>IY klass</b>
1.	Qoplash koeffitsenti	2 dan oshiq	1-2	0,5-1	0,5 dan past
2.	Likvidlik koeffitsenti	1,5 dan oshiq	1-1,5	1 dan past	Likvid mablag'lari yo'q
3.	Mustaqillik koeffitsenti	60 % dan oshiq	30 -60%	30 % dan past	Nolikvid balans

Birinchi klass bo'yicha kreditlash umumiy asosga ega bo'lib qo'shimcha ma'lumot va raschetlarsiz amalga oshiriladi, ikkinchi klassda qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinishi bilan, uchinchi klassda istisno tariqasida yuqori tashkilot kafolati va yuqori foizlar bilan, to'rtinchi klassda kredit ajratilmaydi (Hukumatning aloxida ko'rsatmasidan tashqari).

**Mustaqillik koeffitsenti** quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$M_k = \frac{\text{O'z mablag'larining manbalari}}{\text{Balans passivi jami}}$$

O'z mablag'larining manbalariga: ustav kapitali, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar, kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar kabilar kiradi.

### **YIII.2. Kredit foizi va unga ta'sir qiluvchi omillar**

Kredit munosabatlarning sub'yektlariga yoki kreditlarning turlariga nisbatan aniq ko'rsatkichlar shaklida belgilab qo'yiladigan kreditdan foydalanishning qat'iy chegarasi kreditlash chegarasi deyiladi. Masalan, kreditning hajmi va yalpi ijtimoiy maxsulot hajmi o'rtasidagi nisbatdan foydalanib kredit chegarasini belgilash mumkin. Bu ko'rsatkichning optimal darajasi korxonani kreditga layoqatligini hisobga olgan holda kreditlashdir. Bunga har xil

normativlarni qo'llash, bir mijozga beriladigan kredit miqdorini cheklash kabi tadbirlarni kiritish mumkin. Kreditning quyidagi chegaralari mavjud:

Kreditning ichki chegarasi - kreditning turli shakllarga ega ekanligidan kelib chiqadi (banklar, tijorat va boshqalar). Kreditning ichki chegarasi miqdor jihatdan kreditning har bir shakliga bo'lgan talabga, korxon va xalq xo'jaligining ehtiyojiga va kredit resurslarining mavjudligiga bog'liq. Kreditning qayta taqsimlash chegarasi iqtisodiyotda mavjud kredit resurslarining hajmi bilan belgilanadi.

Kreditning antisipasiyaviy chegarasi. Kredit yordamida pul jamg'armalarini hosil qilish imkoniyatlarini so'ngi chegarasi antisipasiya deb yuritiladi va bu imkoniyat uning barcha shakllarida namoyon bo'ladi.

**Kreditning asosiy sharti** - bu qarz uchun haq to'lash. Bu xaq qarz summasining yig'indisiga nisbatan foiz hisobida olinganidan uni qarz foizi yoki **kreditning foiz stavkasi** deb yuritiladi. Foiz miqdori kreditning turi, uni to'lash muddati, olingan qarzni o'z vaqtida uzilishiga bog'liq. Masalan, tijorat kreditining foiz stavkasi odatda, bank kreditining foiz stavkasidan past bo'ladi. Umuman olganda bank tomonidan foiz stavkasi pulga bo'lgan talab va taklifni, bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmat haqi, bank xavf xatari (kredit qaytarilmay qolish holatlarida), kredit summasi va muddati, depozit summasi va muddati, kreditni qaytarish shartlari, qarzdorning va garovning ishonchliligi hisobga olingan xolda o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida banklar tomonidan xo'jalik subyektlarini qisqa muddatli kreditlashni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomga binoan foiz stavkasi bank bo'yicha hisobot oyi boshiga bo'lgan o'rtacha foiz stavkasiga Markaziy bank tomonidan tartibga solinadigan foyda normasini hisobga olgan holda belgilanadi. Foiz stavkalari quyidagilarga bo'linadi:

- yillik foiz stavkasi;
- oddiy foiz stavkasi;
- murakkab foiz stavkasi;
- nominal va real foiz stavkasi;

Adabiyotlarda kreditning nominal va real foiz stavkalari tushunchalari mavjud. Nominal foiz stavkasi deganda kredit shartnomasida ko'zda tutilgan foiz stavkalari tushuniladi.

**real foiz stavkasi = nominal foiz stavkasi - inflyasiya darajasi.**

Bundan tashqari kreditning qat'iy belgilangan va suzib yuruvchi foiz stavkalari tushunchalari ham mavjud. Qat'iy belgilangan foiz stavkalari kredit shartnomasi bajarilgunga qadar o'zgarmasdan qoladi. Bunda bank o'zining aktivlarini ma'lum qismini yo'qotishi mumkin. Suzib yuruvchi stavkada foiz stavkalariga tegishli o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritib boriladi.

Xalqaro kreditlar bo'yicha foiz stavkalari jaxon ssuda kapitallari bozorida aniqlanib, bu bozorlarning asosiy qismi London, Tokio, Nyu York, Frankfurt-na-Mayne, Parij, Bryussel shaharlarida joylashgan.

Umuman kreditlar bo'yicha foiz stavkalari turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Shunday omillarning asosiylari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi.

Pul bozorida talab va taklifning nisbati. Talab oshsa, foiz ortadi, taklif oshsa u kamayadi.

Qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi. Ko'proq naf keltirsa, foiz yuqori va aksincha.

Qarzni to'lash muddati va sharti. Qarz uzoq muddatga berilib uni asta-sekin kichik qismlar bilan qaytarilsa, qarzdor yuqori foizga rozi bo'ladi va aksincha.

Qarzni qanday pul bilan berilishi. Qarz erkin konvertirlangan valyutada berilsa foiz yuqori va aksincha.

Inflyasiya darajasi. Bunda foiz darajasi inflyasiya darajasiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradi.

Pulni qarz berishdan ko'ra boshqa yo'sinda ishlatishdan tushadigan daromad. Bunda pul egasining afzal ko'rish prinsipi amal qiladi. Masalan, agar aktsiya bo'yicha dividend yuqori bo'lsa foiz pasayadi va aksincha.

Qarz berishning xatar darajasi. Agar qarzning qaytib kelishi kafolatlansa foiz past, agar uni qaytishi shubxali bo'lsa foiz yuqori bo'ladi va boshqa omillar.

### 3. Foiz stavkalarini hisoblash usullari

Bank amaliyotida foizlarni hisoblashning turli xil metod va usullari mavjud. Bank amaliyotida oddiy va murakkab foiz stavkalar qo'llanadi.

Oddiy foizlar birinchi navbatda qisqa muddatli kreditlashda foydalaniladi. Unda shartnoma bo'yicha aniqlangan har chorak yoki boshqa muddatda foizlarni hisoblash va kreditorga to'lash amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda ko'pincha yuqorida ko'rsatilgan usuldan foydalaniladi. Bunda qarzning asosiy summasini hisobga olgan holda qarzdorning jami to'lovlari hajmi quyidagicha bo'ladi:

$$S = P * (1 + n * i);$$

Bunda:

S - boshlang'ich qarzni hisobga olgan holda kredit bo'yicha to'lovlar summasi

P - boshlang'ich qarz

i - foiz stavkasi

n - ssudaning yillar yoki kunlar bo'yicha davom etishi.

Ko'pdan ko'p hollarda bank amaliyotida protsent hisoblash jarayoniga teskari bo'lgan operatsiyani bajarishga to'g'ri keladi. Bu hol, ko'pincha, diskont vakillariga murojaat qilinganda sodir bo'ladi. Bu holda, boshlang'ich qarzni aniqlashda maxsus formula qo'llanadi.

Veksellarni hisobga olish jarayonida, muddat o'tgach, ular taqdim qilinganda to'lov summasini aniqlash uchun quyidagi formula ishlatiladi:

$$S = P * ( 1 - n * d );$$

Bunda, d - oddiy hisob stavkasi.

Masalan, bank muddati kelmasdan turib majburiyatlarni to'lash bo'yicha 20 kunlik vekselni qayta hisobga oladi. Bunda vekselning nominal summasi 100 mln. so'm, hisob stavkasi - yiliga 130 %.

Bu holda, veksel' hisobga olingandagi summa quyidagicha bo'ladi.

$$P=100 ( 1 - 1,3 * 20 / 360 )$$

Bank amaliyotida murakkab foizlar ham qo'llanishi mumkin. Ular, odatda, uzoq muddatli kreditlashda ishlatilib, hisoblangan protsent summalari shartnoma tugallanmaguncha kreditorga to'lanmaydi, balki qarzning asosiy summasini ko'paytiradi. Biz-ning bank amaliyotimizda murakkab protsent hisoblash metodi asosan yuridik va jismoniy shaxslarning depozit va omonat hisoblari bo'yicha qo'llanadi.

Bu metoddan foydalanganda hisoblangan mablag'lar hajmi qarzga qo'shiladi va ularga nisbatan foiz hisoblanib boraveradi.

Murakkab foizlarni hisoblash va qarzning jami summasini quyidagi formulada hisoblash mumkin.

$$S = P ( 1 + i );$$
 <sup>2</sup> - doimiy foiz stavkasi bo'yicha,

$$S = P ( 1 + i ) * ( 1 + i ) . . . ( 1 + i )$$
 - suzib yuruvchi foiz stavkasi bo'yicha.

Bunda,

S - K yildan keyingi qarz summasi;

P - berilgan ssuda hajmi;

i - foiz stavkasi.

n - berilgan stavka qo'llanilgan qarzning yillar bo'yicha muddati

Shartli misolni ko'rib chiqamiz. Masalan, bank tomonidan qarz oluvchiga P 10000 so'm ssuda, 5 yil muddatga, yiliga 10 % stavkasi bilan berildi. 5 yildan keyingi qarz hajmini aniqlash kerak.

$S = 10000 * ( 1 + 0,1 ) = 16105$  so'm ko'rsatilgan usulda hisoblangan 5 yil uchun foizlar jami summasi quyidagicha bo'ladi:

$$S - P = ( 16105 - 10000 ) = 6105 \text{ sum}$$

Agarda, bank oddiy foizlarni ishlatib, har yili talab qilganda, bu shartnomadan keladigan daromad:

$$R = 10000 * 10 \% * 5 = 5000 \text{ so`m ga teng bo`lar edi.}$$

Ko`rib turganimizdek, sezilarli farq vujudga kelib, u bank sof daromadini 1105 so`mga [ 6105 - 5000 ] ko`payishiga olib keldi.

Bir usulda foizlarni bir necha marta hisoblashda yuqoridagi murakkab foiz formulasi quyidagi ko`rinishga keladi:

$$S = P * ( 1 + i * m );$$

Bunda, m - bir yilda foiz hisoblash soni;

N - foiz hisoblash davrlarining jami soni.

Bank barcha holatlarni diqqat bilan qilishi kerak, chunki ular bank operatsiyalari daromadligiga oxirgi natijada ta`sir qilishi mumkin. Masalan, inflyatsiya harakterini xisobga olish kerak va shu bilan bank uchun nima maqsadga muvofiqroq ekanligini aniqlashi kerak. Qarz summasini hisoblangan, lekin talab qilib olinmagan foizlar bilan o`stirish yoki kredit uchun yillik to`lovni olish.

Foiz hisoblashning turli usullari bo`lishi mumkin. Ular qarzdan foydalanish kunlari sonini o`lchash xarakteri bilan va yilning kunlar bo`yicha tuzilishiga ko`ra aniqlanadi. Bundan qarz kunlari soni aniq yoki taxminan aniqlanib, har qaysi oynning davom etishi 30 kunga teng deb tan olinadi. Vaqtinchalik baza yilning aniq davom etishiga (365 yoki 366 kun) yoki taxminan 360 kunga tenglashtiriladi. Bularga muvofiq tarzda quyidagi murakkab foiz-larni hisoblash variantlari qo`llanadi:

1. Qarz kunlarining haqiqiy soni bo`yicha aniq foizlar; bu usul eng aniq natijalarni beradi va ko`pgina markaziy va tijorat banklari tomonidan qo`llanadi. Uning ahamiyatli jihati shundaki, hisoblash uchun qarz kunining aniq soni, vaqtinchalik baza yilning haqiqiy davom etishiga tenglashtiriladi.

Masalan,

P - berilgan kredit summasi - 100000 so`m;

i - foiz stavkasi yiliga - 9 %;

K- qarz kunlarining aniq soni - 260 kun;

S - o`sgan qarz summasi.

Unda,

$$S = 100000 * ( 1 + 0,09 \% * 260 / 365 ) = 106411 \text{ co`m}$$

2. Qarz kunining haqiqiy soni bo`yicha oddiy foizlar. Bu holda, xuddi yuqoridagidek, hisoblash uchun qarz kunlarining aniq soni olinadi, lekin vaqtinchalik baza 360 kunga tenglashtiriladi. Agar kredit muddati 360 kundan

o'sha, unda hisoblangan foizlar summasi ko'proq bo'ladi. Masalan, ssuda davri 364 kunga teng bo'lsa, unda  $364 / 360 = 1,011$  foiz stavkasi bo'yicha qo'shimcha foiz to'lanadi. Bu usulni yuqoridagi namunada berilgan misol bilan ko'rib chiqamiz:

$$S = 100000 * ( 1 + 0,09 \% * 260 / 360 ) = 106499 \text{ so`m}$$

3. Qarz kunlarining yaqinlashgan soni bo'yicha oddiy foizlar. Bunda ssudaning kunlar bo'yicha davom etishi yaqinlashish bilan aniqlanadi, vaqtinchalik baza 360 kunga teng. Ko'p hollarda ssuda kunlarining aniq soni yaqinlashish sonidan katta bo'ladi, shuning uchun ham ssuda kunlarini aniq soni bo'yicha hisoblangan foizlar hajmi, odatda, yaqinlashish bo'yicha hisoblangandan katta bo'ladi.

Bizning misolimizda ssuda kunlarini yaqinlashish soni 257 kunga teng, buni hisobga olgan holda:

$$S = 100000 * (10,09 \% * 257 / 360) = 106424 \text{ so`m}$$

Amaliyotning ko'rsatishi bo'yicha foiz hisoblashning ikkinchi usuli, ya'ni ssuda kunlarini aniq soni bo'yicha oddiy foizlar usuli qolgan ikki variantga nisbatan kattaroq natijani beradi.

Chunki,

$$S > S > S .$$

Buni kreditor ssuda rasmiylashtirilishida inobatga olishi zarur.

**Bank marjasi.** Bank kreditidan foydalanilgan vaqt uchun haq to'lash kredit narhini tashkil etadi, u hisobot oyi boshlangunga qadar bank bo'yicha yuzaga keladigan o'rtacha foiz stavkasi va marjani o'z ichiga oladi.

Bank oladigan va to'laydigan foiz o'rtasidagi farq marja deb yuritiladi. Ya'ni foizli marja – bank aktivlaridan daromad keltiruvchi foizli daromad va bank majburiyatlari bo'yicha foizli harajat o'rtasidagi farqdir. Foizli marjani foizlar bo'yicha keladigan sof daromad deb ham ataladi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$M \text{ dalil} = \frac{D\phi - P\phi}{A_d} * 100 \%$$

M fakt – dalillangan foizli marjaning hajmi;

Dφ – foizli daromad;

Pφ – foizli to'lovlari bo'yicha xarajatlar;

A<sub>d</sub> – foiz ko'rinishida daromad keltiradigan aktivlar.

Kredit narxi Markaziy bankning “qayta moliyalash” stavkalarining me'yorlari bilan tartibga solinadi hamda maxsulot va xizmat tannarhi darajasini hisobga olgan holda belgilanadigan chegara ko'rsatkichlaridan oshmasligi lozim. Amalda qayta moliyalash stav-kasi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun-ning tegishli moddasiga muvofiq, Markaziy bank tomonidan musta-qil ravishda belgilanadi.

Hozirgi kunda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish foiz stavkasi oyiga 1,167 % ni hamda yiliga 14 % ni tashkil etadi.

I. Demak, joriy davridagi qayta moliyalashtirish foiz stavkasi orqali Markaziy bank tijorat banklarining ortiqcha kredit narhini belgilaydi, ya'ni:

1) qayta moliyalashtirish foiz stavkasi – 1,167,0 %

2) kredit narhi  $2,0 \% * 1,5 \% = 3,0 \%$  ( 1 oyga )

II. Tijorat banklariga o‘z muddatida qaytarilmagan kreditning narhi quyidagicha belgilanadi:

1) qaytarish muddati o‘tgan 1 kundan 1 oygacha bo‘lgan kreditlar uchun belgilangan kredit narhi 1,3 marta oshiriladi. Masalan:

a) muddatli kreditning narhi – 3 %

b) 1 kundan 30 kungacha muddati o‘tgan kredit uchun:

$3,0 \% * 1,3 \% = 3,9 \% ;$

2) qaytarish muddati o‘tgan 31 kundan 90 kungacha bo‘lgan kreditlar uchun o‘rnatilgan kredit narhi 1,5 marta oshiriladi, ya'ni  $3,0 * 1,5 = 4,5 \%$

2) agarda muddati o‘tgan kreditlar 90 kun ichida qaytarilmasa, foiz hisoblanishi to‘xtatiladi. Kreditning qaytarilishi esa o‘rnatilgan tartib va qonun asosida xo‘jalik sudi va boshqa ma'muriy tashkilotlar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, kredit mexanizmi iqtisodiyotda kredit vositalaridan oqilona foydalangan xolda davlat va tadbirkorlarning ishlab chiqarish soxasidagi faoliyatini kengaytirish chora tadbirlarini amalga oshiradigan mexanizmdir. Kredit mexanizmi kredit tizimining tarkibiy qismi xisoblanib, o‘z ichiga kreditlash shartlarini, usullarini va kreditni boshqarishni oladi. Kredit mexanizmi yordamida bank tizimining kredit siyosati amalga oshiriladi.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Kredit mexanizmini tushuntiring.
2. Kredit mexanizmining asosiy elementlari nimalardan iborat?
3. Kredit shartnomasining mazmun mohiyatini tushuntiring.
4. Kredit mexanizmining kreditga layoqatlilik elementini mazmun mohiyatini tushuntiring.
5. Korxonalarining kreditga layoqatliligini aniqlovchi ko'rsatkichlar nimalardan iborat?
6. Qoplash koeffitsenti qanday aniqlanadi?
7. Likvidlilik koeffitsenti qanday aniqlanadi?
8. Lombard krediti kreditning qanday ko'rinishi hisoblanadi?
9. Qanday kreditlar Investitsion kreditlar hisoblanadi?
10. Kreditning foiz stavkalari qanday aniqlanadi?
11. Kreditning foiz stavkalariga qanday faktorlar ta'sir ko'rsatadi?
12. Nominal va real foiz stavkalarini tushuntiring.

## **IX. bob. Kredit turlari va shakllari**

### **IX.1. Kreditning asosiy shakllari**

Iqtisodiy adabiyotlarda, iqtisodchi olimlar va mutahassislar tomonidan kreditning turlari va shakllari xususida turlicha fikr yuritiladi va talqin etiladi. Masalan, O‘zbekistonlik olim, professor Sh. Abdullayeva kreditning shakllari xususida aniq fikrlarni bayon etmagan bo‘lsada, uning turlarini “qisqa muddatli kreditlash” va “uzoq muddatli kreditlash”dan iborat ekanligini ta’kidlaydilar<sup>12</sup>, xuddi shuningdek, rossiyalik iqtisodchi olimlar ham kredit shakllari bo‘yicha turlicha fikrlarni ilgari suradilar<sup>13</sup>. Kredit an’anaviy ravishda qator belgilarga qarab tasniflanishi mumkin. Xususan, kredit qarzdor va kreditor toifasi bo‘yicha (1), kreditni taqdim etish muddatiga qarab (2) va kreditni berish shakllariga (3) qarab tasniflanadi. Agar kreditning bu tartibda tasniflanishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asosan bunday tasniflanish kredit sub’yektlari o‘rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar jarayonida yuz beradi. Shuningdek, uning e’tiborli jihati matyerial qiymatni o‘zida aks ettirganligi bo‘lib, amaliyotda taqdim etish bilan bog‘liq holatlarni o‘zida namoyon etishi hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilganlarga va iqtisodiy adabiyotlardagi manbalarga tayanib, kreditning a) tovar, b) pul va v) aralash shakllari mavjudligini ta’kidlash mumkin.

Kreditning tovar shakli uning juda oddiy shakli hisoblanib, kredit bilan bog‘liq dastlabki munosabatlar aynan ushbu shakl doirasida rivojlangan. Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda bayon etilishicha, kreditning tovar shaklida u asosan buyum ko‘rinishida taqdim etilib, qarzdor kreditorning kreditini qoplashda huddi shu miqdordagi buyumni unga qaytargan. Manbalarga ko‘ra<sup>14</sup>, kreditning ushbu shakli antik jamiyat davrida, qadimgi Rimda vujudga kelgan va rivojlangan. Hattoki, o‘sha davrning huquqshunoslari “ssuda” va “kredit” iqtisodiy kategoriyalari o‘rtasidagi bir – biriga o‘hshashlik va farqlar hususidagi ayrim fikrlarni ilgari surishgan. Ma’lumki ushbu masala hozirgi kunda ham iqtisodchi olimlar va mutaxassislar o‘rtasidagi munozarali holatlardan hisoblanadi. Bir guruh olimlar, “ssuda” va “kredit” o‘rtasida jiddiy farqlar mavjud emasligini ta’kidlashsa, ikkinchi guruh olimlari buni inkor etishadi. E’tiborli jihati shundaki, Rimda o‘sha davrning huquqshunoslari “ssuda” va “kredit” (qarz) o‘rtasidagi farqni quyidagicha izohlab berishga urinishgan. Ularning fikricha, ssudada qarzdor, ya’ni tovar shaklida kredit oluvchi kreditni qaytarishda undan olgan aynan shu tovar yoki buyumni kreditorga taqdim etishi zarur bo‘ladi. Masalan, qarzdor kreditga otni olgan bo‘lsa, ushbu kreditni qaytarishda aynan shu ot unga qaytarilishi zarur bo‘ladi. Kreditda esa tovar shaklida olingan kreditning o‘rniga shunga o‘xshash turdagi tovar bilan qaytarilishi mumkin ekanligini e’tirof etishadi. Masalan, tovar shaklida olingan

---

<sup>12</sup> Abdullayeva Sh. Pul, kredit va banklar - T.: "Iqtisod va moliya", 2007, 181b.

<sup>13</sup> Деньги, кредит и банки: учеб. 2-е изд., перераб. и доп./под ред. В.В.Иванова, Б.И.Соколова. М.: ТК Велби, изд.ва Проспект, 2008. С 517

<sup>14</sup> Деньги, кредит и банки: учебник для вузов. Под ред. з.к.а. Угорцова В.А. М.: ЮНИТИ ДАНА, 2005. с. 184

bug'doyning o'rniga shu navdagi va miqdordagi bug'doy yoki boshqa maxsulot bilan qaytarilishi kredit sifatida tavsiflanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda kreditning tovar shaklidagi jihatlari bo'yicha ham fikrlarning xilma – xil ekanligining guvohi bo'lish mumkin. Yuqorida kreditning tovar shakliga berilgan tasnifdan farqli o'laroq, professor V.A.Shegorcova tahriri ostida nashrdan chiqqan darslikda, kreditning tovar shaklida mashina, stanok va boshqa jihozlarga to'lovni kechiktirish, ularni ijraga va hatto lizinga berish ekanligi haqidagi fikrlar ilgari suriladi.<sup>15</sup>

Fikrimizcha, bu yerda rossiyalik olimlar kreditning tovar shaklini uning turi bilan aralastirib yuborgan. Kreditning tovar shakli kishilar o'rtasida pul munosabatlari vujudga kelib, to'liq taraqqiy etgan vaqtgacha qo'llanilgan, keyinchalik ushbu kredit pul – tovar ko'rinishida qo'llanilgan. Jamiyatda tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi va mehnat taqsimotining taboro takomillashuvi kreditning tovar shakli zahirida uning pul shaklini vujudga kelishiga zamin bo'ldi. Kreditning pul shaklini vujudga kelishi, uning kreditor va qarzdorga qulaylik jihatlari xususida batafsil to'xtalishga, firkimizcha, ehtiyoj mavjud emas. Chunki, kreditor jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan yuridik va jismoniy shahslarga qaytarishlik, to'lovlilik, muddatlilik va ta'minlanganlik asosida beradi. O'z o'rnida qarzdor ham ushbu kredit summasini belgilangan muddatlarda tegishli to'lovlar asosida kreditorga pul ko'rinishida qaytaradi.

Pul juda likvidli va qulay ayirboshlash vositasi bo'lganligi tufayli kreditning pul (qiymat) shakli keng tarqaldi, buning natijasida kreditning tovar shakli o'z o'rnini sekinlik bilan kreditning pul shakliga bo'shatib berdi.

Kreditning yuqorida qayd etilgan shakllari bilan birga uning aralash shakli ham amal qiladi. Kreditning ushbu shakli uning tovar va pul shaklini o'zida mujassam etadi. Bunda kredit tovar yoki pul shaklida berilishi mumkin, uni qaytarishda ham qarzdor olgan kreditini pul yoki tovar ko'rinishida kreditorga qaytarishi mumkin. Aynan mana shu teskari bog'liqlik kreditning aralash shaklini o'zida ifoda etadi. Kreditning ayirboshlash shakliga misol sifatida tijorat kreditini keltirishimiz mumkin. Masalan, tovar sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilot sotib oluvchining moliyaviy muammolari mavjud hollarda sotilgan tovarlar va xizmatlarga to'lovni kechiktiradi, kechiktirilgan to'lov keyinchalik qo'shimcha to'lov asosida amalga oshiriladi. Mazkur masala keyingi paragraflarda batafsil ko'riladi. Professor Sh.Abdullayeva kreditning bank, tijorat, iste'mol, davlat,xalqaro va sudho'rlik turlari mavjudligi hususidagi fikrlarni bayon etadi.<sup>16</sup>

## **IX.2. Kreditning turlari. Bank krediti**

Kapitalistik formatsiyaga qadar kreditning sudxo'rlik shakli keng tarqalgan bo'lib- bu qarz oluvchiga ma'lum foiz asosida qaytarib berish sharti asosida

---

<sup>15</sup> Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под. ред. проф.– Щегорцова В.А. М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. – С.176.

<sup>16</sup> Abdullayeva Sh. Pul, kredit va banklar. –T.: “Iqtisod –moliya”, 2007, 165 –b.

beriladigan pullik ssudadir. Sudxoʻrlik kreditining obʻekti boʻlib sudxoʻrlik kapitali hisoblanadi. Sudxoʻrlar kreditni yer garovi asosida natura va pul shaklida berganlar. Kreditorlik tuzumi davrida sudxoʻrlik krediti yanada rivojlandi. Feodalizm davrida esa kreditning pul shakliga oʻtishi toʻla-toʻkis amalga oshirildi. Pul boyliklarini sudxoʻrlar qoʻlida toʻplanishi kapitalning birlamchi jamgʻarilishiga turtki (sababchi) boʻldi. Sudxoʻrlik kreditida qarz oluvchilar boʻlib - asosan mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar- dexqonlar va xunarmandlar, yaʼni kreditdan oʻzlarining zaruriy isteʼmol tovarlarini va ishlab chiqarish vositalariga boʻlgan talablarini, kreditor va savdogarlarga soliqlarni va qarzlarni toʻlash jarayonida foydalanganlar. Bu qarz va toʻlovlar xramlarga, monastirlarga, cherkovlarga toʻlangan. Sudxoʻrlik kapitalining xarakterli belgisi boʻlib- qarzdorlar tomonidan ssudalarni noishlab chiqarish koʻrinishida foydalanish ustivor yoʻnalish boʻlib hisoblangan va ssuda foizi yuqori darajada boʻlgan. Undan soʻng kreditning boshqa shakllari (koʻrinishlari), yaʼni pul shaklidagi koʻrinishlari rivojlana boshlagan. Kreditning bu shakllari ssuda kapitalining xarakatini bildirib- pul kapitali sifatida namoyon boʻlgan. Pul kapitali qaytarib berishlik, toʻlovlilik va foiz stavkasi asosida berilgan. Bunday kreditlarning xususiyatlari boʻlib:

- qarzdorlar boʻlib savdo - sanoat ishlab chiqaruvchi shaxslar ishtirok etganlar;

- qarz mablagʻlari- kapital sifatida, yaʼni qoʻshimcha qiymat olish vositasi sifatida foydalanilgan;

- ssuda foizi manbasi boʻlib- yollanma ishchilarning haq toʻlanmagan mehnati qiymati hisoblanadi.

Bu davrda kredit turli shakllarni egallaydi (oladi). Ular asosan qatnashuvchilarning turiga, ssuda obʻektiga, kredit foizi hajmiga va harakat qilish muhitiga qarab farqlanadi (guruhlanadi). Shunga koʻra jahon amaliyotida kreditlarning yagona, umumlashgan tasnifi yoʻq. Chunki kreditlarning turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida kreditlarni berish va qaytarish boʻyicha tarixan shakllangan (tovar shaklida, pul shaklida, boshqa shakllar va shartlarda) usullariga bogʻliq boʻladi.

Kreditning asosiy turlari quyidagilardan iborat: bank krediti, davlat krediti, isteʼmol krediti, tijorat krediti, lizing krediti, xalqaro kredit.

Iqtisodiyotda keng tarqalgan kredit munosabatlarining biri **bank kreditidir**. Bank kreditini beruvchi kredit muassasalari kreditlash jarayonini amalga oshirish uchun Markaziy bankdan maxsus lisenziya olgan boʻlishi zarur. Bunda kredit munosabatlarining asosini kredit shartnomasi tashkil etadi.

Bank kreditlari quyidagi belgilari boʻyicha guruhlanadi:

1. Kreditlash obyektlarining iqtisodiy mohiyatiga koʻra:
  - a) tovar-moddiy boyliklar uchun beriladigan kredit;
  - b) ishlab chiqarish harajatlari (xom-ashyo va boshqalar) uchun beriladigan kredit.
2. Toʻlash muddatiga koʻra (qisqa, oʻrta va uzoq muddatli):
  - a) muddatli;

- b) muddati kechiktirilgan;
- v) muddati o'tgan.
- 3. Kreditni to'lash manbalariga ko'ra:
  - a) qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobiga;
  - b) garant mablag'lari hisobidan;
  - v) yangi kreditlar jalb qilish hisobidan;
- 4. Ta'minlanganlik tamoyilining amal qilishiga qarab:
  - a) bevosita to'g'ri ta'minlangan (o'z mulki va mablag'i hisobiga);
  - b) bilvosita ta'minlangan kreditlar (uchinchi shaxs kafolati);
  - v) ta'minlangan kreditlar (sug'urta va yuqori tashkilotlar).
- 5. To'lanadigan foiz darajasiga ko'ra:
  - a) past foiz stavkali;
  - b) o'rta foiz stavkali;
  - v) yuqori foizli.

Foizsiz (hukumat qaroriga ko'ra ayrim sohalarni rivojlantirish yoki tadbirlarni amalga oshirish uchun).

Iqtisodiy rivojlanishning o'sishi bank kreditining qo'llanilish ko'lamini kengaytirib boradi. Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bog'liq ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli ehtiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplashga yo'naltiriladi. Bank kreditining manbai faqat vaqtincha bo'sh mablag'lar va kapital bo'lib qolmasdan, kredit asosida chek-depozit emissiyasi ham amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg'armalardan ko'p bo'lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin. Bank tizimining muomalaga kredit pullarini chiqarishi depozitlar yaratish yo'li bilan to'laqonli pullar o'rnini bosuvchi kredit vositalarini vujudga keltiradi. Respublika bank tizimini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida nafaqat bankning ichki ehtiyojlari uchun foydalaniladigan axborot tizimi va lokal dasturlar majmui, balki iqtisodiyotning moliyaviy faoliyatini ta'minlovchi yaxlit milliy to'lov tizimi yaratildi.

### **IX.3.Davlat krediti, iste'mol krediti va tijorat krediti**

Davlat kreditining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlatning bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok etishi, qarz beruvchi vazifasini bajara turib davlat davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodiyotning har xil sohasini kreditlashni o'z zimmasiga oladi. Bu markazlashgan kreditlar iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini kreditlash, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan aniq tarmoq va sohalarga, agar byudjetdan moliyalashtirish imkoniyati bo'lmaganda vaqtincha foydalanishga mablag' ajratilishi mumkin.

Undan tashqari tijorat banklariga banklararo kreditlar bozorida kredit resurslarini kim oshdi savdo yo'li bilan yoki to'g'ridan to'g'ri sotish jarayonida davlat tomonidan mablag'lar vaqtincha foydalanish uchun berilishi mumkin.

Davlatning qarzlari ko'paygan hollarda davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida davlat qarz oluvchi sifatida davlat qarzlarni joylashtirish jarayonini amalga oshiradi.

Davlat xazina majburiyatlarini chiqarish, moliya bozorlarida davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish, davlat zayomlarini chiqarish va sotish yo'li bilan banklarning, aholining va boshqa moliya-kredit institutlarining pul mablag'larini yig'adi va ularni davlat qarzi va byudjet kamomadini qoplashga sarflaydi. Davlat o'z qarzidan voz kechishi ham mumkin.

Bundan tashqari davlatni ichki va tashqi qarzlari, davlat kafil va kreditor sifatida ham bo'lishi mumkin.

Iste'mol kreditining xususiyati u jismoniy shaxslarga beriladi. Kreditning bu shaklida kredit beruvchi sifatida maxsus kredit muassasalari bilan birga savdo va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Iste'mol krediti ikki shaklda: pul shaklida va tovar shaklida berilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga bunday kreditlar ko'chmas mulkka egalik qilish uchun, har xil tovar va xizmatlar, uy jixozlarini sotib olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun beriladi.

O'zbekistonda hozirgi vaqtda bunday kreditlar uy-joy sotib olish va qurishga, avtomobil sotib olishga va boshqa maqsadlarga berilmoqda. O'zbekistonda keyingi yillarda iste'mol krediti hisoblangan ipoteka krediti juda tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Manbalarga ko'ra, ipoteka atamasi birinchi marta eramizdan oldingi VI asrda Gretsiyada vujudga kelgan. Qadimgi greklar qarz oluvchini kreditor oldidagi majburiyati evaziga yerni tikishgan. Qarz oluvchining yer maydonining chetiga maxsus yog'och o'rnatilgan bo'lib, unda ushbu yer garov vazifasini o'tayotganligi haqidagi yozuv qayd etilgan. Bu yog'och ustun "ipoteka" deb atalgan, yunon tilida "tirgovich", "poya", "taglik" ma'nolarini anglatgan. Demak, ipoteka – (grek. hypotheke – zaklad, garov ) – ko'chmas mulk ko'rinishidagi garov (asosan yer va binolar) bo'lib, asosiy maqsad ssudani olishga qaratilgan. Ipoteka shunday garov turiki u kreditorning qo'liga berilmaydi, balki qarzdorning ixtiyorida qoladi.

**Tijorat krediti** – kreditning boshqa turlariga nisbatan tarixan juda qadimda paydo bo'lgan. Uning vujudga kelishi bevosita tovarlarni ishlab chiqarish va ularning realizatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tijorat kreditining obyekti bo'lib sotiladigan tovarlar, subyekti bo'lib mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi korxonalar hisoblanadi. Bu kreditning asosiy maqsadi tovarlarni sotishni tezlashtirish va shu orqali foyda olishdan iborat. Tijorat krediti sotuvchi tomonidan sotib olingan tovarlarning to'lovini ma'lum muddatga kechiktirish orqali amalga oshiriladi. Xalqaro bank amaliyotida ushbu kreditni vekseli kredit sifatida ta'kidlaydi. Veksel tijorat kreditining "quroli" hisoblanib, asosan barcha tijorat kreditlari veksel yordamida amalga oshiriladi. Bunda sotib oluvchi korxonalar sotuvchidan olgan tovarlar yoki ko'rsatgan xizmatlari uchun unga vekselni taqdim etadi. Veksellar odatda ma'lum muddatlarga (3 oy, 6 oy va 12 oy) sotib oluvchi tomonidan chiqarilgan bo'lib, sotuvchi vekselda ko'rsatilgan muddat etib kelganda

uni bankka topshirish asosida asosiy summani va unga hisoblangan qo‘shimcha foiz to‘lovini olish huquqiga ega bo‘ladi.

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda tijorat kreditini xo‘jalik krediti sifatida ham yuritishadi. Buning sababi shundaki, tijorat kredit bilan bog‘liq iqtisodiy jarayonlar xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar o‘rtasida amalga oshirilib, ushbu kredit turi kreditor – korxonadan tovar yoki pul ko‘rinishida berilishi mumkin. Tijorat kreditida kreditning ob'ekti tovarlar hisoblanib, tovarlarga to‘lovlarni kechiktirish yo‘li bilan veksel asosida beriladi. Pul ko‘rinishidagisida kreditning ob'ekti qiymat hisoblanadi, bu kredit korxonaning ixtiyoridagi vaqtinchalik foydalanilmaydigan pul mablag‘lari hisobidan beriladi. Tijorat krediti tovar yoki pul ko‘rinishida berilishidan qat‘iy nazar, bank kreditiga nisbatan juda qisqa muddatlarga beriladi.

#### **IX.4.Lizing kredit**

Lizing inglizcha ijara ma‘nosini bildiradi. Eramizdan oldingi to‘rtinchi asrda yashagan grek faylasufi Aristotel – «Boylik mulkka egalik qilishda emas, balki undan samarali foydalanishdir», - degan shu fikr bilan olim lizing g‘oyasiga asos solgan.

Mulk tushunchasida mulkka egalik qilish va undan foydalanish huquqi tushunchalari mavjud. Keyingi vaqtlarda mulkdan foydalanishning yangi shakli ijara munosabatlari, keyinchalik esa uni takomillashgan maxsus turi moliyaviy ijara – lizing vujudga keldi.

Tarix ma‘lumotlariga ko‘ra lizing eramizdan oldingi 2000 yillarda Shumer davlatida mavjud bo‘lgan, Venesiyada rivojlangan. Uni rivojlangan bosqichi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning dastlabki yillariga to‘g‘ri keladi. Avstriyalik olim V.Xayor 1877 yilda o‘zining «Yevropada qanday qilib biznes qilish kerak» nomli kitobida «Bell» telefon kompaniyasida o‘zi ishlab chiqargan telefon apparatlarini ijaraga berganligi va shu orqali katta foyda ko‘rganligi to‘g‘risida gap yuritadi. Bunda iste‘molchilar nafaqat telefon apparatidan foydalanish huquqini, balki kelishilgan to‘lovlarni bajarganlaridan so‘ng uning egasi bo‘lish huquqini ham qo‘lga kiritishgan.

Buyuk Britaniyada XX asr boshlarida konchilar temir yo‘l vagonlarini avval ijaraga olib keyin sotib olishgan.

Bugungi zamonaviy lizing (moliyaviy ijara) XX asrni 50 yillarida AQSh da shakllanib takomillashdi. Vositachi sifatidagi birinchi lizing kompaniyasi 1952 yilda San-Fransisko shahrida ishbilarmon Genri Shonfeld tomonidan asoslangan «United States leasing corporation» dunyoga keldi.

AQShdagi lizing bo‘yicha shov-shuvlar Germaniya, Italiya va Fransiyada davom etdi. Jaxon banki tarkibida xalqaro lizing munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha Xalqaro Moliya korporasiyasi (XMK) ish boshladi.

Bugungi kunda XMK 50 mamlakatning 96 lizing kompaniyalari faoliyatini moliyalashtirgan. 40 mamlakatning 120 dan ortiq lizing sohasidagi investisiya loyihalarini amalga oshirishda texnik yordam ko‘rsatgan hamda 25 mamlakatdagi lizing kompaniyalarining muassisi hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asosan lizing – bu mulkiy munosabatlar majmui bo‘lib bunda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa bir tarafning (lizing oluvchining topshirig‘iga binoan uchinchi taraf(mol yetkazib beruvchi)dan lizing shartnomasiga muvofiq lizing obyekti bo‘lgan mulkni o‘z mulki qilib sotib olib uni to‘lash asosida lizing shartnomasida belgilangan shartlar bilan vaqtinchalik foydalanish va egalik qilish uchun lizing oluvchiga beradi.

Lizing munosabatlarining asosiy hujjati bo‘lib shartnoma hisoblanadi. Lizing ob‘yekti bo‘lib iste‘mol qilinmaydigan va qonunchilik bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyatida qo‘llaniladigan har qanday buyumlar, barcha mulk majmualari, shu jumladan yer uchastkalari va boshqa tabiat ob‘yektlari, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulklar hisoblanadi.

Moliyaviy lizingning mohiyati mulk qiymatini bo‘lib-bo‘lib to‘lash asosida sotib olishni ifodalaydi va tovar krediti shakliga ega bo‘ladi. Bunga lizing muddati davomida lizing beruvchining barcha xarajatlarini to‘liq koplashga yetarli bo‘lgan va unga foyda keltirishni ta‘minlaydigan lizing to‘lovlari yig‘indisini ko‘zda tutadi.

Lizing to‘lovi lizing obyekti qiymatini, mulkni sug‘urtalash xarajatlariini va kredit uchun lizing (foiz) stavkasini o‘z ichiga olgan summani tashkil etadi.

**Investitsion kreditlar** – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruktsiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo‘lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlardir.

Xulosa qilib aytganda, kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo‘lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi. Kredit asosan qatnashuvchilarning turiga, ssuda ob‘ektiga, kredit foizi hajmiga va harakat qilish muhitiga qarab farqlanadi (guruhlanadi). Shunga ko‘ra jahon amaliyotida kreditlarning yagona, umumlashgan tasnifi yo‘q. Chunki kreditlarning turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida kreditlarni berish va qaytarish bo‘yicha tarixan shakllangan (tovar shaklida, pul shaklida, boshqa shakllar va shartlarda) usullariga bog‘liq bo‘ladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Kreditlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Kreditning qanday shakllari mavjud?
3. Bank kreditini mazmun mohiyatini tushuntiring.
4. Qanday kreditlar ta‘minlanmagan yoki blankali kreditlar deyiladi?
5. Davlat kreditini mazmun moxiyatini tushuntiring.
6. Davlat kreditining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Istemol kreditini tushuntiring.
8. Krediti deganda nimani tushunasiz?

## **X. bob. Xalqaro kredit va uning iqtisodiy ahamiyati**

### **X.Xalqaro kredit va uning mazmun mohiyati**

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, muddatlilik hamda foiz to'lash shartlari asosida taqdim etilishi bilan bog'liq ssuda kapitalning harakatidir. Kreditorlar va qarz oluvchilar sifatida xususiy korxonalar (bank, firma)lar, davlat tashkilotlari, hukumatlar, xalqaro hamda hududiy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlar maydonga chiqadi.

Xalqaro kredit kapitalistik ishlab chiqarish usulining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va kapitalni dastlabki jamg'arishning richaglaridan biri edi. Ishlab chiqarishning milliy chegaralardan tashqariga chiqishi, xo'jalik aloqalari baynalmilallashuvining kuchayishi, kapitalning xalqaro jihatdan ijtimoiylashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hamda ilmiy-texnik inqilob uning rivojlanishini ob'ktiv asosi bo'ldi.

Xalqaro kreditning manbalari bo'lib: korxonalaridagi mablag'larning davriy aylanishi jarayonida vaqtincha bo'sh bo'lib qoladigan pul shaklidagi kapitalning bir qismi; banklar tomonidan yig'ib, jamlanadigan davlat va xususiy sektorning pul jamg'armalari hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarish jarayonining ayrim joylarida xalqaro kreditga ob'ktiv zarurat tug'iladi. Ushbu zarurat: 1) mablag'larning xo'jalikdagi doiraviy aylanishi bilan bog'liq; 2) mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishning xususiyatlari bilan bog'liq; 3) tashqi iqtisodiy bitimlarning hajmi va muddatlaridagi farqlar bilan bog'liq; 4) ishlab chiqarishni kengaytirishga mo'ljallangan yirik kapital qo'yilmalarini amalga oshirilish zarurati bilan bog'liq.

**Xalqaro kreditning tamoyillari.** Xalqaro kreditning takror ishlab chiqarish bilan aloqasi uning tamoyillarida aks etadi:

1) qaytarishlilik; agarda olingan mablag'lar qaytarilmayotgan bo'lsa, unda ushbu holat kapitalni qaytarmaslik sharti bilan berilishiga, ya'ni moliyalashtirishga aloqadordir;

2) muddatlilik; kredit kelishuvida belgilangan muddatlarda kredit qaytarilishini ta'minlaydi;

3) to'lovlilik; qiymat qonuni harakatini aks ettirgan holda kreditning har bir holatidagi alohida shartlarni amalga oshirish usulidir;

4) moddiy ta'minlanganligi; kredit so'ndirilishining kafolatida o'z aksini topadi;

5) maqsadli Yo'nalishi; ssudaning aniq bir ob'ktlarini belgilanishi.

Xalqaro kreditning tamoyillari uning bozor iqtisodiy qonunlari bilan aloqalarini ifodalaydi va bozor sub'ktlari hamda davlatning joriy hamda strategik vazifalariga erishish maqsadida ishlatiladi.

### **X.2.Xalqaro kreditning asosiy tamoyillari va funktsiyalari**

Xalqaro kredit ssuda kapitalning tashqi iqtisodiy aloqalar jarayonidagi harakat xususiyatini aks ettiruvchi quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

1) Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun ssuda kapitallarining mamlakatlararo qayta taqsimoti. Ssuda kapitali xalqaro kredit mexanizmi orqali foydalarni ta'minlash maqsadida iqtisodiy agentlar afzal ko'rgan jarayonlarga yo'naltiriladi. Ushbu bilan kredit milliy foydani o'rtacha foyda darajasida birxillashtirilishiga hamda uning massasini oshishiga ko'maklashadi;

2) Xalqaro hisob-kitoblar jarayonida haqiqiy pullarni (oltin va kumush) kredit pullarga almashtirilishi hamda naqdsiz to'lovlarning rivojlanishi va tezlashtirilishi, naqdli valyuta muomalasini xalqaro kredit operatsiyalari bilan almashtirilishi orqali muomala xarajatlarining tejalishi. Xalqaro kredit zaminida xalqaro hisob-kitoblarning veksellar, cheklar hamda bank pul o'tkazmalari, depozit sertifikatlari va boshqa shu singari kredit vositalari paydo bo'ldi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida ssuda kapitali muomala davrining tejalishi ishlab chiqarishning kengayishi va foyda o'simini ta'minlagan holda kapitalning unumli muomala davrini oshiradi;

3) Kapital to'planuvi va markazlashuvining tezlashishi. Xorijiy kreditlar jalb etilishi evaziga qo'shimcha qiymatning kapitalizatsiya jarayoni tezlashadi, individual jamg'arish chegaralari kengayadi, bir mamlakat tadbirkorlarining kapitallari ularga boshqa mamlakatlar mablag'larining qo'shilishi hisobiga ko'payadi. Xalqaro kredit azaldan individual korxonalarni aktsiyadorlik jamiyatlariga aylanishi, yangi firmalar, monopoliyalar barpo etilishining omili sifatida maydonga chiqadi. Kredit boshqa mamlakatlarning kapitali, mulki va mehnatidan ma'lum bir chegaralarda foydalanish imkoniyatini beradi. Yirik kompaniyalarga taqdim etiladigan imtiyozli xalqaro kreditlar va mayda hamda o'rta hajmdagi firmalarni jahon ssuda kapitallari bozoriga chiqishining qiyinligi kapital to'planuvi va markazlashuvining kuchayishiga ko'maklashadi.

Milliy va jahon xo'jaligining rivojlanishi bilan xalqaro kredit funktsiyalarining ahamiyati bir xilda bo'lmay, o'zgaruvchanlik xususiyatiga egadir. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kredit iqtisodiyotni muvofiqlashtirish funktsiyasini bajaradi hamda bir vaqtning o'zida o'zi ham muvofiqlashtirilish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

**Xalqaro kreditning ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi roli.** Xalqaro kredit o'zaro bog'liq funktsiyalarni bajarish orqali ikki yoqlama, ya'ni ijobiy va salbiy rol o'ynaydi.

Xalqaro kreditning ijobiy roli takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlanishi hamda uning kengayishi orqali ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining tezlashishida o'z aksini topadi. Ushbuda ularning o'zaro aloqasi aks etadi. Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarga va pirovard oqibatda takror ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi bog'lovchi bo'g'in hamda uzatkich mexanizmi rolini o'ynaydi. Ishlab chiqarish o'sishining mahsuli bo'lgani holda xalqaro kredit bir vaqtning o'zida uning zaruriy sharti va katalizatori bo'lib ham hisoblanadi. U ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining baynalmilallashuvi, jahon bozorining shakllanishi hamda rivojlanishiga ko'maklashadi va halqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi. Xalqaro kredit takror ishlab chiqarish jarayonini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tezlashishiga ko'maklashadi:

Xalqaro kredit mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini shakllantiradi.

Xalqaro kredit xorijiy investitsiya uchun ham har tomonlama qulay sharoit yaratadi.

Kredit mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalaridagi turli to'lovlarni, valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Xalqaro kredit mamlakatlarning tashqi savdo aloqalarini iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

### **X.3.Xalqaro kredit munosabatlarida kredit siyosati.**

Mamlakatlarning kredit siyosati jahon bozorlarida kreditor mamlakat mavqelarini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, xalqaro kredit kreditor mamlakatlar mavqelarini o'stirgan holda olingan foydalarni qarzdor mamlakatlardan o'tkazish uchun ishlatiladi. Shu bilan birgalikda ssudalarni foizlar bilan qaytimining jamiyat sof daromadining ma'lum bir hajmidan oshgan yillik to'lovlari qarzdor mamlakatlarda mazkur jamg'armalarning shakllanish manbalariga salbiy ta'sir etadi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit qarzdor mamlakatlarda kreditor mamlakatlar uchun qulay bo'lgan iqtisodiy va siyosiy rejimlarning yaratilishi hamda mustahkamlanishiga ko'maklashadi.

Davlatlar, ba'zi mamlakatlarning yetakchi banklari, xalqaro va mintaqaviy valyuta kredit va moliyaviy tashkilotlar tomonidan vaqti-vaqti bilan kredit diskriminatsiyasi hamda kredit blokadasi deb yuritiluvchi kredit siyosatlari o'tkazib turiladi.

**Kredit diskriminatsiyasi** – bu shunday siyosat bo'lib, bunda o'tkazayotgan siyosatlari ularga ma'qul kelmagan ba'zi davlatlarning iqtisodiy va siyosiy bosimiga ta'sir o'tkazish maqsadida xalqaro kredit olish, undan foydalanish va qaytarish jarayonlari uchun juda og'ir shartlar o'rnatishdan iborat. Kredit diskriminatsiyasining asosiy usullari quyidagilardir: kredit berishni chegaralash, foiz stavkasini nihoyatda yuqori belgilash, kreditning imtiyozli davrlarini yoki umuman kredit muddatini qisqartirish, kreditning ta'minlanishiga og'ir talablar o'rnatish, kredit summasini to'satdan qisqartirish kabilardir.

**Kredit blokadasi** - kredit diskriminatsiyasidan ham ko'ra qattiqroq iqtisodiy sanksiya bo'lib, bunda u yoki bu mamlakatga kredit berish qat'iy man qilinadi.

Ishlab chiqarish va almashuvning baynalmilallashuvi, jahon xo'jalik aloqalari yangi shakllarining paydo bo'lishi xalqaro kreditning turli shakllari rivojlanishiga ob'ktiv asos bo'lib xizmat qiladi.

**Xalqaro kreditning shakllari.** Xalqaro kreditning turli shakllarini kredit munosabatlarining ayrim tomonlarini xarakterlovchi bir nechta muhim omillariga ko'ra umumiy asosda quyidagicha tasniflash mumkin:

- manbalarga ko'ra tashqi savdoni kreditlash hamda moliyalashtirishning ichki, xorijiy va aralash turlari farqlanadi. Ular o'zaro yaqindan bog'liqdir hamda eksportyordan importyorgacha bo'lgan tovar harakatining barcha bosqichlariga xizmat ko'rsatadi. Tovar sotuv jarayoniga qanchalik yaqin bo'lsa, odatda xalqaro kreditning shartlari qarz oluvchiga shunchalik yoqimli bo'ladi;

- belgilanishiga ko'ra tashqi iqtisodiy bitimning qaysi biri qarz mablag'lari hisobiga qoplanishiga bog'liq holda quyidagilar farqlanadi:

1) tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog'liq tijorat kreditlari;

2) har qanday boshqa maqsadlarga, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalarga, investitsion ob'ktlar qurilishiga, qimmatli qog'ozlar sotib olishga, tashqi qarzni so'ndirishga, valyuta intervensiyasiga ishlatiladigan moliyaviy kreditlar;

3) kapital, tovarlar va xizmatlarni chetga olib chiqilishining aralash shakllariga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan "oralik" kreditlar. Masalan, pudrat ishlari (injiniring)ni amalga oshirish shaklida;

- turlariga ko'ra kreditlar eksportyorlar tomonidan o'z sotib oluvchilariga tovar shaklida va banklar tomonidan pul shaklida taqdim etiladigan valyuta turlariga bo'linadi. Ayrim holatlarda valyuta krediti jihozlar yetkazib berish bo'yicha tijorat bitimi shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi va import jihozlar zaminida ob'kt qurilishi yuzasidan mahalliy xarajatlarni kreditlash uchun ishlatiladi;

- qarz valyutasiga ko'ra qarzdor mamlakat yoki kreditor-mamlakat valyutasida, uchinchi mamlakat valyutasida hamda SDR valyuta savatiga asoslangan xalqaro hisob valyutasida taqdim etiladigan xalqaro kreditlarga farqlanadi;

- muddatlariga ko'ra xalqaro kreditlar: qisqa muddatli - 1 yilgacha, ayrim holatlarda 18 oygacha (o'ta qisqa muddatli - 3 oygacha, bir sutkalik va bir haftalik), o'rta muddatli - 1 yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli - 5 yildan ziyod muddatlarga beriladigan kredit turlariga bo'linadi. Ba'zi mamlakatlarda 7 yilgacha muddatga berilgan kreditlar o'rta muddatli, 7 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar esa uzoq muddatli bo'lib hisoblanadi. Qisqa muddatli kredit odatda tadbirkorlarni aylanma kapital bilan ta'minlaydi va nosavdo, sug'urta hamda chayqov bitimlariga xizmat ko'rsatgan holda tashqi savdo va xalqaro to'lovlar muomalasida qo'llaniladi. Uzoq muddatli xalqaro kredit odatda asosiy ishlab chiqarish vositalariga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, mashinalar va butlovchi jihozlar eksportining 85 foizi hajmiga hamda tashqi iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari (yirik ko'lamdagi loyihalar, ilmiy tekshirish ishlari, yangi texnika joriy etilishi)ga xizmat ko'rsatadi. Agarda qisqa muddatli kreditning muddati uzaytirilsa, unda u o'rta muddatli, ayrim holatlarda esa uzoq muddatli kreditga aylanadi. Qisqa muddatli kreditlarning o'rta va uzoq muddatli kreditlarga aylanishi jarayonlarida davlat kafil sifatida faol ishtirok etadi;

- ta'minlanganlik tamoyiliga ko'ra ta'minlangan va blankali kreditlarga farqlanadi. Kreditning ta'minoti bo'lib odatda tovarlar, tovarga egalik huquqini beruvchi va boshqa tijorat hujjatlari, qimmatli qog'ozlar, veksellar, ko'chmas mulk hamda qimmatliklar xizmat qiladi. Kredit olish uchun tovar garovi 3 shaklda amalga oshiriladi: qat'iy garov (tovarlarning ma'lum bir massasi bank foydasiga garov qilinadi); muomaladagi tovar garovi (ma'lum bir summadagi, tegishli assortimentdagi tovarning qoldiqi hisobga olinadi); qayta ishlovdagi tovar garovi (mazkur mahsulotlarni bankka garovga bergan holda garovga olingan tovardan mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin).

Xulosa qilib aytganda, xalqaro kredit kapitalistik ishlab chiqarish usulining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va kapitalni dastlabki jamg'arishning richaglaridan biri edi. Ishlab chiqarishning milliy chegaralardan tashqariga chiqishi, xo'jalik aloqalari baynalmilallashuvining kuchayishi, kapitalning xalqaro jihatdan ijtimoiylashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hamda ilmiy-texnik inqilob uning rivojlanishini ob'ktiv asosi bo'ldi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Tashqi iqtisodiy munosabatlarda kreditning roli nimalardan iborat?
2. Xalqaro kreditning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
3. Xalqaro kreditning asosiy funktsiyalari nimalardan iborat?
4. Xalqaro kreditning ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi roli nimalardan iborat?
5. Xalqaro kredit munosabatlarida kredit siyosatining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
6. Kredit blokadasini tushuntiring.

## **XI.bob. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi**

### **X.1.Banklar va ularning kelib chiqish asoslari**

Bank deb, pul mablaglarini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi.

Banklar paydo bo'lishining asosi bo'lib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarinig bo'lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda banklarning ham bo'lishini taqazo etadi.

Bank (lotincha: *ansa* — sarrof peshtaxtasi) — kredit-moliya muassasasi; asosan, vaqtincha bo'sh pul mablag'larini to'plash, korxonalariga va umuman pulga muhtojlarga kredit, ssuda berish, naqd pulsiz hisob-kitoblarini amalga oshirish, pul va turli qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, oltin va chet el valutalari bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish va boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanadi.

Bank" so'zi italyanacha "banco" so'zidan kelib chiqqan va "stol", "skameyka" degan ma'noni anglatadi. Banklarning o'tmishdoshlari o'rta asrlarda pul almashtiruvchilar - pul va tijorat kapitalining vakillari bo'lgan; ular savdogarlardan pul olib, turli shahar va mamlakatlardan pul almashtirishga ixtisoslashgan. Valyuta ayirboshlovchilar ushbu depozitlardan, shuningdek o'z mablag'laridan qarz berish va foizlarni olish uchun foydalanishni boshladilar, bu esa valyuta ayirboshlovchilarning bankirlarga aylanishini anglatardi, Angliyada kapitalistik bank tizimi XVI asrda vujudga keldi, yoki zargarlardan ham, savdogarlardan ham bankirlar paydo bo'ldi.

Bank ishining asosiy yo'nalishlari depozit (omonat) qabul qilish, kreditlar berish va mijozlarga kredit-hisob xizmati ko'rsatishni amalga oshirish hisoblanadi. Bank qimmatbaho qog'ozlarni saqlash, saqlashga o'tkazilgan qimmatbaho qog'ozlarni joriy boshqarish, birja topshiriqlarini bajarish, seyflarni ijaraga berish kabi pulli xizmatlar ham ko'rsatadi. Turli iqtisodiy xizmatlarni amalga oshiruviga ko'ra hozirgi vaqtda bankning quyidagi asosiy turlari faoliyat ko'rsatadi: markaziy (emissiya) banki va tijorat banki.

Bank ishining dastlabki belgilari quldorlik jamiyatida paydo bo'lgan. Ular asosan, savdogarlarning pul bilan bog'liq hisob-kitob ishlarini bajargan jiro-banklar (mijozlar o'rtasida hisob-kitoblarni naqd pulsiz olib boradigan banklar) shaklida vujudga keldi. Shu bilan bir qatorda maxsus sarrofxonalarda sarroflar pul almashtirish va yirik pullarni maydasiga almashtirib berish ishlari bilan shug'ullangan. Bankning ayrim belgilariga ega bo'lgan muassasalar o'rta asrlarda shimoliy Italiya shaharlarida, so'ngra Gollandiya va Germaniyaning savdo markazlarida yuzaga keldi.

Kapitalizmning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bankning ahamiyati ortib ketdi. Bank ishining hozirgi tamoyillari birinchi bo'lib 17-asrdan boshlab Angliyada, so'ngra boshqa mamlakatlarda yuzaga kela boshladi. Shu davrdan boshlab bank kapital va tadbirkorlikni ishga solishning maxsus bir sohasiga aylandi. bankning ko'payishi bilan ssuda kapitali kapitalning asosiy shakllaridan biri bo'lib qoldi. Asta-sekin bank yiriklashib, ular bajaradigan operatsiyalar doirasi

kengayib bordi. bank muomalaga xususiy veksellar oʻrnida ishlatiladigan kredit pullari — banknotlar (bank biletlari) chiqara boshladi. Koʻpgina mamlakatlarda cheklar bilan amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblar paydo boʻldi. Kapitalizmning rivojlanishi bilan kredit va toʻlovlarda vositachilik vazifasini bajaradigan muassasalarga talab ortib bordi. bank boʻsh pul vositalarini yigʻib, ularni turli muddatlarga ssudaga berdi, ular korxonalarining joriy hisob varagʻini yuritib, korxonalar oʻrtasida oʻzaro hisobkitoblarni olib bordi. Asta-sekin bank oʻrtasida eng yiriklari paydo boʻldi. Ayniqsa, 19-asr oxiriga kelib bank ishlab chiqarishning konsentratsiyalanishi oqibatida bankning yiriklashuvi bank sonini qisqarishiga va bank monopoliyalarining vujudga kelishiga, ular oʻrtasida oʻzaro raqobat kurashining kuchayishiga sabab boʻldi. Bank toʻlov va kredit operatsiyalarida vositachilik qilish bilan kifoyalanmay, sanoat korxonalarini aksiyalarini sotib ola boshladi, ularning xoʻjaliklari yoki muassislaridan biriga aylandi, yangi korxonalar taʼsis etishda hamkorlik qildi. Yirik bank va sanoat kapitalining birga qoʻshilib ketishi natijasida moliya kapitali va moliya oligarxiyasi vujudga keldi, bu oligarxiya mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy hayotida katta mavqeni egalladi.

Tarixdagi birinchi bankirlar zargarlar boʻlgan. Ular doimo oltin yoki zargarlik buyumlarining bir qismini saqlashlari kerak edi, shuning uchun ular ishonchli seyflar va qulflarga ega edilar. Boshqa odamlar bundan foydalanishni boshladilar, ular zargarlardan oʻzlarining xazinalarini bir muncha vaqt saqlash uchun olishni iltimos qildilar va buning uchun ozgina pul toʻladilar. Oxir oqibat, baʼzi zargarlar mijozlar depozitlarini kamdan-kam hollarda qaytarib olishlarini va shuning uchun oltinning katta qismi foizlar bilan qarzga berilishi mumkinligini angladilar. Birinchi bankirlar shu tarzda paydo boʻlgan. Va banklar tadbirkorlar va omonat egalari oʻrtasida vositachiga aylandi.

Xozirgi davrda koʻpgina mamlakatlarda koʻplab (masalan, 90-yillar boshida AQShda 14,5 mingdan ortiq bank boʻlgan) bank boʻlishiga qaramay, ulardan 3—4 tasigina yetakchi oʻrinda turadi. Turli mamlakatlardagi yirik bank nihoyatda sertarmoq boʻlib, oʻz mamlakati doirasidagina emas, shu bilan birga jahonning juda koʻp mamlakatlarida boʻlim va filiallariga ega. Rivojlangan mamlakatlarda bank iqtisodiyotni boshqarish va ragʻbatlantirish muassasasi vazifalarini bajaradi. bank pul kapitalini iqtisodiyotning sohalari va tarmoqlari boʻyicha taqsimlanishida qatnashib, fonda normasining tenglashuvini taʼminlaydi.

Banklar qadimgi muassasalardan boʻlib, dastlab tanga pullarni saqlab beruvchi xazinachi sifatida paydo boʻlgan. Oltin tangalarni, pullarni Yevropada qadimgi cherkov muassasalari saqlab bergan. Keyinchalik bunday saqlanib turgan boʻsh pul mablagʻlarini unga muhtoj boʻlganlarga foiz bilan (daromad olgan holda) qaytarib olinadigan, yaʼni ssuda operatsiyalari hamda turli mamlakatlar va shaharlarning tangalarini oʻzaro ayirboshlash boʻyicha ehtiyoj tugʻilgani uchun pullarni ayirboshlash operatsiyalari amalga oshira boshlangan. Shu boisdan “Bank” soʻzi italyancha “Banco” soʻzidan olingan boʻlib, yaʼni ayirboshlovchining oldidagi stol maʼnosini bildiradi. Asta-sekinlik bilan iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi bilan banklar koʻrsatadigan xizmat turlari (pullarni saqlash, ayirboshlash, hisob-

kitoblarni amalga oshirish, ssuda berish va hokazolar) ko‘payib, banklar, iqtisodiyotning muhim sub‘ektlariga aylanib qoldi. Hozirgi paytda barcha rivojlangan mamlakatlarda ikki pog‘onali bank tizimi qabul qilingan. O‘zbekistonda ham jahonda qabul qilingan ikki pog‘onali bank tizimi joriy qilingan bo‘lib: birinchi pog‘onali bank O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoblanadi; ikkinchi pog‘onali banklarga esa barcha tijorat banklari kiradi.

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni «bancheri» deb atalib, agar puldorlarning qaysi biri ishonchni oqlamasa va ishiga ma’suliyatsizlik qilsa, u o‘tirgan stol sindirib tashlangan va uni «Bancorotto», ya’ni bankrot deb atashgan. Banklar paydo bo‘lishining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib XVI asrda Florensiya va Venesiyada tashkil qilingan kichik jiro-banklar xisoblanadi. Keyinchalik bunday banklar Amsterdamba (1605), Gamburgda (1618), Milanda, Nyurenbergda, Genuyada vujudga kelgan. Bu banklar asosan o‘z mijozlari – savdogarlarga xizmat qilgan, ular o‘rtasida naqd pulsiz xisob-kitoblarni olib borgan.

Angliya bank tizimi (XVI asr) yuzaga kelgan va rivojlangan birinchi davlat hisoblanadi. Angliya bankirlari oltinni saqlab beruvchilar va savdogarlardan kelib chiqqan.

Tarixda birinchi yuzaga kelgan bank Angliya banki hisoblanadi, u 1694 yilda aksioner bank sifatida tashkil bo‘lgan. Keyinchalik sanoat rivojlanishi natijasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil bo‘lgan.

Natural xujalik munosabatlarining tugashi, savdo-sotik munosabatlarining rivojlanishi pullik xisob-kitoblar olib borishga, kredit tizimini rivojlanishiga yo‘l ochdi.

Ssuda kapitalisti asosan o‘z bo‘sh mablag‘ini karzga berib ssuda foizi sifatida daromadga ega bo‘lsa, bankirlar asosan chetdan jalb qilingan mablag‘larni kreditga berib foydaga ega buladi. Banklar korxonalar, tashkilot, davlat muassasalari, aholi bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish orqali katta hajmdagi mablag‘ni jamlab uni xarakatini boshqaradi. Banklarni yiriklashuvi va ular faoliyatini takomillashuvi ularni maxsus korxonalar – kredit muassasalariga aylanishiga olib keldi.

Bozor munosabatlari sharoitida banklar iqtisodiyotni samarali boshqarishning muhim subyekti hisoblanadi. Banklar bozor munosabatining boshqa subyektlaridan farq qilib pul bilan ishlovchi, vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini yig‘uvchi, uni unga ehtiyoj sezgan subyektlarga vaqtincha foydalanishga berib turuvchi va pul mablag‘larini samarali ishlatish asosida o‘z faoliyatini olib boruvchi muassasa hisoblanadi.

Banklar bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi subyekt hisoblanib moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda vositachi sifatida kapital aylanishining uzluksizligini ta’minlab jamiyatning ravnaq topishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga, jamiyat a’zolari farovonligiga zamin yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlarining keng miqyosda rivojlanishi banklar oldida yangidan-yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyat ochib beradi.

Shuning uchun ham respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimi yaratish zaruriyati tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasi «Bank siri to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga binoan quyidagilar bank siri hisoblanadi:

- o'z mijozlarining (vakillarining) operasialari, hisob varaqlari, va omonatlariga doir ma'lumotlar

- bank o'z mijoziga (vakiliga) bank xizmatlari ko'rsatishi munosabati bilan mazkur mijoz (vakil) to'g'risida olgan ma'lumotlar

- mijozning (vakilning) bank seyflari va binolarida saqlab turilgan mol-mulki, uning xususiyati va qiymati haqidagi ma'lumotlar

- mijoz (vakil) topshirigiga binoan yoki uning foydasini ko'zlab amalga oshirilgan banklararo operasialar va bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar

- bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning banklar o'rtasida muomilada bo'lishi natijasida ma'lum bo'lib qolgan boshqa bankning mijoziga (vakiliga) doir ma'lumotlar.


Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar mijozning (vakilning) o'ziga, u vakolat bergan vakillarga, shuningdek hisob palatasiga (uni zimmasidagi vazifaga kirs), tergov, prokuratura va surushturuv organlariga (tergovchi va surushtiruvchining asoslangan qaroriga ko'ra qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lganda) taqdim etiladi.

## **XI.2. Bank tizimi**

**Kredit tizimi va uning tarkibiy tuzilishi.** Kredit tizimi deb kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit institutlar yig'indisiga aytiladi. Kredit tizimi orqali huquqiy va jismoniy shahslarning vaqtincha bo'sh mablag'lari yig'iladi va korxonalar, tashkilotlarga, aholiga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo'g'inlardan iborat bo'lishi mumkin. Mablag'larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi bo'g'inlari o'z hususiyatlariga ega bo'ladi. Jahon amaliyotida kredit tizimi o'zining tashkil qilinish turiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Markaziy bank;
- tijorat banklar;
- mahsus-kredit institutlar.

**Kredit tizimi o'zining tashkil qilinish turiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:**



Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog'onali kredit bank tizimi ko'p mamlakatlar iqtisodining asosi hisoblanadi. Bu Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:

- tijorat banklar;
- investiciya banklari;
- jamg'armalar jalb qiluvchi banklar (O'zbekistonda Halq banki);
- ipoteka banki;
- savdo banklari;
- tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha banklar;
- tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.

Nobank kredit tashkilotlarga:

- investiciya kompaniyalari;
- sug'urta kompaniyalari;
- nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

Kredit tizimida asosiy o'rinni bank institutlari, bank institutlari tarkibida salmoqli o'rinni tijorat banklari egallaydi. Tijorat banklari kredit tizimining boshqa bo'g'inlariga nisbatan ko'proq bo'sh resurslarni jalb qiladi va ko'p miqdorda mijozlarga kreditlar beradi.

Mahsus ixtisoslashgan kredit institutlari (banklar) tijorat banklari faoliyatini to'ldiradi va ular iqtisodiyotning kam rentabellik, kam foydali tarmoqlariga (qishloq ho'jaligi, uy-joy qurilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) engil sharoitda kreditlar berish yo'li bilan ularning faoliyatini rag'-batlantirib, rivojlantirib boradi.

Kredit uyushmasi deb yuridik va jismoniy shahslar tomonidan kreditlar berish maqsadida ihtiyoriy teng huquqli a'zolik asosida tuziladigan kredit tashkiloti e'tirof etiladi. Kredit uyushmasi O'zbekiston Respublikasi hududida bank hisobvaraqlarini belgilangan tartibda ochishga haqlidir.

Kredit uyushmasi o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan manzili ko'rsatilgan yumaloq muhriga ega bo'lishi lozim. Muhrda ayni paytning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

Kredit uyushmasining firma nomida "kredit uyushmasi" so'z birikmasi ifodalanishi va u boshqa kredit uyushmalarining firma nomiga o'hshash bo'lmasligi kerak. Ushbu Qonun talablariga javob bermaydigan yuridik shahs o'z nomida "kredit uyushmasi" so'z birikmasidan foydalanishga haqli emas. Kredit uyushmasi o'z nomi yozilgan shtamlarga, blankalarga va o'z emblemasiga ega bo'lishga haqlidir.

Kredit uyushmasi ishlab chiqarish, sug'urta, savdo-vositachilik hamda ushbu Qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyat bilan bevosita shug'ullanishga haqli emas" deb aytilgan. Ammo bu Qonun 2006 yil 14 aprelda kiritilgan o'zgartirishlarni inobatga olib talqin qilinganda, to'rt yillik davr ichidagi o'zgarishlarni va qonunga bo'lgan talabni inobatga olgan holda loyiha tuzilganligi ma'lum bo'ladi. Qonun loyihasini tayyorlashdan maqsad, kredit uyushmalari tizimini yanada rivojlantirish, ularni tashkil etish va boshqarish, shuningdek, kredit uyushmalari tizimini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan.

Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va ushbu Qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shahs mikrokredit tashkilotidir.

Mikrokredit tashkiloti O'zbekiston Respublikasi hududida bank hisobvaraqlarini belgilangan tartibda ochishga haqli.

Mikrokredit tashkiloti ishlab chiqarish, sug'urta, savdo-vositachilik va qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyat bilan bevosita shug'ullanishga haqli emas.

Lombard tashkilotlari deb qimmatbaho metallarni garovga olgan holda kredit beruvchi yuridik shahs maqomiga ega tashkilotlar hisoblanadi. Lombard tashkilotlari jismoniy shahslarga o'zining moliyaviy xizmatlarini ko'rsatadi.

Bank tizimi- bu mamlakat hududida tarixan shakllangan va qonun bilan mustaxkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish shaklidir. Xuddi pul va moliya tizimi kabi bank tizimi o'ziga xos milliy belgilariga egadir. Shu belgilar shu hududning, geografik shartlari ob-xavo axoli milliy tuzilishi, ularni nima bilan mashgulligi, kushnilar bilan munosabati, savdo yo'llari va omillar asosida shakllanadi.

Shu bilan birga banklar solik tizimi, baho tizimi, baho va daromad siYosati, tashki faoliyat iqtisodiy faoliyat shartlari bilan uzviy aloqada bo'lishlari shartdir. Bu shunday darak beradiki mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy uzgarishlar kup xollarda bank tizimi faoliyatiga boshqa ijtimoiy - xujalik mexanizmi bilan aloqadorligidagi harakatiga bog'liqdir.

Xozirgi vaqtda jahonda umum qabul qilingan bank tizimi ikki pog'onali bank tizimi bo'lib u markaziy bank va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga oladi.

Bank tizimi bozor iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismidir. Tovar pul munosabatlarining keng miqyosda rivojlanishi banklar oldida yangidan-yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyatlar ochib beradi.

Bank tizimi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u milliy iqtisodiyotda ishlaydigan boshqa tizimlardan farqli o'laroq o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Bank tizimining o'ziga xos xususiyati uning elementlari va ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar bilan belgilanadi. Tizim umuman har doim harakatda bo'lib, u yangi komponentlar bilan to'ldirilib, takomillashtirilgan. Uning ichida doimo yangi aloqalar paydo bo'ladi. Bank tizimi "yopiq" turdagi tizimdir. Chunki, banklar o'rtasida ma'lumot almashinuviga qaramay, bank sirlari mavjud... Qonunga ko'ra, banklar hisobvaraqlardagi mablag' qoldiqlari, ularning harakati to'g'risida ma'lumot berishga haqli emas. O'z-o'zini tartibga soluvchi, ya'ni o'zini o'zi boshqaradigan tizim xarakteriga ega. Iqtisodiy muhit va siyosiy vaziyatdagi o'zgarishlar muqarrar ravishda bank siyosatining avtomatik o'zgarishiga olib keladi. Bank tizimini boshqarish mumkin. Mustaqil pul-kredit siyosatini olib boruvchi markaziy bank turli shakllarda faqat parlament yoki ijro etuvchi hokimiyat organlari oldida javob beradi. Tijorat banklari umumiy va maxsus bank qonunlariga muvofiq ish olib boradi, ularning faoliyati kredit tashkilotlari faoliyatini nazorat qiluvchi markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy standartlar bilan tartibga solinadi.

Bank tizimiga markaziy bank, tijorat banklari tarmog'i va boshqa kredit-hisob-kitob markazlari kiradi. Bozor iqtisodiyotining aksariyati banklar o'rtasida gorizontal va vertikal munosabatlarni o'z ichiga olgan ikki bosqichli tuzilishga ega.

Ikki darajali bank tizimini yaratish zarurati bozor munosabatlarining ziddiyatli tabiati bilan bog'liq. Bir tomondan, ular tadbirkorlik erkinligini va moliyaviy resurslarni boshqarishni talab qiladi va bu quyi darajadagi elementlar - tijorat banklari tomonidan ta'minlanadi. Boshqa tomondan, ushbu munosabatlar ma'lum bir tartibga solish, nazorat va maqsadli ta'sirni talab qiladi, bu esa markaziy bank shaklidagi maxsus muassasani talab qiladi. Pul-kredit munosabatlarini tartibga solish funksiyasiga ega bo'lgan markaziy banklarning yaratilishi, xususiy tadbirkorlik erkinligini saqlab, bozor munosabatlarini samarali ravishda jilovlashga imkon beradi.

Bank tizimi qonunlar va tegishli me'yoriy hujjatlar asosida ishlaydi, ular birgalikda uni birlashtiruvchi va tartibga soluvchi infratuzilmani tashkil etadi. Umuman olganda, u jamiyat rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi.


**O'zbekiston Respublikasi bank tizimi.** O'zbekiston Respublikasi bank tizimining bosh maqsadi jahon talabiga mos keluvchi, rivojlangan milliy kredit tizimiga ega bo'lish, xo'jaliklar va aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talablarini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat. Bu maqsadga erishishni ta'minlash uchun davlatimiz tomonidan mamlakatimiz bank sektorining rivojlanishini ta'minlovchi zaruriy makroiqtisodiy sharoitlarni hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlash, shuningdek, bank nazorati tizimini va banklar faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish, banklarning depozit, kredit, va investiciya faoliyatini yanada rivojlantirishga erishish va banklar o'rtasida raqobat bo'lishini ta'minlashga asos yaratishdan, nobank tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish,

moliya-kredit sektorining huquqiy bazasini yaxshilash, ularning moddiy-tehnika jihatdan samarali ta'minlanganligiga erishish

O'zbekiston Respublikasi banklar tizimini kengaytirgan holda quyidagicha chizmada keltirish mumkin.

5-chizma

### O'zbekiston Respublikasi Bank tizimi tarkibi



Bizning zaminimizda mavjud bo'lgan banklarning rivojlanishini ikki yirik davrga bo'lib qarash mumkin. Birinchi davr bu –O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrdagi bank tizimi va ikkinchi davr O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Biz ta'kidlaganimizdek, O'zbekistonda bank tizimi ikki pog'ona-li bo'lib, banklar tizimining birinchi pog'onasi – bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ikkinchi pog'onasi – tijorat bank-lari, ularning sho'balari, chet el banklari sho'balari hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo'lgan bank tizimining rivojlanishini tahlil qilib qaraydigan bo'lsak, uning rivojlanishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

– birinchi bosqich XIX asrning ohiridan 1930-32 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr ichida oldingi mavjud bo'lgan banklar zaminida Sobiq

Sovet Ittifoqining kredit tizimi tashkil qilindi. Bu davrda 30-yillarda iqtisodning rivojlanishiga mos keluvchi banklar: tarmoq banklari, o'lka banklari, tijorat banklari, mahsus banklar, davlat banklari kabi banklar faoliyat ko'rsatgan;

– ikkinchi bosqich 1932 yildan 1959 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda banklar faoliyatida o'zgarishlar yuz berdi va banklar veksel' orqali kreditlashdan (o'sha davrlarda bu kreditlash amaliyotda «egri» kreditlash deb nom olgan) to'g'ridan-to'g'ri korxonalarni kreditlashga o'tkazilgan. Bu davrda xo'jaliklar o'rtasidagi vazifalar taqsimlangan va iqtisodiyot sohalari bo'yicha banklar tashkil qilingan hamda bu banklar faqat shu sohalarni uzoq muddatli kreditlash va moliyalashtirish bilan shug'ullangan. Davlat banki esa asosan qisqa muddatli kreditlash jarayonlarini olib borgan;

– uchinchi bosqich 1959 yildan 1988 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda mavjud tarmoq banklari qayta tashkil qilinib, mamlakatdagi barcha kredit munosabatlarini olib borish maqsadida uchta bank tashkil qilindi. Bular: Davlat banki, qurilish banki, tashqi savdo banki bo'lgan. Davlat banki iqtisodiyotning barcha sohalariga faqat qishloq ho'jaligining ba'zi ehtiyojlari uchun uzoq muddatli kreditlar berilgan) qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug'ullangan. Qurilish banki kapital qo'yilmalar bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni, qurilishni moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlar berish bilan bog'liq operatsiyalarni bajargan. Tashqi savdo banki Moskvada joylashgan bo'lib, mamlakatning eksport-import bilan bog'liq faoliyatini boshqarib borgan;

– to'rtinchi bosqich bank tizimini qayta tashkil qilish davri bo'lib, u 1988 yildan 1990 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Bu davrda bank tizimida katta o'zgarishlar ro'y berdi va Davlat banki bilan bir qatorda maxsus tarmoq banklari tashkil qilindi.

Bu banklar jumlasiga, Sanoat Qurilish banki, Agrosanoat banki, Uy-joy qurilish va ijtimoiy ta'minot banki, jamg'arma bank va tashqi iqtisodiy faoliyat banki kabilar kiradi. Bu banklar faoliyatining xususiyatli tomoni shunda ediki, ular o'zi xizmat ko'rsatadigan sohaga uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish huquqiga ega edilar.

Shu davrdan boshlab Davlat bankidan kreditlash funksiyasi olib tashlandi va u emission bank sifatida faoliyat ko'rsatadigan bo'ldi. 90-yillarda bank tizimini qayta tashkil qilishdan asosiy maqsad mamlakatda yuz berayotgan asosiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda banklar zimmasiga korxonalar va tashkilotlarga kompleks xizmat ko'rsatishni ta'minlash va korxonalar bilan banklar o'rtasidagi munosabatlarni xo'jalik hisobiga o'tkazish, quyi bank muassasalarining huquq va majburiyatlarini oshirishdan iborat edi.

Mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston hududidagi bank muassasalari SSSR bank tizimi tarkibiy qismiga kirar edi. Shu bilan birga bu banklar sobiq «Ittifoq» bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko'rsata olmasdilar. Sobiq SSSR bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida emissiya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish va xo'jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi markaz hisoblanardi. Davlat banking ham emissiya funksiyalarini ham hisob-kitoblar va 90-yillargacha

kreditlar bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatish funksiyalarini bajarishga mononollashuvi uni davlat boshqaruv va nazorat organiga aylangan edi.

Bank tizimi rivojlanishining ikkinchi davri asosan O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bu davrni quyidagi bosqichlarga bo'lib tahlil qilish mumkin:

– mustaqil O'zbekiston bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichi. Bu 1991-1994 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda 1992 yilning sentyabrgacha O'zbekiston davlat banki sobiq SSSR Davlat bankining respublika bo'limi sifatida faoliyat ko'rsatdi va u kredit resurslarni davlat korxonalarini miqyosida taqsimlash, emission operatsiyalarni olib borish bilan shug'ullandi. Qolgan tarmoq banklar ham davlat mulkiga asoslangan edi.

O'zbekistonda ikki pog'onali bank tizimini tashkil qilishga 1988 yildan boshlab kirishilgan bo'lsa-da, bu maqsadning to'liq amalga oshirilishiga sharoit 1994 yildan boshlab yuzaga keldi. Bu davrga kelib Markaziy bankning tashkiliy tarkibiy asosi, faoliyat olib borish uslubi o'zgardi, tijorat banklarning soni va ular bajaradigan operatsiyalar salmog'i oshib bordi.

Bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichida markazlashgan rejalashtirishda Markaziy bankning mavqei hali ham yuqori edi, sohalarning deyarli hamma qismi davlat tasarrufida edi.

O'zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimining tashkil etilishi tamal toshi 1991 yil 15 fevraldagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi» qonun hisoblanadi. Bu qonunga binoan davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kyerak, u faqat Respublika Oliy Majlisiga hisobot berish o'rinli ekanligi belgilab berildi. Bu qonunni amalga tatbiq etish asosan Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng boshlandi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish yo'lini tanlanganligi bois, birinchi bosqichdagi pul-kredit siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

– Markaziy bank boshchiligida keng tarmoqli tijorat va xususiy banklarni ikki bosqichli bank tizimi shaklida vujudga keltirish;

– Respublika hududida yirik chet el banklarining bo'limlari va vakolathonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;

– Barqaror pul muomalasini ta'minlash, kredit va naqd pul emissiyasini, asossiz o'sishini keskin cheklash;

– O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratish va boshqalar.

Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichida davlat banklarini yangi strukturasi tashkil etish boshlandi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o'z ichiga oldi:

– ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan banklarni tashkil qilish;

– ixtisoslashgan banklarni to'laligicha xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini moliyalashga o'tkazish:

– iqtisodiy tizim doirasida huquqiy va jismoniy shahslar bilan bo‘ladigan kredit munosabatlari uslublari va shakllarini takomillashtirish va boshqalar.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o‘zining kredit tizimidagi markaziy o‘rnini saqlab qolgan holda korxonalar va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib berish funksiyasini mahsus ixtisoslashgan banklarga topshiradi, ya'ni bankning emission faoliyati, kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo‘yildi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir hil pul-kredit siyosatini olib boruvchi muassasalarga aylanadi.

Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: Sanoat Qurilish banki, Kommunal Qurilish va ijtimoiy taraqqiyot banki, Agrarsanoat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Jamg'arma banki xo‘jaliklar bilan banklar o‘rtasidagi aloqalarni tobora yaqinlashtirishda ixtisoslashtirilgan davlat banklari o‘zlarida ma'lum darajada boshqaruvchilik mavqei saqlab qoladilar. Bank tizimini takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarining hususiyatlarini to‘liq ifoda qilolmasdi. Shuning uchun ham, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida bank tizimini takomillashtirishning ikkinchi bosqichi ob'ektiv zaruriyatga aylandi.

O‘zbekistonda bank tizimini tashkil qilishning ikkinchi bosqichi 1994 yildan keyingi davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda bank tizimining takomillashtirilgan faoliyatini belgilab beruvchi bank qonunlari: 1995 yil 21 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi va 1996 yil 25 aprelda «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarga asosan banklar faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berildi va ularning ishlash usullarini takomillashtirish choralari ishlab chiqildi.

Tijorat banklarining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida bank nazorati va monitoringini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish va xalqaro talablarga moslash, yangi schetlar tizimiga o‘tish, chet el banklarining sho‘balarini ochish, to‘lov tizimini takomillashtirish, tijorat banklarining qimmatbaho qog‘ozlar bilan operatsiyalarini rivojlanlantirish, pul va valyuta bozorida banklarning aktiv faoliyatini ta'minlash kabi dolzarb masalalar hozirgi kunda mustaqil bank tizimining rivojlanishi tufayli o‘z echimini topmoqda.

O‘zbekistonda birinchi bank muassasasi 1875-yil Toshkentda ochilgan Rossiya imperiyasi davlat bankning filiali bo‘lgan. 19-asrning oxirida Turkistonda rus kapitali ishtirokidagi O‘rta Osiyo aksiyadorlik banki (1881), Volgakama banki (1893), Rus-Xitoy (Rus-Osiyo) banki (1903), Azov-Don savdo banki (1910), Nijniy Novgorod-Samara banki (1899), Poltava Yer banki (1901)ning filial, bo‘lim va agentliklari faoliyat olib bordi.

Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng barcha bank sovet hokimiyati tomonidan natsionalizatsiya qilindi. O‘zbekistonda bank tizimi 1924-yildan boshlab sobiq SSSR bank tizimining tarkibiy qismi sifatida tashkil qilindi. 1992-yilga qadar SSSR Davlat banki (1923; 1921 — 23-yillarda RSFSR Davlat banki), SSSR Qurilish banki (1959; 1922 — 59-yillarda SSSR Savdo banki), SSSR Tashqi savdo

banki (1924)ning O‘zbekiston idora (kontora)lari respublikadagi bank muassasalari ishiga rahbarlik qildi. SSSRning parchalanishiga qadar O‘zbekistonda mustaqil bank tizimini yaratish maqsadlarida 1991-yil 15-fevralda Respublika Oliy Kengashi sessiyasida respublika hududidagi bank Faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berilgan O‘zbekiston Respublikasining „Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida“gi Qonuni qabul qilindi va shu vaqtdan boshlab respublikaning haqiqiy, mustaqil bank tizimi shakllana boshladi. Sobiq SSSR bankining respublika idoralari mustaqil bank sifatida O‘zR Markaziy banki tomonidan ro‘yxatga olindi.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotni xo‘jalik yuritishning bozor sharoitlariga bosqichma bosqich o‘tkazish dasturiga mos keladi. O‘tgan davrda bank islohotlari davomida milliy bank tizimining 2 bosqichli strukturasi (yuqori bosqichda — Markaziy bank, quyi bosqichda — tijorat banklari) huquqiy jihatdan mustahkamlandi; bankning soni va ular ko‘rsatadigan xizmat turlari ko‘paydi. Xozirda respublikadagi keng tarmoqli banklar zamonaviy talablarga javob beradigan shaklda turli mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlarga hamda aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatmoqda.

### **X1.3. Banklarning funktsiyalari**

Banklarning mohiyati ularning funktsiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Banklarning funktsiyalari ularning nazariy masalalari sifatida e’tirof etiladi. Shu bois ham banklarning mohiyatini yoritishda vujudga kelgan qator mulohazali holatlar ularning funktsiyalarini yoritishda ham mustasno emas. Xususan, iqtisodiy adabiyotlarda banklarning funktsiyalari haqida qator mulohazali va tushunmovchilik holatlari mavjud. Masalan, ayrim manbalarda banklar bajaradigan operatsiyalar ularning funktsiyalari sifatida qayd etiladi<sup>17</sup>. Bu yerda bank faoliyati natijasida ular tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalari nazarda tutiladi. Biroq, shuni ta’kidlash joizki, banklarning barcha operatsiyalari ham ularning funktsiyalari bo‘la olmaydi. Bank funktsiyasi uning ma’lum ko‘rinishdagi faoliyatini ifodalaydigan iqtisodiy kategoriya bo‘lishi lozim. Shunga qaramasdan, ayrim iqtisodiy manbalarda banklar to‘lov aylanmasi, kassaga naqd pullarni qabul qilish va berish, kredit berish, qimmatli qog‘ozlarni saqlash va boshqarish, naqd va naqdsiz ko‘rinishda horijiy valyutani sotish va sotib olish, shuningdek, bank tomonidan bajaraladigan boshqa operatsiyalar ularning funktsiyalari sifatida ta’kidlanadi. Bundan tashqari, iqtisodiy adabiyotlarda banklarning qimmatbaho metallar va buyumlarni saqlash uchun maxsus seyflar berish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning kapitalini shakllantirishda ishtirok etishi, kreditlash uchun resurslarni jalb etish va boshqa shu kabi operatsiyalari ularning funktsiyalari sifatida talqin etiladi. Albatta, bu banklarning pul – kredit siyosatini amalga oshiruvchi muassasa sifatidagi faoliyatini aniqroq tushinishda va ularning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Biroq, ushbu operatsiyalarning barchasi

---

<sup>17</sup> Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред. засл. деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лавшурина. – 5 – е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2007. – С. 251 – 252.

banklarning funktsiyalari bo'lib xisoblanmaydi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, banklarning har – bir operatsiyasini ularning funktsiyalari sifatida e'tirof etadigan bo'lsak, demak zamonaviy banklar 300 dan ortiq funktsiyani bajaradi degan fikr paydo bo'ladi.

Banklarning funktsiyalari haqida gap ketganda, bu jarayonni nafaqat banklar nuqtai nazaridan, balki uning mijozlari manfaatlaridan ham kelib chiqib so'z yuritish lozim. Shu jihatdan banklarning funktsiyalarini o'rganishda ularni quyidagi mezonlariga e'tibor qaratish lozim:

1. makroiqtisodiy darajada, banklar va real sector ishtirokchilari o'rtasida iqtisodiy munosabatlar;

2. banklarning tashkiliy – huquqiy va mulkiy shakli jihatidan amal qilishi (Markaziy bank, tijorat banki, ixtisoslashgan bank va boshqalar).

Banklarning funktsiyalari to'g'risida fikr yuritganda quyidagi masalalarni e'tibordan chetda qoldirish kerak emas. Birinchidan, banklarning funktsiyalari ularning mohiyatini kengroq ochishga xizmat qilishi lozim, ikkinchidan, banklarning funktsiyasi sifatida ta'kidlangan iqtisodiy kategoriya barcha moliyaviy institutlarning xususiyatlariga xos bo'lgan jarayon emas, balki faqat banklargagina xos bo'lgan iqtisodiy kategoriya bo'lishi lozim.

Ma'lumki, banklarning asosiy operatsiyalaridan biri iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etishga qaratilgan. Bu banklarning funktsiyasi bo'la oladimi, degan savol tug'iladi. Markaziy bankda tijorat banklarining majburiy zahiralari jamg'ariladi, banklarda esa aholi va mijozlarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari jamg'ariladi. Iqtisodiyotda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni jamg'arish banklarning qadimiy operatsiyalaridan biri hisoblanadi. Bu yerda asosiy masala shundan iboratki, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni jamg'arish faqatgina banklarga xos bo'lgan operatsiya emas, ushbu operatsiyani jismoniy shahslar yoki boshqa yuridik shahslar ham amalga oshirishi mumkin. Chunki, har qanday sub'ekt u yoki bu ob'ektni moliyalashtirish uchun dastlab ma'lum miqdordagi moliyaviy mablag'larni jamg'arishi lozim. Biroq, masalaga yanayam chuqurroq yondashadigan bo'lsak, banklar ushbu operatsiyani bajarganda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bajaradigan operatsiyalardan jiddiy farq qiladi. Ular asosan quyidagi xolatlarda namoyon bo'ladi:

1. banklar pullarni jalb etganda o'z pullarini emas, balki begona shahslarning mablag'larini jamg'aradi;

2. banklar jamg'argan mablag'larni o'zining ehtiyoji uchun emas, balki boshqa shahslarning ehtiyojlari uchun sarflaydi (qayta taqsimlash asosida).

Banklarning funktsiyalari hususidagi mulohazalarni chuqurlashtirish fikridan yiroq ekanligimizni ta'kidlagan holda, ularning quyidagi funktsiyalari mavjudligini qo'llab – quvvatlaymiz.

**Birinchi funktsiyasi, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni jalb qilish, jamg'arish va ushbu mablag'larni kapitalga aylantirish funktsiyasi.**

Banklarning juda qadimiy funktsiyalaridan hisoblanadi. Banklar jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida o'zlariga jalb qiladi va ushbu mablag'larni samarali yo'nalishlarga joylashtiradi. Albatta, banklardan

tashqari turli investicion fondlar, moliya – sanoat korxonalari ham pul mablag'larini jalb qilish va jamg'arish bilan shug'ullanadi, biroq ularning pul mablag'larini jalb qilish va jamg'arishi bilan banklarnikidan jiddiy farqlar mavjud. Banklarning itiyorida bo'lgan mablag'larning deyarli 90 foizi chetdan jalb qilingan pul mablag'lari hisoblanadi. Bu banklarning asosiy faoliyati boshqa shahslarning mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi anglatish bilan birga, yuqori darajada riskka bog'liqligini keltirib chiqaradi.

**Ikkinchi funktsiyasi, korxonalar va tashkilotlar, davlat, kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi mulkiy shaklidan qa'tiy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Hususan, korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarish jarayonini modyernizatsiyalash va kengaytirish, mehnat taqsimotini takomillashtirish, qo'shimcha aksiyalarni sotib olish va boshqa maqsadlarni amalga oshirishda qo'shimcha moliyaviy mablag'larga kuchli ehtiyoj sezadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bu ehtiyojining asosiy qismi banklarning kredit berish funktsiyasi orqali qondiriladi. Albatta, banklar ushbu funktsiyani amalga oshirishda kreditning tegishli tamoyillariga (muddatlilik, ta'minlanganlik, to'lovlilik, qaytarishlik va maqsadlilik) amal qilgan holda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tijorat asosida taqdim etadi.

**Uchinchi funktsiyasi, xo'jalik sub'ektlari pul hisob – kitoblarini amalga oshirish** hisoblanadi. Iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlari kun davomida bir necha yuz minglab turli darajadagi pul aylanmalarini (asosan naqdsiz pul ko'rinishida) amalga oshiradi. Banklarning bevosita ishtiroki natijasida ushbu o'tkazmalar jo'natuvchidan oluvchiga etib boradi. Shuningdek, banklar pul o'tkazmalari orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapitalni joylashtiradi va kredit liniyalari ochadi. Bularning barchasi banklarning pul hisob – kitoblarni amalga oshirish funktsiyasi orqali bajariladi va tartibga solinadi.

Banklarning pul aylanmasini tartibga solish funktsiyasi orqali Markaziy bank iqtisodiyotdagi tovar massasi va pul massasi o'rtasidagi o'zaro muvozanatlikni ta'minlaydi. Ma'lumki, ushbu muvozanatning buzilishi iqtisodiyotda inflyatsiya darjasini ortib ketishi yoki pul taqchilligini vujudga kelishiga olib keladi. Shu bois ham Markaziy bank o'zining pul – kredit instrumentlari orqali pul aylanmasi uchun zarur bo'lgan to'lov vositasining miqdorini tartibga solib turadi. Ikkinchi funktsiyasi, korxonalar va tashkilotlar, davlat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi mulkiy shaklidan qa'tiy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Xususan, korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarish jarayonini modyernizatsiyalash va kengaytirish, mehnat taqsimotini takomillashtirish, qo'shimcha aksiyalarni sotib olish va boshqa maqsadlarni amalga oshirishda qo'shimcha moliyaviy mablag'larga kuchli ehtiyoj sezadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bu ehtiyojining asosiy qismi banklarning kredit berish funktsiyasi orqali qondiriladi. Albatta, banklar ushbu funktsiyani amalga oshirishda kreditning tegishli

tamoyillariga (muddatlilik, ta'minlanganlik, to'lovlilik, qaytarishlik va maqsadlilik) amal qilgan holda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tijorat asosida taqdim etadi.

**To'lovni amalga oshirishda vositachilik qilishi banklarning to'rtinchi funktsiyasi hisoblanadi.** Banklar iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi tomonlar o'rtasida to'lovlarni amalga oshirish orqali vositachilik ishlarini amalga oshiradi. Banklar orqali bank mijozlarining, aholining, davlatning moliyaviy mablag'lari o'tadi, bank ular o'rtasida to'lovlarni amalga oshiruvchi moliyaviy muassasa sifatida vositachilik vazifasini amalga oshiradi. Banklar vositachilik funktsiyasi orqali nafaqat pullarni bir xo'jalik yurituvchi sub'ektdan ikkinchisiga o'tkazadi, balki iqtisodiyotdagi moliyaviy kapitalni bir tarmoqdan ikkinchisiga o'tishini nazorat qilib boradi va ushbu tarmoqlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kredit mablag'larni muomalaga chiqarish banklarning beshinchi funktsiyasi hisoblanadi.** Ta'kidlash joizki, ushbu funktsiyani barcha banklar bajarish huquqiga ega emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida muomalaga kredit pullarni chiqarish Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Markaziy bank muomalaga chiqarayotgan pul massasini mamlakatda yaratilayotgan tovar massasiga nisbatan muvozanatligini ta'minlashga e'tibor qaratadi. Markaziy bankning ushbu funktsiyani samarali bajarayotganligi milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamligi va inflyatsiya darajasining pastligi belgilaydi. Demak, tijorat banklari kredit pullarini muomalaga emissiya qilish huquqiga ega emas, ular muomaladagi mavjud pul hajmi doirasida faoliyat yuritadi. Muomaladagi pul massasining hajmini o'zgarishiga tijorat banklari bevosita ta'sir qila olmaydilar, bunga faqat Markaziy bankning huquqi mavjuddir.

**Iqtisodiy va moliyaviy maslahatlarni berish banklarning oltinchi funktsiyasi hisoblanadi.** Banklar iqtisodiyotdagi moliyaviy muassasa sifatida mulkiy shaklidan qa'tiy nazar mamlakatdagi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga o'zlarining huquqiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli darajadagi iqtisodiy va moliyaviy maslahatlarni beradi. Albatta, ushbu maslahatlar mijoz va bank o'rtasida tuzilgan tegishli shartnomalar yoki o'zaro kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, banklarning funktsiyalari ularning mohiyatini va bajaradigan operatsiyalarining mazmunini anglashga xizmat qiladi. Banklarning funktsiyalari turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etilishining asosiy sababi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuz berayotgan va rivojlanib borayotgan munosabatlarning doimiy ravishda yangi qirralarining vujudga kelayotganligi bilan izohlanadi .

#### **X.4.Banklarning turlari**

Kapitalistik tuzumning rivojlanishi turli mulkchilik shakllarining rivojlanishiga, moliyaviy mablag'larning alohida moliyaviy muassasalar ixtiyorida markazlashuviga olib keladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'pchilik kapitalistik mamlakatlarda ayrim banklarning milliylashtirilishi yuz berdi. Bu o'z navbatida banklarning mulkiy, huquqiy, funktsiyasi, tabiati va boshqa qator mezonlari

bo'yicha tavsiflanishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy iqtisodiyotda banklar quyidagi mezonlar bo'yicha tavsiflanadi.

Mulkiy jihatdan – davlat banki, aktsiyadorlik banki, koopyerativ bank, hususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma banklariga bo'linadi. Banklarni mulkchilik nuqti nazardan tasniflanganda asosan ularning ustav kapitali tarkibida kimning ulushi 51 foizdan yuqori bo'lsa, bank shu shahslarning nomlarini oladi. Masalan, bank kapitalining asosiy ulushi hususiy yoki kooperativ tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelsa, mazkur banklar xususiy yoki kooperativ bank deya yuritiladi. Davlat banklari kapitalining asosiy ulushi davlatga tegishli bo'ladi, ko'pchilik mamlakatlarda mamlakat Markaziy banklari davlat banki hisoblanadi. O'zbekistonda Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat – aktsiyadorlik Xalq banki, aktsiyadorlik tijorat “Asaka” banklarning kapitali tarkibida asosiy ulush davlatga tegishli bo'lganligi bois mazkur banklar davlat banklari hisoblanadi.

Mamlakatimizda aktsiyadorlik tijorat banklari sifatida, aktsiyadorlik tijorat Agrobank"ni, Aloqabank, Turonbank va boshqalarni keltirish mumkin. Mamlakatimizda yopiq turdagi aktsiyadorlik tijorat banklari mavjud emas<sup>18</sup>.

Xorijiy kapital ishtirokida qo'shma banklar mamlakat qonunchiligiga asosan belgilangan miqdordagi ustav kapitali xorijiy ishtirokchilar tomonidan shakllantirilsa mazkur banklar shu maqomga ega bo'ladi. Mamlakatimizda xorijiy kapital ishtirokidagi banklarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Huquqiy jihatdan – banklar ochiq va yopiq turdagi jamiyatlar sifatida tasniflanadi. Banklarning ustav kapitalini asosiy ulushi yuridik shahslar hissasiga to'g'ri keladi, ushbu banklar ochiq aktsiyadorlik yoki yopiq aktsiyadorlik banklari bo'lishi mumkin. Ochiq yoki yopiq aktsiyadorlik banklari deyilishiga sabab ularning aktsiyalarini sotish va sotib olish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Qatnashchilari o'zlariga tegishli aktsiyalarini o'zga aktsiyadorlarning roziligisiz boshqa shahslarga berishi mumkin bo'lgan aktsiyadorlik jamiyati ochiq aktsiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Aktsiyalari faqat o'z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shahslar orasida taqsimlanadigan aktsiyadorlik jamiyati yopiq aktsiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Mamlakatimizda mulkiy jihatdan tashkil topishidan qa'tiy nazar, faoliyat yuritayotgan barcha banklar ochiq aktsiyadorlik banklari hisoblanadi.

Banklar bajaradigan funktsiyasi (operatsiyalari) jihatidan –emission, tijorat, investicion, ipotekali va jamg'arma banklar sifatida tasniflanadi. Emission banklar mamlakat iqtisodiyotiga pullarni emissiya qilish, shuningdek, kredit muassasalari faoliyatini tartibga solish va pul – kredit siyosatini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Bunday vazifani hozirgi paytda mamlakat Markaziy banklari bajaradi. Markaziy banklar bevosita mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatmaydi va tijorat faoliyati bilan shug'ullanishi ta'qiqlanadi.

Tijorat banklari mamlakat bank tizimi va kredit muassasalari tarkibidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy muassasalar hisoblanadi. Ushbu banklar banklar bajarishi mumkin bo'lgan barcha operatsiyalarni bajaradi. Investicion

---

<sup>18</sup> www.finance.uz

banklarning asosiy faoliyati passiv operatsiyalari natijasida shakllantirgan moliyaviy mablag'larini asosiy ulushini qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishdan iborat bo'ladi. Mamlakatda investitsion banklar faoliyat yuritishi uchun qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan va etarli darajada investitsion muhit yaratilgan bo'lishi lozim.

Ipoteka banklari jismoniy va yuridik shahslarga garov asosida uzoq muddatli kreditlar berish bilan shug'ullanadi. Ipoteka atamasi ko'chmas mulklarni garovga qo'yish natijasida vujudga keladigan moliyaviy munosabat bo'lib, uning o'ziga hos hususiyatlaridan biri garovga qo'yilgan ko'chmas mulk kredit (qarz) oluvchining tasarrufida qolishidir. Odatda ipoteka banklari faoliyatining asosiy yo'nalishini ipoteka krediti berishga qaratilgan bo'lishi lozim. Biroq, amaliyotda ushbu qoida doimo ham o'zining isbotini topmaydi, chunki hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan ipoteka banklari kredit portfeli tarkibida nafaqat ipoteka krediti, balki boshqa maqsadlarga yo'naltirilgan kreditlarning hajmi salmoqli ulushni tashkil etadi. Jamg'arma banklarining asosiy mijozlari jismoniy shahslar bo'lib, ushbu banklarning asosiy faoliyati aholidan muddatli omonatlarni jalb qilishga qaratilgan bo'ladi. Jamg'arma sifatida shakllantirilgan mablag'larni yirik tijorat banklariga, savdo va qurilish tashkilotlariga investitsiya va kreditlar ko'rinishida joylashtiradi.

Banklar bajaradigan operatsiyalarining tabiati jihatidan –universal va ixtisoslashgan banklarga bo'linadi. Universal banklar banklar bajaradigan barcha operatsiyalarni bajaradi. Bunga misol sifatida tijorat banklarini keltirish mumkin. Ixtisoslashgan banklar esa iqtisodiyotning ma'lum tarmog'iga xizmat ko'rsatish va shu tarmoqni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida qator ixtisoslashgan banklar (O'zmevasabzavot, Zaminbank, Yengilsanaot, G'allabank, Pahtabank) tashkil etildi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi natijasida ushbu banklar univyersal banklarga aylantirilib, bir – biriga qo'shib yuborildi yoki universal tijorat banklariga aylantirildi. Shuningdek, ixtisoslashgan banklar, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni bajarish, investicion faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin. Biroq mamlakatimizda, alohida tarmoqqa xizmat ko'rsatadigan yoki operatsiyalarni bajaradigan ixtisoslashgan banklar faoliyat yuritmaydi. Shu bilan birga banklarning faoliyati xizmat ko'rsatadigan tarmoqlari, filiallarining soni, xizmat ko'rsatish doirasi, kapitalining hajmi nuqtai nazaridan ham tasniflanadi.

Xizmat ko'rsatadigan tarmoqlari bo'yicha – banklarning faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ayrim banklar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xizmat ko'rsatadi. Jumladan, avtomobilsozlik, neft' sanoati, qurilish va boshqa sohalar. Masalan, mamlakatimiz Sanoatqurilishbanki ko'plab tarmoqlarga xizmat ko'rsatadi, biroq asosiy faoliyati og'ir sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatishga qaratilgan. Shuningdek, Agrobankning asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi korxonalariga, Asakabank mashinasozlik sohasiga va hokazo.

Filiallarining soni bo'yicha – ayrim banklarda filiallar umuman mavjud emas, ayrimlarida esa mamlakatning barcha hududlarida filiallari mavjud. Mamlakatimizda bunday banklar sirasiga Agrobank, Xalqbank,

Mikrokreditbanklarni kiritish mumkin. Ushbu banklarning mamlakatimiz tumanlarining deyarli barchasida o'z filiallari faoliyat yuritadi. Banklarning filiallari yuridik shaxs sifatida barcha huquq va majburiyatlarga ega bo'lmaydi, ular tegishli nizom asosida bosh bank tomonidan berilgan chegaralangan huquq va majburiyatlar doirasida faoliyat yuritadi.

Xizmat ko'rsatish doirasi bo'yicha – banklar ma'lum hududga, hududlararo, xalqaro darajada mijozlarga xizmat ko'rsatishi e'tiborga olinadi. Buning uchun banklar Markaziy bankning tegishli litsenziyalariga ega bo'lishi talab etiladi. Masalan, mamlakatimizda Markaziy bankning tegishli talablarni bajargan tijorat banklariga milliy valyutada va xorijiy valyutalarda faoliyat yuritishi uchun alohida – alohida litsenziyalar beradi.

Kapitalining hajmi bo'yicha – banklar kichik, o'rta va yirik tijorat banklarga guruhlanadi. Masalan, mamlakatimiz barcha banklari ustav kapitalining 40 foizdan ortig'i TIF Milliy banki hisasiga to'g'ri keladi, yoki mamlakatimizda beshta yirik bankning (TIF Milliy banki, Sanoatqurilishbank, Agrobank, Asakabank, Ipotekabank) kapitali jami banklar kapitalining 85 – 90 foizini tashkil etadi. Yakuniy so'z sifatida ta'kidlash mumkinki, banklarning turlarini ko'pqirraligi, ularning bajaradigan operatsiyalarining sonini ortib borishi jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bularning barchasi tegishli qonun, qoida, tartib va mexanizmlar asosida tartibga solib boriladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, banklarning iqtisodiyotdagi roli nafaqat banklarning o'ziga, balki milliy iqtisodiyotning rivoji va raqobatbardoshligiga bevosita bog'liq. O'z navbatida, iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi mamlakatda barqaror va samarali bank tizimining tashkil etilganligi bilan bevosita bog'liqdir. Bir so'z bilanaytganda, banklar va milliy iqtisodiyot bir – biridan ayri holda rivojlanishining imkoniyati mavjud emas. Ular biri – birini to'ldirgan holda, bir – biriga o'zaro hamohang tarzda rivojlanib va takomillashib boradigan iqtisodiy – moliyaviy sub'ektlar hisoblanadi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Bankning ta'rifini keltiring.
2. Banklar va ularning kelib chiqish asoslarini tushuntiring.
3. Kredit tizimi deb nimaga aytiladi?
4. Kredit tizimining tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
5. Ikki pog'onali bank tizimini tushuntiring.
6. Bank tizimining rivojlanish bosqichlarini tushuntiring
7. Qanday tashkilotlar nobank kredit tashkilotlar deyiladi?
8. Banklarning huquqiy asoslari nimalardan iborat?
9. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlarini tushuntiring.
10. Kredit uyushmalari faoliyatini tushuntiring.

## **XII. Markaziy banki va pul kredit siyosati**

### **XII.1. Markaziy banki faoliyatining asoslari**

Markaziy bank – kredit tizimining bosh banki bo‘lib, mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi. Birinchi markaziy banklar bundan qariyb uch yuz yil oldin tijorat banklarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bular 1668 yilda tashkil bo‘lgan Shved Riks Jiro banki, 1694 yilda tashkil qilingan Angliya banklaridir.

Yevropa mamlakatlarida Markaziy banklar ancha kechroq, asosan XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat ko‘rsata boshlagan. AQShda Markaziy bank funksiyasini 12 federal rezerv bankidan iborat federal rezerv tizimi bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1992 yilning sentyabr oyidan sobiq SSSR davlat bankinging Respublika bo‘limi zaminida paydo bo‘lgan.

Jaxon amaliyotida Markaziy banklar vujudga kelishining ikki asosiy yo‘li mavjud:

Birinchi yo‘l – o‘zoq davr mobaynida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida ularni Markaziy bankka aylanishi. Shu holat 1844 yilda Angliyada, 1848 yilda Fransiyada, 1874 yil Ispaniyada, 1875 yilda Germaniyada (Reyxsbank), 1893 yilda Italiya Markaziy banklari tashkil bo‘lishi bilan bog‘liq.

Ikkinchi yo‘l – bir yo‘la Markaziy bank – emission markaz sifatida tashkil qilingan banklar. Bunday banklarga AQShning federal banklari, 1913 yildan tashkil etila boshlangan Lotin Amerikasi mamlakatlari banklari, Avstriya Markaziy banki va boshqalarni kiritish mumkin.

Markaziy bank iqtisodiyotni boshqarishda va bank tizimini nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham uning faoliyati uning Ustaviga nisbatan yuqori kuchga ega bo‘lgan qonun bilan tartibga solinadi. Markaziy bank alohida statusga ega bo‘lgani holda butun bank tizimini, davlat organlarini nazorat qilib uning faoliyati, vazifalari va yuklatilgan majburiyatlar uni tijorat faoliyati chegarasidan chiqadi.

**Markaziy banklarning kelib chiqish tarixi.** Markaziy bank – mamlakatdagi narx darajasi, bank tizimining barqarorligi hamda to‘lov tizimining barqaror faoliyati uchun mas‘ul bo‘lgan muassasadir. Buning uchun pul-kredit siyosatini olib boradi, tijorat banklar, to‘lov tashkilotlar, hamda bir necha nobank kredit tashkilotlar (MKT, lombarlardlar va boshqalar) faoliyatini litsenziyalaydi, tartibga soladi va nazorat qiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida markaziy (emitent) va tijorat banklari o‘rtasida farq bo‘lmagan, lekin pul-kredit tizimi rivojlangan sari bir necha yirik tijorat banklarida banknot emissiyasini markazlashtirish jarayoni yuz bergan, natijada banknotlarni chiqarish monopol huquqi bitta bankka tegishli bo‘lib qolgan.

Markaziy banklarning paydo bo‘lishi XIX asrning o‘rtalariga va XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi, chunki bu davrda ko‘pchilik hukumatlar muomaladagi pul masalasini nazorat qilish muayyan banklar bo‘ynida bo‘lishni qonunlashtirgan.

Markaziy bank birinchi marta qayerda va qachon paydo bo'lganini aytish qiyin. Ayrim iqtisodchilar markaziy bankning vazifalarini birinchi bo'lib bajargan bankning tashkil topgan sanasi deb hisoblaydilar. Bu mezonga Riksbank (Shvetsiya banki bo'lib, 1668-yilda tashkil etilgan) mos keladi. Angliya banki 1694-yilda tashkil topgan. Fransiya banki esa 1800-yilda.

Markaziy banklar asosan quyidagi to'rtta funktsiyani bajaradi:

1. banknotalar emissiyasi;
2. pul – kredit munosabatlarini tartibga solish;
3. banklarning banki;
4. hukumat banki.

**Banknotalarni emissiya qilish** Markaziy bankning eng asosiy va dastlabki funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, muomaladagi pul massasi hajmini oshirish yoki kamaytirish aynan Markaziy bankning banknotlarni emissiya qilish funktsiyasi bilan bog'liq bo'lib, uning hajmi iqtisodiyotdagi pul massasining hajmi bilan belgilanadi. Ya'ni, iqtisodiyotdagi pul massasi va tovar massasi o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni ta'minlanishi milliy valyutaning barqarorligi va to'lov qobiliyatining mustahkamligiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi.

**Markaziy bankning pul – kredit munosabatlarini tartibga solish** funktsiyasining asosiy maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu funktsiya qator pul – kredit instrumentlari orqali amalga oshiriladi.

Ushbu instrumentlar sifatida:

- a) tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zahira siyosati;
- b) tijorat banklarini qayta moliyalash siyosati (hisob stavkasi);
- s) ochiq bozordagi siyosati;
- d) valyuta va depozit siyosatlarini keltirish maqsadga muvofiq.

**Markaziy bank banklarning banki sifatida** mamlakatdagi barcha kredit muassasalariga litsenziya beradi va ularni qaytarib oladi, shuningdek, tegishli iqtisodiy me'yorlar asosida kredit muassasalari faoliyatini tartibga solib, ularning ustidan tegishli nazoratni amalga oshiradi.

**Markaziy bank hukumatning banki** funktsiyasini bajarishda asosiy e'tibor hukumatning oltin va valyuta zahiralari saqlash va ularni tasarruf qilish, shuningdek, davlat byudjeti taqchilligini qoplash maqsadida tegishli moliyaviy yordamni (kredit) berishga qaratiladi.

**Iqtisodiy normativlar** – Markaziy bank tomonidan belgilanadigan pul aylanmasini boshqarish va bank faoliyatini tartibga solish uchun normativlardir. Masalan, ularga majburiy zaxira me'yori, likvidlik koeffitsenti, kapitalning yetarliligi va boshqalar kiradi.

Millatlararo markaziy banklar ham mavjud bo'lib bunga Yevropa markaziy bankini misol qilib keltirish mumkin..

Yevropa markaziy banki - yevro hududining markaziy banki hisoblanadi. 1998 yil 1 iyunda tashkil topgan. Uning shtab-kvartirasi (qarorgoxi) Germaniyaning Frankfurt-Mayn shahrida joylashgan. Uning boshqaruv organi tarkibiga Yevropa

ittifoqiga a'zo bo'lgan barcha davlatlarning vakillari kiradi. Bank Yevropa ittifoqining boshqa organlaridan butunlay mustaqil.

Kapital tashkil etish shakliga ko'ra markaziy banklar quyidagilarga bo'linadi: davlat, aksioner, aralash.

Davlat markaziy banklarida kapital davlat hisobidan shakllantirilgan (masalan, bank tashkil etilgan paytida, Germaniya federal banki kabi, yoki Buyuk Britaniya va Fransiya Markaziy banki kabi, davlat, mavjud bo'lgan tijorat bankni milliyashtirganidan keyin).

Aksionerlik markaziy banklarda kapital aksiyadorlar hisobidan shakllanadi (masalan, AQSh Federal zaxira tizimining kapitali tijorat aksiyadorlik banklar hisobidan shakllangan).

Aralash markaziy banklarda kapitalning bir qismi davlat tomonidan, qolgan qismi esa xususiy aksiyadorlar tomonidan shakllanadi (masalan, Yaponiya bankida davlat 55% aksiyalarga egalik qiladi).

Turli mamlakatlarda markaziy banklarning nomlari uchun turli atamalar ishlatiladi: markaziy, davlat, zaxira, milliy va boshqalar: "Milliy bank" nomi Abxaziya, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Ukraina va Shveysariyalarda qabul qilingan; "Markaziy bank" - Armaniston, Ozarbayjon, Eron, Rossiya, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekistonda; "Xalq banki" – Bolgariya va Xitoyda; "Bank" nomining o'zi - Isroil (Isroil banki), Kanada, Litva, Latviya, Estoniya va Yaponiyada; yoki, Singapurning pul-kredit boshqarmasi, Avstraliya zaxira banki, AQSh Federal zaxira tizimi va boshqalar.

Federal zaxira tizimi (Federal Reserve System, FZT, Federal zaxira, FED) – 1913 yil 23 dekabrda Amerika Qo'shma Shtatlari markaziy bankning vazifalarini bajarish va tijorat bank tizimi ustidan markazlashtirilgan nazoratni amalga oshirish uchun maxsus yaratilgan mustaqil federal agentligidir. Federal zaxira tizimiga yirik shaharlarda joylashgan 12 ta federal zaxira banklari kiradi.

**Valyuta va depozit siyosati.** Markaziy bank valyuta siyosatining asosiy maqsadi milliy valyuta kursining xorijiy mamlakatlar valyutasi kursiga bo'lgan nisbatining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Markaziy bank o'zining vakolati doirasida hukumat bilan hamkorlikda davlatning valyuta munosabatlari bo'yicha siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Mamlakatda valyuta siyosatining joriy va kelgusi davrdagi holati yuzasidan rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi. Bularning ichida eng asosiylari sifatida mamlakatning to'lov balansi, hukumatning valyuta munosabatlari bo'yicha ichki va tashqi pul –kredit siyosati va milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlashning tartibini ta'kidlash mumkin.

Markaziy bank valyuta siyosatini olib borishda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Tijorat banklariga xorijiy valyutalarda operatsiyalarni amalga oshirish uchun bir marotabalik va Bosh litsenziyalarni beradi hamda qaytarib oladi;

2. Vakolatli tijorat banklarining o'zlari va mijozlari nomidan chet el valyutalarini sotish va sotib olishning miqdorini, ya'ni ochiq valyuta pozitsiyalarini belgilaydi.

Ochiq valyuta pozitsiyasi deganda, bankning tegishli chet el valyutasidagi aktivlarini uning majburiyatidan ortiqchaligi (uzun valyuta pozitsiyasi) yoki ushbu aktivlarning majburiyatdan pastligi (qisqa valyuta pozitsiyasi) tushuniladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi valyuta bozorida chet el valyutalarini sotish va sotib olishni tartibga solib boradi;

4. Tijorat banklarida chet el valyutasi va to‘lov hujjatlari hamda boshqa qimmatliklar bo‘yicha kassa operatsiyalarini tashkil etish va amalga oshirishning tartibini belgilaydi;

5. Vakolatli banklarda norezedentlarning O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi hisob – varaqlarining yuritish tartibini belgilaydi;

6. Vakolatli banklarda rezident va norezedent (yuridik va jismoniy shahs)larga chet el valyutasida hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibini belgilaydi;

7. O‘zbekiston Respublikasida korxonalar va tashkilotlarning chet el valyutalarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash va kassa intizomiga rioya etishni tartibga soladi;

8. Investicion loyihalarni erkin valyutalarda kreditlashning tartibini belgilaydi.

Markaziy bank valyuta siyosatini amalga oshirishda valyuta intyervenciyasidan keng miqiyosda foydalandi. Valyuta intyervenciyasi –bu Markaziy bankning milliy valyuta kursi va pulning yalpi taklif va talabiga ta'sir etishi uchun moliya bozorida chet el valyutasini sotish va sotib olish bilan bog'liq operatsiyasidir. Markaziy bank depozit siyosati orqali mamlakat resurs bozori, tijorat banklari depozit siyosati va depozit operatsiyalari holatiga ta'sir ko'rsatadi. Odatda Markaziy bank tijorat banklari depozit operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarining eng yuqori darajasini belgilaydi. Shuningdek, tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqish, depozit siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha asosiy mezonlarni aniqlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy banklarning vujudga kelishi va ularning faoliyatini tashkil etilishi ijtimoiy – iqtisodiy jarayon bo'lib, dastlabki Markaziy banklar tijorat banklari bazasida tashkil topgan, ularning faoliyati va bajaradigan funktsiyalari doimiy ravishda takomillashib kelmoqda.

## **XII.2. Ўзбекистон Марказий банки, тақсади ва вазифалари**

O‘zbekiston Markaziy bankining dastlabki nomi O‘zbekiston SSR Davlat banki bo‘lgan va O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun asosida faoliyat ko‘rsatgan.

So‘ngra 1991 yil 30 sentyabrda Konstitusiyaga o‘zgartirishlar kiritilgach, O‘zbekiston SSR Davlat banki O‘zbekiston Respublikasi Davlat banki deb, 1992 yil 2 iyulda esa O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki deb nomlangan.



O‘zbekiston Markaziy bankining huquqiy maqomi, vazifalari, funksiyalari, vakolatlari, tashkil etish va faoliyat ko‘rsatish tamoyillarini belgilovchi hujjatlari bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (XXV bob, 124-modda), «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida», «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun va boshqa rasmiy qonun hujjatlaridir.

Markaziy bankning barcha faoliyat turlari,,O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida“gi qonundaaniq va ravshan qilib belgilab qo‘yilgan bo‘lib,,,O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida“gi qonuni 2019 yil 11 noyabrda O‘RQ-582-sonli qonunga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan bo‘lib,11 bob va 72 moddadan iborat<sup>19</sup>. Qonunning 1995 yilda qabul qilingan tahriridan farqli o‘laroq, yangi tahririni ishlab chiqishda Markaziy bankning iqtisodiyotda narxlar barqarorligi, bank tizimi va to‘lov tizimlari faoliyati barqarorligini ta‘minlash zaruriyati hisobga olingan. Mazkur Qonunga muvofiq Markaziy bank Boshqaruvi kelgusi yil uchun pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlarini, shu jumladan, likvidlikni taqdim etish va jalb qilish parametrlari, Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalari hamda asosiy foiz stavkasi darajasini belgilaydi va tasdiqlaydi. Shuningdek, majburiy zaxira talablari me‘yorlari, ajratiladigan kreditlar bo‘yicha ta‘minot turlari ro‘yxati, tizimli muhim banklar uchun prudensial me‘yorlar va boshqa vakolatlarni o‘rnatadi.

Markaziy bank Boshqaruvi tarkibi, a‘zolari soni va vakolatlariga o‘zgartirishlar kiritildi. Endilikda Markaziy bank Boshqaruvi to‘qqiz a‘zodan, ya‘ni Boshqaruvi Raisi hisoblanuvchi Markaziy bank Raisi, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, shuningdek, ikki nafar mustaqil a‘zodan iborat.

Markaziy bank Boshqaruvi tarkibi, a‘zolari soni va vakolatlari ham qonunda belgilangan bo‘lib, Markaziy bank Boshqaruvi to‘qqiz a‘zodan, ya‘ni Boshqaruvi Raisi hisoblanuvchi Markaziy bank Raisi, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, shuningdek, ikki nafar mustaqil a‘zodan iborat(avvalgi qonun bo‘yicha boshqaruv 11 kishidan iborat bo‘lgan)<sup>20</sup>.

Mazkur qonunga ko‘ra, Markaziy bank tijorat faoliyati bilan shug‘ullanishi, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarga moliyaviy yordam ko‘rsatishi va ularning kapitalini shakllantirishda ishtirok etishi ta‘qiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 30 - moddasiga asosan Markaziy bank va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari barcha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan ozod qilinadi, yagona ijtimoiy to‘lov bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tarkibiga quyidagilar kiradi:

Markaziy bankning 14 ta hududiy bosh boshqarmalari, shu jumladan o‘n ikkita hududiy bosh boshqarmalar, Markaziy bankning Toshkent shahri bo‘yicha bosh boshqarmasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy territorial boshqarmasi;10 ta tasarrufdagi tashkilotlar.

---

<sup>19</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz) [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>20</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

Markaziy bank mamlakat banklarining banki hisoblanib, to'g'ridan –to'g'ri aholi va mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatmaydi. "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonunning 31 – moddasida belgilangan holatlar bundan mustasno. Unga ko'ra Markaziy bank, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ayrim davlat qo'mitasi va muassasalari, shuningdek, o'zining huzuridagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning asosiy hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida hisob – kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

- banklar, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari va garovhonalarning faoliyatini licenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari va garovhonalarni nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni licenziyalash;

- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin – valyuta rezyervlarini, kelishuvga binoan hukumat rezyervlarini qo'shgan holda, saqlash va tasarruf etish;

- mamlakatda yagona emission organ vazifasini amalga oshiradi.

Markaziy bank o'tgan yil faoliyatini mustaqil auditor tashkilotlar tekshiruvidan keyin hisobotni keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmasdan Oliy Majlis Senati ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi va hisobot beradi.

Markaziy bankning oily organi uning Boshqaruvidir. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, bankni boshqaradi. Boshqaruv to'qqiz kishidan iborat bo'ladi. Boshqaruv tarkibiga Markaziy bank Raisi, uning o'rinbosarlari, shuningdek, bankning asosiy bo'linma rahbarlari kiradi.

Boshqaruvning majlislari oyiga kamida bir marta o'tkazib turiladi, boshqaruv majlisida quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi va hal etiladi:

- monetar siyosatning asosiy yo'nalishlarini, shu jumladan, Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari ko'lamini, Markaziy bankning hisob va ssuda berishdagi foiz stavkalari hamda banklarning Markaziy bankdagi majburiy rezyervlari normasini belgilaydi;

- Markaziy bankning normativ hujjatlarini tasdiqlaydi;

- Markaziy bankning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki masalasini hal qiladi;

- banknotlar va tangalarning nominal qiymati va namunalarini, shuningdek, pul belgilarini muomaladan chiqarish shartlarini belgilaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beriladigan ssudalar miqdori va shartlarini tasdiqlaydi;

- banklar uchun iqtisodiy normativlarni va kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari hamda garovhonalalar uchun moliyaviy operatsiyalar o'tkazish qoidalarini tasdiqlaydi, shuningdek ularga rioya etilishini ko'rib chiqadi;

- bank faoliyati bilan shug'ullanish uchun licenziyalar berish va ularni chaqirib olish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari va garovhonalalar faoliyati, shuningdek qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarish licenziyalanishini amalga oshiradi;

- Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasini belgilaydi;
- Markaziy bank muassasalari hamda korxonalarini tashkil etadi, qayta tuzadi va tugatadi;

- Markaziy bank harajatlari va daromadlari smetasini tasdiqlaydi;
- Markaziy bankning yillik va moliya hisobotlarini ko'rib chiqadi;
- Markaziy bankning tarkibiy bo'linmalari, muassasalari va korxonalari rahbarlarini tasdiqlaydi;

- Markaziy bank tarkibiy bo'linmalari, uning muassasalari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari hamda ma'ruzalarini tinglaydi;

- Markaziy bank hodimlarini ishga yollash, ishdan bo'shatish, ularning mehnatiga haq to'lash shartlarini, shuningdek ularning kreditlar olishi va akciyalar sotib olishi tartibini qonun hujjatlariga muvofiq belgilaydi;

- Markaziy bank vakolati doirasidagi boshqa masalalarni ko'rib chiqadi va hal qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Markaziy banki mamlakat banklarining banki hisoblanib, milliy valyutaning barqarorligiga, kredit muassasalarining moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat yuritishiga mas'ul bo'lgan davlatning moliyaviy tashkiloti hisoblanadi.

### **XII.3.Pul kredit siyosatining majburiy zaxiralash usuli**

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalar ichida eng muhimlaridan biri uning pul – kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblanadi.

Pul – kredit siyosatining qator usullari mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zahira siyosati;
- markaziy bankning asosiy stavkasi(qayta moliyalash siyosati);
- ochiq bozordagi siyosati;
- Inflyatsion targetlash.

Iqtisodiy adabiyotlarda va xalqaro bank amaliyotida Markaziy banklarning pul – kredit siyosati monetar siyosat, monetar instrumentlar tarzida ham yuritiladi. Biroq, Markaziy bankning pul – krediti siyosati qanday tarzda yuritilishiga qaramasdan, ularning maqsadi bitta masalaga, ya'ni mamlakat milliy valyutasining barqarorligini ta'minlashga qaratiladi.

Xalqaro bank amaliyoti va xo‘jalik yuritish tajribasidan ma‘lumki, milliy valyuta sotib olish qobiliyatining tushib ketishi iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining oshishiga va mamlakatda ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi va aksincha. Ya‘ni, inflyatsiya darajasining pasayishi esa mamlakatda ishsizlik darajasining oshishiga olib keladi.

Markaziy bank aynan shu iqtisodiy jarayonni milliy iqtisodiyotga salbiy ta‘sir etmaydigan darajada ushlab turish va milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash uchun pul – kredit siyosati usullarini amaliyotga joriy etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking pul – kredit siyosati “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunning 23 – moddasiga binoan kelgusi yil uchun mamlakat monetar siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida ishlab chiqiladi.

Xususan, ushbu siyosat:

- iqtisodiy kon'yunkturaning tahlili va istiqbol ko‘rsatkichlarini;
- muomalada bo‘lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini;
- pul massasi yillik o‘shish sur‘atining aniq maqsadli ko‘rsatkichlarini, shu jumladan, Markaziy bank ichki aktivlarining o‘zgarishini;
- valyuta hamda foiz siyosatining asosiy yo‘nalishlarini;
- pul – kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

Majburiy zaxira (rezerv) talablari (inglizcha – “Reserve requirements”) – pul-kredit siyosatining an‘anaviy instrumenti hisoblanib, Markaziy bankning tijorat banklariga o‘rnatgan majburiy zaxiralar siyosati hisoblanadi. Majburiy zaxira (rezerv) talablari AQSh Federal Zaxira Tizimi (Federal Reserve System) tomonidan mamlakat bank tizimining likvidliligiga ta‘sir etish maqsadida 1863 yilda ishlab chiqilgan<sup>1</sup>. Bugungi kunda, dunyoning ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari (AQSh, Shveysariya, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Braziliya va boshqalar)da majburiy zaxira talablari qo‘llanib kelinmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ham majburiy zaxira talablari pul massasini tartibga solish hamda mamlakat bank tizimining likvidliligiga ta‘sir etishning muhim va ta‘sirchan vositasi sifatida amaliyotda qo‘llanilmoqda. Mazkur amaliyot tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda alohida ochilgan hisobvaraqqa majburiy tartibda depozitga pul mablag‘lari o‘tkazish orqali amalga oshiriladi<sup>2</sup>. Ya‘ni, majburiy rezervlar tijorat banklari tomonidan jalb qilingan milliy va xorijiy valyutadagi depozit mablag‘larga nisbatan o‘rnatilgan me‘yorlardan kelib chiqib, Markaziy bankdagi maxsus hisobvaraqqa o‘tkazilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘larini anglatadi. Xususan, ushbu instrument Markaziy bank tomonidan quyidagi maqsadlar uchun qo‘llaniladi:

- tijorat banklarining likvid mablag‘lari hajmini muvofiqlashtirgan holda, kreditlash faolligiga ta‘sir ko‘rsatish;
- tijorat banki bankrot bo‘lgan sharoitda uning majburiyatlari yuzasidan hisoblashish;

- pul massasining o'sish sur'atlarini tartibga solgan holda, pul massasining multiplikativ ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatish.

Bunda, Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 25 aprelda 3002-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlari to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, Markaziy bank tijorat banklari tomonidan Markaziy bankka o'tkazilishi lozim bo'lgan majburiy rezervlar hajmi (normativ miqdori)ni hamda depozitga o'tkazish tartibini belgilaydi.

O'z navbatida, majburiy rezervlarning normativ miqdorini hisoblashda Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining rezerv shakllantiriladigan majburiyatlariga nisbatan majburiy zaxira me'yorlari belgilangan bo'lib, 2019 yil 1 iyuldan:

milliy valyutadagi depozitlar uchun - 4%;

xorijiy valyutadagi depozitlar uchun - 14%<sup>3</sup> etib belgilangan bo'lib, majburiy zaxira rezervlari har ikkala valyuta uchun ham milliy valyutada shakllantiriladi.

### Majburiy zaxiralar stavkalari<sup>21</sup>

Majburiyat turi	2018 yil 1 iyungacha		2018 yil 1 iyundan	
	muddati	Normativ-lar, % da	muddati	Normativ-lar, % da
Yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari	3 yildan ortiq	10,5	2 yildan ortiq	0
	2 yildan 3 yilgacha	12		
	1 yildan 2 yilgacha	12	1 yildan 2 yilgacha	7
	Boshqa depozitlar	15	Boshqa depozitlar	14
Yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari	3 yildan ortiq	10,5	2 yildan ortiq	0
	1 yildan 3 yilgacha	12	1 yildan 2 yilgacha	8
	Boshqa depozitlar	15	Boshqa depozitlar	16
Jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari	2 yildan ortiq	0	2 yildan ortiq	0
	1 yildan 2 yilgacha	0	1 yildan 2 yilgacha	2
	Boshqa depozitlar	0	Boshqa depozitlar	4
Jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari	2 yildan ortiq	0	2 yildan ortiq	0
	1 yildan 2 yilgacha	0	1 yildan 2 yilgacha	3
	Boshqa depozitlar	0	Boshqa depozitlar	6

<sup>21</sup> www.cbu.uz

## 2019 yil 1 iyuldan majburiy zaxiralar stavkalari<sup>22</sup>

<b>Majburiyatning valyuta turi</b>	<b>muddati</b>	<b>Yangi normativlar</b>	<b>Amaldagi normativlar</b>
Milliy valyutada	2 yildan ortiq	4%	0 %
	1 yildan 2 yilgacha		2 %
	Boshqa depozitlar		4 %
Chet el valyutasi	2 yildan ortiq	14%	0 %
	1 yildan 2 yilgacha		7 %
	Boshqa depozitlar		14 %

Majburiy rezervlarning normativ miqdori — banklar tomonidan Markaziy bankka o‘tkazilishi lozim bo‘lgan majburiy rezervlar hajmi bo‘lib, bunda majburiy rezervlarning normativ miqdori rezerv shakllantiriladigan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi o‘rtacha miqdoriga majburiy rezervlar normativini ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Markaziy bank ushbu siyosati orqali, birinchidan banklarning resurslarini chegaralashi natijasida iqtisodiyotda pul massasini tartibga soladi, ikkinchidan bank iqtisodiy jihatdan to‘lovga layoqatsiz holatiga tushib qolgan paytda, qisman bo‘lsada uning mijozlarining manfaatlarini himoya qiladi.

Majburiy zahiralarning ob'ektlari bo‘lib, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag‘lari hisoblanadi. Banklar chet – el valyutasidagi mablag‘lar, jismoniy shahslar depozitlari, depozit va jamg‘arma syertifikatlari, ipoteka obligatsiyalari chiqarish yo‘li bilan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan zahiralarni amalga oshirmaydi.

Banklar yoki ularning filiallari har bir oy boshlangandan so‘ng uch ish kuni mobaynida Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasiga bank rahbari va bosh buhgaltyeri imzolagan majburiy zahiralari hisob – kitobini taqdim etadi. Bunda bankning jalb qilingan mablag‘larining hajmi oshishi natijasida zahiraga qo‘shimcha o‘tkazish yoki jalb qilingan mablag‘lar hajmining kamayishi natijasida oldin zahiraga o‘tkazilgan summaning bir qismini qaytarish zarurligi ko‘rsatiladi.

Markaziy bankning hududiy Boshqarmalari har oyning 8 – kunigacha banklar tomonidan majburiy zahiralarni deponentlashga doir talablar bajarilishi to‘g‘risida hisob – kitobni Markaziy bankka taqdim etadi.

Tijorat bankida majburiy zahiralari summasi 10309 – «Markaziy bankdagi majburiy zahira hisobvarag‘i» da hisobga olinadi. Markaziy bankda esa ushbu summa 21312 – hisobvaraqa yuritiladi.

Bundan tashqari, o‘rtachalash koeffitsienti va majburiy rezervlarning o‘rtachalash tirilgan miqdori kabi tushunchalar hamda ularni amaliyotda qo‘llashdan ko‘zlangan pirovard maqsadlar xususida ham to‘xtalib o‘tsak.

O‘rtachalash koeffitsienti — majburiy rezervlar normativ miqdorining Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘ida saqlanadigan o‘rtachalash tirilgan

<sup>22</sup> www.cbu.uz

miqdorini aniqlashda foydalaniladigan qiymati 0 dan 1 gacha bo'lgan koeffitsient hisoblanadi.

Majburiy rezervlarning o'rtachalashtirilgan miqdori — banklar tomonidan majburiy rezervlarning normativ miqdoriga nisbatan o'rtachalash koeffitsientini qo'llash orqali hisoblangan hamda banklarning Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlarida saqlash davri mobaynida saqlanishi lozim bo'lgan o'rtacha hisobdagi pul mablag'larining eng kam miqdoridir.

O'zbekistondagi joriy makroiqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, tijorat banklarining likvidligini samarali tartibga solishda pul-kredit instrumentlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, bank tizimi likvidligini qo'llab-quvvatlash va to'lov tizimining barqaror ishlashini ta'minlashda majburiy rezervlash instrumentining samaradorligini oshirish maqsadida 2020 yilning 15 iyunidan boshlab majburiy rezervlar miqdoriga nisbatan amaldagi 0,35 o'rtachalash koeffitsienti 0,75 gacha oshirildi.

Bunda majburiy rezervlarning normativ miqdoriga nisbatan o'rtachalash koeffitsientini belgilash orqali Markaziy bankka o'tkazilishi lozim bo'lgan majburiy rezervlar miqdorining 75 foizini banklarning vakillik hisobvarag'ida qoldirishga ruxsat etiladi. Bank tizimiga taqdim etilgan ushbu likvidlik, birinchi navbatda to'lovlarning uzluksizligini ta'minlaydi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar uchun resurs bazasi sifatida foydalaniladi. O'z navbatida, transmission mexanizmlar orqali pul bozorini yanada faollashtirgan holda bank tizimidagi qisqa va o'rta muddatli foiz stavkalarining pasayishiga xizmat qiladi.

Markaziy bank kelgusida bank tizimidagi likvidlikning joriy holati tahlilidan kelib chiqqan holda o'rtachalash koeffitsientini o'zgartirib borishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, majburiy zaxiralash instrumenti Markaziy bank pul-kredit siyosatining tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti bo'lgan minimal likvidlik darajasini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, bank tizimidagi likvidlik darajasini boshqarish va shu orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda keng foydalaniladi.

#### **XII.4. Maarkaziy bank asosiy stavkasi (Тижорат банкларини қайта молиялаш сиёсати)**

Bozor iqtisodiyotining doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib borishi iqtisodiyotda qo'shimcha pul resurslariga bo'lgan talabni keltirib chiqaradi. Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining moliyaviy resurslariga bo'lgan talabini iqtisodiyotda vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini o'ziga jalb qilish orqali qondiradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ushbu talabining o'z vaqtida va past kredit foizlari asosida ta'minlanmasligi mamlakat iqtisodiyotining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bu jarayonni iqtisodiyotda pul taqchilligi sifatida ham izohlash mumkin. Bir jihatdan, iqtisodiyotda vujudga kelgan pul taqchilligi milliy valyutaning inflyatsiya darajasini pasayishiga olib keladi, lekin iqtisodiyotda pul

taqchilligi darajasining ortib borishi ishlab chiqarish sur'atining pasayishi va ishsizlik darajasining oshishi kabi havfli ijtimoiy – iqtisodiy tanglikni keltirib chiqaradi. Markaziy bank aynan mana shunday ijtimoiy – iqtisodiy havfni tijorat banklarining qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini o'zining asosiy stavkasi (qayta moliyalash) siyosati orqali bartaraf etadi. Ya'ni, Markaziy bank tijorat banklariga arzon moliyaviy resurslarini berishi orqali iqtisodiyotda pul massasi va tovar massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Demak, Markaziy bank o'zining asosiy stavkasi (qayta moliyalash) siyosati orqali mamlakatdagi pul resurslari bozoridagi foiz stavkasiga ta'sir etib, miliy valyutaning barqarorligini mustahkamlaydi. Chunki asosiy stavkasi (qayta moliyalash stavkasi)ning pasaytirilishi iqtisodiyotda pul massasining ortishiga, aksincha uning oshirilishi esa tijorat banklarining pul resurslariga bo'lgan talabini kamayishi natijasida iqtisodiyotda pul massasining pasayishiga olib keladi.

Markaziy bank asosiy stavkasi (qayta moliyalash) orqali faqat pul bozoriga emas, balki mamlakat fond bozoriga ham ta'sir o'tkazadi. Asosiy stavkasining ortishi pul bozoridagi depozit mablag'larning foizini va bank krediti foizining oshishiga olib keladi. Pul bozorida deposit mablag'larning va bank krediti foizining ortishi o'z navbatida fond bozorida qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabning pasayishiga va ularning taklifini ortishiga olib keladi. Chunki pul bozorida depozit mablag'larga to'lanadigan foizlar miqdorining ortishi pul bozori ishtirokchilarini to'g'ridan – to'g'ri moliyalashtirishga bo'lgan manfaatdorligini oshiradi.

Shunday qilib, asosiy stavka iqtisodiyotdagi foiz stavkalari darajasiga, shuningdek, aholi va biznesning iste'mol va investitsion (sarmoya kiritish) qarorlariga ta'sir ko'rsatgan holda ichki talab va inflyatsiya darajasi o'zgarishida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy stavka darajasi Markaziy bank boshqaruvi majlislarida pul-kredit siyosati sharoitlari, joriy va kutilayotgan inflyatsiya darajasi hamda makroiqtisodiy holatni inobatga olgan holda belgilanadi. Odatda, agar inflyatsiya darajasi ko'tarilsa, Markaziy bank ham asosiy stavkani ko'taradi. Agar inflyatsiya darajasi pasaysa, bunda Markaziy bank asosiy stavkani pasaytiradi.

Markaziy bank asosiy stavkani o'zgartirishga qaror qilsa, bozorni mumkin bo'lgan o'sish yoki pasayish haqida avvaldan xabardor qiladi.

O'z navbatida, tijorat banklari asosiy stavkaning traektoriyasini kuzatib, pul bozoridagi likvidlik yaqin kelajakda arzon yoki qimmatlashishini tushunadilar. Tabiiyki, bu esa, banklarni o'z maxsulotlari va xizmatlari narxlarini o'zgartirishga undaydi (masalan, aholi va tadbirkorlardan jalb etiladigan omonatlar va ularga ajratiladigan kreditlar bilan bog'liq xarajatlar).

Agar iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining o'sish sur'ati jiddiy tezlashsa va Markaziy bank asosiy stavkani ko'tarsa, ushbu holat banklar tomonidan depozit va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirish ehtimolini yuzaga keltiradi. Bu esa, banklararo (joriy likvidlikni ta'minlash maqsadida banklar bir-birlariga pul mablag'larini ma'lum bir foiz evaziga taqdim etadigan bozor) va umuman olganda pul bozorida mablag'larni jalb etish bilan bog'liq xarajatlarni oshishiga olib keladi.

Inflyatsiya darajasi hamda asosiy stavkaning pasayishi banklararo pul bozorida pul mablag'larini jalb etish arzonlashishiga, bu esa, yuqori bo'lmagan foiz stavkalarida kreditlar ajratish orqali aholi va tadbirkorlar uchun moliyaviy manbalarning maqbullashishiga sabab bo'ladi.

*Mamlakatimizda 2020 yilning 11 sentabrdan boshlab asosiy stavka 14% ni tashkil etadi.*

### 1994-2021 yillar bo'yicha asosiy stavka me'yorlari<sup>23</sup>

t/r	Yillar bo'yicha	Foizda (%)
1.	11.09.2020 – bugungi kungacha	14
2.	15.04.2020 -11.09.2020	15
3.	25.09.2018 -14.04.2020	16
4.	28.06.2017 -24.09.2018	14
5.	01.01.2015 – 27.06.2017	9
6.	01.01.2014 -31.12.2014	10
7.	01.01.2011 – 31.12.2013	12
8.	15.07.2006 – 31.12.2010	14
9.	21.12.2004 – 14.07.2006	16
10	05.07.2004 – 20.12.2004	18
11	10.09.2003 – 04.07.2004	20
12	16.07.2003 – 09.09.2003	24
13	01.01.2002 – 15.07.2003	30
14	01.07.2000 – 31.12.2001	24
15	01.06.2000 – 30.06.2000	27,6
16	01.05.2000 – 31.05.2000	28,8
17	01.04.2000 – 30.04.2000	30
18	01.01.1998 – 31.03.2000	36
19	01.01.1997 – 31.12.1997	30
20	01.01.1997 – 30.10.1997	39,6
21	01.08.1996 – 01.12.1996	48
22	01.07.1996 – 31.07.1996	60
23	01.08.1995 – 30.06.1996	84
24	01.07.1995 – 31.07.1995	120
25	20.03.1995 – 30.06.1995	300
26	01.02.1995 – 19.03.1995	250
27	01.10.1994 – 31.01.1995	225
28	02.05.1994 – 30.09.1994	150

### XII.5.Markaziy bankning ochiq bozordagi siyosati.

Markaziy bankning ochiq bozordagi siyosati – bu davlatning obligatsiyalari, xazina veksellari va boshqa qimmatli qog'ozlarini yuridik va jismoniy shaxslarga sotishi va sotib olishi bilan bog'liq operatsiyalaridir. Markaziy bank davlatning va o'zining qimmatli qog'ozlarini sotish orqali iqtisodiyotda pul massasini pasaytiradi.

<sup>23</sup> www.cbu.uz

Bu o'z navbatida milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamlash va inflyatsiya darajasining pasayishiga olib keladi.

Markaziy bank sotilgan qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish orqali muomaladagi pul massasining oshishiga va tijorat banklarining qo'shimcha pul resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga zamin yaratadi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar (inglizcha – “Open market operations”) - jahon amaliyotida pul muomalasini tartibga solishning asosiy vositalaridan biri hisoblanib, mamlakatdagi pul taklifi ustidan nazoratning eng moslashuvchan usuli hisoblanadi. Bunda, Markaziy bank o'z mablag'lari hisobidan ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni sotib olishi va sotishi mumkin. Ochiq bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalarda katta miqdordagi xilma-xil qimmatli qog'ozlar ishtirok etadi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Angliya, Germaniya, Kanada va boshqalar)da XX asrning 40-yillarida davlat obligatsiyalari bozorining nihoyatda kengayishi va ularning markaziy banklar tomonidan faol sotib olinishi orqali pul-kredit siyosatining asosiy instrumentiga aylangan bo'lib, ushbu amaliyot bugungi kunda, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar markaziy banklari tomonidan ham pul mablag'lariga bo'lgan taklifni nazorat qilish hamda tartibga solib turishda eng muhim dastakka aylandi.

Xususan, respublikamizda ham 1996 yildan 2011 yilgacha davlat qimmatli qog'ozlari muomalaga chiqarilib, ular tijorat banklari o'rtasida joylashtirilgan. 2012 yilga kelib davlat qimmatli qog'ozlarining muomalaga chiqarilishi to'xtatilgan.

Xozirgi kunda, mamlakatimizda davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish, joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu borada yetarlicha tajriba shakllangan.



Xalqaro amaliyotda davlat qimmatli qog'ozlarining doimiy muomalada bo'lishi nafaqat davlat budjeti defitsitini moliyalashtirishning maqbul yo'li, balki mamlakat moliya bozorini rivojlantirishning muhim instrumenti bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida, Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarini faollashtirish maqsadida 2018 yildan davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga

chiqarish borasida Moliya vazirligi bilan tegishli tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Bunda, bozorning foiz stavkalari va bank tizimida (tijorat banklari)gi likvidlilik darajasiga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, iqtisodiyotdagi pul massasi hajmi o'zgarishini muvozanatlashtirish maqsadida Markaziy bank ochiq bozorda davlat qimmatli qog'ozlarini, shuningdek, o'zi chiqargan obligatsiyalarni<sup>1</sup> hamda boshqaruv qaroriga ko'ra boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishi va sotishi mumkin. Joriy yilda Markaziy bank pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirishda davom etdi va 24 fevraldan qisqa muddatli likvidlikni boshqarish instrumentlarini amaliyotga joriy etdi. Xususan, banklar bilan davlat qimmatli qog'ozlari garovi ostida 2 haftalik REPO<sup>3</sup> auksionlari va 1 kunlik overnight REPO operatsiyalari o'tkazilmoqda.

Markaziy bank tijorat banklaridan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish, ya'ni sotib olish orqali bank tizimi likvidligi miqdorini oshiradi. Aksincha, qimmatli qog'ozlarni sotish esa teskari ta'sirga ega bo'lib, bu tijorat banklari likvidligini qisqarishiga olib keladi. Ushbu operatsiyalar Markaziy bank hamda tijorat banklari o'rtasida kechadi. Ushbu operatsiyalar Markaziy bank hamda tijorat banklari o'rtasida kechadi.

Markaziy bank, o'z navbatida, bank tizimi likvidligi joriy holati tahlili va prognozidan kelib chiqib, undagi (ortiqchalik) profitsitni jalb etish yoki (taqchillik) defitsit yuzaga kelganda likvidlik bilan ta'minlash maqsadida tegishli operatsiyalarni amalga oshiradi.

<sup>1</sup> Markaziy bank faqat pul-kredit siyosatini amalga oshirish maqsadida obligatsiyalar emissiyasi (muomalaga chiqarish)ni amalga oshiradi. Shuningdek, obligatsiyalarning emissiyasi, joylashtirilishi, muomalada bo'lishi hamda muomaladan chiqarilishi tartibi va shartlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

<sup>2</sup> Xorijiy davlatlar qimmatli qog'ozlari (obligatsiya, veksel, depozit sertifikatlari va boshqalar) hamda mahalliy korporativ obligatsiyalar.

<sup>3</sup> REPO (inglizcha "Repurchase Agreement") – oldindan belgilangan narxda va kelishilgan muddatda qayta sotib olish (sotish) majburiyati ostida qimmatli qog'ozlarni sotish (sotib olish) bo'yicha tuzilgan bitim.

Shu bilan birga, ochiq bozordagi operatsiyalar o'zining zaif jihatlariga ham ega. Birinchidan, iqtisodiyotda inflyatsiyaning mavjudligi yuridik va jismoniy shahslarda davlatning va Markaziy bankning qimmatli qog'ozlarini sotib olishga bo'lgan manfaatdorligini tushirib yuboradi.

Ikkinchidan, qimmatli qog'ozlarning qaytarish muddati etib kelganda ularga to'lanadigan foizlar bilan qaytarib sotib olinishi mamlakatda dastlabki pul massasini ortishiga olib keladi, qimmatli qog'ozlarga to'lanayotgan foizlarning hajmi tovarlar bilan ta'minlanmagan bo'lsa iqtisodiyotda baho va inflyatsiya darajasining oshishiga zamin yaratadi.

Hukumat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlardan tushgan mablag'lar asosan davlatning strategik ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarini bajarishga va byudjet taqchilligini qoplashga yo'naltiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlarning sotilishi bank tizimi likvidligini qisqartirishi, qimmatli qog'ozlarning sotib olinishi esa bank tizimi likvidligini oshirishi mumkin.

## XII.6. Inflyatsion targetlash

Xozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda.

“Target” so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, “maqsad” degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi.

Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (targeti)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o'tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniladi.

O'z navbatida, ushbu rejimning qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin.

Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi.

Bu rejim o'zining qabul qilingan standartlari va tartiblariga ega. Masalan, makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish tizimidan keng foydalangan holda qaror qabul qilish, suzuvchi valyuta kursidan foydalanish, kommunikatsiyaviy siyosat tamoyillari, valyuta intervensiyasi strategiyasi va boshqalar.

Markaziy bank inflyatsiyaning erishilishi zarur eng mos maqsad (target)ini (masalan, inflyatsiyaning 5 foizli darajasiga erishish) o'rnatib, ushbu targetni pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalangan holda saqlashi lozim.

Narxlar barqarorligini ta'minlash inflyatsion targetlash rejimiga o'tishda samarali usullardan biri bo'lib, u o'z navbatida, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Markaziy bankning bank tizimi va to'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlash singari asosiy maqsadlari qatorida turadi.



Nima uchun aksariyat mamlakatlar inflyatsion targetlash rejimini tadbqiq etmoqda?



Gap shundaki, past darajadagi va prognoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiya mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish uchun juda zaruriy omil hisoblanadi. Binobarin, inflyatsion kutilma tijorat banklari tomonidan kredit ajratishda undagi foiz stavkasiga qo'shiladi hamda yuqori inflyatsion kutilma kredit foiz stavkasining yuqori bo'lishiga olib keladi.

Shunday qilib, tadbirkorlar qarz mablag' (kredit)lardan foydalanganliklari uchun hisoblangan foiz stavkalarining yuqori (yuqori inflyatsiya ta'sirida) bo'lishi, ularni qaytarish bilan

bog'liq to'lovlarga ta'sir qiladi.

Agar foiz stavkalari (kredit uchun hisoblangan) yuqori bo'lsa, tadbirkorlar kamroq kredit oladilar. Bu esa ularning investitsiyaviy qobiliyatiga ta'sir etgan holda, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qiladi. Zero, biz bugun kiritayotgan investitsiyalar - ertangi kunda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish manbalarini yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Barqaror iqtisodiy o'sish uchun past darajadagi va prognoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiya markaziy banklar uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi.

Shu sababli, past darajadagi va prognoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiyani ta'minlash aksariyat markaziy banklar tomonidan ularning uzoq muddatli maqsadi (target) sifatida belgilanadi.

\*Inflyatsion targetlash rejimi quyidagi bir necha makroiqtisodiy maqsadlarga erishish imkonini beradi:

\*narxlarning keskin oshishi va yuqori inflyatsiyani oldini olish;

\*pul bozorini shakllantirish, pul bozorini segmentlash sabablarini bartaraf etish;

\*ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, aholi va tadbirkorlarning to'lov qobiliyatini qo'llab-quvvatlash hamda moliya sektorining barqarorligini ta'minlash.

Inflyatsion targetlash rejimini amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

\* inflyatsiyaning doimiy targetini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish (*inflyatsiya, uning omillari hamda ko'zlangan inflyatsion target haqida aholini muntazam ravishda xabardor qilish*);

\* inflyatsion jarayonlarni boshqarish va pul bozorida foiz stavkalarini tartibga solish maqsadida pul-kredit siyosati bo'yicha instrumentlardan (*REPO* va *valyutaviy svop auksionlari, depozit auksionlari, hamda Markaziy bank obligatsiyalarini joylashtirish bo'yicha auksionlar*) keng miqyosda foydalanish;

\* pul-kredit siyosati sohasida obyektiv qarorlar (*xo'jalik yurituvchi subyektlar holatini tahlil qilish: uy xo'jaliklari sohasi, tadbirkorlik sohasi, davlat boshqaruvi sohasi va tashqi dunyo*) qabul qilish uchun batafsil makroiqtisodiy tahlil qilish hamda ichki va tashqi bozorlarda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda prognozlash;

\* pul-kredit siyosati maqsadlari (*narxlar barqarorligi, kreditlarning ommabopligi, past darajadagi inflyatsiya, aholining milliy valyutaga bo'lgan ishonchini oshirish va hokazo*)ni keng jamoatchilikka yetkazish uchun kommunikatsiyaviy siyosatni takomillashtirish, makroiqtisodiy holatni prognoz qilish imkoniyatini ta'minlash hamda bozor ishtirokchilari ishonchini shakllantirish.

Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiya darajasini ushlab turish uchun pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri bo'lib, Markaziy bank tomonidan belgilanadigan asosiy stavka hisoblanadi<sup>24</sup>. Markaziy bank asosiy stavkani o'zgartirish orqali tijorat banklari tomonidan omonat va kreditlar bo'yicha taklif etiladigan foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu o'z navbatida, umumiy talab orqali iqtisodiyotdagi narx darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, inflyatsion targetlash deganda – oldindan belgilanadigan inflyatsiya darajasi (target)ni keng jamoatchilikka e'lon qilish, hamda ushbu ko'rsatkichga erishish va uni saqlab qolish jarayoni tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tilayotgan bo'lib, **2023 yilda 5 foiz darajadagi inflyatsion maqsad (target)ga erishish rejalashtirilgan.**

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Markaziy bank faoliyatini tushuntiring.
2. Nima uchun Markaziy bank banklarning banki hisoblanadi?
3. Nima uchun Markaziy bank – rezerv bank hisoblanadi?
4. Nima uchun Markaziy bank – emissiya banki hisoblanadi?
5. O'R Markaziy bankining asosiy maqsadini tushuntiring.
6. Markaziy bankning kredit resurslari qanday manbalardan iborat?
7. O'R Markaziy bankining asosiy funksiyalarini tushuntiring.
8. Pul-kredit siyosatining mazmun va mohiyatini tushuntiring.
9. Qayta moliyalashtirish siyosati siyosatining mazmun va mohiyatini tushuntiring..
10. Ochiq bozor siyosati siyosatining mazmun va mohiyatini tushuntiring.
11. Majburiy zaxiralash siyosatining mazmun va mohiyatini tushuntiring.
12. Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini tushuntiring.
13. Inflyatsion targetlash nima?

---

<sup>24</sup> www.cbu.uz www.cbu.uz

### **III bob. Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi ahamiyati va vazifalari**

#### **XIII.1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va xuquqiy asoslari**

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunning birinchi moddasida ta’kidlanganidek «Bank – bu tijorat muassasasi bo‘lib jismoniy va huquqiy shaxslarning bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qilish va ularni o‘z nomidan to‘lovlilik, muddatlilik, qaytarib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi».

Bank yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini depozit va omonatlarga ma’lum foiz to‘lovlari to‘lash sharti bilan qabul qilib, ushbu mablag‘larni jamiyatning faol qatlamlariga ma’lum foiz to‘lovlari olish maqsadida yo‘naltiradigan va bu ikki turdagi foiz to‘lovlari o‘rtasidagi farq hisobiga asosiy daromadi shakllanadigan muassasadir.

O‘zbekistonda birinchi bank muassasasi 1875-yil Toshkentda ochilgan Rossiya imperiyasi davlat bankning filiali bo‘lgan. 19-asrning oxirida Turkistonda rus kapitali ishtirokidagi O‘rta Osiyo aksiyadorlik banki (1881), Volgakama banki (1893), Rus-Xitoy (Rus-Osiyo) banki (1903), Azov-Don savdo banki (1910), Nijniy Novgorod-Samara banki (1899), Poltava Yer banki (1901)ning filial, bo‘lim va agentliklari faoliyat olib bordi.

Banklarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular o‘z mablag‘lari bilangina emas, balki omonatchilar va kreditorlar, aksiyadorlar hamda mijozlar ularga ishonib topshirgan mablag‘lar bilan, y’ani keng jamoatchilik bilan ish ko‘radi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi eng zarur jamoatchilik muassasalari tizimlaridan biri ekan, har qanday bankning muvaffaqiyatsizligi butun jamiyat miqyosida pul taklifi qisqarishi, to‘lov tizimi buzilishi hamda hukumat yirik va kutilmagan majburiyatlarining vujudga kelishi kabi salbiy makroiqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig‘iladi va bu banklar xuquqiy va jismoniy shaxslarga xizmatlarni ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi pog‘onasi hisoblanadi

Respublika hududida tijorat banklari o‘z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

Banklarga litsenziya berish O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bank to‘g‘risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi, «Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlar xuquqini ximoya qilish to‘g‘risida» gi va boshqa qonunlari hamda banklar bo‘yicha tegishli me‘yoriy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklarini tashkil qilish 1999 yilni 11 – fevralida qabul qilingan «Banklarni ro‘yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to‘g‘risida»gi 630 –

sonli Nizom asosida olib boriladi. Ushbu Nizomga asosan tijorat banklari ochiq yoki yopiq aksionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi mumkin.

Bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizi miqdorida, filiallar ro'yxatga olinayotganda esa ushbu mablag'ning yarmi miqdorida xaq to'lanishi, ustav kapitalining 30 foizidan ortig'i xorijiy shaxslarga tegishli bo'lgan banklar va shu'ba banklarini ro'yxatdan o'tkazishda 5000 AQSh dollariga teng summada xaq to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga asosan bank ustav kapitalini shakllantirishga davlat hokimiyat organlari, jamoa birlashmalari, jamoa fondi mablag'lari, shuningdek kreditga va garovga olingan mablag'lardan foydalanish man etiladi.

«Banklarni ro'yxaga olish va ularga lisenziya berish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan har bir aksiyadorning ustav kapitalidagi ulushi 2002 yilning 1 yanvaridan boshlab ustav kapitali umumiy miqdorining 7 foizidan oshmasligi kerak. Shuningdek banklarning boshqa banklar ustav kapitalida ishtirokiga ruxsat etilmaydi. (shu'ba banklar tashkil etish bundan mustasno). Har bir bank o'z ustavi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Banklar ustav kapitalini shakllantirish nuqtai nazariga ko'ra quyidagicha tasnihlanadi:

"Bank" - yuridik shaxs bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan o'z xatari va tavakkalchiligi asosida kreditlash yoki investitsiyalashda foydalanish; to'lovlarni amalga oshirish uchun Markaziy bank litsenziyasiga ega bo'lgan tijorat tashkilotidir.

**"Norezident bank"** - xorijiy davlatlar hududida ro'yxatga olingan bank.

**"Chet el kapitali ishtirokidagi bank"** - chet ellik investorlarning ishtiroki ustav kapitali umumiy summasining kamida 30 foizini tashkil etadigan bank. Bunda, chet ellik investorlaridan biri yuridik shaxs bo'lishi lozim. Bunday bankning ustav kapitalini shakllantirishda rezidentlar va norezidentlar, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek norezident banklar ishtirok etishi mumkin.

**"Xususiy bank"** - ustav kapitalida muassis-jismoniy shaxslarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etadigan bank, ustav kapitalining qolgan qismi nodavlat yuridik shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin.

**"Sho'ba banki"** - ustav kapitali to'laligicha norezident bank tomonidan to'lanadigan bank.

**Bank aktsiyadori"** - bank aktsiyalariga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Yangi tashkil etilayotgan banklar uchun ustav kapitalining eng kam miqdori quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

## Tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga qo`yilgan talablar:

Yillar	Tijorat banklari uchun	chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1 yanvar 1998	1,5 mln.AQSH dol. ekv.	5 млн. AQSh дол. экв.	0,3 mln.AQSH dol. ekv.
1 yanvar 1999	2,0	5,0	0,3
1 yanvar 2000	2,5	5,0	0,3
1 yanvar 2002	2,5	5,0	1,25
1 yanvar 2005	5,0	5,0	2,5
1 yanvar 2008 yildan	5,0 млн.Евро экв.	5,0 млн.Евро экв.	2,5 млн.Евро экв.
1 yanvar 2011 yildan	10 mln.yevro ekv.	10 mln.yevro ekv.	5 mln.yevro ekv.

Manba: Bank axborotnomasi 2014 y. 2-soni

Yangi tashkil etilayotgan banklar uchun ustav kapitali eng kam miqdorining hisob-kitobi AQSH dollari kursining O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan valyuta operatsiyalari bo`yicha buxgalteriya hisobini, statistika va boshqa hisobotlarni yuritish uchun muassislar tomonidan bank tashkil etish to`g`risida qaror qabul qilingan kunda belgilangan kursidan kelib chiqqan holda milliy valyutada amalga oshiriladi. Bank faoliyatini to`xtatish va banklarni tugatish «Banklar va bank faoliyati to`g`risida»gi qonun ham Markaziy bankning 240 – sonli «Banklarni tugatish tartibi to`g`risida»gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Unga ko`ra banklar aksiyadorlar yig`lishining qaroriga ko`ra, Markaziy bank litsenziyani qaytarib olganda va bank bankrot deb e`lon qilinganda o`z faoliyatini to`xtatadi. O`z faoliyatini to`xtatgan bank Markaziy bank tomonidan banklarni Davlat ro`yxatiga olish daftaridan chiqariladi. Uni faoliyati to`xtatilganligi matbuotda e`lon qilinadi.

Tijorat banklari mulkining asosiga ko`ra 4 ta turga bo`linadi 1) Davlat tijorat banklari; 2) Aksiyadorlik tijorat banklari; 3) Xususiy tijorat banklari; 4) Chet el kapitali ishtirokidagi banklar.

### Tijorat banklarini mulkining asosiga ko`ra guruhlanishi:

(2021 yil aprel oyi holatiga ko`ra)

<b>TIJORAT BANKLARINING MULK SHAKLIGA KO`RA TURLARI</b>			
Davlat banklari	Aksioner tijorat banklari	Xususiy banklar	Chet el kapitali ishtirokidagi banklar
1. Agrobank 2. Aloqabank 3. Asaka bank	1. Ipak yo`li banki 2. Kapitalbank 3. Madadinvestbank	1. Trastbank 2. Turkistonbank 3. Davrbank	1. Ziraatbank 2. Soderat Eronbank 3. Investfinansbank

4. Aziya Alyans bank 5. Ipotekabank 6. Xalq banki 7. Turonbank 8. Uzagroeksportbank 9. O'z.sanoatqurilishbank 10. O'R TIA Milliybanki 11. Qishloqqurilishbank 12. Poytaxt bank 13. Mikrokreditbank	4. Ravnaqbank 5. TBCbank 6. Anorbank 7. Universalbank	4. He Tech bank 5. Oriyent finansbank	4. Savdogarbank 5. Hamkorbank 6. KDB bank 7. Tengebank
---	--	--	---

Tijorat banklari hozirgi paytda korxonalar va aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda muhim vositachi bo'lib hisoblanadi.

### **XIII.2. Tijorat banklar faoliyatining asosiy tamoyil va funktsiyalari**

Tijorat banklarining faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Kredit resurslarini tashkil etishda chetdan jalb qilingan resurslarga tayanishi.  
2. Mavjud mablag'lar chegarasida xizmat ko'rsatish. Bu bankning nafaqat o'z resurs va kredit quyilmalarining mutonosibligi, balki bankning aktivlari bilan uning jalb qilingan mablag'lari o'rtasidagi mutonosibligini ta'minlashini bildiradi.

3. Bank faoliyatining to'la iqtisodiy mustaqilligi. Bunda bank o'z va jalb etilgan mablag'lardan mustaqil foydalanishi, mijozlar va omonatlarni o'zi mustaqil ravishda tanlashi, kredit siyosatini mustaqil tuzishi va amalga oshirishi, foiz stavkalarini mustaqil o'rnatishi va o'zgartirishi, daromadlarni mustaqil ravishda taqsimlashi va boshqa faoliyat turlarini bajarishi mumkinligi ko'zda tutiladi.

4. Banklar faoliyatini tijoratlashuvi. Bu tamoyil banklarni kamroq xarajat qilib ko'proq foyda bilan faoliyat ko'rsatishga asoslanadi. Bank faoliyatining xavfsizligi (kam xatarliligi) ham bank tijoratining asoslaridan biri hisoblanadi.

5. Mijozlar manfaatini himoyalash. Bank o'zining kapitali, daromadi bilan risk qilishi mumkin, lekin u mijozning daromadi yoki kapitali bilan risk qilishi mumkin emas. Bu tamoyil «hamma narsa mijoz uchun» ma'nosini anglatib u bank mijoz uchun to'laligicha javob berish zarurligini bildiradi, uni daromadini ta'minlaydi.

6. Banklar faoliyatining universallashtuvi va diversifikatsiyasi (lotincha deilarsiteatro - o'zgarish, xilma – xillik) banklar faoliyatini turli tarmoq va sohalarni qamrab olishini bildiradi.

7. O'zaro manfaatdorlik. Bankning va mijozning bir – biriga bo'lgan ishonchi o'zaro hamkorlikni mustaxkamlaydi. Mijoz bankga nafaqat pul yoki kredit uchun emas, balki moliyaviy malakaviy yordam, malakali xizmat, maslahat olish uchun boradi. Mijoz bankdan o'z mablag'ini nimaga va qanday sarflash, o'z foydasini qanday oshirish yoki yo'qotishlarga qanday barham berishlikni o'rganadi. Tijorat banklari faoliyati quyidagi funktsiyalarga asoslanadi:

1. Huquqiy va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini yig'ish.
2. Xalk xo'jaligida hisob – kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish

3. Xo‘jalik subyektlarini kreditlash, ichki va tashqi xo‘jalik oborotiga kredit – moliya xizmati ko‘rsatish

4. Moliyaviy va moddiy qiymatlar saqlanishini ta‘minlash

5. Mijozlar mulkini ishonchli boshqarish (faktoring, trast va boshqa operatsiyalar)

6. Moliya – valyuta bozorida faoliyat ko‘rsatish, ya‘ni qimmatli qog‘ozlar chiqarish, ularni joylashtirish, sotib olish va boshqalar

7. Iqtisodiy moliyaviy aborotlar berish, maslaxat xizmatlarini ko‘rsatish va boshqalar

### **XIII.3. Banklarning iqtisodiyotdagi roli**

Banklarning mohiyati va funktsiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko‘rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e‘tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Banklarning roli ularning funktsiyalari kabi ma‘lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo‘lishidan qa‘tiy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo‘lgan operatsiyalarni bajaradi. Shu bois ham banklar qanday mulkiy shaklda yoki ixtisoslikda tashkil topgan bo‘lishidan qa‘tiy nazar, ular iqtisodiyotda alohida ahamiyat kasb etadi.

Banklarning iqtisodiyotdagi roli xususida so‘z ketganda, dastlab jamiyatda ularning bajaradigan operatsiyalarini zarurligi va turlari, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar va aholining ularga bo‘lgan ehtiyoji doirasida so‘z yuritish maqsadga muvofiq. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyatini anglatadi.

Albatta, banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati juda ko‘pqirrali bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- jamiyatdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni tegishli shartlar asosida o‘ziga jalb etadi;

- qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larga ehtiyoji mavjud xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar va aholiga qaytarishlik, to‘lovlik, muddatlilik va ta‘minlanganlik asosida mablag‘lar beradi;

- milliy valyutaning emissiyasini tashkil etadi va uning barqarorligini ta‘minlash doirasida pul – kredit siyosatini amalga oshiradi;

- pul aylanmasini tashkil etadi va uning tartibini belgilaydi;

- iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi sub‘ektlar o‘rtasida hisob –kitob va to‘lovlarni amalga oshirishda vositchilik qiladi;

- bozor ishtirokchilariga turli darajadagi komission va maslahat xizmatlarini amalga oshiradi;

- aholiga va mijozlarga trast va depozitar xizmatlarini taklif etadi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolining asosiy jihatlaridan biri, jamiyatdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini jamg‘arish asosida ularni iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qayta taqsimlashda namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, jamiyatda faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub‘ektlarining asosiy maqsadi iqtisodiy foyda olishga

qaratilgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayoni turli tarmoqda turlicha bo'lganligi bois, ma'lum davrda ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoj tug'ilsa, ayrimlarida aksincha. Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish ciklining turli – tumanligi (qishloq ho'jaligi, qayta ishlovchi korxonalar, qurilish sanoati va boshqalar) sababli, moliyaviy mablag'lar vaqtinchalik ishlab chiqarish jarayonidan chetlashtiriladi. Bu jarayonda bir tomondan bir guruh iqtisodiyot tarmoqlarida qo'shimcha moliyaviy mablag'larga nisbatan qo'shimcha ehtiyojni keltirib chiqarsa, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mablag'larning ishlab chiqarishdan chetlashishini keltirib chiqaradi.

Bu ikki tomonning iqtisodiy manfaatlarini birlashtiruvchi moliyaviy tashkilot sifatida banklar maydonga chiqadi. Birinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlarining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida jalb etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan ikkinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlariga, ya'ni qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezgan xo'jalik sub'ektlariga qayta taqsimlab beradi.

Bizningcha, ushbu munosabatlarni bankdan bo'lak birorta moliyaviy tashkilot samarali va tez hal eta olmaydi. Banklarning ushbu o'ziga xos jihati iqtisodiyotdagi rolini belgilaydi. Banklarning iqtisodiyotda bajaradigan yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, aholi va davlat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladigan hisob – kitoblarni tashkil etishi va ularning ustidan tegishli nazorat ishlarini amalga oshirish hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlari o'rtasida har kuni bir necha yuz minglab pul o'tkazmalari amalga oshiriladi. Bularning barchasi banklar tomonidan amalga oshiriladi va tartibga solib turiladi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini yuqori yoki pastligiga qator omillar ta'sir qiladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

a) Aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchining mustahkamligi. Xalqaro bank amaliyoti va mustaqillikdan keyin bosib o'tilgan qisqa davrda yig'ilgan tajribalarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotining asosiy o'zagi asosan o'zaro ishonch va halollikka tayanadi. Agar mazkur holatni aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchi yo'qolishi bilan bog'lab ko'radigan bo'lsak, banklarga nisbatan ishonch yo'qolishi oqibatida ularning jamiyatdagi rolini pasayishiga olib keladi.

Aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchining zaifligiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- banklarning mijozlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa;
- aholi va mijozlarning kreditga, ayniqsa naqd pulga bo'lgan talabi to'liq va o'z vaqtida qondirilmasa;
- mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha mablag'lar qoldig'i va aylanmalari haqida bank siri ta'minlanmasa;
- mijozlarning pul o'tkazmalarini istalgan paytda va zarur miqdorda tegishli manzilga o'tkazilmasa;

- bankda omonatlarni saqlashning iqtisodiy manfaatdorligi pasayib ketishi va boshqalar.

b). Mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash va bozor mehanizmlari samaradorligini oshirish lozim. Tijorat banklarining xo'jalik sub'ektlariga kreditlarni berishda, mijozlarning naqd pullarga bo'lgan talabini qondirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirish lozimligidan dalolat beradi.

Banklarning iqtisodiyotdagi rolini oshishi yoki pasayishiga nafaqat ularning sayi harakatlari, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi va raqobatbardoshligi bevosita ta'sir qiladi. Chunki, banklar milliy iqtisodiyotdan ajralgan holda, alohida sub'ekt sifatida samarali faoliyat yuritishi mumkin emas.

Masalan, banklarning asosiy faoliyat turlaridan biri muomalaga pulni emissiya qilishini oladigan bo'lsak, muomalaga emissiya qilingan pul massasi tovar massasi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Aks holda, milliy valyutaning inflyatsiya darajasi oshishi bilan birga, uning sotib olish qobiliyati pasayib kyetadi. Demak, muomalaga emissiya qilingan pullar tegishli tovar massasi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bu o'z navbatida iqtisodiyotda ishlab chiqarish va tovarlar aylanmasi samaradorligi ta'minlanganligini talab etadi.

Demak, iqtisodiyotda tovar massasi va pul massasi o'rtasidagi muvozanatlikning ta'minlanishi, birinchidan, bankning iqtisodiyotdagi rolini oshirsa, ikkinchidan, milliy iqtisodiyotning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, bu muvozanatlikni ta'minlanishiga qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir qiladi.

Masalan, 90 yillarning ohirlarida Rossiyada, shuningdek, qator sobiq ittifoq respublikalarida, shu jumladan mamlakatimizda ham pullarni muomalaga chiqarish hajmi ishlab chiqarish hajmidan sezilarli darajada pasayib ketdi. Buning natijasida ishlab chiqarish jarayonida uzilishlarni vujudga kelishiga, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida debitor – kreditor summalari miqdorining sezilarli darajada oshib ketishiga olib keldi.

Banklarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini, ya'ni ularning rolini real sektorni kreditlash munosabatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakat real sektori ishtirokchilari bank kreditiga nisbatan doimiy ravishda ehtiyoji mavjud bo'lib, ushbu ehtiyoj ayniqsa, iqtisodiy inqiroz sharoitida ortib kyetadi. Inqiroz sharoitida iste'mol tovarlarga nisbatan talabning hamda tovar va xizmatlar bahosining pasayishi, davlat buyurtmalari hajmining qisqarishi, debitorlarning to'lovga layoqatsizligi korxonalarda qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan kuchli talabni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Albatta, ushbu talab to'lig'icha banklarning kreditlari hisobidan qondirilishi, birinchidan, maqsadga muvofiq emas.

Ikkinchidan, banklarda iqtisodiy inqiroz sharoitida ushbu ehtiyojni qondirish uchun yetarli moliyaviy resurslarning taqchilligi paydo bo'ladi. Bundan tashqari, eng muhimi banklar tomonidan berilgan kreditlarning to'liq qaytmaslik havfi, ya'ni kredit riski vujudga keladi. Shu bois, iqtisodiy inqiroz sharoitida banklarning kreditiga talab yuqori bo'lsada, banklar kredit quyilmalari hajmini oshirishga moyillik sezishmaydi. Bu banklarning iqtisodiyotdagi rolini pasayishiga emas,

balki banklar ham tijorat muassasa sifatida asosiy e'tiborini iqtisodiy manfaatdorlik olishga qaratishini, eng muhimi banklar risk asosida kredit sifatida beradigan mablag'lari o'z mablag'lari emas, balki chetdan jalb qilingan boshqa shahslarning mablag'lari hisobiga faoliyat yuritayotganligini unutmazlik lozim.

#### **XIII.4. Tijorat banklarning asosiy operatsiyalari**

Banklarning o'ziga xos xususiyatlari ularning faoliyatigi bevosita bog'liqdir. Ushbu faoliyatning natijasi esa bank xizmatining yaratilishi hisoblanadi va uni quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. To'lov vositasini amalga oshirish.
2. Xizmatlar ko'rsatish.

Bozor xo'jaligida oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish uchun umumiy to'lov vositasi sifatida pul zarur bo'ladi. Chunki usiz tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida bo'ladigan almashinuv amalga oshirilmasligi mumkin. Shuning uchun ham Markaziy bank muomala va moddiy boyliklarni sotib olish va ularni iste'mol va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz davom etishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul massasini chiqarishi zarur.

Bank maxsulotining tarkibiy qismi hisoblangan har xil xizmatlar ko'rsatishni quyidagicha turkumlash mumkin :

Ko'rsatiladigan xizmatlarning tiplari

1. Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga qarab:

- a. O'z faoliyatiga mos xizmatlar.
- b. O'z faoliyatiga mos bo'lmagan xizmatlar

2. Xizmatlarni oluvchi sub'ektlarga qarab:

- a. Xuquqiy shaxslar
- b. Jismoniy shaxslar

3. Bank resurslarini shakllanishi va joylashish usuliga qarab:

- a. Aktiv operatsiyalar
- b. Passiv operatsiyalar

4. Ko'rsatilgan xizmat uchun to'lanishiga qarab:

- a. Pulli xizmat.
- b. Bepul xizmat

5. Moddiy ne'matlarning xarakteriga bog'liqligiga qarab:

- a. Moddiy ne'matlarning xarakteriga bog'liq bo'lgan xizmatlar.
- b. sof xizmatlar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bank ko'rsatgan xizmatlarni eng avvalo o'z faoliyatiga mos xizmatlar va o'z faoliyatiga mos bo'lmagan xizmatlarga bo'linadi.

O'z faoliyatiga mos xizmatlar bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ko'rsatiladigan xizmatlar tushuniladi va ularga bank bajaradigan quyidagi 3 ta operatsiyani kiritish mumkin:

1. Depozitlar bo'yicha operatsiyalar.
2. Kredit operatsiyalari.
3. Hisob-kitob operatsiyalari.

1. Depozit operatsiyalari bank mijozlarining omonatlarini joylashtirish bilan bog'liq. Tarixdan ma'lumki kishilar o'z mablag'larini har xil talon-tarojlardan asrash maqsadida banklarga qo'yishgan. Keyinchalik esa pul mablag'larining qadrsizlanishining oldini olish uchun banklarga qo'yishgan bo'lsa, xozirgi paytda esa daromad olish uchun bankka qo'yishadi. Ular buning uchun ssuda foizlarini oladilar.

2. Kredit muomalalari bankning asosiy muomalasi hisoblanadi. Shuning uchun ham bankni kredit muassasasi deb ataladi. Bank o'z daromadlarining asosiy qismini kredit berish evaziga oladi. Ammo xozir iqtisodiyot barqaror bo'lmaganligi uchun banklar ko'proq daromad keltiradigan va unchalik xavfli bo'lmagan muomalalar bilan shugullanishni afzal ko'rishadi. (Masalan, valyuta operatsiyalari)

3. Hisob-kitob muomalalari naqd pul bilan va naqd pulsiz shakllarda amalga oshiriladi. Vbjozlarning topshirig'iga muvofiq bank ularga har xil schetlar ochishi mumkin va ular orqali oldi-sotdi va to'lov muomalalarini amalga oshiradi. Hisob-kitoblarda bank vositachi vazifasini bajaradi.

Yuqorida ko'rsatilgan uchta xizmat turini ba'zan traditsion bank operatsiyasi deb ham atashadi va uchalarini bir vaqtda bajarmagan bankni, bank deb atash mumkin emas. Chunki uchta xizmat turining birini boshqa kredit muassasalari ham bajarishi mumkin. Masalan, pochta (pulni o'tkazish mumkin), har qanday tashkilot bo'sh pul mablag'lari evaziga kredit berishi mumkin, har xil fondlar omonatlarini olish evaziga foiz to'lash mumkin.

Banklar ko'rsatadigan depozit, kredit va hisob-kitob muomalalaridan tashqari banklar kassa muomalalarini ham amalga oshiradi. Ammo xozirgi qonunchilik hujjatlarida bu maxsus ko'rsatib o'tilmaydi.

O'z faoliyatiga mos bo'lmagan yoki noan'anaviy xizmat turlariga qo'shimcha operatsiyalarni, ya'ni quyidagi muomalalarni kiritish mumkin: valyuta, qimmatli qog'ozlar, oltin, qimmatbaxo metallar va qo'yilmalar bo'yicha oshiriladigan muomalalar.

Bank xizmatlaridan xuquqiy va jismoniy shaxslarning barchasi birday foydalanish xuquqiga ega.

Ma'lumki, banklar bo'sh pul mablag'larini yig'adi va ularni buyurtmachilar o'rtasida qaytarish sharti bilan taqsimlaydi. Bank ko'rsatadigan xizmatlar aktiv va passiv shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Passiv muomalalar yordamida banklar o'z resurslarini shakllantiradi (masalan, depozitlar, sertifikatlarni sotish, boshqa banklardan kredit olish va boshqalar). Banklar aktiv operatsiyalarni amalga oshirish orqali o'zining va chetdan jalb qilingan resurslarini turli xo'jalik sub`ektlari, shuningdek, aholining ehtiyojlari uchun joylashtiradi.

Banklar ko'rsatayotgan xizmatlarning to'lanishiga qarab pulli va bepul xizmat turlariga bo'linadi. Ammo bu bankdagi xizmat turlarining ba'zilar bepul yoki pulli degan ma'noni bildirmaydi. Bank o'zi ba'zi tomonlarni hisobga olib hisob-kitob, depozit va kredit operatsiyalarining tarkibidagi ba'zi xizmat turlariga xaq to'lashni belgilamasligi mumkin.

Moddiy ne`matlarning harakati bilan bog'liqligiga qarab bank xizmatlari quyidagicha turkumlanadi:uning harakati bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar va sof xizmatlar.

Banklar o'zlarining pul operatsiyalari bilan moddiy ne`matlarining harakatiga sabab bo'ladi va bunda yangi qo'shimcha qiymatlar yaratishadi.Sof xizmatlar bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayoni bilan band bo'lgan xo'jalik sub`ektlariga va aloxida jismoniy shaxslarning talablarini qondirish uchun ko'rsatiladi.Umuman, bank ko'rsatadigan xizmatlar quyidagi xususiyatlarga ega: ularni zaxira sifatida ko'rsatish mumkin emasligi, unumli xarakterga ega ekanligi, kapital bank xizmatining ob`ekti bo'lib hisoblanishi, aktiv va passiv operatsiyalarni o'z ichiga olishi, faqat bankning monopoliyasiga aylanmasligi va boshqalar.

Tijorat banklarining iqtisodiy ahamiyati uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi. Tijorat banklarining funktsiyalari: depozitlarni qabul qilish; kreditlar berish; firmalar o'rtasidagi operatsiyalar bo'yicha deyarli barcha hisob-kitoblarni amalga oshirish; ular tomonidan olingan mablag'larning bir qismini qimmatli qog'ozlarga va boshqa moliyaviy hujjatlarga sarflash; valyuta operatsiyalari bilan shug'ullanadi; mijozlariga maslahat beradi. Tijorat banklari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish.

2. Korxonalar, tashkilotlar, davlat va aholini kreditlash.

3. Muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari)ni chiqarish.

4. Iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish.

5. Moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish.

Iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va konsul'tativ xizmatlar ko'rsatish.

Banklar **bo'sh turgan pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funktsiyasini** bajara turib mavjud bo'sh pul daromadlari va jamg'armalarini yig'adi. Jamg'aruvchi o'z pul mablag'larini banka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz xisobida daromad oladilar. Bush pul mablag'lari xisobidan ssuda fondi vujudga keladi va bu fond iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat banklari faoliyatida asosiy **o'rinni korxonalar, tashkilotlar va aholini kreditlash** egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi vazifasini o'taydi. U bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqtincha foydalanishga beradi. Bank krediti hisobidan iqtisodiyotning muhim tarmoqlari - sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo'ladi.

**Muomalaga kredit pullarni chiqarish funktsiyasi** tijorat banklarini boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudalar berganida pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganida muomalada pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisoblanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o'tkaziladi va bankning qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag'ning ma'lum qismini naqd pul shaklida

hisob raqamidan olishi mumkin. Bu holda muomalada pul massasining miqdori oshadi. Shuning uchun ham tijorat banklar faoliyati ustidan Markaziy bank nazorat olib boradi.

Tijorat banklarining muhim vazifalaridan biri - **xisob-kitoblarni olib borish**dir. Xisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklari yana qimmatbaxo qog'ozlar chiqarish va joylashtirish bilan shug'ullanishi mumkin. Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qila turib mijozlarga har xil axborotlar, maslaxatlar berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, banklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Shuningdek, tijorat banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e'tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Banklarning iqtisodiyotdagi roli xususida so'z ketganda, dastlab jamiyatda ularning bajaradigan operatsiyalarini zarurligi va turlari, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining ularga bo'lgan ehtiyoji doirasida so'z yuritish maqsadga muvofiq. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyatini anglatadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va xuquqiy asoslarini tushuntiring.
2. Tijorat banklar faoliyatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
3. Tijorat banklar faoliyatining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
4. Bank faoliyatiga mos bo'lgan operatsiyalar nimalardan iborat?
5. Bank faoliyatiga mos bo'lmagan operatsiyalar nimalardan iborat?
6. Qanday operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi?
7. Qanday operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi?
8. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining qanday asosiy turlari mavjud?
9. Qanday operatsiyalar banklarning depozit operatsiyalari deyiladi?
10. Qanday operatsiyalar banklarning nodepozit operatsiyalari deyiladi?

## **XIY bob. Tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalari**

### **XIY.1. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari**

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv hiso-bidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta mavqega ega. Tijorat banklarining passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslarini tashkil qilinadi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining, asosan, to'rtta shakli mavjud:

1. Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish.

2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish.

3. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish.

4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning xususiy mablag'lari, jalb qilingan va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning xususiy mablag'lari yuzaga keladi va qolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarning ikkinchi qismi, jalb qilingan resurslar yuzaga keladi.

**Banklarning o'z mablag'lariga** bankning nizom kapitali, zaxira kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Amaliyotda asosan bank passivlarining 20 foizi bank-larning xususiy mablag'lariga to'g'ri keladi.

Banklarning xususiy mablag'lari ichida asosiy o'rinni bankning xususiy kapitali egallaydi. **Bankning xususiy kapitali** tarkibiga biz yuqorida keltirib o'tgan kapitalning bir qismi, ya'ni nizom kapital, tavakkalchiliklarni qoplash uchun tashkil qilingan zaxira fond, taqsimlanmagan foyda kiradi. Banklarning xususiy kapitali bank kreditorlarining manfaatini himoya qilish, bank faoliyati-ning barqarorligini ta'minlash, bank faoliyatini boshqarish kabi funktsiyalarni bajaradi.

Bankning nizom kapitali summasi bank nizomida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Bank-larni tashkil qilishning shakllariga qarab bankning nizom kapitali ham har xil. Agar bank aktsiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo'lsa, nizom kapitali yoki fondi aktsiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li orqali tashkil topadi. Banklarning nizom kapitali miqdori qonun yo'li bilan chegaralanmaydi. Banklarning bar-qaror faoliyatini ta'minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi.

**Bankning nizom kapitali** balansining passivida ko'rsatiladi. Nizom jamg'armasi miqdorining oshirilishi bank aktsionerlari tomonidan umumiy majlisda hal qilinadi.

**Banklarning kapitali** ularning majburiyatlarini bajarishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bank kreditlari hisobidan banklarning nizom kapitalini tashkil qilish mumkin emas. Nizom kapitalini tashkil qilishda chetdan boshqa pul mablag'larini

jalb qilish ham mumkin emas. Banklar tashkil qilinganda, nizom kapitalining tarkibi moddiy mablag'lardan va pul mablag'laridan tashkil topadi. Bank faoliyatining boshlang'ich bosqichlarida bankning xususiy mablag'lari hisobidan birinchi navbatdagi bank xarajatlari (er, bino, asbob-uskuna, ish haqi) qoplanadi. Banklarning xususiy mablag'lari uzoq muddatli aktivlarga qo'yilmalar qilishning asosiy manbasi hisoblanadi.

**Banklarning aksioner kapitali** quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin. Bular: a) xususiy aksionerlik kapitali, bu kapital oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan, taqsimlanmagan fond hisobidan yuzaga keladi; b) har xil ko'zda tutilmagan xarajatlarni va to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun tashkil qilingan zaxiralar; v) bankning uzoq muddatli majburiyatlari (uzoq muddatli veksel' va obligatsiyalar) bo'lishi mumkin.

**Banklarning zaxira kapitali** yoki zaxira fondi foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo'ladi va ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatbaho qog'ozlar kursining tushishi natijasidagi yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallangan.

Taqsimlanmagan foyda - zaxira fondiga ajratmalar va dividendlar to'langanidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir.

**Banklarning xususiy mablag'lari** tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Banklarning xususiy kapitali hissasining kamayishi ba'zi hollarda banklarning sinishiga olib keladi.

**Bankning emitentlashgan mablag'lari.** Banklar mijozlar mablag'laridan uzoqroq foydalanishni amalga oshirishdan, manfaatdordir. Shu sababli banklar obligatsiya qarzlari, bank veksellari va boshqalarni chiqarish yo'li bilan xususiy resurslari miqdorini ko'paytirib boradilar.

Obligatsiya qarzlari obligatsiyalar ko'rinishida emitentlashadi.

Xozirgi davrda chet el amaliyotida ikki valyutali obligatsiyalar uchraydi. Bu obligatsiyalar bo'yicha daromadlar obligatsiya egasi ixtiyoriga ko'ra milliy valyuta hamda AQSH dollarida yoki boshqa chet el valyutasida to'lanishi mumkin.

Bank tomonidan elementlashgan qimmatli qog'ozlarning turlaridan biri "suzuvchi foiz stavkali" qimmatli qog'ozlardir. Masalan, AQSHda 1970 yillar o'rtalarida ikkita yirik tijorat banklari - "Sitibenk" va "Cheyz Manxetten Benk" xolding kompaniyalari orqali "suzuvchi foiz stavkali" qimmatli qog'ozlar chiqardilar. Bu qo'yilmalar bo'yicha foizlar 3 oylik xazina veksellariga nisbatan bir foiz yuqori to'lanadi.

Banklar mijozlarning hohishiga qarab bir yilda ikki marta ularni to'lash majburiyatini o'z zimmalariga oldilar. Buning uchun mijoz ko'rsatilgan muddatdan bir hafta oldin mablag'larni olishi to'g'risida bankka xabar berishi shart. Bank passivlarida o'tgan asrning 90 - yillari davomida bankning xususiy mablag'lari miqdorining qisqarishi davom etdi va xorijiy mamlakatlar kabi bizning banklarimizda ham jalb qilingan resurslar salmog'i oshdi.

Jalb qilingan mablag'larning yana bir turi bank balansida turgan va ularni qayta sotib olish to'g'risidagi kelishuv asosida sotiladigan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

## **XIY.2. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari**

**Tijorat banklarining aktiv opyerciyalari** – bu banklarning passiv operatsiyalari natijasida shakllantirilgan mablag'larini iqtisodiy jihatdan daromad (foyda) olish maqsadida turli maqsadlarga joylashtirish va likvidligini ta'minlash bilan bog'liq operatsiyalardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ularning faoliyatida juda muhim hisoblanadi. Chunki ular ushbu operatsiyalar orqali daromadlarni shakllantiradilar va aktiv operatsiyalar doimo ma'lum darajada risk, ya'ni qarzdorning defolti (to'lovga qobiliyatsizlik) bilan bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalari iqtisodiy mohiyatiga ko'ra:

- ssuda operatsiyalari (kreditlash);
- hisob – kitob operatsiyalari;
- kassa operatsiyalari;
- investiciya va fond operatsiyalari;
- valyuta operatsiyalari va kafolatlar berish bilan bog'liq operatsiyalardan iborat.

Ssuda operatsiyalari orqali banklar mamlakatdagi faoliyat yuritayotgan mulkiy shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik sub'ektlariga tegishli kyerditlarni beradi. Ma'lumki, bank kreditlari bir yilgacha – qisqa muddatli, bir yil va undan ko'p davrga – uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi.

Hisob – kitob operatsiyalarida banklar mijozlarning topshiriqlariga asosan turli maqsadlarga ularning hisobvaraqlarini debetlash orqali o'tkazadi, shuningdek, ssuda operatsiyalari ham bevosita kredit oluvchining ssuda hisobvarag'ini debetlash orqali amalga oshiriladi.

Investiciya operatsiyalarida banklar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlatning qimmatli qog'ozlariga moliyaviy mablag'larni joylashtiradi. Albatta ushbu operatsiyalar banklar uchun ma'lum darajadagi riskli operatsiyalar hisoblanib, banklarning foydasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fond operatsiyalarida banklar qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bajarish bilan birga, fond birjalarida oldi – sotdi qilinadigan qimmatli qog'ozlar va veksellar bilan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Banklar kassa operatsiyalari orqali mijozlarga naqd pullarni berish va ulardan naqd pullarni qabul qilish bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi.

Banklarning valyuta operatsiyalari bevosita horijiy mamlakatlar milliy valyutasini oldi – sotdisi bilan bog'liq operatsiyalar hisoblanib, milliy valyutaning horijiy valyutalarga nisbatan kursini o'zgarishi hisobiga foyda yoki zarar ko'rishi mumkin.

Banklar yirik va yuqori darajadagi to'lov qobiliyatiga ega moliyaviy muassasa sifatida kompaniya, korporaciya va boshqalarga uchinchi shahs sifatida kafolatlar berishi mumkin. Albatta, berilgan kafolatlar evaziga banklar ma'lum darajadagi foydani olishni rejalashtiradi.

Yuqorida qayd eilganlarga asoslanib, banklarning aktiv operatsiyalarini to'rtta guruhga ajratish mumkin.

1. Erkin zahiralari – bunga kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, boshqa kredit tashkilotlarning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar. Erkin zahiralari yuqori likvidli mablag'lar hisoblanib, bankka qisman yoki umuman daromad keltirmaydi.

2. Berilgan kreditlar va depozit ko'rishida boshqa moliya muassasalariga, shuningdek Markaziy bankka joylashtirilgan mablag'lar.

3. Investitsiyalar – bu bankning qimmatli qog'ozlarga va nomoddiy aktivlarga, shuningdek pay ko'rishida xo'jalik faoliyatiga yo'naltirilgan resurslari.

4. Bankning o'ziga (ichki investitsiyalar) moddiy va nomoddiy aktivlarga yo'naltirilgan mablag'lari. Bunga bank faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan binolar, jihozlar va boshqa uskunalari kiradi

**Banklarning kredit portfeli** – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi: a) yaxshi; b) standart; v) substandart; g) shubhali; d) umidsiz. Tijorat banklarining ma'lum sanaga ssuda hisobvaraqlarida qolgan pul mablag'lari majmuasi (qoldig'i).

Tasniflangan kreditlarning qaysi guruhga kirish darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag'larning mavjudligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yilda 9 noyabrda tasdiqlangan 242-sonli "Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo'lgan yo'qotishlar bo'yicha tijorat banklari tomonidan zaxiralari tashkil qilish va undan foydalanish to'g'risi"dagi nizomga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha "yaxshi", "standart", "substandart", "shubhali", "umidsiz" yoki "ishonchsiz" kreditlarga tasniflanadi.

**Yaxshi kreditlar.** Kreditning bunday sifatda baholanishi, mijozning aktivlari, ularning xolati bo'yicha hech qanday gumon yo'qligidan dalolat beradi. Moliyaviy jihatdan barqaror, xo'jalik aylanmasi yuqori darajada xususiy kapital bilan ta'minlangan, yuqori rentabellik ko'rsatkichlariga ega, debitor va kreditor qarzlarning aylanish muddati qisqa bo'lishi lozim. Bu kredit egalari moliyaviy barqaror xo'jalik sub'ekti bo'lib, u yuqori darajada ta'minotga ega bo'ladi. Bunda asosiy e'tiborni qarz oluvchining avvalgi faoliyatidagi majburiyatlariga munosabatiga, oson realizatsiya qilinuvchi aktivlar va yuqori likvidli mablag'lardan tashkil topgan ishonchli kredit ta'minotiga qaratish kerak. Ushbu toifadagi kreditlarda qaytarmaslik belgilari mavjud emas, banklar uchun zarar ko'rish imkoniyatlari minimal darajada bo'ladi, kredit ta'minlanganligining garov, kafolat va boshqalar sifati, ta'minlanganlikka olingan mol-mulk, garov va boshqalarning tarkibida tez pulga aylanadigan aktivlar va yuqori likvid mablag'lar salmog'ining ko'pligi e'tiborga olinadi. Kredit bo'yicha olingan ta'minlanganlik (garov, mol-mulk va boshqalar) kredit summasi va u bo'yicha foiz stavkalarini to'lashga etarli bo'lgandagina kredit ta'minlangan deb baholanishi mumkin.

Kredit bo'yicha barcha hujjatlar qonun bo'yicha rasmiylashtirilishi va bank zarur bo'lganda kreditni undirib olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur (kreditning qaytarilmaslik ehtimoli cheklangan bo'lsada). Kreditning bu guruhida mijozning faoliyatidagi ikki asosiy omilga alohida e'tibor berish zarur. Bular:

- mijozning oldingi faoliyatidagi o'z majburiyatlariga bo'lgan munosabati;

- kredit bo'yicha aniq ta'minlangan (garov, kafolat, mulk va boshqalar) bo'lishi va uning to'g'ri rasmiylashtirilganligi.

**Standart kreditlar.** Bunday kreditlar bo'yicha vaqti-vaqti bilan kreditni o'z vaqtida qaytara olmaslik sharoiti yuzaga keladi. Lekin kreditni belgilangan muddatda to'lay olmaganda to'lov muddati bir marta uzaytirilishi va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik davri 30 kundan 60 kungacha, to'liq ta'minlanmagan kreditlar uchun 30 kundan oshmasligi lozim. Olgan krediti standart kredit deb topilgan mijozlarning moliyaviy ahvoli, odatda, barqaror bo'ladi, lekin sabablar tufayli uning faoliyatida salbiy moliyaviy xolat yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Bunday kreditlar qatoriga yaxshi rasmiylashtirilmagan kreditlar, garov, ta'minlanganligi bo'yicha to'g'ri hujjatlashtirilmagan yoki hujjatlar yetarli bo'lmagan kreditlar ham kirishi mumkin. Bu kreditlar bo'yicha 10 foiz miqdorida zaxira tashkil qilinishi zarur.

**Substandart kreditlar.** Bu guruhga kiruvchi kreditlar ularning sifati yetarli darajada emasligini bildiruvchi aniq belgilarga ega bo'ladi. Bu, asosan, kreditlarning bankka qaytib to'lanishida ma'lum kamchiliklar mavjudligini va qarzni to'lash uchun qo'shimcha manbalarni topish zarurligini ko'rsatadi. Substandart kreditlar qarz oluvchining ishonchli moliyaviy ahvoli va to'lov qobiliyatining yuqori darajasi bilan himoyalangan. Bu kredit kreditning ta'minlanganligini tashkil qiluvchi manbalar ma'lum tavakkalchiliklar bilan bog'liqligini, kreditning joriy holati bo'yicha yetarli axborotning mavjud emasligi, garov hujjatlarida ma'lum kamchiliklar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu kredit bo'yicha 60 kundan 90 kungacha to'lanmagan qarzlarning mavjud bo'lishi mumkin. Bu kreditlar moliyaviy ahvoli barqaror bo'lmagan, korxonaning to'lovga layoqatliligida kamchiliklar bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Substandart kreditlar bo'yicha to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun 25 foiz miqdorida zaxira tashkil qilinadi.

**Shubhali kreditlar.** Bu kreditlarga yuqorida keltirilgan guruhlardagi kreditlarning barcha salbiy tomonlarini o'zida ifoda qilgan, to'liq ta'minlanmagan, to'lanish ehtimoli kam bo'lgan kreditlar kiradi. Bu kreditlar bo'yicha olingan kredit yaxshi ta'minlangan bo'lganida asosiy qarz bo'yicha foizlarni to'lash muddati 120 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan bo'lsa, zarar ko'rish imkoniyati yuqori, biroq ushbu kreditlarning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan omillar mavjudligi sababli ularni yo'qotilgan, deb tasniflanishi vaqtincha to'xtatiladi. Bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 50 foizgacha zaxira tashkil qilinishi lozim.

**Ishonchsiz kreditlar.** Bu kreditlar bo'yicha qarzlarning to'lanish ehtimoli deyarli yo'q. Agar kredit to'liq ta'minlanmagan bo'lsa, eng kamida bitta muammoli tavsifga ega bo'lsa, to'lov muddati 180 kundan oshgan bo'lsa hamda kreditni "shubhali" deb tasniflab bo'lmasa, bunday aktivlar "ishonchsiz" deya hisoblanadi. Bu aktivlar juda past qiymatga ega bo'lib, ularni aktivlar sifatida hisobga olib borish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun banklar bu kreditlarni o'z balanslarida zarar sifatida hisobga olishlari mumkin. Ishonchsiz kreditlar foyda

hisobiga buning uchun foyda yetmagan hollarda esa, bank sarmoyasi hisobiga balansdan chiqarilishi mumkin. Bank uchun bu kreditlar zarar sifatida tasniflanadi.

Bir yil va undan ortiq muddatda harakatsiz bo'lgan aktivlar, muddati o'tgan va foizlar bo'yicha qarzlarning zarar sifatida tavsiflanishi mumkin. Shu sababli bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 100 % zaxira tashkil qilish lozim bo'ladi.

Tijorat banklarining kredit portfeli berilgan ssudalarning ta'minlanganlik darajasiga ko'ra quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

- birinchi darajada ta'minlangan;
- boshqa ta'minotga ega bo'lgan;
- to'liq ta'minlanmagan;
- ta'minlanmagan ssudalarga bo'linadi.

Birinchi darajada ta'minlangan kreditlar guruhiga to'liq ta'minlangan kreditlar kiradi. Ular quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kafolati;
- O'zbekiston Markaziy banki roziligi bilan birinchi sinf xorijiy banklari kafolati;

- erkin ayirboshlanadigan valyutadagi garov;
- O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlari ko'rinishidagi garov;
- standartlashtirilgan qimmatbaho metallar qo'yimlari ko'rinishidagi garov;

Boshqa ta'minotga ega bo'lgan ssudalar guruhiga quyidagilar bilan ta'minlangan kreditlar kiradi:

- mol-mulk garovi;
- qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov;
- boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning kafolat xati va boshqalar kiradi.

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to'la-to'kis olib borish ular tomonidan kredit siyosatining qay darajada tuzilganligiga bog'liq.

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda MDHga kiruvchi davlatlar tijorat banklarining kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotini tezroq rivojlantirishga yo'naltirilgan. Xozirgi vaqtda bu mustaqil davlatlarning banklari aksariyat hollarda vositachilik operatsiyalarini o'tkazish uchun ko'proq qisqa muddatli kreditlar bermoqdalar. Shu bilan birga, kreditni uzoq muddatga investitsiya qilish banklarga va jamiyatlarga katta foyda berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, banklarning aktiv operatsiyalari ularning foydasini shakllantirishga xizmat qilish bilan birga, ma'lum darajadagi risklarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Banklar aktiv operatsiyalarni bajarishda asosiy e'tiborni mavjud risklarning darajasini pasaytirish orqali balansning likvidligini ta'minlashga qaratadi.

### **XIY.3. Tijorat banklarining depozit, nodepozit va boshqa operatsiyalari**

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini bankga jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalari depozit operatsiyalari

deyiladi. Depozit operasialari tijorat banklarining 90 foizgacha passivlari tashkil qilinishi mumkin.

Depozit operasialarining suyektlari bo'lib bir tomondan tijorat banklari, ikkinchi tomondan korxonalar, tashkilotlar, moliya, sug'urta, investision va trast kompaniyalari, xususiy korxonalar, qo'shma, xissadorlik korxonalar, jamoa tashkilotlari, alohida jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Depozit operasialarining obyekt bo'lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (quyilmalari) hisoblanadi.

Pul quyuvchilarning toifasiga ko'ra depozitlar bo'linadi:

- yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar va boshqalar) qo'yilmalari;
- jismoniy shaxslar quyilmalari.

Mablag'larni olish shakliga ko'ra depozitlar bo'linadi:

- muddatli depozit mablag'lar;
- talab qilib olgunga qadar depozit mablag'lar;
- aholini jamg'arma mablag'lari.

Muddatli depozit mablag'lar bo'linadi:

- 3 oy muddatgacha;
- 3 oydan 6 oygacha;
- 6 oydan 9 oygacha;
- 9 oydan 12 oygacha;
- 12 oydan yuqori bo'lgan depozit mablag'lari.

Tijorat banklarining kredit resurslarini shakllantirishda depozitlar asosiy o'rin egallaydi. Ularning asosiysi talab olinadigan depozitlarga, muddatli hamda jamg'arma depozitlariga bo'linadi. Talab qilib olinadigan depozitlar joriy hisobvaraqlardan omonatchilarning birinchi talablari bilan olinadi. Joriy schet hisob varaqning egasi bankdan chek daftarchasini oladi. Bunda u pul olish bilan birga iqtisodiy munosabat vakillari bo'lgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar bilan ham hisob-kitob operatsiyalarini olib borishi mumkin.

Muddatli omonatlar - mijoz tomonidan bankka ma'lum muddatga qo'yiladigan qo'yilmalar bo'lib, ular orqali mijozlarga bank tomonidan yuqori foizlar to'lanadi. Bunda foiz stavkalari qo'yilmaning muddati va miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Muddatli qo'yilmalarning turlaridan biri, bu mablag'larni jalb qilishning aniq qayd etilgan vaqtga mo'ljallangan depozit sertifikatlar hisoblanadi. Ularni muomalaga 1961 yili birinchi bo'lib "Ferst neyshnl siti benk" kiritgan. Hisob egalari ularning nomlari yozilgan, to'lash muddati va foiz darajasi ko'rsatilgan maxsus guvohnomalar beriladi.

Xozirgi vaqtda tijorat banklari bo'sh pul mablag'larini jalb qilishda depozit sertifikatlaridan foydalanmoqda. Sertifikatda ko'rsatilgan qo'yilma muddati tugagandan so'ng, uning egasi qo'yilma miqdorini va kelishilgan foizlarni olish huquqiga ega bo'ladi.

Bank resurslari tarkibida aholining omonat qo'yilmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular to'liq summada yoki bo'lib-bo'lib qo'yilishi va berilishi mumkin. Omonatchi va bank o'rtasidagi mablag' qo'yish bilan bog'liq munosabat omonat

daftarchasini berish bilan tasdiqlanadi. Banklar to'lovchilik asosida turli xil maqsadli qo'yilmalarni, muddatli yoki talab qilish hamda olish mumkin bo'lgan jamg'armalarni qabul qiladilar. Shuningdek, ba'zi mamlakatlarda "Yangi yil qo'yilmalari" deb nomlangan turi ham mavjud. Bunda bank yil davomida, yangi yilni nishonlash uchun katta bo'lmagan qo'yilmalarni qabul qilib boradi va yil oxirida omonatchilarga pullarni qaytaradi, pul jamg'arishni xohlovchilar pul jamg'arishni keyingi yangi yilgacha davom ettirishlari ham mumkin. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bu qo'yilmalar oddiy fuqarolar orasida keng qo'llaniladi.

Banklar uchun muddatli qo'yilmalar juda qulay hisoblanadi.

Bank resurslarining muhim manbasi banklararo kreditlardir, ya'ni boshqa banklardan olinadigan ssudalar.

Ushbu resurslardan foydalanish sezilarli darajada rivojlangan. Pul-kredit bozorida qisqa muddatli banklararo kreditlar, shuningdek "qisqa pullar" salmog'i ko'pchilikni tashkil etadi.

Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalari deb tijorat banklarining yirik pul bozorlaridan pul mablag'larini jalb qilish, qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalarni muomilaga qo'yish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish sohasidagi operatsiyalariga aytiladi.

Jahon banki amaliyotida tijorat banklariga mablag'larni jalb qilishning keng tarqalgan nodepozit shakllariga quyidagilar kiradi:

- banklararo bozordan qarz olish;
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish (Repo operatsiyalari);
- bank akseptlarini sotish;
- tijorat qog'ozlarini chiqarish;
- yevro – dollarlar bozorida qarz olish;
- kapital notalar, obligatsiyalar chiqarish va boshqalar.

Nodepozit operatsiyalar bozorida raqobatchilik asosida, vositachilar (brokerlar) orqali sotib olinadi. Bunda birinchidan mablag'larni sotib olish g'oyasi bankning o'ziga tegishli, ikkinchidan bu g'oya bankning biror – bir mijoz bilan bog'liq emas. Nodepozit manbalardan asosan moliyaviy markazlarda joylashgan hamda moliya bozori mexanizmidan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan yirik banklar keng foydalanadilar. Nodepozit mablaglar yirik miqdorda sotib olinadi.

Tijorat banklarining boshqa operatsiyalariga bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalarini kiritish mumkin. Bunda banklar mijozning hisobidan ularning turli topshiriqlarini bajaradilar. Bunday topshiriqlar mamlakat ichida yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga pul o'tkazish bilan bog'liq.

Shunday operatsiyalardan biri bo'lib faktoring (inglizcha vositachi) operatsiyasi bo'lib bunda bank mijozning qarzga oid talablarini, ularni yetkazib berish qiymatining 80 foizi shu zahoti to'lash va qolgan qismini kredit uchun foizlar va vositachilik haqini chiqarib to'lash sharti bilan sotib oladi. Faktoring

operatsiyalarida banklar tovar sotib oluvchining qarz hujjatlarini sotib oladi, unda asosan uchta tomon ishtirok etadi<sup>25</sup>.

Birinchisi, faktor – vositachi, bankning faktoring operatsiyalarini bajaruvchi bo‘limi. Odatda, rivojlangan mamlakatlar tajribasida faktoring operatsiyalarini amalga oshirishga ixtisoslashgan factoring kompaniyalari tashkil etish amaliyoti ham mavjud.

Ikkinchisi, mijoz (tovar sotuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi), faktor –vositachi bilan kontrakt tuzuvchi sanoat yoki savdo firmasi.

Uchinchisi, tovar sotib oluvchi.

Mijoz sotilgan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo‘lgan pul mablag‘ini talab qiluvchi hujjatlar asosida “faktor – vositachi” bilan faktoring operatsiyasi bo‘yicha shartnoma tuzadi. Faktor – vositachi imzolangan faktoring shartnomasi asosida, ma'lum komission to‘lov hisobiga mijozga sotilgan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlarga to‘lovni amalga oshiradi. Sodaroq qilib aytganda, faktor – vositachi mijozdan tovar sotib oluvchiga mablag‘larni to‘lash bilan bog‘liq to‘lov hujjatlarni komission to‘lov asosida “sotib oladi”.

Faktor – vositachi mijoz bilan faktoring operatsiyasini imzolayotganda tovar sotib oluvchining moliyaviy holatini oqilona baholashi juda muhim hisoblanadi. Agar sotib oluvchining moliyaviy holati yomonlashib, faktoring operatsiyasi bo‘yicha faktor – vositachi tomonidan mijozga to‘lagan summani to‘lay olmasa, ushbu zarar faktor –vositachining gardaniga tushadi.

Iqtisodiyotda faktoring operatsiyalarni vujudga kelishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

– sotib oluvchi korxonalar va tashkilotlar olingan tovar yoki ko‘rsatilgan xizmatlarga to‘lashi lozim bo‘lgan mablag‘larni o‘z vaqtida to‘lash imkoniyatlarining mavjud emasligi. Bu qator ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlar tufayli vujudga keladi;

– tovar sotuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi mijozning ishlab chiqarish jarayonini doimiy ravishda davom ettirib turishi uchun moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini ta'minlashning zarurligi va boshqalar.

Vositachilik operatsiyalarining biri trast (inglizcha ishonchli) operatsiyalari hisoblanib u mulkka egalik qilishning eng tarqalgan shakli – aktsiya, obligatsiya va pul mablag‘larining bir egalikdan (shaxsdan) ikkinchi egalikga (shaxsga) o‘tkazishni banklar orqali amalga oshirishni bildiradi. Bu mijoz bilan kelishilgan holda uni mablag‘larini boshqarish ishonchini qulga kiritishdir.

Banklar trast operatsiyalarining nafaqat jismoniy shaxslar bo‘yicha balki yuridik shaxslar uchun ham amalga oshiradilar.

Jismoniy shaxslar uchun trast bo‘yicha merosni boshqarish ishonch va vosiylik bilan bog‘liq operatsiyalar bajariladi. Shunday operatsiyalarga tratta (italiyancha o‘tkazma veksel) operatsiyalarini ham kiritish mumkin. Bu kreditorning qarzdorga (odatda bankga) yozma buyrug‘i. Bu tashqi savdodagi

---

<sup>25</sup> Банки и банковские операции: Учебник для вузов/ Е.Ф.Жуков, Л.М.Максимова, О.М.Макарова и др.; Под ред. проф Е.Ф.Жукова. –М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1997. –С. 6.

hisob – kitoblarda qo‘llanilib unda bankning uchinchi shaxs (takdimchi) ga yoki trattani taqdim etganga muayyan summani to‘lash ko‘rsatiladi.

**Kontokorrent operatsiyalari.** Banklarning no‘anaviy operatsiyalaridan biri kontokorrent operatsiyalar hisoblanadi. Kontokorrent (ovyerdarft) operatsiyalarda mijozlarning banklardagi talab qilib olinguncha saqlanadigan deposit hisobvaraqlari bo‘yicha ma‘lum miqdorda debet qoldiq (ovyerdraft) qolishiga ruxsat beriladi. Albatta, bu iqtisodiy jarayon bank va mijoz o‘rtasida tegishli shartnoma asosida rasmiylashtiriladi, kontokorrent shartnomasiga binoan mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlarida mablag‘lar mavjud bo‘lmagan holda, unga to‘lovlarni amalga oshirish uchun tegishli summani debet qoldig‘i hisobidan o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Kontokorrent (ovyerdraft) operatsiyalarida mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘ining aktiv qismida qolgan qoldiq asosida bank hisobiga tegishli foiz hisoblanadi. Mijoz tomonidan sotilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan mablag‘lar uning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘i tushishi orqali debet qoldiq (ovyerdraft) summasi yopiladi.

Shu tariqa, bank va mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomada kelishilgan muddat davomida kontokorrent (ovyerdraft) operatsiyasi amalga oshiriladi. Uning ishtirokchilari bank va bankning mijoz hisoblanib, bank kontokorrent (ovyerdraft) shartnomasini tuzayotganda mijozning moliyaviy holati, balansining likvidligi va boshqa mezonlariga alohida e‘tibor qaratadi. Bunda asosan bank bilan uzoq yillardan buyon hamkorlik qilib kelayotgan va asosli to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan hamda ishonchli mijozlari yuqori mavqiega ega bo‘ladi.

Kontokorrent (ovyerdraft) operatsiyalarining qator afzalliklari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

– mijozning qisqa muddatli moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlaydi va qo‘shimcha hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt va moliyaviy mablag‘larni tejash imkoniyatini beradi;

– banklarga moliyaviy mablag‘larni ishonchli va samarali maqsadlarga joylashtirish imkoniyatini berish bilan birga, qo‘shimcha foyda olishga sharoit yaratadi.

Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari jumlasiga lizing operatsiyalarini ham kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, banklarning mohiyati va funktsiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko‘rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Shuningdek, banklarning iqtisodiyotdagi roli xususida so‘z ketganda, dastlab jamiyatda ularning bajaradigan operatsiyalarini zarurligi va turlari, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar va aholining ularga bo‘lgan ehtiyoji doirasida so‘z yuritish maqsadga muvofiq.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Qanday operatsiyalar passiv operatsiyalar deyiladi?
2. Passiv operatsiyalarning qanday asosiy shakllari mavjud?

3. Qanday operatsiyalar aktiv operatsiyalar deyiladi?
4. Qanday kreditlar yaxshi kreditlar deb baholanadi?
5. Qanday kreditlar standart kreditlar deb baholanadi?
6. Qanday kreditlar substandart kreditlar deb baholanadi?
7. Qanday kreditlar shubhali kreditlar deb baholanadi?
8. Qanday kreditlar umidsiz kreditlar deb baholanadi?
9. Depozit operatsiyalar qanday amalga oshiriladi?
10. Nodepozit operatsiyalar qanday amalga oshiriladi?

## **XY bob. Bank depozitlarini kengaytirishning multiplikatsiya mexanizmi**

### **XY.1. Tijorat banklari balansining qisqacha tasnifi**

Tijorat banklari balansi bank resurslarining pul ko‘rinishidagi holati bo‘lib, ularning shakllanish manbaalari va foydalanish yo‘nalishlari, shuningdek bankning hisobot davri boshi va oxiriga mablag‘larning moliyaviy natijasini aks ettiradi. Balans tahlili belgilangan davr bo‘yicha bank faoliyatining to‘liq xarakteristikasini beradi.

Tijorat banklari balansi ikki qismdan iborat bo‘lib, balansning aktiv qismida quyidagilar aks etadi:

- a) pul mablag‘lari;
- b) valyuta va qimmatli qog‘ozlar;
- v) bank ssudalari;
- s) asosiy vositala;
- d) boshqa aktivlar.

Tijorat banklari balansning passiv qismida quyidagilar aks etadi:

- a) bank fondlari;
- b) jalb qilingan mablag‘lar;
- v) xarid qilingan mablag‘lar;
- s) markazlashtirilgan kredit resurslar;
- d) boshqa passivlar.

Tijorat bankining balansi buxgalteriya balansi bo‘lib, u bankning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘larining holatini hamda ularni bankning kredit va jalb qilingan mablag‘larining holatini hamda ularni bankning kredit va boshqa aktiv operatsiyalariga joylashuvini ifodalaydi. Bundan tashqari, buxgalteriya balansi bank tomonidan bajariladigan operatsiyalarni xarakterlaydi va haqiqiy - olingan foydani ko‘rsatadi. Shu bois balans bank . moliyaviy faoliyati natijalarini ko‘rsatuvchi buxgalteriya hisobotining asosiy shakli bo‘lib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bank rahbarlariga bank ishini rivojlantirishida aniq chora va tadbirlar ishlab chiqishiga sharoit yaratadi. Badans ma‘lumotlari asosida bank kapitali va fondlari, kassadagi naqd pullar qoldig‘i, mijozlarning hisob-kitob va ssuda xisob varag‘laridagi qoldiqlar, hamda boshqa jalb qilingan mablag‘lar holati haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Bank aktivlari naqd pullardan boshlab hisobga olinadi va o‘z ichiga "Kassadagi naqd pullar", "Yo‘idagi naqd pullar", "Valyuta almashtirish shaxobchalari kassasidagi naqd pullar", "Bankomatlardagi naqd pullar" kabi bir qator subhisobvaraqlarini birlashtiradi. Majburiy zaxiralar fondi ham Markaziy Bankdagi alohida hisobvarag‘ida turadigan bank mablag‘i bo‘lib, O‘zbekistonning barcha tijorat banklari tomonidan majburiy tartibda zaxiralanadi, bu esa tijorat bankining likvidligini saqlab turishga ma‘lum - darajada kafolat bo‘ladi. Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalarning foiz stavkalarini belgilash Markaziy Bank tomonidan o‘tkaziladigan tijorat banklari likvidligini saqlab turuvchi eng ta‘sirchan mexanizm bo‘lib hisoblanadi.

Oldi-sotdi uchun mo`ljallangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar tijorat bankining fond bozoridagi operatsiyalarini aks ettiradi va balavs aktivining boshqa ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda qimmatli qog'ozlar bilan bo`ladigan operatsiyalarida bankning amaliy faolligini ifodrchyaydi.

Bank tomovidan berilgan - qisqa muddatli ssudalar - "Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli ssudalar, "Hukumatga berilgan qisqa muddatli ssudalar", "Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli ssudalar", "Davlat korxovalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar", "Qo'shma korxonalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar", "Xususiy korxonalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar", va "Korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli ssudalar" ko`rinishida qayd etiladi. Uzoq muddatli ssudalar ham turli mulkchilik shakllariga oluvchilar bo'yicha guruxlangan holda hisobga olib boriladi. Umuman, kreditlar tijorat banklarining ssudaga doir operatsiyalaridan bank foyda olishini belgalovchi moddasi hisoblanadi.

Balansda bank investitsiyalari ikki kategoriyaga bo`linadi:

a) Hukumat obligatsiyalariga investitsiya qilingan mablag'lar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining obligatsiyalariga hamda xususiy obligatsiyalarga investitsiya qilingan mablag'lar;

b) O'z qimmatbaqo qog'ozlariga qo'yilgan investitsiyalar.

Balans aktivida aks ettiriladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar - bank aktivlarining asosiy moddalaridan biri bo`lib hisoblanadi, chunki bank o`z faoliyatini tashkil qilish uchun moddiy bazaga, operatsiyalarni bajarish uchun shart - sharoitga eta bo`lishi lozim. Bankning asosiy vositalariga bino - inshootlar, kapital qurilish uchun bank tomonidan qilingan xarajatlar, ofis va ish mebeli, jixozlar, kompyuter va boshqa xisoblash texnikasi, aloqa vositalari kabilar kiradi.

Bank balansining "Majburiyatlar" qismi depozitlardan boshlanadi. Depozitlar bankning boshqa sub`ektlardan jalb qilingan manbalarini ifodalaydi. Buxgalteriya hisobining ko`p valyutalik tizimida depozit qaysi valyutada qo'yilsa, u o'sha valyutada ro`yxatga olinadi va ularning hisobi har bir valyuta uchun alohida ochilgan bosh kitoblarida olib boriladi. Bundan tashqari depozit majburiyatlari muddati va uni qo`ygan mijozning mulkchilik shakliga ko'ra ham tasniflanadi.

Barcha depozitlar talab qilib olinguncha saqlanadigan, jamg'armali va muddatsiz depozit turlariga bo`linadi. Boshqa banklardan va mijozlardan olingan ssudalar muddatlari va kreditorlarning turlari bo'yicha tasniflanadi, ya'ni "Bank tomonidan olingan o`rta muddatli ssudalar", "Bank tomonidan olipgan o`rta muddatli ssudalar", "Bank tomonidan olingan uzoq muddatli ssudalar" ko`rinishida olib boriladi.

Bank balansining "KAPITAL" bo`limi o`z ichiga "Aksionerlik kapitali", "Qo'shimcha kagshtal" "Zaxira kapitali" deb nomlangan asosiy hisobraqamlarini oladi. Tijorat bankining aktsiyadorlik kapitali bankning o`z mablag'larini ifodalaydi. Markaziy Bank tijorat banklarining kapital hosil qilish darajasini va tuzilmasini tartibga solib turadi, bu esa bank daromadlarini yaxshilaydi. "Kapital" bo`limida yuqoridagi hisobraqamlardan tashqari "Taqsimlangan foyda"ni ham aks ettiriladi.,

## XY.2. Tijorat banklarining faoliyat mexanizmi

Tijorat banklari ham boshqa korxonalar qatori o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'yadi. Shu sababli ular kredit berish va qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishga harakat qiladi. Bular tijorat banklariga daromad keltiruvchi asosiy aktivlar hisoblanadi. Banklar uchun xavfsizlik naqd pullar va ortiqcha zaxiralar orqali ta'minlanadi. Tijorat banklari kreditlashni faqat o'z ixtiyorlaridagi mavjud kredit resurslari doirasida amalga oshiradi. Ma'lumki, bank tizimi barqarorligini saqlab turish va pul kredit siyosatining samarali o'tkazilishi uchun qonunchilikda barcha tijorat banklari zaxira talabi shartlarini bajarishga majbur va shunga muvofiq o'z depozitlarining ma'lum bir qismini majburiy zaxira shaklida saqlashi zarur, deb belgilab qo'yilgan. Mana shu zaxiralar miqdori bilan bankning kredit operatsiyalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Depozitlar o'sishi barobarida majburiy zaxiralar summasi ham orta borishi zarur.

Tijorat banklarining faoliyat mexanizmi bilan chuqurroq tanishish uchun quyidagi bir necha bitimlarni (shartli misollarda) ko'rib chiqamiz.

**1-bitim.** Yangi tashkil bo'lgan bank o'zlarining 250000 ming so'mlik aksiyalarini muomalaga chiqarib sotdi. Natijada ushbu bank 250000 ming so'mlik resursga va 250000 ming so'mlik sotilgan aksiyaga ega bo'ldi. Bu bank balansida quyidagicha aks ettiriladi(mln.hisobida):

aktiv	passiv
Resurs -250	a/k - 250

**2-bitim.** Yangi tashkil etilgan bank rahbariyati 220000 ming so'mga ofis uchun bino va 20000 ming so'mga ofis uchun jihozlar sotib olishdi.

Bu bank balansida quyidagicha aks ettiriladi(mln.hisobida):

aktiv	passiv
Resurs -10	a/k - 250
Asosiy vosita - 240	

**3-bitim.** Bankka mablag' qo'yilishi. Ma'lumki, tijorat banklari asosan ikki vazifani bajaradi: pul mablag'larini qabul qilish va kredit berish. Faraz qilamiz bir firma tomonidan bankka 100000 ming so'm mablag' qo'yildi. Bank tomonidan olingan mablag' bank uchun aktiv xisoblanadi, qo'yilgan muddatsiz qo'yilmalar uni qo'yuvchilar tomonidan bankning aktiviga nisbatan talabnoma xisoblanadi.

Bu bank balansida quyidagicha aks ettiriladi(mln.hisobida):

aktiv	passiv
Resurs -110	a/k - 250
Asosiy vosita - 240	muddatsiz qo'yilma - 100

**4-bitim.** Markaziy banklarga majburiy qo'yilma. Har bir tijorat banki qonun bilan o'rnatilgan minimal zaxiralarga ega bo'lishi kerak.

Minimal zaxiralar bu tijorat banklari resurslarining Markaziy bankda majburiy saqlanishi zarur bo'lgan qismidir. Majburiy zaxira miqdori tijorat bankining chetdan jalb qilingan resurslariga nisbatan foizda belgilanadi. Bu zaxira bevosita banklarning kreditlash imkoniyatini chegaralasa-da, ularning minimal likvidligini ta'minlash omili bo'lishi mumkin.

Minimal zaxira me'vori jamg'arma turiga, uning hajmiga, bankning joylashish o'rniga bog'liq bo'lgan holda turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin.

Tijorat bankida mavjud pul mablag'lari bankning haqiqiy (umumiy) resursini tashkil etsa, shu haqiqiy resurslarning majburiy zaxiralardan ortiqcha qismi ortiqcha zaxiralarni tashkil etadi.

**Ortiqcha zaxira = haqiqiy resurs – majburiy zaxira**

Yuqoridagi 3-bitim bo'yicha haqiqiy resurs – 110 mln.so'm, majburiy zaxira (masalan, rezerv norma – 10% bo'lganda) – 10 mln.so'm (muddatsiz qo'yilma – 100\*10%), ortiqcha rezerv esa 100 mln.so'm (110 - 10).

Ortiqcha zaxiralar tijorat banklarining negizini tashkil qiladi. U berish uchun rejalashtirib qo'yilgan ssudalar hajmiga teng keladigan miqdorda zaxiralarga ega bo'lishi lozim, chunki bank yaratilgan depozitlarga yozib beriladigan cheklar bo'yicha to'lashga tayyor turishi shart.

**5-bitim.** Bankka yozilgan chek. 3-bitim bo'yicha, bankka 100 mln.co'mlik muddatsiz mablag' qo'gan firma rahbari, o'zining qo'yilmasi hisobidan 50 mln.so'miga chek yozib, bankka murojaat qildi va mijozning talabi qondirildi.

Bu bank balansida quyidagicha aks ettiriladi(mln.hisobida):

<b>aktiv</b>	<b>passiv</b>
Resurs -60	a/k – 250
Asosiy vosita - 240	muddatsiz qo'yilma - 50

**6-bitim.** Bank tomonidan kredit ajratilishi. Bank 50 mln.so'mlik kredit so'rab murojaat qilgan mijoz uchun 50 mln.so'mlik kredit ajratdi.

Bu bank balansida quyidagicha aks ettiriladi(mln.hisobida):

<b>aktiv</b>	<b>passiv</b>
Resurs -60	a/k – 250
Ssuda -50	muddatsiz qo'yilma – 100
Asosiy vosita - 240	joriy hisob - 50

Nazariy jihatdan zamonaviy bank tizimida naqd pulsiz aylanishlarning rivojlanishi natijasida dastlabki shakllantirilgan depozitlarni cheklanmagan tarzda bir bankdan ikkinchi bankga o'tkazish, shu bilan birga tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarni cheksiz oshirish imkoniyati mavjud. Xorijiy nazariyada bu

jarayon depozit multiplikasiyasi (mablag'larni bir bankdan ikkinchi bankga o'tkazilishi) va kredit ekspansiyasi deb nom olgan.

Masalan «A» bankdan dastlabki depozit 1000 birlikni tashkil etsa uning 20 % majburiy zahira sifatida Markaziy bankga o'tkazilsa bankni kredit berish imkoniyati 800 birlikni tashkil qiladi. Bu kredit mijozga berilgandan keyin boshqa bankda depozitga aylanishi mumkin. Jumladan, ushbu berilgan kredit summasi «B» bankning mijoz bo'lgan maxsulot yetkazib beruvchining hisob varag'iga sotuvdan tushum shaklida kelib tushadi. Bunda A bankning krediti B bankda depozitni vujudga keltiradi. B bank bu depozitdan kredit beradigan bo'lsa, majburiy zahirani hisobga olgan holda uning miqdori 640 (800 – 160) birlikka teng bo'ladi va mana shu tariqa davom etadi.

Bank tizimining bir qadar qiziqarli xususiyati shundan iboratki, aytaylik, agar alohida tijorat banki o'zidagi mavjud zaxira hajmidagina ssuda bersa, butun bank tizimi uning zaxirasiidan bir necha barobar ortiq miqdorda ssuda taqdim etishi mumkin. Bunday hodisa depozitlarning multiplikatsiya tarzida kengayishi (ko'p qirrali omonatlar orqali kengayish) deb nom olgan.

Bank tizimida 1000 birlik miqdorida zaxiraning paydo bo'lishi zaxiralashning majburiy me'yori 20 foizni tashkil etgan taqdirda tijorat banklari tizimini 4000 birlik miqdorida ssuda berishga qodir qilib qo'yadi.

Pul multiplikatori – ortiqcha zaxiraning bir so'mi bilan zaxira me'yorining berilgan kattaligida eng ko'p miqdordagi yangi pullar deganidir. Bu kattalik talab qilinadigan zaxira me'yoriga teskari hisoblanadi.

$$m = \frac{1}{R}$$

bunda: m– pul multiplikatori;

R – zaxira me'yori.

Binobarin, bank tizimi zaxira me'yori 20 foiz bo'lganda besh karra hajmda ssuda berishi mumkin. Bank tizimi tomonidanyaratiladigan yangi kredit pullarning eng ko'p miqdori - D ortiqcha zaxiralarning mazkur miqdori – E ni pul multiplikatori – m ga ko'paytirish yo'li bilan olinadi:

$$D = E \times m$$

Zaxira me'yorini o'zgartirish bilan bank tizimining kredit qobilyati kengayadi yoki torayadi. Zaxiralash me'yori pasayganda bank tizimining kredit qobilyati kengayadi, oshganda esa torayadi.

Xulosa qilib aytganda, bank tizimining bir qadar qiziqarli xususiyati shundan iboratki, aytaylik, agar alohida tijorat banki o'zidagi mavjud zaxira hajmidagina ssuda bersa, butun bank tizimi uning zaxirasiidan bir necha barobar ortiq miqdorda ssuda taqdim etishi mumkin. Bunday hodisa depozitlarning multiplikatsiya tarzida kengayishi (ko'p qirrali omonatlar orqali kengayish) deb nom olgan.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Tijorat banklari balansini tasniflang.
2. Tijorat banklari balansining aktiv qismini tasniflanh.
3. Pul mablag'lariga nimalar kiradi?
4. Bank balansining aktiv qismida aks ettiriladigan qimmatli qog'ozlarni ta'riflang.
5. Bank balansining aktiv qismida aks ettiriladigan ssudalarni ta'riflang.
6. Bankning asosiy vositalarini tushuntiring.
7. Tijorat banklari balansning passiv qismida qanday elementlar aks ettiriladi?
8. Bank fondlariga nimalar kiradi?
9. Qanday mablag'lar jalb qilingan mablag'lar hisoblanadi?
10. Qanday mablag'lar xarid qilingan mablag'lar hisoblanadi?
11. Markazlashtirilgan kredit resurslarni tushuntiring.
12. Bankning ortiqcha zaxiralari qanday aniqlanadi?

## **XYI bob. Tijorat banklarining likvidligi**

### **XYI.1. Bank likvidligi va uni ta'minlash yo'llari**

Tijorat banklarning moliyaviy holatiga baho berishda ularning foydaliligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatligiga e'tibor qaratiladi. Aynan shu omillar bankning moliyaviy holati qanday darajada ekanligini belgilaydi. Banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatligi nafaqat bitta bank yoki bank tizimining muvozanatligini, balki butun bir iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlaydi. Bank faoliyati tizimida eng avvalo banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatligi ahamiyatli hisoblanadi, chunki foydalilik faqatgina bankning o'z manfaatini ifodalasa, likvidlik va to'lovga qobiliyatlik jamiyatning keng qatlami manfaatlarini ifodalaydi.

**Bank likvidligi deb** aktivlarning naqd pul sifatida ishlatish yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan holda tezda pul mablag'lariga aylantirish yo'li bilan mavjud moliyaviy majburiyatlarni qoplay olish qobiliyatiga aytiladi.

Agar bankning naqd pullari va likvid aktivlarining yig'indisi uning qarzi va moliyaviy majburiyatlarini qoplash uchun yetarli bo'lsa bank faoliyati likvid hisoblanadi.

Bank likvidligiga erishish uchun:

- Tijorat bankining ma'lum vaqt mobaynidagi aktivlari tarkibini takomillashtirish yo'li bilan. Bunda ayrim aktivlarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va xavf-xatarligini aniqlash; aktivlar sifatini ular daromadligi, likvidligi, diversifikasiya qilinganligiga e'tiborni qaratgan holda.

- Tijorat bankining ma'lum vaqt mobaynida yuzaga kelgan noqulay tushib ketishdan aktiv va passivlarning mos moddalarini qo'shimcha zayom mablag'larini jalb qilish va bank moliyaviy barqarorligini daromadlarini o'stirish yo'li bilan.

- Bank faoliyatini tahlil qilish, ustav, maxsus fondlar va zahiralar jalb qilingan mablag'lar, aktiv kredit operasialarini amalga oshirishni tahlil qilishda ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosat olib borish orqali.

Umuman olganda har bir tijorat banki o'z likvidligini saqlash uchun butun choralar bilan harakat qilishi lozim.

Umumiy likvidlikni baholashda tijorat banklari asosiy likvidlik, joriy likvidlik va istiqbolli likvidlikni bir tizimda tahlil qilishlari lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan, chunki tijorat banklarning foydasi bank kapitali to'planishining va rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Bank foydasining oshib borishiga bankning rentabelligi, vaqtincha bo'sh mablag'larning samarali ishlatilishi, turli xil xizmatlarni ko'rsatish doirasini kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish va boshqa omillar ta'sir etadi.

Tijorat banklari foydasini kamayishiga quyidagi omillar ta'sir etadi.

- Balansning nolikvidligi, bunda likvidlik kamomadini to'ldirish uchun qo'shimcha kredit resurslarini jalb qilish zaruriyati tug'iladi.

- Depozitlarning barqaror emasligi.

- Inflyasiyaning o'sishi va u orqali tartibga soluvchi talablar, jumladan, yuqori majburiy zahiralarning talabi ta'siri ostida bo'lgan foiz darajasining pastligi.
- Daromad keltiruvchi aktivlarning noqulay tarkibi, jumladan kam daromad keltiruvchi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, foizsiz ssudalar salmog'ining yuqoriligi va to'lovli passivlar.
- Foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlarning salbiy nisbati.
- Ma'muriy xo'jalik xarajatlarning maqsadga muvofiq bo'lmagan yuqori darajasi
- Kredit portfelida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining yuqoriligi va berilgan kreditlarning foydalanish hamda qaytarilish muddatlarini uzaytirish bilan bog'liq yo'qotishlar.
- Qimmatli qog'ozlar qiymatining tushishi.
- Soliqlar darajasining yuqoriligi.
- Muvozanatlashtirilmagan foiz siyosati.
- Hajmi va miqdori jihatidan o'z kapitali miqdorini chegaralovchi asoslanmagan yuqori darajada xatarli bo'lgan bank faoliyatini yuritish va boshqalar.

Umuman tijorat banklari faoliyatiga ta'sir etuvchi muammo va omillar ichida banklarni daromadlarini o'stirish va xarajatlarini kamaytirish bilan bog'liqlari muhim o'rinni egallaydi. Har bir tijorat banki o'zlarining kundalik faoliyatida ularni birinchi navbatda hal etish choralarini ko'rish lozim.

## **XYI.2. Tijorat banklari faoliyatida amal qiluvchi iqtisodiy me'yorlar**

Tijorat banklari uchun iqtisodiy me'yorlarning o'rnatilishi – bu avvalo Markaziy bank tomonidan samarali bank nazoratini olib borishga erishish, tijorat banklari faoliyatida vujudga keladigan muammolarni oldindan aniqlash va barqaror bank tizimini yaratishda muhim vositadir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatini tartibga solishni xalqaro andozlariga mos ravishda takomillashtirish hamda tijorat banklarining moliyaviy holatiga real baho berishni 1997 yil 22 avgustda tasdiqlangan 10 – sonli «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish qoidalarini» asosida olib boradi. Bu qoidalarga ko'ra respublika tijorat banklari faoliyatini baholashning quyidagi me'yorlari tasdiqlangan va ular barcha banklar tomonidan bajarilishi lozim:

1. Yangidan tashkil etilayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan banklarning eng kam ustav fondi miqdorini o'rnatish.
2. Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti.
3. Bank kapitali bilan uning majburiyatlari o'rtasidagi nisbat ko'rsatkichlari.
4. Bank balansi likvidligi ko'rsatkichi.
5. Bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan xatarning eng katta hajmi.
6. Barcha katta kreditlarga to'g'ri keladigan xatarning eng yuqori hajmi.
7. Bir omonatchiga to'g'ri keladigan xatarning eng katta miqdori.

8. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarda o'z mablag'laridan foydalanish ko'rsatkichi.

9. Daxldor shaxslar bilan ish olib borish.

Bugungi kunda yangidan tashkil etilayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan banklarning eng kam ustav fondi tijorat banklari uchun 10 mln.yevro ekvivalentida, chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun 10 mln.yevro ekvivalentida, xususiy banklar uchun esa 5 mln.yevro ekvivalentida me'yor o'rnatilgan.

Kapitalning yetarlilik koeffisienti quyidagicha aniqlanadi:

$$M_1 = \frac{K}{A_x}$$

bunda K – bank kapitali;  $A_x$  – xatarni hisobga olib chamalangan bank aktivlari

Bank kapitali asosiy ikki qismdan – asosiy va qo'shimcha kapitaldan iborat. Bunda asosiy kapitalni umumiy kapitaldagi salmogi 50 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Bank kapitali o'zining xatar darajasiga ko'ra quyidagicha bo'linadi:

- a) xatardan xoli bo'lgan aktivlar;
- b) minimal xatarli aktivlar;
- s) yuqori xatarli aktivlar;
- d) Maksimal xatarga ega bo'lgan aktivlar.

Mazkur koeffisientning minimal miqdori 0,08 ga teng bo'lishi kerak.

Bank kapitali bilan uning majburiyatlari o'rtasidagi nisbat ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$M_2 = \frac{K}{M}$$

Bunda M – bank majburiyatlari

Bu ko'rsatkich bank majburiyatlarini o'z kapitali bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi va uning eng yuqori miqdori 0,05 ga teng.

Tijorat banklari uchun quyidagi likvidlik koeffisientlari belgilangan (bank likvidligi deb o'z aktivlarini naqd pul sifatida ishlatish yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan xolda tezda pul mablag'lariga aylantirish yo'li bilan mavjud moliyaviy majburiyatlarini qoplay olish qobiliyatiga aytiladi):

a) Lahzali likvidlik koeffisienti va u quyidagi nisbat bo'yicha aniqlanadi:

$$M_3 = \frac{LA}{BM}$$

Bunda: LA – bankning pul shaklidagi aktivlari

BM – bankning muddatsiz depozit hisob varaqlariga doir majburiyatlari

Bu me'yor bankning omonatchilari oldidagi majburiyatlarini shu lahzada bajara olish qobiliyatini anglatadi va uni Markaziy bank tomonidan kunlik balans asosida tezkor tarzda nazorat qilib boriladi. Bu koeffisientning minimal miqdori 0,25 dan kam bo'lmasligi kerak.

b) Joriy likvidlik koeffisienti likvid shakldagi bank aktivlarining talab qilib olingunga qadar bo‘lgan hisob varaqlari buyicha va muddati 30 kungacha bo‘lgan majburiyatlar nisbati sifatida aniqlanadi:

$$M_4 = \frac{LA(1)}{BM(1)}$$

Bunda: LA (1) – qaytarish muddati 30 kungacha muddatda berilgan bankning likvid aktivlari va kreditlar

BM (1) – qaytarish muddati 30 kungacha bo‘lgan yo‘qlab olingungacha turadigan majburiyatlari

Bu koeffisientning minimal miqdori 0,3 ga teng

v) Qiska muddatli likvidlik koeffisienti bankning qaytarish muddati 30 kundan 1 yilgacha bo‘lgan depozitlar, olingan kreditlari va boshqa qarz majburiyatlariga nisbati tarzda aniqlanadi.

$$M_5 = \frac{A}{D + K}$$

Bunda A – 30 kundan 1 yilgacha bo‘lgan bank aktivlari

D – muddati 30 kundan bir yilgacha bo‘lgan jalb qilingan depozitlar va jalb qilingan resurslar

Bu ko‘rsatkichning xajmi 1 – ga teng bo‘lishi kerak.

Bir qarz oluvchiga to‘g‘ri keladigan xatarni eng katta hajmi quyidagicha aniqlanadi.

$$M_6 = \frac{YK}{K}$$

Bunda YK – bank xatarining bir qarz oluvchiga to‘g‘ri keladigan summasi qo‘shilgan depozitlardan tashqari 75 foiz balansdan tashqari majburiyatlar. Bu davlat kafolatlangan kreditlariga tegishli emas.

Bu me‘yorning yuqori chegarasi 0,25 ga teng.

Barcha katta kreditlarga to‘g‘ri keladigan xatarning eng yuqori hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$M_7 = \frac{JYKS}{K}$$

Bunda: JYKS – jami yirik kreditlar summasi

Umuman bir qarz oluvchiga berilgan kreditlar qo‘shilgan shu qarz oluvchiga nisbatan bergan, bank kapitalidan 15 foiz ortiq bo‘lgan balansdan tashqari majburiyatlar summasining 75 foiz jamlangan qarz katta kredit hisoblanadi. Bank uchun katta kredit toifaga kiradigan va bir qarz oluvchiga beriladigan kreditlar summasini shu qarz oluvchining o‘z mablag‘lari summasidan oshirmaslik tavsiya etiladi.

Bu me‘yor bank kapitalining 5 barobaridan oshmasligi kerak.

Bir omonatchiga (kreditorga) to‘g‘ri keladigan xatarning eng yuqori me‘yori olingan kredit yoki omonatning eng yuqori miqdori va bitta depozitorning depozit hisob varag‘idagi qoldiq qiymatini bankning o‘z mablag‘lari miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

$$M_8 = \frac{O}{K}$$

Bunda O – olingan kredit yoki omonatning eng yuqori miqdori va bitta omonatchining hisob raqamidagi, joriy raqamidagi va qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar qoldiqlari.

Ushbu me'yor uchun o'rnatilgan eng yuqori miqdor 1999 yilning 1 yanvaridan 2000 yilni 1 yanvarigacha – 0,50. Demak bu har yilga alohida belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlar bilan bo'lgan operatsiyalarda o'z mablag'idan foydalanish ko'rsatkichi bankning oldi – sotti uchun harid qilgan nodavlat qimmatli qog'ozlari miqdorini o'z mablag'lariga nisbati bilan belgilanadi.

$$M_9 = \frac{KK}{AK}$$

Bunda: KK – oldi – sotti maqsadida qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilgan bankning o'z mablag'lari

AK – aksioner kapitali

Bankning boshqa banklar, korxonalar, tashkilotlar ustav fondiga quyadigan jami investisiya summasi miqdorining ulushi bank kapitalining 20 foizidan, Ustav fondining 10 foizidan oshirmaslik tavsiya etiladi.

Mazkur me'yor uchun belgilangan miqdor 0,5 ga teng

Bankning asosiy aksiyadorlari, uning raxbarlari, xodimlari va ular bilan bog'liq shaxslar bank xizmatlaridan imtiyozli asosda foydalanmasliklari va amaldagi qonunlarga rioya qilishlari talablaridan kelib chiqib daxldor shaxslar ko'rsatkichi mavjud.

Kengroq ma'noda shunday shaxslarga kiritiladi:

- bank kengashi, bank boshqaruvi, taftish komissiyasi tarkibiga kirgan barcha shaxslar, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari

- bank ustav fondining 10 foizidan ko'proq qismiga ega bo'lgan har qanday yuridik va jismoniy shaxslar, shu yuridik shaxslarning har qanday rahbarlari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari

- qonunga ko'ra bank faoliyatini nazorat qiluvchi yuridik shaxslar va ularning boshqaruvchilari

Ulariga imtiyozli sharoit yaratmaslik kerak deganda:

- boshqa mijozlardan talab qilinadiganidan kam hajmda foizlar, badallar, boshqa tulovlarni undirish yoki ta'minotni kam kabo'l qilish

- kreditni qaytarish muddatini yetarli asoslarsiz o'zgartirish

- o'z tabiatiga, maqsadiga va yul quyiladigan xatarga ko'ra bank daxldor bo'lmagan mijozlar bilan to'zmaydigan bitimlarni to'zish.

Tijorat banklari tomonidan ularning faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida daxldor shaxslarga kredit berish taqiqlanadi.

$$M_{10} = \frac{KC \times 100}{AK}$$

Bunda: KS – bitta daxldor shaxsga berilgan kredit miqdori

Bu ko'rsatkich bank kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak.

Bank barcha daxldor shaxslarga beradigan kreditlarning umumiy summasi bank ustav fondining 100 foizidan oshmasligi kerak.

$$M_{11} = \frac{JKM}{AK}$$

Bunda: JKM – daxldor shaxslarga berilgan jami kreditlar miqdori.

Yuqorida keltirilgan iqtisodiy me'yorlarga amal qilmagan banklarga Markaziy bank tegishli qonun hujjatlari asosida quyidagi jazo choralari qo'llaydi:

- iqtisodiy me'yorlarni o'zgartirish;
- majburiy rezerv fondini oshirish;
- ayrim bank operasialarini amalga oshirishni ta'qiqlash;
- hissadorlarga dividendlar to'lashni tuxtatib qo'yish;
- bank ustidan vasiylik o'rnatish;
- eng oxirgi chora ularga berilgan lisenziyalarni qaytarib olish.

Shu kabi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarining ish yakunlarini ko'rib chiqish vaqtida aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarga banklarning depozit hisob varaqlaridan naqd pullarni kechiktirmay to'lash borasida o'rnatilgan tartib bir necha marta (oyiga 3 martadan ko'proq) buzilgan taqdirda tijorat banklari xududiy bo'limlari va filiallarining xabarlar egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi, naqd pul mablag'lari berishni muntazam kechiktirish xollari mavjud bo'lganida tijorat banklariga nisbatan qattiq javobgarlik choralari, xatto bank operasialarini amalga oshirish xuquqini beradigan lisenziyani qaytarib olish choralari qo'llanilishi belgilangan.

### **XYI.3. Bank tizimi barqarorligi va banklarni to'lov qobiliyatini ta'minlash yo'llari**

Banklarning likvidligi hamda to'lovga qobiliyatligi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlashga asos hisoblanadi. Bankning moliyaviy barqarorligiga turli ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida bankning moliyaviy bozordagi raqobatdoshligi, doimiy mijozlarning mavjudligi va bank amaliyotini utkazish hamda hisobini rasmiylashtirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash omillari muhim o'rin tutadi. Bankning ichki barqarorligi bu tijorat bank faoliyatining barqaror, yuqori natijalarini ta'minlovchi passivlar va aktivlar tarkibining holati va moliyaviy natijalar dinamikasidir.

Tijorat bankiga nisbatan tashqi barqarorlik, ushbu bank faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilanadi. Tashqi barqarorlikka butun mamlakat miq'yosidagi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan boshqarish tizimi orqali erishiladi.

Bankning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish quyidagi asosiy yoʻnalishlarda olib boriladi.

1. Retrospektiv tahlil. Bunda Markaziy bank tomonidan banklar uchun oʻrnatilgan iqtisodiy meʼyorlarga tijorat banklari tomonidan rioya qilinishining nazorat qilishga asoslangan moliyaviy barqarorlikning asosiy koʻrsatkichlari va belgilarini tahlil qilishni oʻz ichiga oladi. Bu yunalishda likvidlik, foydalilik, aktivlar sifati, kapitalning yetarliligi va boshqalar tahlil qilinadi.

2. Perspektiv tahlil. Bu yoʻnalishning maqsadi tijorat banki faoliyati samaradorligini prognozlash hisoblanadi.

Bank likvidligini taʼminlovchi omillardan biri bank tomonidan qarz olish, oʻz aktivlarini sotish yoʻli bilan yoki oʻz majburiyatlarini bajarish uchun mablagʻ topa olish imkonini beradigan pul bozorining mavjudligidir.

Toʻlovga qobiliyatsizlik maʼlum bir sanaga belgilangan majburiyatlarni qoplay va toʻlay olish qobiliyatini bildiradi. Shuni taʼkidlash lozimki likvidligi boʻlmagan bank toʻlovga layoqatli boʻla olmaydi. Amalda aynan likvidlik toʻlovga qobiliyatsizlikning asosiy sababi boʻlib, ularni bankrot va bank tizimining berqarorligiga olib kelishi mumkin.

Banklarning likvidligi hamda toʻlov qobiliyatligi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini taʼminlashga asos hisoblanadi.

Oʻzbekiston bank tizimining likvidlikni taʼminlashni eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklda. Masalan, naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklar vakillik hisob varaqlaridagi qoldiqlar, davlatning qisqa muddatli obligasiyalari shaklida saqlash hisoblanadi.

Banklar zurrur boʻlganda yoki moyaviy bozorda qarz olish yoki banklararo kreditlar olish hisobiga likvidlikni taʼminlashi mumkin .

Bank likvidligini taʼminlovchi omillardan biri bank passivlarining sifatidir. Oʻz va jalb qilingan mablagʻlar nisbati bankning ishonchligi va faoliyati rivojlanishining istiqbolini xarakterlaydi. Jalb qilingan mablagʻlar oqimining barqarorligi likvidlik muammosini hosil qilmasdan turib qisqa muddatli resurslarni uzoq muddatli quyilmalarga yoʻnaltirish imkoniyatini beradi.

Bank likvidligini taʼminlovchi omillardan biri bank tomonidan qarz olish, oʻz aktivlarni sotish yoʻli bilan yoki oʻz majburiyatlarini bajarish uchun mablagʻ topa olish imkonini beradigan pul bozorini mavjudligidir.

Banklar moliyaviy barqarorligini yana bir omili bu bank faoliyatining faoliyatining foydaliligidir. Foyda olish-bank faoliyati koʻlamini kengaytirish manbalaridan biridir

Xulosa sifatida shuni taʼkidlash lozimki, tijorat banklarning moliyaviy holatiga baho berishda ularning foydaliligi, likvidligi va toʻlovga qobiliyatligiga eʼtibor qaratiladi. Aynan shu omillar bankning moliyaviy holati qanday darajada ekanligini belgilaydi. Banklarning likvidligi va toʻlovga qobiliyatligi nafaqat bitta bank yoki bank tizimining muvozanatligini, balki butun bir iqtisodiyotning muvozanatini taʼminlaydi. Bank faoliyati tizimida eng avvalo banklarning likvidligi va toʻlovga qobiliyatligi ahamiyatli hisoblanadi, chunki foydalilik

faqatgina bankning o'z manfaatini ifodalasa, likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik jamiyatning keng qatlami manfaatlarini ifodalaydi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Bank likvidliligi nima?
2. Tijorat banklari faoliyatida qo'llaniladigan iqtisodiy me'yorlar?
3. Yangidan tashkil etilayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan banklarning eng kam ustav fondi miqdori qanday o'rnatiladi?
4. Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
5. Bank kapitali bilan uning majburiyatlari o'rtasidagi nisbat ko'rsatkichlari qanday mazmuni bildiradi?
6. Bank balansi likvidligi ko'rsatkichi nimani bildiradi?
7. Barcha katta kreditlarga to'g'ri keladigan xatarning eng yuqori hajmi qanday aniqlanadi?
8. Bir omonatchiga to'g'ri keladigan xatarning eng katta miqdori ko'rsatkichi nimani bildiradi?
9. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarda o'z mablag'laridan foydalanish ko'rsatkichi nima uchun joriy etilgan?
10. Bank likvidligi qanday omillar orqali ta'minlanadi?

## **XYII. bob. Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari**

### **XYII.1. Xalqaro moliya institutlari haqida tushuncha**

Xalqaro moliyaviy institutlariga umumiy xarakteristika. Xalqaro moliya institutlari nafaqat jahon iqtisodiyoti balki milliy iqtisodiyotni rivojiga, jahon iqtisodiyotini iqtisodiy integraciyalashuv jarayonlarini oshirishga, hududlarni ijtimoiy –iqtisodiy muammolarini barataraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki xalqaro moliya institutlari o‘z faoliyati ko‘lamini milliy iqtisodiyot tarmoqlarini, xususan iqtisodiyotni yetakchi tarmoqlarini modyernizaciyalash, texnik qayta qurollantirishda tez sur'atlarda rivojlanishida moliyaviy mablag'lar bilan doimiy ta'minlab borishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, shuningdek, ular chet el kapitali harakatini qayta taqsimlash orqali o‘zini faoliyat ko‘lamini oshirib bormoqda. Bu shu hududni iqtisodiy ishlab chiqarish korxonalarini rivojiga ijobiy ta'sir etsa, ikkinchidan aholini ish bilan bandlik darajasini, turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro valyuta – kredit va moliya munosabatlarining institucional tuzilishi o‘z ichiga ko‘plab xalqaro moliyaviy tashkilotlarni oladi. Ularning ayrimlari yirik moliyaviy resurs va katta vakolatlarga ega bo‘lib, dunyo iqtisodiyoti va moliya – kredit jarayonlarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi. Boshqalari hukumatlararo moliyaviy masalalarni muhokama etish, moliya – kredit siyosati bo‘yicha tavsiyalar va maslahatlar berish hamda moliyaviy yordam ko‘rsatish bilan shug'ullanadi. Yana boshqalari ahborot yig'ish, muhim valyuta – kredit va moliya muammolari va umuman, iqtisodiyotda statistik va ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshiradi.

Ushbu xalqaro moliyaviy tashkilotlar zamonaviy xalqaro moliyaviy institutlari deb yuritiladi. Ularning vujudga kelishi, tashkil topishi va rivojlanishining asosiy sababi jahon xalqaro iqtisodiyotining taboro globallashib borayotganligidir (quyidagi rasmga qarang).

Bu institutlarning asosiy maqsadi – xalqaro va mahalliy ijtimoiy –iqtisodiy doirada yuz berayotgan murakkabliklarga va qarama –qarshiliklarni bartaraf etish, yumshatish hamda ularning o‘zaro hamkorligini ta'minlashga qaratilganidir.

Dunyoda global ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro moliyaviy institutlar tarkibiga, BMTning hayrhohligida tashkil etilgan, ixtisoslashtirilgan Xalqaro valyuta jamg'armasi (HVJ), Jahon banki guruhi, Butunjahon savdo tashkiloti kiradi. Bu ixtisoslashtirilgan xalqaro moliyaviy institutlar Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning faoliyati bilan bog'liq xalqaro moliyaviy va iqtisodiy masalalarni hal etishda bevosita ishtirok etadi.

BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi – iqtisodiy kengash –Yevropa, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi uchun 4 mintaqaviy komissiya tuzgan. Osiyo va Lotin Amerikasi komissiyalari Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va Amerikalalararo taraqqiyot banki (ATB)ni tashkil etilishiga vositachilik qilgan. Mahsus jamg'armalar bu tashkilotlarni to‘ldirib turadi.

## **XYII.2. Xalqaro valyuta fondi**

**Xalqaro valyuta fondi** (XVF) – Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsuslashtirilgan muassasasi statusiga ega bo‘lgan valyuta-kredit tashkiloti bo‘lib valyuta kurslarini tartibga solish va ularga rioya qilinishini nazorat etish me‘yorlarini belgilash, shuningdek tulov balanslarining beqarorligi munosabati bilan valyuta qiyinchiliklari vujudga kelganda o‘z a‘zolariga valyuta resurslaridan berish yo‘li bilan xalqaro savdo va savdo hamkorligini rivojlantirishga yordam beradi.

XVF – AQShning Brutton Vuds Xalqaro valyuta-moliya konferensiyasida 1944 yilda tuzilgan bo‘lib, 1947 yildan faoliyat ko‘rsata boshlagan. XVF boshqaruvi beshta deportamentdan (Afrika, Yevropa, Osiyo, O‘rta Sharq va G‘arbdagi) tuzilgan. XVF kapitali uning mijozlari kvotasiga mos to‘lanadigan badallar hisobiga shakllanadi. Kvota lotincha Quota – qism, xissani bildirib u davlatlararo shartnomalarga ko‘ra ayrim yoki bir gurux tovarlar yuzasidan kvota o‘rnatiladiki, unga muvofiq mamlakatlar yoki mamlakatlar guruhi faqat belgilangan miqdordagi tovarlarni ishlab chiqarishi va chetga sotishi mumkin. Kvotalar o‘rnatishdan maqsad bozordagi narxni ma‘lum maqsad yo‘lida o‘zgartirib turish, chunki kvota tovar taklifini chegaralaydi, bu bilan narxga binobarin foyda ko‘rishga ta‘sir etadi.

Kvota mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga, jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdodagi o‘rniga qarab belgilanadi. 1947 yilda XVF ga 49 mamlakat a‘zo bo‘lib ular kvotalarning umumiy summasi 7,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan.

1991 yilning o‘rtalariga kelib XVF a‘zolari 155 taga va uning kapitali 90 mlrd. dollarga yetdi. Shundan uchdan ikki qismi sanoati rivojlangan mamlakatlarga, shu jumladan AQSh 1/5 kismi, 1/3 qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Xozirgi XVF a‘zolarining soni 181 tadan ortiq. XVF boshqaruv organlariga kvotalar ulchamiga qarab mamlakatlar orasida ovoz taqsimlanadi. Barcha ovozning 46%i AQSh va YeF davlatlariga tegishli, qolgan ovozlar rivojlanayotgan davlatlarga tegishli. XVF boshqaruv organi bo‘lib boshqaruv kengashi hisoblanadi. U har yili bir marotaba qatnashuvchi mamlakat vakillari bilan birga to‘planadi. XVFning ijro etuvchi organi bo‘lib Direktorat hisoblanib u 6 a‘zodan, ya‘ni ko‘proq kvotaga ega bo‘lgan mamlakat a‘zolaridan tashkil topgan. Shuningdek unga geografik belgiga ko‘ra tanlab olingan olti a‘zo ham hisobga olingan. XVFning majlis utkazuvchi organi bo‘lib boshqaruv qo‘mitasi – shu‘ba qo‘mitasi hisoblanadi va uning tarkibiga 22 ta mamlakat moliya vazirlari kiradi.

### **XVF kreditlari bo‘linadi:**

**XVFning zaxira pozitsiyasi chegarasida turuvchi mamlakatlarga beriladigan kredit.** Tulov balans defisitini qoplash uchun mamlakatlar valyuta fondidan qarz olishlari mumkin. Bu qarz milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish yo‘li bilan 3-5 yil muddatga olinadi. Ssudaning to‘lanishi esa aksincha bo‘ladi. Milliy valyuta erkin konverterlanadigan valyutada sotib olinadi. 25% kvota atrofida mamlakat kreditni cheklashlarsiz olishi mumkin. Shuningdek oltin

fond me'yorida belgilangan kredit hajmida xorijiy valyutada kredit olishi mumkin. Bu kredit salmogi 200 % kvotadan oshmasligi kerak.

**Yuqori zahira ulushiga beriladigan kredit.** Bunday ssudalar mamlakat valyutasining iqtisodiy holatini o'rganib chiqib XVFnning barqarorlashtirish chora-tadbirlari talabini bajargandan so'ng beriladi. XVFnning barqarorlashtirish dasturi ichki kreditlarni chegaralash, byudjet xarajatlarini kamaytirish kabi masalalarni hal qiladi. Biroq XVFDan kredit olish mamlakatlarga xususiy banklardagi kreditlarni hisob-kitob qilish imkonini beradi. XVFD davlatlararo valyuta-kredit munosabatlarini boshqarishda asosiy o'rin egallaydi. Brutton Vudsdagi kelishuvga binoan fond oldiga a'zo mamlakatlar valyuta paritetlarini boshqarish va qullab – quvvatlash, valyuta kurslarini boshqarish vazifasi qo'yilgan.

O'zbekiston XVFGa 1992 yilning sentyabridan a'zo.

### **XYII.3. Jaxon banki va uning tarkibi**

**Jaxon banki va uning tarkibi.** Jahon banki jahon miqyosida yirik valyuta kredit tashkiloti bo'lib hisoblanadi. Uning prezidenti Djeym Vulfenson 10 yillik faoliyatidan keyin 2005 yilning may oyidan bo'shadi va uning o'rniga 2005 yilning 1 iyunidan AQSh mudofaa vaziri o'rinbosari Pol Fulfovis saylandi.

Jahon banki 43 yirik moliyaviy muassasalardan iborat bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar:

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB)

Xalqaro taraqqiyot assosiasiyasi (XTA yoki Xalqaro rivojlanish uyushmasi – XRU)

Xalqaro moliya korporasiyasi (XMK)

Investisiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA)

Sarmoyaga oid tortishuvlarni muvofiqlashtirish xalqaro markazi (SOTMXM) va boshqalar.

**Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB)** Brutton Vuds konferensiyasi qaroriga binoan va XVFD ta'sisligida 1945 yilda Vashingtonda tashkil topgan. Uning ustavi rasmiy ravishda 1945 yilda kuchga kirgan va 1946 yildan ish boshlagan. Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar iqtisodiyotiga o'zok muddatli kreditlar va qarzlar berish, xususiy investisiyalarni kafolatlashdan iborat. XVFD ga a'zo bo'lgan mamlakatlarga XTTB ga a'zo bo'lish xuquqiga ega. XTTB BMTning maxsus muassasasi davlatlararo investision instituti hisoblanadi. XTTB tomonidan kreditlar davlat kafolati ostida beriladi. XTTB shuningdek boshqa banklarning o'zoq muddatli kreditlari bo'yicha kafolatlar beradi. Bank o'zining krediti bilan obyektning 30% qiymatini qoplaydi.

HTTBning resurslari ikkita manba:

- birinchisi, akciyadorlarning kapitali (6 foiz atrofida) hisobidan;
- ikkinchisi, xalqaro moliya bozorlarida akciyalarni joylashtirish orqali (95 foizga yaqini) shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 1992 yil 2 iyuldagi 622-sonli qarori asosida mamlakatimiz XTTB, XTA, XMK, IKXAg a'zo.

**Xalqaro taraqqiyot assotsiyatsiyasi (XTA)** yoki xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU) 1960 yilda rivojlanayotgan davlatlarga imtiyozli kreditlar (0,75 % yillik foiz stavkasida) berish maqsadida tashkil etilgan. Uning kreditlari asosan yalpi ichki maxsulot aholi jon boshiga eng kam to'g'ri kelayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. 1993 yilda shunday mamlakatlar miqdori 60 ta bo'lgan. XKTTB a'zolari uchun XTA a'zoligi ochik. XTA resurslari XKTTB sof daromadidan muntazam ajratmalar hisobidan to'ldirib turiladi. XTA fakat xukumatlarga qarz beradi. Qarzni o'zish muddati 30 yildan 40 yilgacha. Bunday qarzlarni bo'yicha foizlar olinmaydi, lekin kreditga xizmat qilish qarzning joylashtirilgan qismining 0,5 foizi miqdorida har yili yig'im olinadi. XTA xuquqiy va moliyaviy mustaqil tashkilot bo'lsada u XKTTB bilan xodimlarning umumiy shtatiga ega. XTA amalga oshirayotgan loyihalar XKTTB qullab-quvvatlayotgan loyihalar mezonlariga javob berishi kerak.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad 875 AQSh dollaridan kam bo'lgan mamlakatlar HRAning kreditiga da'vogarlik qilishi mumkin. Dunyo bo'yicha bunday mamlakatlar soni taxminan 81 tani (2008 yil) tashkil etib, ushbu mamlakatlarda 2,5 mlrddan ortiq aholi yashaydi.

HRAning kreditlari asosan ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq ho'jaligini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Unga HTTBga a'zo –mamlakatlar kirishga haqli bo'lib, lekin ko'pchilik mamlakatlar bu imkoniyatdan foydalanmaydi, shuning uchun HTTBga a'zo bo'lgan 184 ta mamlakatdan faqat 164 tasi uning a'zosi hisoblandi.

**Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)** 1956 yilda taraqqiy etayotgan mamlakatlarda xususiy sektorni barqaror rivojlanishini rag'batlantirish, ularda kambag'allik miqyosini qisqartirish va shu mamlakatlarda aholi turmush darajasini oshirish maqsadida AQSh tashabbusi bilan tashkil etilgan va u Vashingtonda joylashgan. XMKning harakat miqyosi jaxonning XMKga a'zo bo'lgan taraqqiy etayotgan mamlakatlari bo'lib, uning yordami shu mamlakatlarning xususiy sektoriga kreditlar va investitsiyalar bilan qo'llab quvvatlash hisoblanadi.

Umuman XMK xalqaro lizing operatsiyalarida yetakchi o'rinni egallaydi va u bugungi kunda 50 mamlakatning 96 lizing kompaniyalari faoliyatini moliyalashtirgan, 40 mamlakatning 120 dan ortiq lizing sohasidagi investisiya loyihalarini amalga oshirishda texnik yordam ko'rsatgan hamda 25 mamlakatdagi lizing kompaniyalarining muassisi hisoblanadi.

**Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA)** – jahon banki guruxida 1988 yilda tuzilgan eng yangi tuzilmadir. Uning asosiy vazifasi notijorat tavakkalchilikdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararlarda investorlarga beriladigan kafolat hisobiga, shuningdek sarmoya oqimini yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi qo'lay investisiya muhitini va axborot bazasini yaratishda ko'maklashuvchi a'zo mamlakatlarga maslaxat xizmati ko'rsatish yo'li bilan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida investitsiyalar oqimiga yordam berishdir.

IKXA jahon bankidan mustaqil tashkilotdir. XMK singari u operativ xodimlar va xuquq maslaxatchilaridan iborat o'z shtatiga ega, lekin bankning ma'muriy va

boshqa xizmatlaridan foydalanadi. 1990 yillar boshida unga 128 mamlakat a'zo edi.

#### **XYII.4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki**

**Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki** (YeKTTB) 1990 yilning 25 mayida Fransiya Prezidentining tashabbusi bilan dastlab Parijda tashkil topdi. F.Mitteran yevroparlamentning 1989 yil 25 oktyabridagi yig'ilishida-«Men boshqalarni ham roziligiga ishonib shuni aytamanki, Yevropa uchun, balki butun jahon uchun ham ikkinchi jahon urushidan keyin Sharqiy Yevropada nimalar bo'layotganini, Yevropada nimalarga erishish mumkin?, Bundan ko'proqqa? Nima uchun Yevropa bankini tuzish mumkin emas» - degan edi. Bank 1991 yilni 28 martidan o'z faoliyatini boshlagan.

O'zbekiston YoKTTB ga 1992 yilning 30 aprelidan a'zo hisoblanadi. 1994 yilda Toshkentda bankning vakolatxonasi ochilgan.

Bankning asosiy maqsadi sobiq sotsialistik mamlakatlarga rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishga xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, tarkibiy va tarmoq islohatlarini amalga oshirish, ularni jahon hamjamiyati integrasiyasiga ko'maklashish. Bankning harakat miqyosi Markaziy Yevropadan Markaziy Osiyogacha bo'lgan o'tish iqtisodiyotdagi mamlakatlar. Bankning yordami o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarga zayom, kafolat va texnik yordam sifatida. Shu kabi yuqoridagi mamlakatlarning xususiy sektoriga kredit, mikrokredit va investitsiyalar orqali yordam ko'rsatish.

ETTBning faoliyat maqsadi va asosiy vazifasi bozor munosabatlarini rivojlantirish va jahon iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirish uchun tashkil etish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ETTBning asosiy vazifasi Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida, Rossiya va Markaziy osiyo mamlakatlarida rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarini tezlashtirishdan iborat. Bugungi kunda ETTB loyihalari Yevropa va Osiyoning 27 davlatida amal qilmoqda. Boshqa xalqaro moliya tashkilotlaridan farqli o'laroq, bank nizomiga asosan loyiha amalga oshirilayotgan davlatlarda ko'p partiyaviylik, plyuralizm va bozor iqtisodiyoti tamoyillari amal qilishi shart.

ETTB ning investiciya loyihalari orqali:

1. sanoatda tarkibiy islohatlar o'tkazish;
2. raqobat, hususiy lashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish;
3. moliyaviy tashkilotlar faoliyati va huquqiy tizimni barqarorlashtirish;
4. hususiy sektorni rivoji uchun infrastrukturani qo'llab quvvatlash;
5. korporativ boshqaruv tizimini tadbiiq etish, shu jumladan tabiatni muhofaza qilish masalalari moliyalashtiriladi.

ETTBning tarkibiy tuzilishi va faoliyati ustidan boshqaruv kengashi, direktorlar kengashi va bank prezidenti nazorat olib boradi. Boshqaruv kengashi ETTBning yuqori organi bo'lib, bankning har bir a'zosidan ikkitadan shahsni boshqaruvchi va uning muovini o'z ichiga oladi. ETTBga a'zo mamlakatlar hohishiga qarab, bu shahslar istalgan vaqtda o'zgartirilishi mumkin.

Direktorlar kengashining 23 a'zosi bo'lib, uning ikkitasi EI va EIB tomonidan; 6 ta direktor AQSh, Buyuk Britaniya, Franciya, Gyermaniya, Italiya va Yaponiya tomonidan saylanadi. 15 ta direktorlar saylash bir xil davlatlarga to'g'ri keladi: 4 tasi donor mamlakatlar, 5 tasi istisno tariqasida loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatlar tomonidan va 6 tasi donor va loyiha amalga oshirilayotgan davlatlar kelishuviga ko'ra saylanadi.

ETTBni yig'ilishlarida ovoz berish tartibi akcijalar ulushiga qarab belgilanadi.

### **Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki.**

**Osiyo taraqqiyot banki** (OTB) 1966 yilda Osiyo va Tinch okean mintaqasi mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish maqsadida Filippinning Manila shaxrida tashkil etilgan. Bank xukumat va xususiy korxonalariga kredit beradi. Kredit loyiha qiymatining 25% idan yoki 75 mln. AQSh dollaridan oshmagan holda beriladi. Kar bir loyiha uchun garov talab etadi.

O'zbekiston OTB ga 1995 yilda Markaziy Osiyoda 15-chi, a'zo mamlakatlar ichida 22-chi bo'lib a'zo bo'lgan.

OTB xalqaro moliya instituti bo'lib xozir 63 a'zoga ega.

Bugungi kunda respublikamizda kredit shaklida amal qilayotgan chet el va xalqaro molyaviy tashkilotlar investisiyalarining 33,6 %i OTB ga to'g'ri kelmoqda. Bankning mablag'lari asosan ikki yo'nalishda - maxsus fond orqali va oddiy fond orqali beriladi. Maxsus fond mablag'lari kam rivojlangan a'zo mamlakatlarga imtiyozli kredit berish va texnik yordam ko'rsatishga yo'naltirilsa, oddiy fond mablag'lari tijorat yo'nalishidagi kreditlar yuqori foiz stavkasi bilan 10-15 yilga beriladi.

OTBning O'zbekistonga ajratgan qarzlari muddati asosan 25 yilga muljallangan bo'lib ularni 5 yili imtiyozli davrni tashkil etadi.

**Islom taraqqiyot banki** (ITB) 1974 yilning 12 avgustida tashkil etilib, 1975 yildan foaliyat ko'rsatmoqda. Bankning asosiy maqsadi islom konferensiyasi tashkilotiga a'zo davlatlar taraqqiyotiga shariat prinsiplariga asoslanib xizmat ko'rsatish.

O'zbekiston ITB ga 2003 yil 2 sentyabrda uning Olma – otada o'tgan boshqaruv kengashining 28 yig'ilishida 55 a'zo sifatida qabul qilingan.

ITB ning kreditlari eng past foizlarda (yillik 5 – 6 % chunki Kur'on so'dxurlik bilan shug'ullanishni taqiqlaydi) bo'lib undan kelgan daromad faqat xarajatlarni qoplashni ko'zda tutadi. Kreditlar 15 – 20 yilga berilib, 3 – 5 yildan qaytarila boshlanadi.

ITB ning O'zbekistonga yordami transport kommunikasiyalari, energetika, umuman infrato'zilma, ta'lim, sog'liqni saqlash, xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes subyektlarini taraqqiy ettirishga qaratilgan.

Shu kabi mintaqaviy banklar jumlasiga 1949 yilda tashkil etilgan Amerikaaro taraqqiyot banki, 1964 yilda tashkil etilgan Afrika taraqqiyot banki, 1958 yilda tashkil etilgan Yevropa investisiya banki va boshqa banklarni keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda mamlakatimizning eng yirik va rivojlangan banklari chet el banklari va boshqa xalqaro moliya-kredit tashkilotlari kredit yo'nalishlari orqali loyihalarni moliyalashtirishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Jumladan, xalqaro moliyaviy institutlar mablag'lari hisobiga kichik va hususiy tadbirkorlik investitsiya loyihalari, shuningdek, kichik va hususiy tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni zamonaviylashtirish va tashkil etish loyihalarini moliyalashtirish orqali mamlakatda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirishga, kichik va hususiy tadbirkorlik sub'ektlarni yanada rivojlanishini ta'minlashga erishilmoqda va natijada milliy iqtisodiyot rivojlanishi tezlashishiga ma'lum ma'noda erishish imkoniyati yaratilmoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

- 1.Xalqaro moliya institutlari o'z tarkibiga qanday tashkilotlarni oladi?
- 2.Xalqaro moliya tashkilotlarining vakolatlari.
- 3.Xalqaro moliya tashkilotlarning maqsadlari.
- 4.Global ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro moliyaviy institutlar.
- 5.Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti qachon va qanday maqsadda tashkil etilgan?
6. Xalqaro valyuta jamg'armasi qachon va qanday maqsadda tashkil etilgan?
7. Jahon banki qachon tashkil etilgan, uning tarkibiga qanday moliyaviy tashkilotlar kiradi?
8. Investiciyalarni hartomonlama kafolatlash agentligi qanday tashkilot va u investiciyalarni necha yilgacha kafolatlaydi.
- 9.Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki kimning tashabbusi bilan va qachon tashkil etilgan?

## "Pul va banklar" fanidan testlar

### 1. Pulning asosiy vazifalari - bu:

- a. qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arish vositasi;
- b. qiymat o'lchovi, baho masshtabi, muomala vositasi;
- s. baho masshtabi, qiymat o'lchovi, jaxon pullari;
- d. qiymat o'lchovi, jaxon pullari, baho masshtabi, muomala vositasi

### 2. Barter - bu:

- a. tovarni tovarga bevosita ayirboshlash;
- b. tovarni bevosita pulga ayirboshlash;
- s. tovarning naqd pulsiz sotilishi;
- d. tovarni kreditga sotilishi.

### 3. To'lov jarayonlarida bevosita ishtirok etayotgan harakatdagi pul massasi - bu:

- a. aktiv pul aylanishi;
- b. passiv pul aylanishi;
- s. aktiv-passiv pul aylanishi;
- d. doiraviy pul aylanishi.

### 4. Mazkur mamlakatda pul muomalasini qonuniy va mutanosib ravishda tashkil qilishda qo'llaniladigan uslublar majmuasi - bu:

- a. pul tizimi;
- b. pul muomalasi;
- s. pul aylanishi;
- d. pul agregati.

### 5. Ikki metallga: oltin va kumushga qonuniy tartibda umumiy ekvivalent roli biriktirib qo'yilishi - bu:

- a. bimetallizm;
- b. monometallizm;
- s. emissiya;
- d. monetarizm.

### 6. Bitta metallga barcha tovarlar qiymatini o'zida aks ettiruvchi umumiy ekvivalent roli biriktirib qo'yilishi - bu:

- a. monometallizm;
- b. bimetallizm;
- s. emissiya;
- d. monetarizm.

### 7. Pul muomalasi qonuni - bu:

- a. muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini belgilaydigan, tovar pul munosabatlarini o'zida aks ettiradigan qonun;
- b. pul harakatini bildiruvchi qonun;
- s. barcha pul turlariga taaluqli bo'lgan qonun;
- d. pul aylanishini o'zida ifoda etuvchi qonun.

### 8. Pul muomalasidagi barqarorlik quyidagilarga bog'liq:

- a. pulning qadr-qiymatiga, pulga bo'lgan talab va taklifga;
- b. bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlarning hajmiga;

- s. pulning qadr-qiyamatiga;
- d. pulga bo'lgan talab va taklifga;

**9. Pul taklifi - bu:**

- a. muomalaga chiqarilgan ma'lum turdagi pul miqdoridir;
- b. pulga bo'lgan ehtiyojdir;
- s. muomalaga chiqarilgan tovarlardir
- d. pul nazariyasi.

**10. Pulga talab - bu:**

- a. pulga bo'lgan ehtiyojdir;
- b. muomalaga chiqarilgan ma'lum turdagi pul miqdoridir;
- s. muomalaga chiqarilgan tovarlardir
- d. pul nazariyasi.

**11. Eski, qadsizlangan pul birliklaridan batamom voz kechilib, muomalaga yangi pullarning chiqarilishi - bu pul muomalasini barqarorlashtirishning:**

- a. nulifikatsiya usuli;
- b. denominatsiya usuli;
- s. reval'vatsiya usuli;
- d. deval'vatsiya usuli.

**12. Valyuta kursining davlat tomonidan rasmiy oshirilishi - bu:**

- a. reval'vatsiya;
- b. deval'vatsiya;
- s. nulifikatsiya;
- d. denominatsiya.

**13. Valyuta kursining davlat tomonidan rasmiy tushirilishi - bu:**

- a. deval'vatsiya;
- b. reval'vatsiya;
- s. nulifikatsiya;
- d. denominatsiya.

**14. Pul birligi deganda:**

- a. mamlakatdagi to'lov vositasi birligi tushuniladi;
- b. mamlakat pul birligining oltinga teng qismi tushuniladi;
- s. muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi birlik tushuniladi;
- d. baho masshtabi tushuniladi;

**15. Pul muomalasida:**

- a. naqd va naqd bo'lmagan pullar ishtirok etadi;
- b. faqat naqd pul ishtirok etadi;
- s. faqat naqd bo'lmagan pullar ishtirok etadi;
- d. faqat real pullar ishtirok etadi;

**16. Foiz to'lash sharti bilan vaqtincha foydalanishga beriladigan yalpi pul mablag'lari- bu:**

- a. ssuda kapitali deyiladi;
- b. investitsiya deyiladi;

- s. soliq deyiladi;
- d. sarmoya deyiladi.

**17. Ssuda kapitali bozori quyidagi asosiy segmentlarga bo‘linadi:**

- a. pul bozori, kapital bozori, fond bozori, ipoteka bozori;
- b. pul bozori, kapital bozori, xizmatlar bozori, tovar bozori;
- s. pul bozori, bozori, fond bozori, ipoteka bozori;
- d. kapital bozori, fond bozori, xizmatlar bozori;

**18. Aylanma mablag’larning harakatini ta’minlovchi qisqa muddatli kredit operatsiyalarining yig’indisi - bu:**

- a. pul bozori deyiladi;
- b. kapital bozori deyiladi;
- s. fond bozori deyiladi;
- d. ipoteka bozori deyiladi;

**19. Asosiy mablag’lar harakatini ta’minlovchi qisqa va O‘zoq muddatli operatsiyalar to‘plami - bu:**

- a. kapital bozori deyiladi;
- b. pul bozori deyiladi;
- s. fond bozori deyiladi;
- d. ipoteka bozori deyiladi;

**20. Qimmatbaho qog’ozlar bozoriga xizmat qiluvchi kredit operatsiyalar to‘plami - bu:**

- A. fond bozori deyiladi;
- b. pul bozori deyiladi;
- s. kapital bozori deyiladi;
- d. ipoteka bozori deyiladi;

**21. Ko‘chmas mulk bozoriga xizmat qiluvchi kredit operatsiyalar to‘plami - bu:**

- a. ipoteka bozori deyiladi;
- b. pul bozori deyiladi;
- s. fond bozori deyiladi;
- d. kapital bozori deyiladi;

**22. Vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag’larini ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yO‘zasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig’indisi - bu:**

- a. kredit
- b. solik;
- s. investitsiya;
- d. sug’urta.

**23. Kreditordan qarz oluvchiga beriladigan va qarz oluvchidan qarz beruvchiga qaytib beriladigan qiymat - bu:**

- a. kredit ob`ekti;
- b. kredit sub`ekti;
- s. kredit munosabati;
- d. foiz stavkasi.

**24. Tovar ko‘rinishida beriladigan kredit - bu:**

- a. tijorat krediti;
- b. iste‘mol krediti;
- s. davlat krediti;
- d. xalqaro kredit.

**25. Davlat kreditining asosiy xususiyati - bu:**

- a. kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvi;
- b. kredit munosabatlarida jismoniy shaxslarning ishtirok etishi;
- s. savdoni kreditlash;
- d. kichik biznes sub`ektlarini kreditlash.

**26. Bir davlat, shu davlat banki, huquqiy shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa xuquqiy shaxslariga muddatlilik va to‘lovlilik asosida beriladigan kredit - bu:**

- a. xalqaro kredit;
- b. iste‘mol krediti;
- s. ichki kredit;
- d. lizing kredit.

**27. Markaziy bank tomonidan tegishli litsenziyaga ega bo‘lmagan jismoniy shaxslar, shuningdek xo‘jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan mablag‘larni vaqtincha foydalanish uchun beriladigan kredit - bu:**

- a. sudxurlik krediti;
- b. tijorat krediti;
- s. Istemol krediti;
- d. bank krediti.

**28. Pul mablag‘larini yig‘uvchi, saqlab beruvchi, kredit hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasa - bu:**

- a. bank deyiladi;
- b. soliq idorasi deyiladi;
- s. sug‘urta tashkiloti deyiladi;
- d. kassa deyiladi.

**29. Kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit institutlar yig‘indisi - bu:**

- a. kredit tizimi deyiladi;
- b. bank tizimi deyiladi;
- s. moliya tizimi deyiladi;
- d. markaziy bank deyiladi.

**30. Mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boruvchi bank - bu:**

- a. Markaziy bank;
- b. tijorat banki;
- s. Ipoteka banki;
- d. milliy bank.

**31. Milliy valyuta barqarorligini ta‘minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o‘rnatish asosida inflyatsiya suratlarini kamaytirish,**

**kreditdan foydalanishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida olib boriladigan siyosat - bu:**

- a. pul kredit siyosati;
- b. fiskal siyosat;
- s. sug'urta siyosati;
- d. ijtimoiy siyosat.

**32. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun majburiy rezervlar normasini o'rnatib berish siyosatini amalga oshirishdan maqsad:**

- a. banklarning likvidligini muvofiqlashtirish va inflyatsiya suratlari tushurish;
- b. banklarning kredit imkoniyatini oshirish ;
- s. banklarning depozit imkoniyatini oshirish;
- d. banklarning raqobatbardoshligini oshirish.

**33. Ochiq bozor siyosati - bu:**

- a. markaziy bankning ochiq bozorda qimmatbaho qog'ozlarni o'z hisobidan sotib olishi va va sotishi;
- b. banklarning likvidligini muvofiqlashtirish va inflyatsiya suratlari tushurish;
- s. qimmatbaxo qog'ozlar oldi sotishi;
- d. pul bozori.

**34. Pul massasi xajmining o'zgarishini o'rnatilgan usullar yordamida chegaralash - bu:**

- a. targetlash;
- b. kreditlash;
- s. depozitlash;
- d. investitsiyalash.

**35. Markaziy bankning milliy valyuta kursiga ta'sir qilish maqsadida chet el valyutasini sotish va sotib olish bo'yicha q'tkaziladigan operatsiyalar bilan valyuta bozori faoliyatiga aralashuvi - bu:**

- a. valyuta intervensiyasi deyiladi;
- b. devis siyosati deyiladi;
- s. deval'vatsiya deyiladi;
- d. reval'vatsiya deyiladi.

**36. Svop - bu:**

- a. bank operatsiyasi bo'lib, valyuta ma'lum muddatga naqd sotiladi va bir vaqtning o'zida valyutaviy savdo bo'yicha qarshi bitim tuziladi;
- b. milliy valyuta kursining davlat tomonidan rasmiy tushirilishi;
- s. milliy valyuta kursining davlat tomonidan rasmiy oshirilishi;
- d. qimmatli qogozlar savdosi.

**37. Chet el valyutasi oltin va boshqa valyuta qiymatliklari bilan bo'ladigan operatsiyalarni davlat miqyosida qonun asosida cheklash - bu:**

- a. valyutaviy cheklanishlar deyiladi;
- b. valyuta intervensiyasi deyiladi;

s. devis siyosati deyiladi;

d. deval'vatsiya deyiladi;

**38. O'zbekiston Respublikasida :**

a. ikki bosqichli bank tizimi amal qiladi;

b. bir bosqichli bank tizimi amal qiladi;

s. uch bosqichli bank tizimi amal qiladi;

d. faqat davlat banklari faoliyat yuritadi.

**39. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy maqsadi:**

a. pul-kredit tizimi va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash asosida iqtisodiy o'sishga erishish;

b. soliq soxasini takomillashtirish;

s. fiskal siyosatini olib borish;

d. faoliyatdan ko'proq daromad olish.

**40. Markaziy bank - bu:**

a. davlat banki;

b. tijorat banki;

s. xususiy bank;

d. qo'shma bank.

**41. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi:**

a. milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

b. soliq soxasini takomillashtirish;

s. fiskal siyosatini olib borish;

d. faoliyatdan ko'proq daromad olish.

**42. Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning :**

a. passiv operatsiyalari deyiladi;

b. aktiv operatsiyalari deyiladi;

s. aktiv-passiv operatsiyalari deyiladi;

d. kredit operatsiyalari deyiladi;

**43. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosiy shakllari:**

a. 4 ta;

b. 2ta;

s. 6 ta;

d. 3ta.

**44. Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning:**

a. aktiv operatsiyalari deyiladi;

b. passiv operatsiyalari deyiladi;

s. aktiv-passiv operatsiyalari deyiladi;

d. kredit operatsiyalari deyiladi;

**45. Ustav kapitali :**

a. banklarning o'z mablag'lari xisoblanadi;

b. jalb qilingan mablag'lari xisoblanadi;

s. Banklarning daromadlari xisoblanadi;

d. banklarning xarajatlari xisoblanadi.

**46. Ustav kapitali:**

a. bank balansining passivida ko'rsatiladi;

b. bank balansining aktivida ko'rsatiladi;

s. Bank balansida aks ettirilmaydi;

d. bank daromadi xisoblanadi.

**47. Banklarning rezerv fondi :**

a. foydadan ajratmalar xisobiga xosil bo'ladi;

b. tushum xisobidan xosil bo'ladi;

s. soliqlar xisobidan shakllanadi;

d. kredit xisobiga shakllantiriladi.

**48. Rezerv fondiga ajratmalar va dvidentlar to'langandan so'ng qoladigan foydaning bir qismi:**

a. taqsimlanmagan foyda hisoblanadi;

b. depozit xisoblanadi;

s. kredit xisoblanadi;

d. soliq xisoblanadi.

**49. Mijoz tomonidan bankka ma'lum muddatga qo'yiladigan qo'yilmalar:**

a. muddatli qo'yilmalar deyiladi;

b. muddatsiz qo'yilmalar deyiladi;

s. Investitsiya deyiladi;

d. kredit deyiladi.

**50. Standart kreditlar bo'yicha:**

a. 10 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

b. 25 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

s. 50 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

d. 100 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

**51. Substandart kreditlar bo'yicha:**

a. 25 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

b. 10 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

s. 50 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

d. 100 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

**52. Shubxali kreditlar bo'yicha:**

a. 50 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

b. 25 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

s. 10 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

d. 100 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

**53. Ishonchsiz kreditlar bo'yicha:**

a. 100 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

b. 25 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

s. 50 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

d. 10 foiz atrofida rezerv tashkil qilinadi;

**54. Inkasso operatsiyalari - bu:**

- a. bank tomonidan mijozlarga ularning o'z topshiriqlari va o'z xisoblaridan turli hujjatlar bo'yicha pul olish jarayonini ta'minlash;
- b. mijozlarga kreditlar berish;
- s. depozit operatsiyalarini amalga oshirish;
- d. qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha xisoblarni amalga oshirish.

**55. Tijorat banklarining investitsiyasi - bu:**

- a. bank tomonidan turli mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning qimmatli qog'ozlariga O'zoq muddatga qo'yilgan mablag'dir;
- b. bank tomonidan berilgan kreditlardir;
- s. bank tomonidan jalb qilingan mablag'lardir;
- d. bankning olgan daromadidir.

**56. O'z aktivlarini naqd pul sifatida ishlatish yoki ularning nominal qiymatini saqlab qolgan xolda tezda pul mablag'lariga aylantirish yo'li bilan mavjud moliyaviy majburiyatlarni qoplay olish qobiliyati:**

- a. bank likvidligi deyiladi;
- b. bank balansi deyiladi;
- s. bank marjasi deyiladi;
- d. bank kapitali deyiladi.

**57. Yuridik va jismoniy shaslarning pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlarini shartnoma asosida saqlash uchun bankka qo'yilgan omonotlar:**

- a. depozit deyiladi;
- b. kredit deyiladi;
- s. Investitsiya deyiladi;
- d. kapital deyiladi.

**58. Mamlakatning milliy pul birligini yiriklashtirish - bu:**

- a. denominatsiya deyiladi;
- b. nullifikatsiya deyiladi;
- s. reval'vatsiya deyiladi;
- d. deval'vatsiya deyiladi;

**59. O'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga xaq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar:**

- a. kredit deyiladi;
- b. moliya deyiladi;
- s. soliq deyiladi;
- d. investitsiya deyiladi.

**60. Kredit ob'ekti - bu:**

- a. vaqtincha bo'sh turgan, qarzga berilishi mumkin bo'lgan pullar va tovarlar;
- b. korxonalarining xisob raqamlariga kelib tushgan pul mablag'lari;
- s. aholi qo'lidagi pullar;
- d. davlat ixtiyorida pullar.

**61. Tovar shaklida beriladigan kredit - bu:**

- a. tijorat krediti;

- b. davlat krediti;
- s. Iste`mol krediti;
- d. bank krediti.

**62. Xalqaro kredit - bu:**

a. ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakati bo`lib, bu harakat tovar va valyuta ko`rinishidagi mablag`larni qaytarib berishlilik, muddatlilik va xaq to`lashlilik asosida berish bilan bog`liqdir;

b. davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun beriladigan kreditdir;

- s. Markaziy bank tomonidan xuquqiy shaxslarga beriladigan kreditdir;
- d. jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlardir.

**63. Bir mamlakat firmasi tomonidan ikkinchi mamlakatdagi firmaga beriladigan kredit - bu:**

- a. firmaviy kredit deyiladi;
- b. davlat krediti deyiladi;
- s. bank krediti deyiladi;
- d. tijorat krediti deyiladi.

**64. Kreditlashtirish deganda:**

a. kredit resurslari xisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasi tushuniladi;

b. O`z mablag`lari xisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasi tushuniladi;

s. soliq mablag`lari xisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasi tushuniladi;

d. ustav mablag`lari xisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasi tushuniladi;

**65. Ko`chmas mulklarni, asbob uskunalarni uzoq muddatga ijaraga berish:**

- a. lizing deyiladi;
- b. kredit deyiladi;
- s. Investitsiya deyiladi;
- d. moliya deyiladi.

**66. Lombardli kredit - bu:**

a. qisqa muddatli, miqdori qat`iy belgilangan ssuda bo`lib, oson sotiladigan qo`zg`aluvchi mulk yoki xuquq bilan ta`minlangan bo`ladi;

b. tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlardir;

s. davlat tomonidan beriladigan kreditlardir;

d. kredit uyushmalari beradigan kreditlardir.

**67. Kreditga layoqatlilik deganda:**

a. korxonaning bankdan so`ragan ssudani o`z vaqtida va to`liq qaytara olish imkoniyati tushuniladi;

b. kredit shartnomasi tushuniladi;

s. depozitlash imkoniyati tushuniladi;

d. investitsiyalash imkoniyati tushuniladi.

**68. Barcha likvidli mablag'larning qanchalik darajada qisqa muddatli majburiyatlarining jami yig'indisini qoplay olishini ko'rsatuvchi koeffitsent - bu:**

- a. qoplash koeffitsenti;
- b. likvidlilik koeffitsenti;
- s. joriy likvidlilik koeffitsenti;
- d. laxzalik likvidlilik koeffitsenti.

**69. Bankning kredit resurslarini joylashtirish soxasidagi qarorlarini qabul qilishga imkon beruvchi qoidalar va cheklashlarning majmui:**

- a. kredit siyosati deyiladi;
- b. soliq siyosati deyiladi;
- s. moliya siyosati deyiladi;
- d. investitsiya siyosati deyiladi.

**70. Bank oladigan va to'laydigan foiz o'rtasidagi farq:**

- a. marja deyiladi;
- b. foiz stavkasi deyiladi;
- s. dividend deyiladi;
- d. depozit deyiladi.

**71. Kredit resurslari auktsioni deganda:**

- a. kredit resurslarini erkin, ochiq tarzda auktsion orqali sotish tushuniladi;
- b. kredit resurslarini markaziy bankdan jalb etish tushuniladi;
- s. boshqa banklardan kredit olish tushuniladi;
- d. aholidan depozitlarni jalb etish tushuniladi;

**72. Tijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismining Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishi :**

- a. majburiy zaxiralar siyosati deyiladi;
- b. qayta moliyalashtirish siyosati deyiladi;
- s. moliyalashtirish siyosati deyiladi;
- d. ochiq bozor siyosati deyiladi.

**73. Kredit shartnomasida ko'zda tutilgan foiz stavkasi:**

- a. nominal foiz stavkasi deyiladi;
- b. real foiz stavkasi deyiladi;
- s. o'zgaruvchan foiz stavkasi deyiladi;
- d. marja deyiladi.

**74. Inflyatsiya darajasini xisobga olgan xoldagi stavka - bu:**

- a. real foiz stavkasi;
- b. nominal foiz stavkasi;
- s. marja;
- d. o'zgarmas foiz stavka.

**75. Mijozning zimmasidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish soxasidagi orttirgan shuxrati:**

- a. mijozning obro'-e'tibori deyiladi;
- b. mijozning imkoniyadi deyiladi;

- s. mijozning kapitali deyiladi;
- d. mijozning kredit layoqati deyiladi.

**76. Mijozning barcha operatsiyalar bo'yicha yoki aniq bir loyixa bo'yicha pul mablag'lariga ega bo'lish imkoniyati - bu:**

- a. mijozning imkoniyati deyiladi;
- b. mijozning obro'-e'tibori deyiladi;
- s. mijozning kapitali deyiladi;
- d. mijozning kredit layoqati deyiladi.

**77. Foiz stavkalarining darajasi va xarakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfi:**

- a. foiz xavf xatari deyiladi;
- b. depozit xavf xatari deyiladi;
- s. bank xavf xatari deyiladi;
- d. foyda xavf xatari deyiladi.

**78. Qaytarilish muddati kelgan, lekin bank mijozining to'lovga layoqatsizligi tufayli to'lanmayotgan ssudalar:**

- a. muammoli ssudalar deyiladi;
- b. standart kreditlar deyiladi;
- s. substandart kreditlar deyiladi;
- d. foizsiz kreditlar deyiladi.

**79. Kredit emissiyasi jarayonida:**

- a. kredit emissiyasining miqdori ko'payadi;
- b. qimmatbaxo qog'ozlarning kursi pasayadi;
- s. kredit resurslariga bo'lgan talab kamayadi;
- d. qimmatbaxo qog'ozlarning kursi oshadi.

**80. Pulning muomala vositasining o'ziga xos xususiyati:**

- a. unda faqat naqd pul ishtirok etadi;
- b. unda faqat naqd bo'lmagan pullar ishtirok etadi;
- s. plastik kartochka orqali tulov amalga oshiriladi;
- d. to'lov kredit orqali amalga oshiriladi.

**81. Kredit munosabatlar asosida yuzaga keluvchi, to'lov vositasini bajaruvchi qiymat belgilari - bu:**

- a. kredit pullar deyiladi;
- b. real pullar deyiladi;
- s. nominal pullar deyiladi;
- d. xaqiqiy pullar deyiladi.

**82. Mashina, asbob-uskunalar, transport vositalarini, ishlab chiqarish binolarini, inshootlarini uzoq muddatli ijaraga berish - bu:**

- a. lizing deyiladi;
- b. kredit deyiladi;
- s. depozit deyiladi;
- d. lombard deyiladi;

**83. Naqd puli va naqd pulsiz amalga oshiriladigan to'lovlarning yig'indisi:**

- a. pul aylanishi deyiladi;

- b. pul massasi deyiladi;
- s. pul miqdori deyiladi;
- d. boylik deyiladi.

**84. Korxonaning unga xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z xisob varag'idan boshqa sub`ektning xisob varag'iga mablag' o'tkazib qo'yish to'g'risidagi topshirig'i:**

- a. to'lov topshiriqnomasi deyiladi;
- b. to'lov talabnomasi deyiladi;
- s. akkreditiv deyiladi;
- d. inkasso deyiladi.

**85. Yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan kartochka - bu:**

- a. korporativ plastik kartochka deyiladi;
- b. plastik kartochka deyiladi;
- s. kredit deyiladi;
- d. deposit deyiladi;

**86. Markaziy bank tomonidan tegishli litsenziyaga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan katta foiz evaziga mablag'larni vaqtincha foydalanish uchun berish yo'li bilan amalga oshiriladigan kredit:**

- a. sudxo'rlik krediti deyiladi;
- b. bank krediti deyiladi;
- s. iste'mol krediti deyiladi;
- d. davlat krediti deyiladi.

**87. Muddati bir yilgacha bo'lgan kreditlar:**

- a. qisqa muddatli kreditlar deyiladi;
- b. o'rta muddatli kreditlar deyiladi;
- s. uzoq muddatli kreditlar deyiladi;
- d. muddatsiz kreditlar deyiladi.

**88. Tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini:**

- a. jalb qilingan mablag'lar tashkil etadi;
- b. o'z mablag'lari tashkil etadi;
- s. emitentlashgan mablag'lar tashkil etadi;
- d. rezerv kapitali tashkil etadi.

**89. Pul - bu:**

- a. shunday maxsus tovar. u xamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi;
- b. muomala vazifasini bajaradi;
- s. jaxon puli vazifasini bajaradi;
- d. to'lov vazifasini bajaradi.

**90. O'zbekistonning milliy valyutasi so'm:**

- a. 1994 yil 1 iyuldan muomalaga kiritilgan;
- b. 1991 yil 1 sentyabrdan muomalaga kiritilgan;
- s. 2000 yil 1 yanvardan muomalaga kiritilgan;

d. 1992 yil 1 yanvardan muomalaga kiritilgan.

**91. Jamg'arma vositasi - bu:**

a. pulning jamlangan boylik shakliga kirib, o'z egasi uchun kerak bo'lganda xarid etish vositasi bo'lib xizmat eta olishidir;

b. tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mexnat sarfidir;

s. pulning turli oldi-sotdi bitimlarida ishtirok etishidir;

d. tovar va xizmatlarning jamg'armasidir.

**92. Jamg'arila borib xarid qobilyatini saqlovchi barcha pul vositalari :**

a. pul agregati deyiladi;

b. kredit deyiladi;

s. depozit deyiladi;

d. pul massasi deyiladi.

**93. Korxon va tashkilotlar tomonidan tovar ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini bir schetdan boshqa bir schetga o'tkaziy orqali amalga oshiriladigan xisob-kitoblar - bu:**

a. naqd pulsiz xisob kitoblar deyiladi;

b. naqd pulli xisob kitoblar deyiladi;

s. kredit operatsiyalari deyiladi;

d. passiv operatsiyalar deyiladi.

**94. Sof bozor iqtisodiyotini, pulni olqishlovchi nazariya - bu:**

a. monetarizm nazariyasidir;

b. miqdoriylik nazariyasidir;

s. nominallik nazariyasidir;

d. metallik nazariyasidir.

**95. Xo'jalik xarakatida pulning doimo aylanishda bo'lishi, uning o'z vazifalarini uzluksiz bajarib turishi - bu:**

a. pul muomalasi deyiladi;

b. pul massasi deyiladi;

s. pul agregati deyiladi;

d. pul tizimi deyiladi.

**96. Qarzga beriladigan pul mablag'leri hajmi - bu:**

a. kredit summasi deyiladi;

b. foiz deyiladi;

s. ustama deyiladi;

d. limit deyiladi.

**97. Ko'chmas mulkni garovga olib, uzoq muddatga beriladigan kredit - bu:**

a. ipoteka krediti

b. xalqaro kredit;

s. lombard krediti;

d. sudxo'rlik krediti.

**98. Pul birligi deganda:**

a. mamlakatdagi to'lov vositasi birligi tushuniladi;

- b. mamlakat pul birligining oltinga teng qismi tushuniladi;
- s. baxo masshtabi tushuniladi;
- d. muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi birlik tushuniladi.

**99. Emissiya deganda:**

a. muomalaga bank biletlari, pul va qimmatbaxo qog'ozlarni chiqarish tushuniladi;

- b. tovar, xizmat va kapitallarni mamlakat tashqarisiga chiqarish tushuniladi;
- s. qimmatbaxo qog'ozlar chiqarish xuquqi berilgan banklar tushuniladi;
- d. aksionerlar jamiyati tushuniladi.

**100. Mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyuta kursiga nisbatan davlat tomonidan rasmiy tushurilishi - bu :**

- a. devalvatsiya;
- b. subsidiya;
- s. dotatsiya;
- d. kredit.

## Glossariy

**Aktiv pul oboroti** - bu to'lov jarayonlarida bevosita ishtirok etayotgan harakatdagi pul massasidir.

**Aktsioner bank** – aktsioner jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi aktsioner banklar bo'lishi mumkin. Aktsionerlar safiga kirish aktsiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Aktiv operatsiyalari** – bu banklarning foyda olish va bank likvidligi (to'lovga qobiliyati)ni ta'minlash maqsadida o'z mablag'larini xo'jaliklar va aholi ehtiyoji uchun joylashtirilishidir.

**Akkreditiv** (lot. accredo - ishonaman) – pul hisob-kitob hujjati; bank majburiyati. 1) Tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladigan hisob-kitob turi bo'lib, unga ko'ra qarz beruvchi (kreditor) belgilangan muddatlarda, kelishilgan shartlar asosida kelishuvda ko'rsatilgan bank orqali o'ziga tegishli to'lovlarni olib boradi; 2) jamg'arma banking aholiga ko'rsatiladigan xizmat turlaridan biri; bank bo'limining tegishli bir shaxsga ma'lum imqdordagi so'mlarga beradigan buyrug'i, maxsus blank vositasida amalga oshiriladi. Bulardan tashqari akkreditiv turli shaxslarga joylashtirilgan korxonalarining mulkiy munosabatlarida, xalqaro hisob-kitoblarida keng qo'llaniladi.

**Aktseptlash** – to'lovga rozilik berish.

**Banknot** - bank biletleri, markaziy emissiya banklari tomonidan chiqariladigan pul belgilari. Hozirgi kunda ular qog'oz pullarning asosiy turi hisoblanadi.

**Bank aktsiyadori** – bank aktsiyalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxs.

**Bank akkreditivi** - bankning mijozlar topshirig'iga ko'ra uning hisobidan topshiriqnomada ko'rsatilgan shartlarda va summa doirasida jismoniy va huquqiy shaxslarga to'lovlar o'tkazish majburiyati.

**Bank boshqaruvi** - bank faoliyatini tashkil etadi va unga tezkor rahbarlikni amalga oshiradi, markaziy bank litsenziyasi asosida bankning ustavdagi maqsadlari va vazifalari bajarilishini ta'minlaydi; bank mijozlariga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha foiz stavkalari va vositachilik haqqi miqdorlarini ishlab chiqadi va bank Kengashi bilan kelishib oladi.

**Bank depoziti** - xususiy shaxs, korporatsiya, davlat tashkiloti nomidan bankga saqlash uchun topshirilgan pul mablag'lari.

**Bank kapitali** - banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit hisob-kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitallar yig'indisi.

**Bank kliringi** - banklarning o'zaro talabnoma va majburiyatlarni hisobga olish asosida mollar, qimmatli qog'ozlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitob qilish tizimi.

**Bank krediti** - kreditning asosiy shakli bo'lib, unda pul mablag'larini vaqtincha foydalanish uchun banklar tomonidan beriladi.

**Bank operatsiyalari** - banklarning pul mablag'larni jalb etish va ularni joylashtirish, pullarni muomalaga kiritish va ularni muomaladan chiqarish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va boshqa operatsiyalari bilan shug'ullanadilar. Bank

operatsiyalariga passiv bank operatsiyalari, aktiv bank operatsiyalari va komissiya (vositachi) operatsiyalari kiradi.

**Bank resurslari** - banklarning ixtiyorida bo‘lgan va ular tomonidan kredit, investisiya va boshqa aktiv operatsiyalar uchun foydalaniladigan mablag‘larning yig‘indisi.

**Bank tizimining bosh maqsadi** – jahon talabiga mos keluvchi rivojlangan kredit tizimiga ega bo‘lish, xo‘jaliklar va aholining bo‘sh turgan mablag‘larini jalb qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talabini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat.

**Bankning foiz stavkasi** – kreditning “narxidir”. Kredit uchun haq to‘lash korxonalarini xo‘jalik hisobiga shu jumladan, resurslarni ko‘payishiga hamda jalb qilingan mablag‘larda foydalanishga ta’sir etadi. Bank muassasalari kredit foizi hisobidan xarajatlarni qoplaydi.

**Bimetalizm** - bu pul tizimida mustaqil unsur bo‘lib, bunda ikki metalga: oltin va kumushga qonuniy tartibda umumiy ekvivalent roli biriktirib qo‘yiladi. Bu metallardan erkin ravishda tangalar zarb qilinadi va ular muomalada erkin harakatda bo‘ladi.

**Valyuta** - ital.so‘zdan olingan bo‘lib, «qadrlanmoq, qiymat» degan ma’noni anglatadi. Baho, qiymat belgisi bo‘lib, mamlakatlarning milliy pul birligi hisoblanadi.

**Valyuta kursi** - bir pul birligi bahosining boshqa pul birligida ifodalanishi, bir mamlakat valyutasini ikkinchi mamlakat valyutasiga real almashish proporsiyasi.

**Valyuta bozori** - moliya bozorining bir ko‘rinishidir. Bunday bozorda turli mamlakatlar valyutasi oldi-sotdi qilinadi. Bozorda korxonalar, firma, davlat idoradari va fuqarolar qatnashadi. O‘zbekistonda valyuta oldi-sotdi qilish operatsiyalari bilan Respublika Markaziy banki, Respublika Tashqi Iqtisodiy faoliyat Milliy banki va shunday faoliyat uchun ruxsat berilgan boshqa banklar shug‘ullanadi.

**Depozit** - bank jamg‘armasi. Banklarda saqlash uchun topshirilgan pul mablag‘lari yoki qimmatli qog‘ozlar.

**Depozit operatsiyalari** - bu banklarning kredit institutlarning pul mablag‘larini omonatga jalb qilish va joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar.

**Depozit multiplikatori** - bankga quyilgan mablag‘larning har bir pul birligidan umumiy daromad hajmining o‘zgarishi.

**Denominatsiya** - valyutani barqarorlashtirish va hisob-kitoblarni osonlashtirish maqsadida pul belgilarining ko‘rsatilgan qiymatini yiriklashtirish. Bunda eski pul belgilari yangilarga almashtirib boriladi, shunga muvofiq narx-navo va ish haqi qayta hisoblanadi.

**Defilyatsiya** - **1.** ortiqcha qog‘oz pulni muomaladan chiqarib olish yo‘li bilan pul ko‘lamini kamaytirish. **2.** pul-kredit bozoridagi narx-navoning asta-sekin passayishi yoki ko‘tarilishi.

**Devalvatsiya** - mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyuta kursiga nisbatan kamayishi.

**Devizlar** - Chet el valyutasida ifodalangan xalqaro hisob-kitoblarda qo'llaniladigan kredit hamda to'lov hujjatlari (veksel, chek, o'tkazmalar va h.k.).

**Diversifikatsiya** - har tomonlama tasniflash.

**Jirobank** - mijozlar o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni oshiruvchi bank.

**Inkasso topshiriqnomasi** - korxonalar va tashkilotlarning o'z hisobiga mablag' o'tkazishi lozim bo'lgan paytlarda tuziladigan hisob-kitob hujjati. Inkasso topshiriqnomasi bankka qo'yilayotganda o'sha hujjatdagi summani tasdiqlovchi kerakli hujjatlarning asli yoki nusxasi bo'lishi shart.

**Intervensiya** - Markaziy bank va davlat xazinasining kredit, qimmatli qog'ozlar, milliy hamda xorijiy valyutalarga bo'lgan talab va taklifni tartibga solish yo'li bilan moliya-kredit hamda valyuta sohasiga aralashuvi.

**Ipoteka krediti** - ko'chmas mulkni garovga olib, uzoq muddatga beriladigan kredit.

**Iste'mol krediti** - aholining iste'mol talablarini qondirishga beriladigan kredit. Bu kredit uy ro'zg'or buyumlarini: radio-elektron va boshqa maishiy asbob uskunalar, mebellar, interer buyumlari, turar joyni ta'mirlash bilan bog'liq tovarlarni xarid qilish uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan kredit.

**Ishonchsiz kreditlar** - ishonchsiz deb turkumlangan aktivlar qaytishi mumkin bo'lmagan aktivlar deb qaraladi. Bunday aktivlar juda past qiymatga ega va ularni bank aktivlari sifatida hisobga yuritish maqsadiga muvofiq emas deb hisoblanadi. Bunday turkumlash bu aktivlarning hech qanday likvidatsion bahosi yo'q degani emas, lekin banklarga bunday aktivlarni o'z balansida yuritish tavsiya etilmaydi va bu aktivlar likvidatsiya qilinishi kerak.

**Kepakliy** - chig'atoy xonlaridan Kepakxon (1318-1326) zamonida chiqarilgan oltin kumush tanga.

**Kreditga qobillilik** - bu xo'jalik sub'ektlari tomonidan kreditlarni o'z vaqtida va to'laligicha qaytara olish qobiliyati hamda moliyaviy ahvoliga beriladigan baho.

**Kredit qiymati** - qarz oluvchi qarz beruvchiga kreditdan foydalanganligi uchun beriladigan foiz ( %) summasi.

**Kredit siyosati** - bu banklarning kredit faoliyati bo'lib, ssuda kapitalini joylashtirish bilan amalga oshiriladi. Kredit siyosatining elementlariga quyidagilar kiradi: kredit siyosatining maqsad va vazifalari, kredit yo'nalishini tashlash, kredit operatsiyalarining amalga oshirish texnologiyasi, kreditlash tartibining nazorati.

**Kredit sub'ektlari** - har xil bo'lishi mumkin. Bularga korxonalar, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

**Kredit summasi** - bu qarzga beriladigan pul birligining hajmi.

**Kredit liniyasini ochib kredit olish** - bu tariqa korxonaga ssuda hisobvarag'i ochiladi hamda limit qo'yiladi. Agarda mijozning hisobvarag'ida mablag' bo'lmasa bank avtomatik tarzda kelib tushgan pul hisob kitob hujjatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

**Kredit liniyasini ochmasdan kreditlash** - bunday operatsiya bir marta kredit berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Kredit** - lotincha «kredit» - «qarz» so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, tovar va xizmatlarini kelishilgan foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha

foydalanishi uchun pul yoki material mablag'leri berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi. (qarz, nasiya).

**Kredit pullari** - kredit aloqalarida ishlatiladigan pullardir (banknotlar, veksellar, cheklar, kredit kartochkalari). Kredit pullar oltin o'rniga paydo bo'lgan, qarz beruvchi va qarzdor o'rtasidagi hamda bank vositasida amalga oshiriladigan harakatlarda qo'llaniladigan pullar.

**Kredit kartochkalari** - bu bank yoki maxsus kredit (savdo) muassasasi tomonidan biror kishi nomiga berilgan pul hujjati, unda pul egasining joriy hisobidagi mablag'lar summasi ko'rsatilgan bo'ladi.

**Kredit ob'ekti** - bu har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, berilishi mumkin bo'lgan pullar va tovarlardir.

**Kreditga layoqatlilik** - deganda mijozning o'z qarz majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida hisoblash qobiliyati tushiniladi.

**Kreditning ta'minlanganligi** - bunda ssudaning ta'minlanganligi kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zahiralari, ko'chmas mulki yoki ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida kreditni o'z muddatiga qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Kredit miqdori garovga qo'yilgan mulk qiymatining 50 foiz(%)dan 80 foiz (%)gacha miqdorida beriladi.

**Lizing** - mashina, asbob-uskunalar, transport vositalarini, ishlab chiqarish binolarini, inshootlarini uzoq muddatli ijaraga berish. U ijaraning bir turi bo'lib muayyan davrdan keyin, ijara to'lovlarining hammasi amalga oshirilgandan keyin ijaraga olingan narsa ijarachi mulkiga aylanadi.

**Majburiy zahiralari siyosati** – Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining depozit bazasiga foiz darajasida o'rnatiladigan majburiy zahiralari yaratish talabi. Majburiy zahiralari siyosati birinchi navbatda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini susaytirib, muomaladagi pul massasini tartibga solishga xizmat qiladi.

**Markaziy bankning ochiq bozordagi siyosati** - bu Markaziy bank tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish yoki sotishdan iborat bo'lgan pul-kredit siyosati usuli. Tijorat banklarining zahiralari oshiri yoki kamaytirish, bozor foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatish, davlat qimmatli qog'ozlarining kursini tartibga solish uchun qo'llaniladi.

**Monetar siyosat** - bu davlat siyosati bo'lib, davlat iqtisodiyotini amaldagi pul massasini tartibga solish yo'li bilan rivojlantirish va barqarorlashtirishdir.

**Naqd pulsiz hisob-kitoblar** - bu korxonalar va tashkilotlar tomonidan tovar ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish va notovar operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini faqat hujjatlar orqali bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa o'tkazish orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar tushuniladi.

**Naqd pul muomalasi** –mamlakat pul tizimida amaldagi qonunchilik bo'yicha naqd pullarni muomalaga chiqarilishi, aylanishi (harakati) va muomaladan chiqarilishi.

**Passiv pul oboroti** - bu ma'lum bir davr ichida, vaqtincha muomalada ishtirok etayotgan pul massasi. Bularga xo'jalik sub'ektlari va boshqa turli korxonalar,

muassasalardagi vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'lari, shuningdek, aholining jamg'armalari kiradi.

**Plastik kartochnka** - bank tomonidan muomalaga chiqarilgan, tegishli bankda kartochnka egasining hisobvarag'i mavjudligini tasdiqlovchi va chakana savdo tarmog'ida naqd pulsiz shaklda tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlarni sotib olish huquqini beruvchi maxsus to'lov vositasini o'zida ifoda etuvchi kartadir.

**Pul** - bu shunday maxsus tovar, u hamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Hamma tovarlar singari pul ham qiymat ham iste'mol qiymatiga ega. SHu ma'noda, u boshqa oddiy tovarlardan farq qilmaydi.

**Pul agregati** - bu jamg'arila borilayotgan va xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul vositalari. Bunga naqd pullar, ma'lum muddatga yoki muddatsiz bankka qo'yilgan pullar, sertifikatlar va boshqalar.

**Pul birligi** - mamlakatdagi to'lov vositasi birligi bo'lib, asosan tovarlar qiymatini o'lchash rovida va muomala vositasi sifatida xizmat qiladi.

**Pulning qiymati** - pul birligining xarid qilish qurbi-qobiliyati, ya'ni unga qancha tovar va xizmatlar xarid qilish mumkinligi tushuniladi.

**Pul tizimi** - ma'lum bir mamlakatda pul muomalasini qonuniy va mutanosib ravishda tashkil qilishda qo'llaniladigan uslublar majmuasi tushuniladi.

**Pul muomalasi qonuni** - muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini belgilaydigan, tovar-pul munosabatlarini o'zida aks ettiradigan qonundir.

**Reval'vatsiya** - lotincha so'zidan olingan bo'lib, «ahamiyatga egaman», «arziyman» degan ma'noni anglatadi. Mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyuta kursiga nisbatan o'sishi. Reval'vatsiya mamlakat iqtisodini izga solish vositalaridan biri bo'lib, mamlakat pul tizimini muvofiqlashtiradi, pulning xarid qobiliyatini mustahkamlaydi.

**Sub'standart kreditlar** - bu asosiy qarz summasi va foizlar ishlab chiqarilgan dasturlarning noto'g'ri yo'naltirilganligi sababli qaytmaslik xatari mavjud bo'lgan, o'z mohiyatiga ko'ra moliyaviy, boshqaruv, iqtisodiy yoki kuchsiz garov ta'minoti bo'lishi mumkin bo'lgan kreditlardir. Zarar kutilmaydi, ish to'g'ri yo'naltirilishi imkoniyati mavjud.

**Ssuda foizi** - bu qarz beruvchi ma'lum bir vaqtga qarz berganligi uchun qarz oluvchidan olinadigan foizlar.

**Tijorat banki** - bu bo'sh pul mablag'larini jalb qiluvchi, saqlovchi, kredit, hisob-kitob va boshqa turli xil vositachilik operatsiyalarini amalga oshiruvchi muassasa. Bu bank asosan o'z mablag'laridan va jalb qilingan mablag'lar bilan turli xil hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshiradi.

**Tijorat banklarining o'z mablag'lari** - bular maxsus fondlar, rezerv kapitali, moddiy rag'batlantirish fondi, ustav fondi, taqsimlanmagan foyda va boshqa har xil tashkil qilingan fondlar.

**Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari** - bularga depozit operatsiyasidan tushgan mablag'lar, boshqa banklardan olingan kreditlar, kontokorrent va korrespondent hisobvaraqlardagi mablag'lar kiradi.

**Tijorat banklarining emitentlashgan mablag'lari** - bularga qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan olingan mablag'lar kiradi.

**Tijorat bankining balansi** - bu buxgalteriya balansi bo'lib, bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larining holatini hamda ularni bankning kredit va jalb qilingan mablag'larning oshganini, shuningdek, ularni bankning kredit va boshqa aktiv operatsiyalariga joylanishini ifodalaydigan hisobotidir.

**Faktoring** - banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlarning korxonalar qarzlari (etkazib berilgan va bajarilgan xizmatlarga haq to'lash bo'yicha majburiyatlarini) o'z zimmasiga olishidan iborat bo'lgan moliyaviy-tijorat xizmat turi.

**Xalqaro kredit** – bu xalqaro umumiy-tisodiy sohada, bir mamlakat tomonidan boshqa mamlakatga vaqtinchalik foydalanishga beriladigan qarz.

**Chet el kapitali ishtirokidagi bank** – chet ellik investorlarning ishtiroki bank ustav kapitali umumiy summasining kamida 30% ini tashkil etadigan bank. Bunday bankning ustav kapitalini shakllantirishda rezidentlar va norezidentlar, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, norezident banklar ishtirok etishi mumkin.

**Shubhali kredit** – substandart kreditiga xos bo'lgan belgilarga ega. Qo'shimcha xususiyati – qarzning yomon ta'minlanganligidir. Zarar ko'rishi ehtimoli juda ham katta hisoblanadi. Lekin kelgusida izga solinishi mumkin bo'lgan ba'zi bir omillarning mavjudligi qarzlarni qaytarilishiga ishonchni bir qadar qo'llab turadi. 180 kundan ortiq muddatda harakatsiz bo'lgan aktivlar va to'lanmagan foizlar shubhali qarzga kiritiladi. Ularning 50 foizi undirilmay qoladi deb hisoblanadi.

**Elektron pul** - bu hisob-kitoblarni elektron hisoblash mashinalari yordamida bajarish uchun qo'llaniladigan kredit pullarning eng so'nggi turidir.

**Elektron to'lovlar tizimi** – bu qog'ozsiz texnologiyaga asoslangan elektron to'lovlar, elektron pochta vositalari bilan ma'lumotlarni o'tkazishga asoslangan umumdavlat to'lov tizimidir.

**Emissiya (Tijorat Banklari uchun)** - bu tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish.

**Emissiya (Markaziy Bank uchun)** - qog'oz va tanga pullarning, davlat qimmatli qog'ozlarini Markaziy bank yoki moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi.

**Emissiya tizimi** - bu muomalaga bank biletleri, xazina biletleri, qog'oz va tanga pullar, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarishdir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **I.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.**

I.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019y.

I.2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi Qonuni.- T.: O'zbekiston, 2019y. 11 noyabr O'RQ-582-sonli yangi tahriri

I.3.O'zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni.- T.: O'zbekiston, 2019y. 5 noyabr O'RQ-580-sonli yangi tahriri

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari. Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar**

II.1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Harakatlar strategiyasi” tog'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni

II.2. “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabridagi PO-4022-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.22.11.2018y.,07/18/4022/2199-son.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari**

III.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 29.12.2020yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 30.12.2020yil

III.2. III.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 07.01.2021yil

III.3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.

III.4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.-104 b.

III.5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.

III.6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2017 .-4 8 b.

### **IY.Darslik va o'quv qo'llanmalar**

IY.1. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. –T.: “Iqtisod – moliya”,2007, – 348b.

IY.2. Abdullayeva Sh.Z., Abdullaev Yo.A., Qoraliev T.M. Bank ishi. Darslik. –T.: “Iqtisod va moliya”, 2010.

IY.3. Аристотель. Сочинения: 4 т. –М.: 1983. -Т.: -325 с.

Y.4. Банки и банковские операции: /Учебник для вузов Е.Ф.Жуков, Л.М.Максимова, О.М.Макарова и др.; Под ред. проф. Е.Ф.Жукова. –М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1997. – 471 с.

Y.5. Белоглазова Г.Н. Деньги, кредит, банки. –М.: «Юрайт», 2005. -522 с.

Y.6. Деньги мира. Ред.группа: О.Елисеева, Т.Евсеева и др. –М.: Мир энциклопедий Аванта+, Астрель, 2009.–184 с.: ил.–(Самые красивые и знаменитые).

Y.7. Деньги, кредит, банки: Учеб. – 2 – е изд., перераб. и доп./под ред.

В.В.Иванова, Б.И.Соколова. –М.: ТК Велби, изд – во Проспект, 2008. – 848 с.

Y.8.13. Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под. ред. проф. Щегорцова В.А. –М.:ЮНИТИ – ДАНА, 2005. – 383 с.

Y.9. Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И.Лавшурина. –5 –е изд., стер. –М.:КНОРУС, 2007. –560 с.

Y.10. Жуков Е.Ф. Деньги, кредит, банки. –М.: «Ютити», 2003.

Y.11. Кадиров А.К., Каралиев Т.М., Омонов А.А. Хозяйственный расчет в системе коммерческих банков –Т.: ТГЭУ, 1991. -64.

Y.12.17. Краткий экономической словарь. /под ред. А.Н. Азрилияна. –2 – е изд. Доп. и перераб. –М.: Институт новой экономики, 2002.

Y.13.Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В. 2 т.: Пер. с англ. 11 – го изд. Т. I. –М.: Республика, 1992. –399 с.

Y.14. Харрис Л.Денежная теория. –М.: 1990. –С.75; Долан Э., Линдсей Д. Макроэкономика. – СПб.: 1994, – 854 с.

Y.15. Mullajonov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. – Т.:«O‘zbekiston», 2001

Y.16. Omonov A.A. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. Monografiya. – Т.: Ikkinchi nashri. MOLIYA-IQTISOD, 2010. - 246 b.

Y.17. Omonov A. Banklar va banklarda hisob. O‘quv qo‘llanma.–Т.:Birinchi nashri. «Akademiya» nashriyoti, 2006. -122 b

Y.18 . Omonov A. Abdullayeva Sh. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. Monografiya. –Т.: «Moliya-iqtisod», 2006. -112 b

Y.19. Omonov A.A., Marpatov M.D. Pul va pul muomalasi. O‘quv qo‘llanma. –Т.: 2008, «Akademiya» nashriyoti. -158 b.

Y.20. Omonov A.A., . Qoraliev T.M. Pul, kredit va banklar. Darslik. –Т.: TDIU, 2012. – 380 b.

Y.21. . Омонов А.А., . Қоралиев Т.М. Деньги и банки.Учебник. –Т.: ТДИУ, 2018. – 296 с.

Y.22. Пезенти А. Очерки политической экономики капитализма: в 2 т.:пер. с итал. Т.1. – 785 с.

Y.23. . Rashidov O.Yu. va bosh. Pul, kredit va banklar. Darslik. –Т.:TDIU, 2008. – 432 b

Y.24. Самуэльсон П. Экономика вводной курс. –М.: 1964. –698 с.

Y.25. Смит А. Исследования природе и причинах богатства народов. Том 1. –584 с.

IY.26. Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassaciya va qimmatliklarni tashishga doir yo‘riqnoma. –T.: «O‘zbekiston», 2014.

IY.27. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida buhgaltyeriya hisobini yuritishga oid hujjatlari to‘plami. –T.: «O‘zbekiston», 2018.

IY.28. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami. –T.:«O‘zbekiston», 2018.

IY.29. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. –М.: 1993. –774 с.

IY.31. Эдвин Дж. Долан, Колин Д. Кэмпбелл, Розмари Дж. Кэмпбелл. Деньги, банковское дело и денежно – кредитная политика. Пер. с англ.к.э.н. А.А.Лукашевич, А.П.Маноцкова, к.ф.н. Е.Б.Ярцева, к.ф – м.н. М.Б.Ярцев. –М. – СПб., 1991. – 448 с.

IY.32. Qoraliev T.M. Sayfiddinov I.F. Tijorat banklari faoliyati tahlili. Darslik. –T.: “Moliya va iqtisod”, 2010. -384 b.

IY.33. Qoraliev T.M. Norqobilov S.H. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod va moliya”, 2008.

IY.34. International Financial Statistics. IMF, August 2011. – 1422 p.

### **Y.Internet saytlari:**

Y.1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz);

Y.2. [www.norma.uz](http://www.norma.uz);

Y.3. [www.tfi.uz](http://www.tfi.uz);

Y.4. [www.bir.uz](http://www.bir.uz);

Y.5. [www.bma.uz](http://www.bma.uz);

Y.6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz);

Y.7. [www.finance.uz](http://www.finance.uz);

Y.8. [www.state.us](http://www.state.us);

## Mundarija

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>1 bob. Pulning paydo bo'lishi, zarurligi va funktsiyalari.....</b>	<b>5</b>
1. "Pul va banklar" fanining predmeti va vazifalari.....	5
2. Pulning mohiyati va zarurligi.....	6
3. Pulning funktsiyalari.....	12
<b>II bob. Pul aylanishi va uning tarkibi.....</b>	<b>17</b>
1. Pul aylanishi, uning mohiyati va tarkibiy qismlari.....	17
2. Naqd pul aylanishi va uning xususiyatlari.....	20
3. Naqd pulsiz xisob – kitoblarning asosiy shakllari, xususiyatlari.....	24
<b>III bob. Pul muomalasini tashkil qilish va pul massasi.....</b>	<b>32</b>
1. Pul muomalasi qonuni va uning mohiyati.....	32
2. Pul massasi va pul agregatlari.....	33
3. Pul muomalasi barqarorligini ta'minlash usullari .....	38
<b>IV. bob. Pul tizimi va uning elementlari.....</b>	<b>42</b>
1. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari.....	42
2. Pul tizimining turlari.....	44
3. Pul turlariga umumiy tavsifnoma .....	46
4. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning rivojlanish tarixi.....	54
<b>Y bob. Pul nazariyalari.....</b>	<b>57</b>
1. Pul nazariyasi va uning asosiy yo'nalishlari.....	57
2. Monetarizm nazariyasi.....	59
3. Pul nazariyasining yangicha talqin qilinishi.....	61
<b>VI bob. Inflyatsiya va uning turlari. Pulning barqarorligini ta'minlash yo'llari.....</b>	<b>64</b>
1. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari.....	64
2. Inflyatsiyaning turlari va toifalari.....	65
3. Bazaviy inflyatsiya va uning mazmun mohiyati.....	70
4. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi siyosat.....	71
<b>VII bob. Kreditning zaruriyligi, mohiyati, va funktsiyalari.....</b>	<b>73</b>
1. Kreditning zaruriyati, mohiyati va funktsiyalari.....	73
2. Kredit munosabatlarining rivojlanish bosqichlari.....	77
3. Kreditning asosiy tamoyillari.....	79
<b>VIII. bob. Kredit mexanizmi.....</b>	<b>82</b>
1. Kredit mexanizmi va uning elementlari.....	82
2. Kredit foizi va unga ta'sir qiluvchi omillar.....	85
3. Foiz stavkalarini hisoblash usullari.....	88
<b>IX. bob. Kredit shakllari va turlari.....</b>	<b>91</b>
1. Kreditning asosiy shakllari.....	91
2. Kreditning turlari. Bank krediti.....	93
3. Davlat krediti, istemol krediti va tijorat krediti.....	95
4. Lizing kredit.....	96

<b>X.bob.Xalqaro kredit va uning iqtisodiy ahamiyati.....</b>	<b>98</b>
1. Xalqaro kredit va uning mazmun mohiyati.....	98
2. Xalqaro kreditning asosiy tamoyil va funksiyalari.....	99
3. Xalqaro kredit munosabatlarida kredit siyosati.....	101
<b>XI. bob. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi.....</b>	<b>103</b>
1. Banklar va ularning kelib chiqish asoslari.....	103
2. Bank tizimi .....	107
3. Banklarning funksiyalari.....	114
4. Banklarning turlari.....	117
<b>XII.bob. Markaziy bank va pul kredit siyosati.....</b>	<b>120</b>
1. Markaziy bank faoliyatining asoslari.....	120
2. O‘R Markaziy banki, maqsadi va vazifalari.....	124
3. Pul kredit siyosatining majburiy zaxiralash siyosati.....	126
4. Markaziy bankning asosiy stavkasi(qayta moliyalash siyosati).....	130
5. Markaziy bankning ochiq bozor siyosati.....	132
6. Inflyatsion targetlash.....	134
<b>XIII bob. Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi ahamiyati va vazifalari... </b>	<b>138</b>
1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	138
2. Tijorat banklari faoliyatining asosiy tamoyillari va funksiyalari.....	141
3. Banklarning iqtisodiyotdagi roli.....	142
4. Tijorat banklarining asosiy operatsiyalari.....	144
<b>XIY bob. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari.....</b>	<b>148</b>
1. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari.....	148
2. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari.....	149
3. Tijorat banklarining depozit, nodepozit va boshqa operatsiyalari.....	153
<b>XY bob.Bank depozitlarini kengaytirishning multiplikatsiya mexanizmi..</b>	<b>158</b>
1. Tijorat banklari balancining qisqacha tasnifi.....	158
2. Tijorat banklarining faoliyat mexanizmi.....	160
<b>XYI bob. Tijorat banklarining likvidliligi_</b>	<b>163</b>
1. Bank likvidliligi va uni ta’minlash yo‘llari.....	163
2. Tijorat banklari faoliyatida amal qiluvchi iqtisodiy me’yorlar.....	164
3. Bank tizimi barqarorligi va banklarning to‘lov qobilyatini ta’minlash yo‘llari.....	168
<b>XYII. bob. Xalqaro moliya institutlari va ularning turlari.....</b>	<b>170</b>
1. Xalqaro moliya institutlari haqida tushuncha .....	170
2. Xalqaro valyuta fondi_.....	171
3. Jaxon banki va uning tarkibi_.....	172
4. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki .....	174
Test .....	191
Glossariy.....	205
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	211

**A.T.Mardonova**

# **PUL VA BANKLAR**

Muharrir  
Musahhah  
Texnik muharrir

O. Sharapova  
N. Isroilov  
B. Egamberdiyev

**ISBN 978-9943-6645-0-0**

2021-yil 16 dekabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.  
2021-yil 21 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.  
Qog'oz bichimi 60x84.1/16. "Times New Roman" garniturasini.  
Offset qog'ozini. Shartli bosma tabog'i – 13,5.  
Adadi 50 nusxa. Buyurtma №

---

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.  
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

